


TIBBIYOT O'QUV ADABIYOTI



TIBBIYOT TARIXI



Asadulla
Qodirov

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

A.A.QODIROV

TIBBIYOT TARIXI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi tomonidan tibbiyot oliy o‘quv yurtlari uchun
darslik sifatida tavsiya etilgan*

«O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi»

Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent-2005

Muallif: Asadulla Abdulla o'g'li Qodirov

K53 Qodirov, Asadulla Abdulla o'g'li.
Tibbiyot tarixi: Tibbiyot Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/ A.A.Qodirov. —T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2005. — 176 b.

BBK 5 gya 73

Mazkur darslikda tibbiyotning kelib chiqishi va rivojlanish yo'llari arxeologik manbalar hamda tibbiy-tarixiy adabiyotlar asosida mufassal bayon etilgan. Kitob bo'lajak vrachlar uchun tibbiyot tarixi fanini o'rganishda asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi. Ularning bilim darajasi va saviyalarini yuksaltiradi, chuqur va keng bilimli mutaxassislar bo'lib yetishishlarida asosiy manba hisoblanadi. Darslik tibbiy o'quv yurtlarining amaldagi dasturlariga muvofiq yozilgan.

M $\frac{4306020600}{358-2005}$ 2005

ISBN 5-89890-099-3

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

I bob

TIBBIYOT TARIXI FANI, UNING SHAKLLANISHI VA BOSHQA TIBBIY BILIMLAR QATORIDA TUTGAN O'RNI

Tibbiyot tarixi fani boshqa tibbiy bilimlar qatorida alohida o'rin tutadi. U tibbiyotni kengroq va chuqurroq o'rganadi. Tibbiyotning taraqqiyot qonunlarini ochadi.

Bo'lajak hakim (vrach)lar uchun tibbiyot tarixi fanini bilish muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning mohiyatini to'g'ri tushunish va uning rivojlanish qonunlarini o'rganishda talabalarga dastur bo'lib xizmat qiladi. Ularning bilim darajasi va saviyasini yuksaltiradi. Talabalar tibbiyot tarixini o'rganib, insoniyat jamiyati taraqqiyotining turli davrlarida yashagan tib olimlarining tibbiyot haqidagi fikr va mulohazalari bilan tanishadilar. Bu fikr va mulohazalar har bir davrda o'ziga xos tushuncha va g'oyaga ega bo'lgan. Umuman tibbiyot tarixi fani talabalarining kasbiy-estetik va ma'rifiy-ma'naviy jihatdan chuqur bilimli mutaxassislar bo'lib yetishishlarida katta rol o'ynaydi.

TIBBIYOT TARIXI FANI

Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'liq ravishda o'rganadi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot tibbiyotning rivojlanish darajasini belgilaydi. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yashagan odamlarning hayoti asta-sekin rivojlangan edi. Shunga muvofiq o'sha davrdagi tibbiyot ham juda past darajada rivojlangan. Odamlar yashash uchun hech narsa ishlab chiqarmay, tabiatdagi mavjud yemishlarni iste'mol qilib kun kechirganlar. Shuningdek, ular tibbiyot sohasida ham hech narsa kashf etmay, tabiatdagi mavjud shifobaxsh o'simliklardan foydalanganlar.

Keyingi davrlarda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning taraqqiyoti bilan birgalikda tibbiyot ham rivojlanib bordi. Tibbiyotning rivojlanishida boshqa fanlar, xususan, tabiiy-biologik bilimlar ham muhim rol o'ynadi. Masalan, botanika fani yangi-yangi shifobaxsh o'simliklarni kashf etib,

farmakologiya fanini boyitdi. Biologiya, mikrobiologiya, parazitologiya fanlari kasalliklar sabablarini aniqlash imkoniyatini berdi.

Tibbiyotning rivojlanishida texnikaviy fanlar ham muhim rol o'ynadilar. Masalan, mikroskopning kashf etilishi yangi dunyoni — mikroorganizmlar dunyosini ochdi. Rentgen nurlarining kashf etilishi tashxis usulini takomillashtirdi. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, tibbiyotning rivojlanishi haqiqatan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning deyarli barcha sohalari bilan bog'liq va ular bilan birga rivojlanadi.

Tibbiyot tarixi fani umumiy va xususiy qismlarga bo'linadi. Umumiy tibbiyot tarixi tibbiyotni bir butun, to'raligicha o'rganadi, uning taraqqiyot qonunlarini ochadi, insoniyat jamiyati taraqqiyotining har bir bosqichida tibbiyotning rivojlanish darajasini belgilaydi.

Xususiy tibbiyot tarixi tibbiyotning ayrim sohalarining kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganadi.

Umumiy tibbiyot tarixi bilan xususiy tibbiyot tarixi o'rtasida ma'lum farq mavjud. Shu bilan birga ular bir-birlari bilan bog'liqdirlar. Umumiy va xususiy tibbiyot tarixi birlashib tibbiy-tarixiy bilimni tashkil etadi. Umumiy tibbiyot tarixi mustaqil fan sifatida o'qitiladi. Xususiy tibbiyot tarixi esa har bir tibbiy fanning kirish qismida bayon etiladi. Masalan, talabalarga anatomiya fanidan dars berishda dastlab bu fanning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi bayon etiladi va h.k.

TIBBIYOT TARIXINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI

Tibbiyot tarixi XIX asrda alohida fan sifatida shakllandi. Lekin, tibbiyot tarixiga oid dastlabki asarlar ancha ilgari yozila boshlagan. Masalan, "Gippokrat to'plami", deb atalgan mashhur kitobga kiritilgan "Qadimgi tibbiyot haqida" nomli maqola tibbiyot tarixiga oid birinchi asar deb taxmin qilinadi. Bu asarni Gippokratning o'zi yozgan. Asarda Gippokrat tibbiyot masalalarida, o'tmishdagi har xil fikrlarga sharh beradi.

Sharq mamlakatlarida tibbiyot tarixiga oid birinchi asarlar O'rta asrlarda paydo bo'ldi. Bu sohada bir qancha olimlar ijod qildilar. Tibbiyot tarixi sohasida barakali ijod qilgan olimlardan Abul Hasan al-Bayhaqiy, Ibn al-Qiftiy, Ibn Abu Usaybia, Abu Bakr ibn al-Halliqon kabi mualliflarni ko'rsatish mumkin. Bu mualliflarning asarlarida qadimgi zamonlarda yashagan mashhur hakimlarning hayoti va ijodiy faoliyati haqida qiziqarli ma'lumotlar bayon etilgan. Masalan, biz bu asarlarda Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Sharafutdin ibn Abdulloh Iloqiy, Najibuddin Samarqandiy, Ismoil Jurjoniy kabi mashhur hakimlar haqida ancha to'liq ma'lumotlar topamiz.

Tibbiyot tarixiga oid maxsus yozilgan asarlar XVIII-XIX asrlarda paydo bo'la boshladi. Bu vaqtga kelib ayrim olimlar tibbiyot tarixi sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Bu sohada Germaniyada K.Springel, V.R.Vunderlix, G.Pushman, Yu.Pagel, A.Girsh, Fransiyada E.Littre, Sh.Darambir, Rossiyada F.G.Politkovskiy, Ya.M.Govarov, S.G.Kovner, R.Rixter shug'ullandilar. R.Rixter "Rossiya tibbiyoti tarixi" nomli uch jildlik kitob yozdi. Shunday qilib, tibbiyot tarixi asta-sekin maxsus fan sifatida shakllana bordi. 1835-yildan boshlab, dorilfununlarning tibbiyot fakultetlarida tibbiyot tarixi fani o'qitila boshladi. Shu munosabat bilan tibbiyot tarixidan darsliklar va qo'llanmalar chiqarildi. N.D.Lebedev, S.G.Kovner va L.Z.Moroxovets bu sohada dastlabki darsliklarni yaratdilar. Tibbiyot tarixining bilimdonlari – mutaxassislari yetishib chiqdilar.

XIX asrning oxirida mustaqil tibbiyot tarixi kafedralari ta'sis etildi. Masalan, 1894-yilda Moskva dorilfununining tibbiyot fakultetida tibbiyot tarixi kafedrasini ochildi. So'ng boshqa dorilfununlarda ham shunday kafedralar tashkil etildi. Shunday qilib, tibbiyot tarixi mustaqil fan sifatida shakllandi.

O'zbekistonda tibbiyot tarixi fani XX asrning 30- yillarida shakllana boshladi. 1930-yilda Samarqandda Tibbiyot oliygohi tashkil etildi. Shu yildan boshlab talabalarga tibbiyot tarixidan dars bera boshlandi. Lekin u vaqtda tibbiyot tarixi alohida fan sifatida shakllanmagan edi. Tibbiyot tarixidan leksiyalar qisqacha o'qilar edi.

O'zbekistonda birinchi mustaqil tibbiyot tarixi kafedrasini 1948-yili Toshkent Tibbiyot institutida tashkil etildi. So'ng shunday kafedralar O'rta Osiyoning boshqa respublikalarida ham ochildi. Shundan keyin bu o'lkalarda tibbiyot tarixidan dars beruvchi mutaxassislar yetishib chiqdi. Hakimlar va ilmiy xodimlar bu fanga qiziq boshladilar. Tibbiyot tarixiga oid dastlabki maqolalar paydo bo'ldi. Unga qiziquvchilar anchagina edi. Ular 1957- yilda tibbiyot tarixchilari jamiyatini tashkil etdilar. Shunday qilib O'zbekistonda va butun O'rta Osiyoda tibbiyot tarixi fani shakl topdi.

TIBBIYOT TARIXI FANINING BOSHQA TIBBIY BILIMLAR QATORIDA TUTGAN O'RNI

Tibbiyot tarixi fani boshqa tibbiy bilimlardan o'z oldiga qo'ygan maqsadi, vazifasi va metodologiyasi jihatidan farq qiladi. Boshqa tibbiy bilimlardan farqli o'laroq tibbiyotning umumiy rivojlanish yo'llari va qonun-qoidalarini o'rganadi. Tibbiyot tarixi fanining asosiy vazifasi yer yuzida tibbiyotning qachon va qanday kelib chiqqani, qanday yo'llarni bosib o'tgani hamda qanday natijalarga erishganini o'rganishdir. Boshqa tibbiy bilimlar ham qisman tibbiyot tarixi bilan shug'ullanadilar, lekin bu ishni o'z kasblari doirasida olib boradilar.

Tibbiyot tarixi fani ijtimoiy fanlarga yaqin turadi. U tibbiyotni ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq holda o'rganadi. Tibbiyotning ayrim sohalari (masalan: Jarrohiya va h.k.) ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin. Lekin, tibbiyot ayrim mamlakatlar va davrlar bo'yicha to'laligicha olinsa, uning ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi yaqqol ko'rinadi.

Tibbiyot tarixi fanining asosiy vazifasi tibbiyotning qanday sharoitda, qanday kelib chiqqani va rivojlanganini manbalarga asoslanib tushuntirib berishdir. Unda tibbiyotning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi turli tushunchalar, fikrlar va nazariyalar tahlil qilinadi. Shu bilan birga tibbiyot ilmi sohasida qilingan yirik kashfiyotlar o'rganilib ularga baho beriladi. Xususi tibbiyot tarixi tibbiyotning ayrim sohaslarining rivojlanish tarixini o'rganish bilan shug'ullansa ham u umumiy tibbiyot tarixiga hissa qo'shadi. Xususi tibbiyot tarixi umumiy tibbiyot tarixini boyitadi. Aslini olganda umumiy tibbiyot tarixi ta'lim darajasida xususi tibbiyot tarixining yig'indisidir. Lekin, u oddiy yig'indi emas, balki yangi sifatdir. Umumiy tibbiyot tarixining o'z rivojlanish qonun-qoidalari bor. Xususi tibbiyot tarixida bunday qonun va qoidalar mavjud emas. Tibbiyot tarixi fani, uning umumiy va xususi qismlari hamda ayrim tibbiy bilimlarning har birining o'ziga xosligi bor. Shu bilan birga ular bir-birlari bilan bog'liqdirlar. Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning mohiyatini va uning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishda dastur bo'lib xizmat qiladi.

II bob

INSONIYAT JAMIYATIDA TIBBIYOTNING KELIB CHIQISHI

DASTLABKI MUOLAJA USULLARINING ISHLAB CHIQILISHI

Tibbiyot inson faoliyatining muhim bir sohasi sifatida boshqa ko'p sohalardan ilgariroq paydo bo'lgan. Masalan, ibtidoiy odamlar o'zlari uchun hali turar-joy qurish, kiyim tikish va ovqat pishirishni bilmay turib, ba'zi kasallik holatlarida muolaja qilishni bilib olganlar. Buni o'sha ibtidoiy odamlarning yashash sharoitlari taqozo etgan. Ularning yashash sharoitlari esa juda og'ir va mashaqqatli bo'lgan. Ibtidoiy odamlar uy-joysiz, o'rmonlarda yarim yalang'och va ko'pincha och yashab, ko'p qiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar. Buning natijasida ko'p kasalliklarga duchor bo'lganlar, yirtqich hayvonlar bilan to'qnashib,

tan jarohatlari olganlar. Tabiiyki bunday holatlarda kishilar kasallikdan qutulish va tan jarohatlarini davolashga intilganlar. Natijada dastlabki oddiy muolaja usullari ishlab chiqilgan. Bu haqda ulug' Gippokrat bunday deb yozgan edi: "Hayotning o'zi kishilarni tabiblik san'atini izlab topishga majbur etgan".

Tibbiyotning kelib chiqishi jarayonini har taraflama o'rganish shuni ko'rsatadiki, "birinchi tabib" organizmning o'zi ekan, ya'ni organizmning o'zi birinchi bo'lib kasallikga qarshi kurasharkan. Buni quyidagi oddiy misoldan ko'rish mumkin: agar organizmga tashqaridan biror narsa, masalan zirapcha kirib qolsa, uning atrofida qon tanachalari (leykotsitlar) to'planib, zirapcha bilan birga kirgan mikroblarni yutib, yo'q qila boshlaydi. Natijada organizm bu mikroblardan qutiladi. Organizmning kasalliklarga qarshilik ko'rsatish xususiyati qadimgi Sharq hakimlariga ham ma'lum bo'lgan. Masalan, Abu Ali ibn Sino "Odam tanasi hamma vaqt kasallikdan qutilishga intiladi", deb yozgan edi.

Ba'zi bir tirik mavjudotlarning organizmi yo'qotilgan tana qismini tiklash xususiyatiga ham ega. Masalan, kaltakesakning dumi biror sabab bilan uzilib ketsa, unda yangi dum o'sib chiqadi. Shuningdek tananing biror joyida paydo bo'lgan, unchalik katta bo'lmagan jarohat ham "o'z-o'zidan" bitib ketadi. Organizmda kasalliklarga qarshi kurashish qobiliyati mavjudligi tufayli, ba'zan bemor biror sabab bilan davolana olmasa ham u sog'ayib ketishi mumkin. Qadimgi tabiblar yana shuni aniqladilarki, organizmda ayrim yuqumli kasalliklarga nisbatan "qabul qilmaslik" xususiyatini paydo qilish mumkin. Bu hozirgi tilda "immunitet" deb ataladi. Qadimgi Xitoy va Eron hakimlari umrida bir marta chechak va qizamiq bilan og'rigan kishi bu kasalliklar bilan boshqa og'rimasliklarini aniqlaganlar. Shunga asosan dastlabki variolatsiya (emlash) usullari ishlab chiqilgan. Xitoyliklar chechakka qarshi emlash usulini qo'lladilar. Qadimgi Eroniyalar ilon zahariga qarshi "qabul qilmaslik" paydo qilish usulini ishlab chiqqanlar. Ular odamga asta-sekin oz-ozdan ilon zaharini berib borib, uning organizmida mazkur zaharga nisbatan immunitet paydo qilganlar. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, tirik mavjudotlar organizmi haqiqatan kasalliklarga qarshi turish xususiyatiga ega. Bu xususiyatni "organizmning o'z ichki tibbiyoti", deb atash mumkin. Hayotda bu "ichki tibbiyot"ning ahamiyati juda katta. Atrof tabiatda kasallik paydo qiluvchi omillar shu qadar ko'p va xilma-xilki, agar organizmning "ichki tibbiyoti" bo'lmaganda tirik mavjudotlar har xil kasalliklardan allaqochoq qirilib yo'q bo'lib ketardilar.

"Organizmning o'z ichki tibbiyoti" tirik mavjudotlar hayotining barcha bosqichlarida biogenez jarayoni sifatida rivojlangan. Shuning uchun tirik mavjudotlar yashashda davom etganlar. Ammo, "organizmning o'z ichki tibbiyoti" hamma hollarda va har qanday kasallikga nisbatan "qabul

qilmaslikni" ta'min eta olmas ekan. Kasallikdan qutilish uchun "tashqi tibbiyot" ya'ni har xil davo tadbirlarini amalga oshirish ham zarur ekan. Shuning uchun turli muolaja usullari ishlab chiqila boshlagan. Bu o'rinda shuni ko'rsatib o'tish kerakki, "tashqi tibbiyot", ya'ni har xil muolaja usullari kasallikni o'zi yo'qotmaydi, balki "ichki tibbiyot" kasallikni yenga olishi uchun zamin tayyorlaydi. Gippokrat shuni ta'kidlab "Tabiat davolaydi, tabib unga yordam beradi" — degan edi. Bu yerda Gippokrat "tabiat" deganda organizmning o'z tabiatini, uning kasalliklarga qarshi kurashish xususiyatini ko'zda tutgan edi. Shunday qilib "tashqi tibbiyot"ni rivojlantirish, yangi har xil muolaja usullarini izlab topish va ularni qo'llash zaruriyati kelib chiqqan.

Tarixiy ma'lumotlarning ko'rsatishicha oddiy muolaja usullari hali yer yuzida odam paydo bo'lmasdan oldin ham ma'lum bo'lgan. Masalan, ba'zi hayvonlar tabiatda shifobaxsh o'simliklar mavjudligini bilganlar va ulardan foydalanganlar. Buni biror sabab bilan tanasi jarohatlangan hayvonlarning xatti-harakatida ko'rishimiz mumkin. Bu haqda tibbiy-tarixiy adabiyotlarda ko'p misollar keltirilgan. Masalan, tabiatshunos olim Yu.Rotsiusning yozishicha, og'zida yara-chaqalar paydo bo'lgan bir gibbon (kichik odamsimon maymun) o'rmondan bir shifobaxsh o'simlikni topib kelib, uni xamirsimon holatga kelguncha chaynagan. So'ng bu "muolaja"ni yana bir necha marta qaytargan. Shundan so'ng ko'p o'tmay gibbonning og'zidagi yara-chaqalar yo'q bo'lib ketgan. Bir jarohatlangan yavvoyi quyon esa o'rmondan yopishqoq o'rgimchiklarni topib kelib, ularni ezib tanasining jarohatlangan joyiga surtgan. Ma'lum bo'lishicha, bu o'rgimchaklarning tanasida og'riq qoldiruvchi va qon oqishini to'xtatuvchi modda bor ekan.

Ma'lumki, bezgak kasalligini yo'qotuvchi xina dorisi (Xinin) Amerikadan keltirilgan. Bu dori xina deb ataluvchi daraxtning postlog'idan olinadi. Uni amerikalik hindular topganlar. Ular xina daraxtining postlog'i bezgak kasalligini tuzatishini puma (yovvoyi mushukning bir turi) dan bilib olgan ekanlar. Hindularning kuzatishicha, bezgak kasalligi bilan kasallangan pumalar xina daraxtining postlog'ini chaynab yutar ekanlar. Shimolda yashovchi xalqlarning kuzatishicha uzoq masofani yugurib bosib, charchagan bug'ular levzey nomli o'simlikning ildizini qidirib topib chaynar ekanlar. Ma'lum bo'lishicha, bu o'simlikning ildizida charchog'ni yo'qotuvchi va kuch-quvvat beruvchi modda bor ekan.

Taniqli kimyogar olim S.Yu.Yunusovning yozishicha, unga zarkentlik Turob tabib ismli bir kishi o'zi ko'rgan quyidagi hodisani so'zlab bergan ekan: bir ilon tasodifan tog'dagi qoyaning teshigiga boshini suqibdi. U yerda arilarning ini bor ekan. Bu "kutilmagan mehmon"dan bezovtalangan arilar ilonga hujum qilib, uni chaqib tanasini shishirub yuboribdilar. Ilon bir necha daqiqa karaxt bo'lib qolibdi. So'ng o'ziga kelib, tezda soy

tomonga tushib, u yerdan sabzibargsimon o'simlikni topib, chaynab yuta boshlabdi. Bir ozdan so'ng ilonning gavdasidagi shish yo'qolib, u hech narsa bo'lmagandek o'z yo'lida davom etibdi. Ilonning gavdasidagi shishni yo'qotgan o'simlik erman (afsintin) ekan. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari kitobi"da erman og'riq qoldiruvchi va yallig'lanishni yo'qotuvchi shifobaxsh o'simlik, deb ko'rsatilgan. Demak, ilonlar shifobaxsh o'simliklar mavjud ekanligini bilar ekanlar.

Hayvonlar issiqlik manбайдan davo sifatida foydalanishni ham bilar ekanlar. Bunga mening o'zim guvoh bo'ldim. Uyimizda bir mushuk bor edi. Bir kun kimdir uni urib oyog'ini mayib qilib qo'yibdi. Mushuk bir necha kun oqsoqlanib uchoyoqlab yurdi. So'ng mayib oyog'ini davolash yo'lini topib oldi. Qish vaqti edi: bir kun men yuvinish uchun vannaxonaga kirsam mushuk isitish tizimining tagiga yotib olib mayib oyog'ini ikki isitkichning o'rtasiga qo'yib isitib yotibti. Bu "muolaja"ni mushuk ikki hafta davomida har kuni qildi. So'ng oyog'i tuzalib to'rt oyoqlab yurib ketdi. Demak, mushuklar "issiqlik terapiyasi" usulidan foydalanishni bilar ekanlar.

Bir ona it o'zining sovuq qotib o'lim darajasiga borib qolgan to'rtta bolasini bir necha soat davomida galma-galdan yalab (ya'ni massaj qilib) tiriltirgani ma'lum.

Hayvonlar bir-birlariga "tibbiy yordam" berishni ham biladilar. Bu haqda Sayyid Muhammad Hasrat ismli bir tabib quyidagi misolni keltiradi. Uning yozishicha daryo bo'yiga ikki qush kelib qo'nganlar va ulardan biri daryodan tumshug'i bilan suv olib, ikkinchi kasal qushning orqa teshigiga bir necha marta yuborgan. Shundan so'ng ular uchib ketganlar. Sayyid Muhammad tabib shu misolni keltirib "odamlar huqna (klizma) qilishni qushlardan o'rganganlar", — deb yozadi. Hayvonlardagi bunday davolanish va bir-birlariga yordam berish juda qadim zamonlarda, yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, hali yer yuzida insonlar paydo bo'lmasdan oldin kelib chiqqan. Ammo, hayvonlar faqat "qo'l yordamida" amalga oshirilishi mumkin bo'lgan muolajani qila olganlar, xolos. Masalan, yangi tug'ilgan bolasining kindigini tishlab uzish, tanaga kirib qolgan yot narsani, masalan, zirapchani tishlab, chiqarib olish, jarohatlangan joyni yalab qon oqishini to'xtatish, juda oz shifobaxsh o'simliklardan foydalanish va h.k. "Hayvonlar tibbiyoti" bundan nariga o'tmadi. Buning sababi shu ediki, ular qurol ishlatishni o'rgana olmadilar. Qurol ishlatmasdan turib, biror sohani takomillashtirish va rivojlantirish mumkin emas. Shunday qilib "hayvonlar tibbiyoti" rivojlanmay soddaligicha qolib ketaverdi.

"Odamlar tibbiyoti"ning kelib chiqishi va rivojlanishiga kelsak, bu masalada turlicha fikr mavjud. Ko'pchilik tibbiyot tarixchlari yaqin vaqtlargacha odamlar muolaja usullarini hayvonlardan, xususan, odamsimon maymunlardan o'rganganlar, degan fikrda edilar. Lekin bu fikr isbot etilmadi.

Ma'lumki, maymunlarning, ayniqsa shimpanzening gavda tuzilishi va intellektual qobiliyati odamlarnikiga yaqinroq keladi. Ko'p olimlar shunga asoslanib, odam maymundan kelib chiqqan va hamma ko'nikmalarni, shu jumladan muolaja usullarini ham maymundan o'rgangan, deb o'ylaganlar. Ammo, tarixda bir hayvonning ikkinchi bir hayvonga aylanganligi hech qachon kuzatilgan emas. Bo'ri hamma vaqt bo'riligicha, ayiq ayiqligicha qolgan. Shuningdek, maymun ham (shu jumladan odamsimon maymun ham) maymunligicha qolgan. U hech qachon odamga aylangan emas. Binobarin, odam maymundan kelib chiqqan va barcha ko'nikmalarni maymundan "meros qilib olgan", degan fikr asosli emas. Engels odam maymundan kelib chiqqan, deb yozganida arxeologlarning xato fikrlariga asoslangan.

Antropologiya fanining so'ngi dalillari shuni ko'rsatdiki, odam avval boshdanoq odamsimon maxluq sifatida yaratilgan. Uning odamga xos hamma asosiy belgilari bo'lgan. Chunonchi, ikki keyingi oyoqlarida tik yurgan. Oldingi oyoqlari (qo'llari) bo'sh bo'lgan. Ulardagi barmoqlar bilan faqat buyumlarni ushlab emas, balki ularga ishlov berish va foydalanish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Odamsimon maxluqlarning fahm qilish qobiliyati hamma hayvonlarning fahm qilish qobiliyatidan yuqori bo'lgan. Uning gavda tuzilishi ham odamlarning gavda tuzilishiga yaqin bo'lgan. Shuning uchun antropologlar ularni antropoid, ya'ni odamsimon maxluq, deb ataganlar.

Antropoidning gavdasi evolutsion rivojlanish natijasida takomillashib, u odam qiyofasini olgan. Odamning bunday rivojlanishi ba'zi Sharq olimlariga ham ma'lum bo'lgan. Masalan, O'rta osiyolik mashhur olim va adib Nizomiy Aruziy Samarqandiy (XII asr) o'zining "Majma' an-navodir" ("Nodir hikoyatlar") nomli asarida bunday deb yozgan: "Osmon yoritqichlarining ta'siri ostida va suv ishtirokida dastlab tabiatdagi jonsiz narsalar paydo bo'ldi. So'ng ko'p zamonlar o'tganidan keyin turli o'simliklar kelib chiqdi. Hayvonlardan birinchi bo'lib, yomg'ir chugalchangi paydo bo'ldi. Oxirida esa nasnos (odamsimon maxluq) kelib chiqdi. Nasnos shunday maxluqki, uning qomati tik, qaddi alifdek, tirnoqlari enli (yassi)dir. Bu maxluq ko'p jihatdan odamga o'xshaydi. Hozirgi odamlar shu maxluqlardan kelib chiqqanlar.¹ Aruziy Samarqandiy nasnosning muolaja usuli haqida bunday deb yozadi: "U po'lat, birinj (bronza), mis, qo'rg'oshin va qalayidan uy anjomlari va qurol-yarog'lar tayyorladi. O'simliklar olamidan yemish, kiyim-kechak va paloslar bunyod etdi. Hayvonot olamidan esa minish va yuk tashishda foydalandi. Bu uchta olamning (omilning) hammasidan dori-darmonlar ajratib oldi

¹ Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Nodir hikoyatlar, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1985-y. 12-bet.

va ular bilan o'zini muolaja qildi".¹ Bu yerda Aruziy juda muhim bir tarixiy dalilni — nasnosning qurol ishlatganini ko'rsatadi. Ma'lumki inson aynan qurol ishlatish tufayli hayvonot olamidani ajralib chiqqan edi. Antropoid hayvonlarga nisbatan muolaja usulidan kengroq foydalangan. U qurol yordamida hayvonlar qila olmaydigan muolaja usullarini amalga oshirgan. Idrok qilish qobiliyatining yaxshi rivojlanganligi tufayli kasallik holatlarini davolashda tabiat vositalaridan kengroq foydalangan.

Antropoidlar qanday muolaja usullarini ishlatganlari va qanday shifobaxsh o'simliklardan foydalanganlarini aniq aytish qiyin. Lekin, ularning muolaja usullari va ishlatgan shifobaxsh o'simliklarining xillari hayvonlar ishlatgan usullar va shifobaxsh o'simliklardan ancha ko'p bo'lgan. Fikrimizcha antropoidlar asosan og'riq qoldiruvchi, kayf beruvchi, ich ketishini to'xtatuvchi yoki ichni yurishtiruvchi, yara-chaqalarni tuzatuvchi dorivor o'simliklarni ishlatgan bo'lsalar kerak. Bu dorilar tabiiy holda ishlatilgan, ya'ni ularni chaynab yutganlar.

Antropoidlar tabiatda dorivor o'simliklar borligini oldindan bilgan emaslar, albatta. Ular oziq qidirish jarayonida tabiatda shifobaxsh o'simliklar mavjudligini bilib olganlar. So'ng zarur bo'lib qolganida ularni qidirib topib ishlatganlar. Dorivor o'simliklarni topish va ulardan foydalanish juda uzoq vaqt davom etgan. Masalan, bir shifobaxsh o'simlik topilgandan so'ng ikkinchisini topish o'rtasida asrlar o'tgan, chunki antropoidlarning "laboratoriyasi" tabiatning o'zi bo'lgan. Tabiatning sir-asrorlarini bilib olish esa bu maxluqlar uchun oson ish bo'lmagan. Bunda ko'proq tasodif ish bergan. Masalan, biror joyi og'rib turgan maxluq tasodifan og'riq qoldiruvchi o'simlikni yeganida undagi og'riq to'xtab qolgan. So'ng esa u biror joyida yana og'riq paydo bo'lganida shu o'simlikni qidirgan. Ichi ketayotgan maxluq bir vaqt uning ichini to'xtatgan o'simlikni qidirgan va h.k. Shunday qilib, bosqichma-bosqich dorivor o'simliklar topila borgan.

Qo'l bilan amalga oshiriladigan muolaja usullariga kelsak, odamsimon maxluqlar tug'ish paytida ayolga yordam berish, tug'ilgan chaqaloqning kindigini bog'lash va kesish, jarohatlangan joyni bog'lash, undan oqayotgan qonni to'xtatish kabi muolajalarni qilganlar. So'ng esa bu usullar asta-sekin takomillashib, rivojlanib borgan. Masalan, ilgari chaqaloqning kindigini tishlab uzgan bo'lsalar, keyin shu maqsad uchun qirrali toshdan foydalanganlar. Qirrali toshlarni tananing biror joyida to'planib qolgan yiringni kesib chiqarib yuborish uchun ham ishlatganlar. Keyinchalik bu maqsad uchun ochiq tabiatda topiladigan metallardan foydalanganlar.

¹ Nizomiy Aruziy Samarqandiy, Nodir hikoyatlar, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1985-y. 12-bet.

Antropologlarning yozishlaricha, antropoid tipidagi maxluqlardan birinchi bo'lib avstralopiteklar¹ qurol ishlata boshlaganlar. Ammo, ularning ishlatgan qurollari juda oddiy qurol edi. Ular oddiy tayoq, hayvonlarning suyagi va ishlov berilmagan toshlar edi, xolos. Bu qurollar bilan biror murakkabroq ishni bajarish mumkin emas edi. Binobarin, avstralopiteklar ishlatgan oddiy qurollar bilan biror murakkabroq vazifani bajarib bo'lmagan. Shuning uchun avstralopitekning muolaja usullari odamlarnikiga qaraganda ko'proq maymunlarnikiga yaqinroq bo'lgan.

Gavda tuzilishi va idroki jihatidan avstralopitekklarga nisbatan ko'proq rivojlangan maxluq pitekantrop² (maymun-odamlar) dir. Pitekantroplarni "homo erectus" (tik yuruvchi odam) deb atadilar. Bu maxluqning intellektual qobiliyati balandroq, miyasining hajmi ham kattaroqdir.

Pitekantrop²lar avstralopitekklarga nisbatan qurollardan kengroq foydalanganlar. Ba'zi antropologlarning fikricha pitekantrop²lar birinchi bo'lib qurol yasay boshlaganlar. Xususan, ular toshpichoq (o'tkir qirrali qilib kesilgan tosh), toshbolta, toshto'qmoq yasaganlar. Ular shu qurollardan muolaja maqsadida foydalangan bo'lishlari mumkin. Masalan, chaqaloqning kindigini kesish, tananing biror joyida yig'ilib qolgan yiringni kesib, uni chiqarib yuborish va h.k. Dorivor o'simliklardan ham kengroq foydalanganlar.

Pitekantroplardan so'ng sinantroplar (Xitoy-odamlar) davri boshlanadi. Bu maxluqlar gavda tuzilishi va idrok etish jihatidan yuqorida ko'rsatib o'tilgan ikki maxluqdan yuqoriroq turadi. Sinantroplar qurol ishlashda ancha mohir bo'lganlar. Ular takomillashgan va nozikroq qurollar yasay boshlaganlar. Bu qurollar bilan esa ba'zi murakkabroq muolaja usulini qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Masalan, o'tkir qirrali qilib ishlangan tosh yoki suyak bilan qattiq jarohatlanib osilib qolgan a'zoni kesib tashlash va h.k. Antropoidlar hayvonot olamidanda ajralib chiqib, haqiqiy inson qiyofasiga ega bo'lgunlaricha yana bir necha bosqich taraqqiyot yo'lini bosib o'tdilar. Xususan, ular sinantrop²lardan so'ng atlantroplar, keyin xeydelberglar, oxirida esa olduvaylar bosqichlarini o'tdilar. Shu uchala bosqich, antropoidlarni birlashtirib, ularni arxantroplar, deb ataganlar. Arxantroplardan alohida ahamiyatga molik bo'lgani olduvay tipiga kiruvchilardir. Olduvay tipidagi antropoidlar juda idrokli bo'lganlar. Shuning uchun ularni "homo habilis" ("uquvli

¹ Fikrimizcha, antropologlar bu maxluqni avstralopitek (avstraliya maymuni), deb noto'g'ri ataganlar. Antropoidlar maymunga o'xshsalar ham maymun bo'lmaganlar. Shuning uchun ularni avstralopitek (avstraliya odami), deb atash to'g'riroq bo'lur edi. Ammo, bu maxluq jahon tarixiy adabiyotiga "avstralopitek" nomi bilan kirib qolgan.

² Bu yerda ham antropologlar bu maxluqni pitekantrop (maymun-odam) deb xato qilganlar.

odam") deb atadilar. Olduvaylar tashqi qiyofa jihatidan haqiqiy odamga juda yaqin bo'lganlar. Har xil muolaja usullarini qo'llashda ham boshqa antropoidlarga nisbatan ancha uquvliroq bo'lganlar. Bu yerda eng muhimi shundan iboratki, olduvaylar muolaja usullarini qo'llashda faqat instinktiv harakat qilmay, o'z idroklarini ham ishga solganlar. Masalan, qanday kasallik holatida qaysi usul va qanday dorivor o'simlik ko'proq yordam berishini ajrata olganlar.

Antropogenez (odamning kelib chiqishi) jarayonining navbatdagi bosqichida antropoidlar (odamsimonlar) paleoantropolar (qadimgi odamlar)ga aylandilar. Bular hamma jihatdan hozirgi zamon odamlariga juda o'xshash bo'lganlar. Bu yerda shuni ko'rsatib o'tish kerakki, paleoantropolarning dunyoga kelishi antropoidning paleoantropga aylanishi emas, balki antropoidning o'zida mavjud bo'lgan odamlarga xos xususiyatlarning rivojlanishi va takomillashishi natijasidir. Paleoantropolar bundan 100 ming yil ilgari yashaganlar. Demak, inson bundan 100 ming yil ilgari inson qiyofasini olgan.

Paleoantropning suyagi birinchi marta Germaniyaning Neandertals vodiysida topildi. Shuning uchun bu odamlarni neandertallar deb atadilar. Bizda neandertalning suyagi Surxondaryo viloyatida, Boysun tog'idagi Teshik tosh g'orida topildi. U 9 yashar bolaning suyagi ekan.

Neandertallar tashqi qiyofa jihatidan odam ko'rinishini olgan bo'lsalar ham, ular hozirgi zamon odamlaridan biroz farq qilganlar. Chunonchi ularning manglayi pastga tomon qiyalab tushgan, qoshining tepasi bolishsimon bo'lib bo'rtib chiqqan, jag' suyagi katta, tishlari yirikdir.

Neandertallarda idrok etish bilan birga oddiy abstrakt fikrlash ham paydo bo'lgan. Masalan, ular qurol ishlashda uning shakli qanday bo'lishi kerakligini oldindan belgilab olganlar. Arxeologlar neandertallar yashagan qarorgohlardan 60 xilga yaqin turli tosh qurollarni topganlar. Ammo, ular bu qurollar orasida muolaja maqsadida ishlatilganlari bor yoki yo'qligini ko'rsatmaganlar. Fikrimizcha bunday qurollar bo'lgan, albatta. Ammo, toshdan yasalgan bo'lganliklari uchun ulardan foydalanish imkoniyati unchalik keng bo'lmagan.

Antropogenez jarayonida paleoantropolardan so'ng mezanthropolar (oraliq davr odamlari) davri boshlanadi. Bu davr 50—40 ming yilni o'z ichiga oladi. Bunday odamlarning suyaklari birinchi marta Fransiyaning Kromanyon nomli g'orida topilgan. Shuning uchun ularni kromanyon odami, deb ataganlar. Bizda kromanyonlarning suyaklari 1930-yilda Samarqand shahrining markazida Ko'lbog' degan joyda topildi. So'ng bunday suyaklar boshqa hududlarda ham uchratildi.

Antropologlarning ko'rsatishicha kromanyonlar neandertallarga nisbatan baland bo'yli, yelkalari keng, jismoniy jihatdan kuchli bo'lganlar. Idrok jihatdan ham bular neandertallarga nisbatan ancha ustun

bo'lganlar. Kromanyonlar ko'pxo'rakli maxluq hisoblanadilar. Bular juda ko'p xil o'simliklarni iste'mol qilganlar va ularning orasidan shifobaxshlarini ajratib olganlar. Binobarin, kromanyonlar ishlatgan o'simliklarning xili ham ko'p bo'lgan. Kromanyonlar qurol yasashda katta natijalarga erishganlar. Xususan, ular birinchi bo'lib o'q va o'q-yoy (kamon) ixtiro qilganlar va har xil hayvonlar va qushlarni ov qilib ularning go'shtini iste'mol qila boshladilar. Shunday qilib, kromanyonlar iste'mol qiladigan o'simlik va hayvonlarning xili ancha ko'paydi.

Kromanyonlar ba'zi hayvonlarni uy sharoitiga o'rgata boshladilar. Dastlab uy sharoitiga qo'y, echki, sigir so'ng ot o'rgatilgan. O'sha davrda ziroat ishlariga ham birinchi qadam qo'yildi. Odamlar tabiatdagi mavjud tayyor yemishlarni yig'ib-terib iste'mol qilish bilan cheklanib qolmay, o'zlari o'simliklar o'stira boshladilar. Shunday qilib, chorvachilik va ziroatchilik yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z navbatida muolaja qilishni rivojlantirdi. O'sha vaqtdagi "tabiblar" kasallarni davolashda hayvon a'zolari (jigari, qoni, moyi va h.k.) va qo'lda o'stirilgan o'simliklarni ham ishlatdilar. Bu o'sha davr uchun tibbiyotning katta yutug'i edi.

Antropogenez jarayonining so'nggi bosqichida neoantroplar (yangi odamlar) davri keldi. Neoantroplarda hozirgi zamon odamlarining deyarli hamma xususiyatlari mavjud edi. Antropologlar ularni "homo sapiens" ("firkrovchi odam") deb atadilar. Bizda bunday odamlarning suyaklari Samarqand viloyatining Qora tepa massivida topilgan. Bu odamning jasadi qo'rga ko'milgan ekan. Demak, neoantroplar o'lgan odamning jasadini ko'mish kerakligini bilganlar. Neoantroplar hayotidagi muhim o'zgarish shu bo'ldiki, ular o'zi uchun turar joy qurishni bilib oldilar. Bu asosan atrofi tosh va daraxt shohlari bilan o'rab olingan chayladan iborat edi. Bunday chaylalarni ko'proq daryo bo'ylarida, chakalakzor o'rmonlarda, tog' bag'irlarda qurganlar.

Neoantroplar ish quroli yasashda ham yangilik yaratdilar. Ular sinib ketmaydigan juda qattiq tosh jinslardan (masalan, nefrit, yashma) qurol ishlay boshladilar. Bu toshlarga ishlov berishda o'tkirlash, silliqlash va nayzalash usullaridan foydalanganlar. Shunday yo'l bilan toshdan bo'lsa ham o'tkir, silliq, va uchli qurollar yasaganlar. Shubhasiz bu qurollardan muolaja maqsadida ham foydalanganlar.

Neoantroplar hayotidagi yana bir yangilik olovning kashf etilishi bo'ldi. Olov kishilarning hayotini tubdan o'zgartirib yubordi.

Olov kashf etilishining o'z tarixi bor. O'sha vaqtlarda ham chaqmoqlardan va vulqonlardan olovlar otilib chiqqan. Buning natijasida yaqin joydagi o'rmonlarga o't ketib, undan qochib qutula olmagan hayvonlar turgan joylarida pishib qolganlar. Tabiiyki pishgan go'sht yumshoqroq va mazaliroq bo'ladi. Buni ko'rgan neoantroplar toshlarni bir-biriga urib olov yoqib, go'shtni pishirib yeya boshlaganlar. Shunday

qilib, biz hozir yeydigan kabobni o'sha neoantroplar kashf etganlar desak xato bo'lmas. O'z-o'zidan ma'lumki, pishgan go'sht oshqozon va ichaklarga qattiq botmaydi va oson hazm bo'ladi. Shuning uchun odamlar pishgan go'sht yeya boshlaganlaridan so'ng oshqozon-ichak kasalliklari bilan kamroq og'riqanlar. O'sha vaqtda neoantroplar sopol idish yasash usulini ham kashf etdilar. Bu ham kishilarga juda qulaylik keltirdi, ular ovqat mahsulotlarini (go'sht, o'simliklar va h.k.) qaynatib yeyish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu ham kishilarning sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Nihoyat neoantroplar shifobaxsh o'simliklarni sopol idishda qaynatib, ulardan qaynatmalar va damlamalar tayyorlashni bilib oldilar.



Trepanatsiya qilingan
bosh suyagi.

Insonning antropoid sifatida dunyoga kelib, toki hamma jihatdan inson qiyofasini olgan neoantropgacha rivojlanib o'tgan davrni antropologlar tosh davri deb ataydilar. Chunki 2 million 500 ming yilni o'z ichiga olgan bu davrda insonlar uchun asosiy ish quroli tosh bo'lgan. Tosh yordamida esa murakkabroq muolaja usulini amalga oshirish mumkin bo'lmagan. Shuning uchun tosh davri "tibbiyoti" ba'zi ijobiy natijalarga erishgan bo'lsa ham u hali ancha past darajada rivojlangan edi.

Tosh davridan so'ng bronza davri keldi. Odamlar tog'larda va ochiq dalalarda toshga o'xshagan, lekin ura sinmaydigan, ya'ni ishlov berish mumkin bo'lgan ma'danlar borligini bilib, ulardan turli buyumlar yasay boshladilar. Bu topilmalarning ko'pchiligini mis (yunoncha enus) tashkil etgan. Birinchi yasalgan buyumlar va qurollar shu misdan ishlangan. Shuning uchun bronza davrining dastlabki bosqichini eneolit (mis davri) deb ataganlar. So'ng misga boshqa metallarni qo'shib (qalayi, qo'rg'oshin) ishladilar va unga bronza deb nom berdilar. Bronza qattqlik va yumshoqlikda eng qulay metall bo'lib chiqdi. Undan turli shaklda va turli o'tkirlikda har xil qurol va asboblari yasaldi. Tibbiy muolaja asboblari ham bronzadan ishlana boshladi. Xususan, jarrohlik pichoqlari, qaychilar, kateterlar, ninalar (ignalar), suyak qiradigan va qiradigan iskanalar shu bronzadan yasaldi. Bular yordamida ancha murakkab jarrohlik operatsiyalari bajariladigan bo'ldi.

Masalan, bosh suyagini trepanatsiya qilish (teshish), o'zi tug'aolmagan ayolning qornini yorib, bolani chiqarib olish, kuchli jarohatlangan a'zoni kesib tashlash va h.k. Shunday qilib, dastlabki muolaja usullarini ishlab chiqishda qurol ishlatish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Dastlabki muolaja usullari ishlab chiqilgandan so'ng tibbiyot o'z rivojlanishida davom etib, u alohida kasb sifatida shakllandi.

TIBBIYOTNING KASB SIFATIDA SHAKLLANISHI

Ko'pchilik tibbiyot tarixchilarining fikricha, tabobat ibtidoiy jamoa davrining matriarxat bosqichida shakllangan. Birinchi "tabiblar" ayollar bo'lganlar. Tarixiy dalillar bu fikrni tasdiqlaydi.

Ma'lumki, ibtidoiy jamoa davrining matriarxat bosqichida oila va qabilaga ayollar boshchilik qilganlar. Binobarin, ular o'z oila va qabila a'zolarining hayoti va sog'lig'i haqida qayg'urishlari lozim bo'lgan. Shunga ko'ra ayollar tibbiy yordamga muhtoj bo'lganlarga yordam berganlar. Masalan, tug'ayotgan ayolga yordam ko'rsatganlar, tug'ilgan chaqaloqning kindigini kesganlar, jarohatlanganlarning jarohatini bog'laganlar va bemorlarni parvarish qilganlar.

Shifobaxsh o'simliklarni ham birinchi bo'lib ayollar topib ishlata boshlaganlar. Ma'lumki, ibtidoiy jamoa kishilari asosan hayvonlarni ov qilish bilan shug'ullanganlar. Bu ishda ayollar kamroq qatnashganlar. Ular o'z qarorgohlarida qolib, yaqin joylardagi o'rmonlardan har xil yegulik va shifobaxsh o'simliklarni yig'ib kelib, ulardan foydalanganlar. Shunday qilib, tibbiyotni ayollar boshlab berganlar. Buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi. Ko'p xalqlar tarixida biror ayol birinchi mohir tabib, deb tanilgan. Masalan, O'rta Osiyoda Anahita (Ardivisura — Anahita) ismli ayol odamlar hayoti va sog'lig'ining homiysi hisoblangan. Bizgacha yetib kelgan bir afsonada uning ismi "Bibi mushkul kushod", ya'ni mushkulni ochuvchi, uni yengillashtiruvchi pari, deb atalgan. Qadimgi ajdodlarimiz sog'liq homiysi bo'lgan bu go'zal parining ramziy haykalini yasab, unga sajda qilganlar. O'zbekiston hududida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida bunday haykallar ko'p topilgan. Qadimgi zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"da Ardivisura — Anahita homilador ayollarning homiysidir, deb yozilgan. U tug'ayotgan ayolga yordam beradi, uning og'rig'ini kamaytiradi, tug'ruqni osonlashtiradi, tuqqan ayolning ko'kraklarini sutga to'ldiradi, deyilgan.

Ilgari tibbiyot tarixchilari o'rtasida "odamlar tibbiyoti"ga bundan 100 ming yil muqaddam yashagan neandertallar asos solganlar, degan fikr hukm surardi. Bu fikr quyidagicha izohlanardi: Neandertal tipidagi antropoidlarning pastki jag'i katta va kuchli, tishlari yirik, ularning sathi yedirilgan bo'ladi. Buning sababi shuki, neandertallar faqat o'simliklar, ularning ildizi va mag'izlarini iste'mol qilganlar. Ularni chaynash uchun esa kuchli jag' va yirik tishlar kerak. Shuning uchun neandertallarning jag'i katta, kuchli, tishlari esa yirikdir. Ular har xil o'simliklarni yeb ko'rib, ular orasida shifobaxshlari borligini aniqlaganlar. Ammo, keyingi tadqiqotlar bunday fikr asosli emasligini ko'rsatdi. Birinchidan,

neandertallar faqat o'simliklar emas, hayvonlar go'shtini ham iste'mol qilganlar. Ikkinchidan, tabiatda shifobaxsh o'simliklar mavjudligi neandertallargacha ham ma'lum bo'lgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, ba'zi bir muolaja usullarini o'z vaqtida arxantropolar bilganlar. Shunday qilib, tabiatdagi shifobaxsh o'simliklardan foydalanish va boshqa muolaja usullari neandertallar davridan ancha ilgari qo'llangan. Demak, "odamlar tibbiyoti"ga neandertallar asos solgan, degan fikr to'g'ri chiqmaydi. Fikrimizcha "odamlar tibbiyoti"ni arxantropolardan boshlash to'g'riroqdir. Neandertallar tibbiyotni kashf etgan emaslar, balki uni davom ettirganlar va takomillashtirganlar, xolos.

Neandertallar erishgan muhim natijalardan biri tovush chiqarib so'zlashning kashf etilishidir. Bu hodisa tibbiyotni yanada rivojlantirib yubordi. Bemor davolovchiga o'z kasali haqida, uni nima bezovta qilayotganligi haqida so'zlab berish imkoniyatiga ega bo'ldi. Davolovchi esa shunga qarab, to'g'riroq tashxis qo'yish va muvaffaqiyatliroq davolash imkoniyatiga ega bo'ldi. Shunday qilib, tibbiyot oldinga yana bir katta qadam qo'ydi. Shu yuqorida bayon etilganlarning hammasi matriarxat davri tibbiyotiga tegishli. Matriarxat "tibbiyoti"ning asosiy xususiyati shundan iborat ediki, bu davrda tibbiyot hali kasb sifatini olmagan edi. Oila yoki qabila boshlig'i zarur bo'lib qolganida jarohatlangan yoki kasalga yo'liqqan kishini davolab, boshqa vaqtda o'z ishi bilan shug'ullanardi.

Kishilik jamiyati rivojlanishining ma'lum davriga kelib, matriarxat patriarxat bilan almashdi. Erkaklar moddiy boyliklarni o'z qo'llariga oldilar. Buning natijasida ular oila va qabilada hukmronlik mavqeini egalladilar. Oila va qabilaning hayoti va sog'lig'i haqida qayg'urish endi erkaklar zimmasiga tushdi. Shunday qilib ular muolaja ishlari bilan shug'ullana boshladilar. Odatda bu ish bilan ko'proq yoshi ulug'roq, katta hayot tajribasiga ega bo'lgan kishilar shug'ullanardilar. Erkaklar tibbiyotni ayollarga nisbatan yuqoriroq bosqichga ko'tardilar. Unga yangi muolaja usullarini kiritdilar. Tabiiy holda uchraydigan metallardan har xil qurollar yasash usulini ham shu erkaklar kashf etdilar. Ular yasagan qurollar orasida tibbiyotda ishlatiladiganlari ham bor edi. Ular yordamida murakkabroq muolaja ishlarini amalga oshirardilar. Masalan, bosh suyagini trepanatsiya qilish (teshish), chiqqan-singanlarni davolash, yiring yigilib qolgan joyni kesib yiringini chiqarib yuborish va h.k.

Ibtidoiy jamoa davrining oxiriga kelib, odamlar ko'chib yurishdan o'troq hayot kechirishga ota boshlaganlar. Buning natijasida mehnat taqsimoti vujudga kelgan. Dastlab mehnat taqsimoti erkaklar va ayollar, kattalar (qariyalar) va yoshlar o'rtasida joriy qilingan. So'ng asta-sekin mehnatning ayrim sohaları bo'yicha taqsimlana boshlagan va turli kasblar kelib chiqqan. Davolash ishi bilan shug'ullanuvchi tajribali kishilar bu ishni o'zlari uchun kasb qilib olganlar. Shunday qilib tabiiy kasbi kelib chiqqan.

KASALLIKLARNING SABABLARI HAQIDAGI TUSHUNCHALAR

Ibtidoiy odamlar kasalliklar va ularning sabablarini jamiyat taraqqiyotining turli bosqichida turlicha tushunganlar. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichida (matriarxat davri) yashagan odamlarning atrof tabiat va unda sodir bo'lib turuvchi hodisalar haqidagi tushunchalari juda sodda bo'lgan, ular dunyo tashqi tomondan qanday ko'rinishga ega bo'lsa uni shunday tushunganlar. Hodisalarning ichki mohiyatini bilmaganlar va u bilan qiziqmaganlar. Kasalliklar haqida ham shunday bo'lgan. Ular bemor nima sababdan kasal bo'lib qolgan, degan masalani o'ylab o'tirmay uni davolayverganlar. Masalan, bemorning boshi og'riyotgan bo'lsa, u nima uchun og'riyapti, deb o'ylab o'tirmay, unga og'riq qoldiruvchi dori berganlar, ichi ketayotgan bo'lsa ichni to'xtatuvchi dori berganlar, xolos. U vaqtdagi tabiblarning kasallikning sababi haqida fikr yuritishga aql-idroklari yetmagan. O'sha vaqtdagi tabiblar kasallikni emas, uning belgilarini davolaganlar, ya'ni davolash simptomatik xarakterga ega bo'lgan.

Kishilarda abstrakt fikrlash qobiliyati paydo bo'lganidan so'ng ular atrofda hodisalar bilan qiziq boshlaganlar va har xil hodisalarning mohiyatlarini hamda sabablarini bilishga intilganlar. Shuningdek har xil kasalliklarning sababini anglashga ham harakat qilganlar. Lekin, tabiatda sodir bo'lib turuvchi vahimali hodisalar (momaqaldiroq, chaqmoq, yer qimirlashi, vulqon otilib chiqishi va h.k.) haqida fantastik fikrlar yuzaga kelgan. Ular bu hodisalarni paydo qiluvchi kuchlar bo'lsa kerak, deb o'ylaganlar. Kasalliklar haqida ham shunday fikr yuritilgan. Chunonchi, kasallik paydo qiluvchi qandaydir g'ayritabiiy kuch bo'lsa kerak, deb faraz qilganlar. Shunday tushunchalarning eng qadimiysi fetishizm, ya'ni atrof-tabiat va undagi mavjud narsalarni jonlantirib, oshirib tasvir etishdir. Bu tushunchaga binoan tabiat va undagi narsalarda g'ayritabiiy kuchlar bor. Shular har xil hodisalarni, shu jumladan kasalliklarni ham keltirib chiqaradi, deb o'ylaganlar.

So'ng animizm (anima — ruh so'zidan) tushunchasi paydo bo'ldi. Bu tushunchaga binoan dunyo son-sanoqsiz ruhlar bilan to'lib toshgan, shular har xil falokatlarini keltirib chiqaradilar, deb faraz qilingan. Kasalliklarni ham shu ruhlar paydo qiladi, deb o'ylaganlar. Mazkur ruhlar qatoriga o'lib ketgan kishilarning ruhlarini ham kiritganlar. Shu ruhlar ham kasallik paydo qiladi, deb faraz qilganlar. Go'yoki, kishi o'zining o'lib ketgan ajdodining xotirasiga hurmatsizlik qilsa, o'sha o'lgan kishining ruhi hurmatsizlik qilgan kishida kasal paydo qilib uni jazolar emish.

Ibtidoiy odamlar kishiga baxt va sog'liq keltiruvchi rahmdil ruhlar borligiga ham ishonganlar.

O'sha zamon odamlarining faraz qilishlaricha kasallik paydo qiluvchi "johil" kuch odam tanasiga, ko'proq bosh miyaga kirib olib har xil kasallik holatlarini (isitma ko'tarilishi, bosh og'rig'i, qaltirash va h.k.) keltirib chiqaradi. Bu kasallik holatlarini paydo qiluvchi kuchning o'zi nima, degan savolga turlicha javob berganlar. Ba'zilar, biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, o'tgan ajdodlarning ruhidir, desalar boshqalar ruhga aylangan ajdodlarning o'zidir degan fikrda bo'lganlar. Uchinchilari kasallik paydo qiluvchi kuchlar o'rmonlar va qamishzorlarda yashaydigan "Johil kuchlar"dir, deb tushunganlar. Bulardan tashqari ontologik tushuncha ham mavjud. Bu tushunchaning tarafdorlari organizmda kasallikni ko'zga ko'rinmas ilohiy kuchlar paydo qiladi, deb o'ylaganlar.

Yana totem tushunchasi ham bo'lgan. Bu tushuncha totem (mening qabilam, urug'im) degan so'zdan kelib chiqqan. O'sha zamon kishilari har bir qabila ma'lum hayvon (totem) dan kelib chiqqan, deb hisoblaganlar. Shunga ko'ra agar kishi o'z totemiga, ya'ni o'tmish ajdodiga nisbatan hurmatsizlik qilsa, o'sha totem hurmatsizlik qilgan kishiga kasallik yuborib uni jazolaydi, deb o'ylaganlar. Qadimgi turkiy qabilalar bizning totemimiz bo'ridir, ya'ni biz bo'ridan kelib chiqqanmiz, deb hisoblaganlar.

Kasalliklarni davolash usullari ham o'sha vaqtdagi kasallikning sababi haqidagi tushunchaga muvofiq olib borilgan. Davolash usuli asosan bemor a'zosiga kirib olgan "johil kuch"ni chiqarib yuborishdan iborat bo'lgan. Avvalo har xil o'yinlar, raqsga tushishlar, xushomadgo'yliklar bilan bu "johil kuch"ning ko'nglini yumshatib, uni bemor tanasidan o'zi chiqib ketishiga erishmoqchi bo'lganlar. Agar bu chora bilan uni bemor tanasidan chiqib ketishiga erisha olinmasa, uni zo'rlik bilan chiqarganlar. Bu maqsad uchun qo'rqituv usullari qo'llanilgan. Masalan, bemor tanasiga o'rnashib olgan "johil kuch"ga qarshi "hujum qilish" usulidan foydalanganlar. Shu usul asosida shamanizm kelib chiqqan. "Johil kuch"ni haydash uchun shaman har xil shovqinli musiqiy asboblardan (childirma, nog'ora) foydalangan. Bundan tashqari shaman "Johil kuchni qamchi bilan urib haydash" usulini ham ishlatgan. O'zbek xalq tibbiyotida bu usul "ko'chiriq", deb atalgan. "Johil kuch" ko'proq miyaga joylashib oladi deb, u oson chiqib ketishi uchun, bemorning bosh suyagi teshib qo'yilgan. Bizning O'zbekiston hududimizda bunday teshib qo'yilgan (trepanatsiya qilingan) bosh suyaklari ko'p topilgan.

Ibtidoiy jamoa davrining oxiri va Quldorlik davrining boshida din kelib chiqdi. Shundan keyin tabiatda sodir bo'luvchi har bir hodisa din bilan bog'landi. Bunday tushuncha tibbiyot sohasiga ham tarqaldi. Har qanday kasallik gunoh qilgan kishiga tangri tomonidan yuborilgan jazodir

degan fikr paydo bo'ldi. Gunohkor kasallikdan qutilish uchun tangriga sajda qilishi zarur, deb tushuntira boshladilar. Ibodatxonalar huzurida kichik-kichik shifoxonalar tashkil qildilar va ularda bemorlar hamda nogironlarni davoladilar. Shunday qilib "ibodatxona tibbiyoti" kelib chiqdi. Ibodatxonalardagi davolash usuli asosan har xil duolar o'qish va diniy marosimlarni bajarishdan iborat edi. Ba'zan shifobaxsh o'simliklardan ham foydalanardilar. Ammo, bu dorilarning ta'sirini din nuqtai nazari asosida tushuntirilardi.

Tibbiyotning mohiyati va kasalliklarning kelib chiqishi haqida amaliy tajribaga asoslangan fikrlar ham mavjud edi. Amaliy tibbiyot vakillari o'z kuzatishlariga asoslanib, kasallik kishi organizmiga tashqi zararli omillarning ta'siri natijasida kelib chiqadi, degan xulosaga keldilar. Bunda birinchi o'ringa oziq-ovqatlarni qo'ydilar. Xususan sifatsiz ovqat yeyish, och qolish, yoki aksincha keragidan ortiqcha ovqat iste'mol qilish me'da-ichaklarda kasallik paydo qiladi, degan xulosa chiqardilar. So'ng iqlim, havo harorati va boshqa tabiiy omillarga ahamiyat berdilar. Ibtidoiy jamoa davrida yashagan odamlarning kasalliklar va ularning sabablari haqidagi tushunchalari shulardan iborat edi.

ILMIY TIBBIYOTNING SHAKLLANISHI

Inson faoliyatining bir sohasi sifatida kelib chiqqan tibbiyot kasbi doimo rivojlanib, takomillashib bordi. U yangi tashxis va davolash usullari bilan boyidi. Buni kishilar hayotining o'zi taqozo qilgan edi. Tabiblar ham, bemorlar ham tibbiyotning rivojlanishidan manfaatdor edilar. Bemorlar yaxshiroq davolovchi tabibga murojaat qilishga intildirdilar. Tabiblar o'zlariga ko'proq bemorni jalb qilish uchun ularga to'g'ri tashxis qo'yish va muvaffaqiyatli davolashga harakat qilardilar. Shu maqsadda tashxis qo'yish va davolashning yangi usullarini ishlab chiqardilar. Har xil dorilarni sinab ko'rardilar, davolash usullarini takomillashtirardilar. Bu bilan ular tibbiyotni doim boyitib borardilar. Shunday qilib, dastlab empirik amaliy muolaja sifatida paydo bo'lgan tibbiyot rivojlanib, takomillashib ilmiy tibbiyotga aylandi. Ammo bu jarayon tez va osongina amalga oshmadi. Amaliy tibbiyotning tajribasi umumlashtirilib, fikrdan o'tkazilib, ilmiy tibbiyotga aylangunga qadar ko'p asrlar o'tdi.

Ilmiy tibbiyotning shakllanish jarayoni quyidagicha amalga oshgan: bemorlarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlarning soni asta-sekin ko'paya borgan. Bu jarayon insonlar o'troq yashash tarziga o'tib, turli o'simliklarni sun'iy ravishda o'stirishni o'rganib olganlaridan so'ng ancha tezlashdi. Buning natijasida tibbiyotda ishlatiladigan juda ko'p dorivor moddalar topildi. Ularning xususiyatlari va qanday kasallikda ishlatilishini esda saqlab qolish qiyinlashdi. Har bir dorining xususiyati va ta'sirini

biror yo'l bilan belgilab qo'yish zaruriyati tug'uldi. Shu vaqtda yozuv kashf etildi. Tabiblar darhol undan foydalanib, har xil dorilarning xususiyatlari va qanday kasallikda ishlatilishlarini yozib qo'ya boshladilar. Shunday qilib, birinchi tibbiy yozuvlar paydo bo'ldi. Bu yozuvlar dastlab retseptlardan iborat edi. Unda dorining nomi, xususiyati, qanday kasallikda ishlatilishini ko'rsatilardi.

Tibbiyotning fan sifatida shakllanishida yozuvning kashf etilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Aynan yozuv tufayli tibbiyot empirik amaliyotdan fanga aylandi. Tabiblar dorilarning xususiyatlarini retseptda ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, har xil kasalliklar va ularning belgilarini yozib bora boshladilar. Shunday qilib birinchi tibbiy adabiyot paydo bo'ldi.

Diqqat-e'tiborli tabiblar faqat bemorlarni davolash bilan cheklanib qolmay, tashrix (odam anatomiyasi) bilan ham qiziqqanlar. Odam organizmida sodir bo'ladigan normal (fiziologik) va kasallik holatlardagi o'zgarishlarni ko'zdan kechirganlar. Bundan tashqari har xil dorilarning organizmga ko'rsatadigan ta'sirini ham o'rganganlar. Bu kuzatishlarda aniqlangan ma'lumotlar yozib borilgan. So'ng ular umumlashtirilib, odam organizmining tuzilishi, undagi fiziologik va patologik o'zgarishlar bayon etilgan kitoblar yozilgan.

Tashxis sohasida turli xil tekshirish va bemorlarni ko'zdan kechirish usullari ishlab chiqilgan. Eng asosiy diagnostik usul bemor tomirini tekshirish hisoblangan. Tomir urishiga qarab, ko'p kasalliklar aniqlangan. Bundan tashqari bemorning siydigi va boshqa chiqindilarini tekshirish usuli ham ishlab chiqilgan. Davolash masalasida rutubatlar nazariyasiga asoslanganlar, ya'ni muvozanat holatidan chiqqan suyuqliqqa ta'sir qilish usulini qo'llaganlar. Masalan, kasallik qonning miqdoriy va sifat jihatidan o'zgarishi natijasida kelib chiqqan, deb faraz qilinsa qon olish usulini qo'llaganlar. Agar safro ko'payib ketganligi yoki uning sifati o'zgarganligi sababli kasallik kelib chiqqan, deb faraz qilinsa safroni haydovchi dorilar berilgan. Shu maqsadda bemorga ich suruvchi va qayt qildiruvchi dorilar ham ichirganlar. Shu yo'l bilan muvozanatdan chiqqan suyuqliklarni o'z holiga keltirishga harakat qilganlar. Muvozanat tiklanganidan keyin kasallik alomatlarini yo'qotuvchi choralarni ko'rganlar. Masalan, bemorda harorat ko'tarilgan bo'lsa uni tushiruvchi, biror joyida og'riq paydo bo'lsa og'riqni qoldiruvchi dorilar berganlar. Umuman davolash simptomatik xarakterga ega bo'lgan.

Faqat jarrohiy kasalliklarda davolash kasallikning sababi va uning oqibatini yo'qotishga qaratilgan edi. Shunday qilib, tibbiyot fan sifatida shakllandi. Lekin, bu yerda shuni ko'rsatib o'tish kerakki u vaqtda ilmiy fikrlash eksperimental tekshirishlar va ko'zdan kechirishlarga asoslanmay, ko'proq mavhum falsafiy fikr yuritishga asoslanardi. Shuning uchun qadimgi zamon ilmiy tibbiyoti katta yutuqlarga erishish bilan birga jiddiy kamchiliklardan ham xoli emasdi.

III bob

QADIMGI SHARQ MAMLAKATLARI TIBBIYOTI

Qadimgi Sharq insoniyat jamiyati taraqqiyotining beshigi hisoblanadi. Ilm-fanning hamma sohalari, shu jumladan tibbiyot ilmi ham dastlab Sharq mamlakatlarida kelib chiqqan. Buni arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan ashyoviy dalillar va qadimgi qo'lyozmalar isbotlaydi. Masalan, Afrika va Osiyo qit'alarida olib borilgan qazilmalar chog'ida qadim zamonlarda yashagan odamlar qanday kasalliklar bilan og'riganlar va qanday usullar bilan davolanganliklarini ko'rsatuvchi juda ko'p ashyoviy dalillar topilgan. Shu dalillar asosida biz uzoq o'tmishning ayrim davrlarida tibbiyot qanday darajada rivojlanganligini bilib olishimiz mumkin.

QADIMGI MISR TIBBIYOTI

Qadimgi Misr madaniy hayot, ilm-fanning rivojlanishi jihatidan boshqa Sharq mamlakatlariga nisbatan yetakchi o'rin egallaydi. Misr tibbiyot sohasida ham eng qadimgi tarixga ega. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Misrda eramizdan oldingi to'rtinchi ming yillikdayoq birinchi tibbiy maskanlar bo'lgan. Xususan, eramizdan oldingi 3600-yilda Fili orolidagi Memfis shahrida afsonaviy tabib Imxoteb¹ sharafiga maxsus ibodatxona qurilgan.

Bu yerda kohinlar bemorlarni parvarish qilish va davolash bilan shug'ullanganlar. Heliopolis va Sais shaharlarida tabiblar tayyorlaydigan maxsus maktablar bo'lgan. Bu maktablarda turli dorilar tayyorlash va ularni ishlatish usullarini o'rgatganlar. Bemorlarga tashxis qo'yish, ularni tekshirish usullarini ham ko'rsatganlar. Qadimgi Misr tibbiyoti papirus, deb ataluvchi yozma manbalarda bayon etilgan. Shulardan bizga Georg Ebers, Edvin Smit, Brugsha ismli olimlar nomi bilan ataluvchi papiruslar ham ma'lum. Bu olimlar o'sha papiruslarni o'rganib izohlab berganlar. Papiruslardan eng diqqatga sazovori Ebers papirusidir. U eramizdan oldingi 1500-yilda yozilgan deb taxmin qiladilar.

Tibga oid papiruslarda asosan turli dorilar, ularni tayyorlash va ishlatish usullari bayon etilgan. Kitobda aytilishicha dorining ta'sir kuchi tabiiy

¹ Imxotebni tabobat xudosi deb ataganlar.

sharoit, bemorning yoshi va kasallikning og'ir-yengilligiga bog'liq. Tabib kasalga dori berishda shu omillarni e'tiborga olishi kerakligi ta'kidlangan. Yosh masalasiga alohida e'tibor berilgan. Chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalarga dori kukun shaklida, sutga qo'shib berilgan. Kattaroq yoshdagi bolalar uchun dori xab shaklida tayyorlangan.

Qadimgi misrliklar kasallikning sabablari haqida ibtidoiy jamoa davridagi tushunchaga o'xshash fikrda bo'lganlar. Misr tabiblari kasalliklarni paydo qiluvchi qandaydir johil kuchlar borligiga ishonganlar. Shuning uchun har qanday kasallikni davolashda birinchi galda har xil afsungarlik usullaridan foydalanganlar. Masalan, shu johil kuchni tanadan chiqarib yoborishga harakat qilganlar. So'ng o'sha johil kuch (ruh) tanada qoldirgan kasallik alomatlarini dori berib yo'qotish yo'lini qilganlar. Bu dorilar asosan simptomatik xarakterga ega bo'lardi. Har bir Misr tabibi afsungarlik usulini bilishi shart edi.

Qadimgi Misrda tajribaga asoslangan amaliy tibbiyot ham mavjud edi. Amaliy tibbiyot vakillari ko'pgina kasalliklarning alomatlari va ularning sabablarini bilganlar. Ular hatto ichaklarda gijjalar bo'lishidan ham xabardor bo'lganlar.

Misr tabiblarining kitoblari asosan har xil retseptlardan iborat edi. Retseptlar juda murakkab tuzilardi. Har bir retseptga 10—15 va undan ortiq moddalar kiritilardi. Retseptlarda faqat dorining nomi ko'rsatilmay, shu bilan birga u qanday kasallikda ishlatilishi va qanday shaklda qo'llanishi ham ko'rsatilardi. Misr tabiblarining retseptlarida xatoliklarga ham yo'l qo'yilgan. Masalan, ba'zi retseptlarda foydali dorilar qatorida foydasiz, hatto zararli moddalar ham uchraydi. Masalan, dorilar qatorida ba'zan sasigan go'sht, achigan sut, qatiq, hayvonlarning tezagi, hovonchada yanchilgan suyak va h.k. uchraydi.

Qadimgi misrliklarning tibga oid kitoblaridan bizga eng ma'lumi Gearg Ebers papirusidir. Bu kitobda o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan kasalliklar va ularni davolash usullari bayon etilgan. Xususan, kishi tanasining har bir a'zosida uchraydigan kasalliklar va shu kasalliklarda ishlatiladigan dorilar ko'rsatilgan. Kitobda ayollarda uchraydigan kasalliklarga alohida o'rin berilgan. Homiladorlik, uning dastlabki belgilari ko'rsatib o'tilgan. Misr amaliy tibbiyotida jarrohiyaga ham alohida o'rin berilgan. Xususan, har bir a'zoning jarohatlanishi, uning belgilari va davolash usullari ko'rsatilgan. Shu yerda xatna qilish usuli haqida ham so'z yuritiladi.



Imxoteb — qadimgi misrliklar tabobat xudosi.

Jarrohiya masalalari Edvin Smit papirusida batafsil bayon etilgan. Unda har xil a'zolarning jarrohiy kasalliklari bir tartibda boshdan boshlab, tananing quyi tomonlaridagi a'zolangacha batafsil yozilgan. Kitobda jarohatlar uch guruhga bo'lingan. 1) davolab bo'ladigan jarohatlar; 2) davolanishi qiyin bo'lgan jarohatlar; 3) davolab bo'lmaydigan jarohatlar. Tabiblar uchinchi guruhga kiruvchi jarohatlarni davolashdan qochganlar.

Qadimgi Misrda tabiblar birinchilardan bo'lib ixtisoslasha boshlaganlar. Masalan, o'sha vaqtdayoq, Misrda ichki a'zolar kasalliklari bo'yicha mutaxassis, ko'z kasalliklari bo'yicha mutaxassis, tish kasalliklari bo'yicha mutaxassis, ruhiy kasalliklar bo'yicha mutaxassis va jarrohlar bo'lgan. Tish mutaxassislari hatto tishni metall (oltin) sim bilan bir-biriga bog'lab qo'yishni (protez qilishni) ham bilganlar.

Qadimgi misrliklar odam o'lganidan keyin uning ruhi yashashda davom etadi, deb o'ylaganlar. Ularning fikricha agar marhumning jasadi saqlansa shu abadiy yashashda bo'lgan ruh marhumga qaytarkan. Shu tushunchaga asosan fir'avnlar, saroy amaldorlari va juda badavlat kishilar o'lganidan keyin ularning jasadi balzamlangan. Jasadni yorib uning tomirlariga balzam yuborganlar. Shu asosda misrliklar odam anatomiyasini boshqalarga nisbatan yaxshiroq bilganlar. Umuman, Misr tabiblari odam anatomiyasi haqida to'laroq bilimga ega bo'lganlar.

Eramizdan oldingi IV asr oxirlarida makedoniyalik Aleksandr (Iskandar Zulqarnayn) qo'shinlari Misrni bosib oldi. Iskandar bu yerda o'z nomini abadiylashtirish uchun, bir shahar barpo ettirdi. Uni Aleksandriya, deb atadilar. Aleksandriya tez rivojlanib, o'sha zamonning mashhur shaharlaridan biriga aylandi. Shaharda ilm-fan va madaniyat yuksalib, ko'p mashhur olimlar yetishib chiqdi. Umumiy rivojlanish jarayonida tibbiyot ham rivoj topdi, yirik hakimlar yetishdilar.

Qadimgi Misr hakimlaridan ikkitasi — Erazistrat va Herofil ayniqsa katta shuhrat qozondirdilar. Erazistrat o'zi kichik osiyolik bo'lgan. U eramizdan oldingi uchunchi asrda yashagan. Tug'ilgan yili ma'lum emas, vafoti 280-yil. Erazistrat tibbiyot ilmini o'sha zamon darajasida puxta bilgan va kasalliklarni muvaffaqiyatli davolagan. Erazistrat Aleksandriyaga ko'chib kelib shu yerda tabiblik kasbi bilan shug'ullangan. Ma'lumotlarga qaraganda, Erazistrat tibbiyot ilmini dastlab odam anatomiyasini o'rganishdan boshlagan va bu sohada muhim kashfiyotlar qilgan. Masalan, u birinchilardan bo'lib bosh miya yumshoq va qattiq pardalar bilan qoplangan ekanligini, miya egri-bugri mayda chuqurchalardan iboratligini, miya ichida suyuqliq saqlovchi qorinchalar mavjudligini bilgan. Erazistratning muhim kashfiyotlaridan yana biri shu ediki, u birinchilardan bo'lib miyada harakatlantiruvchi va sezuvchi asab tomirlari borligini aniqlab bergan edi. Bu bilan u a'zolar (qo'l-oyoq va boshqalar)ning harakatini bosh miya boshqarishini isbotlab berdi. Bu o'sha zamon tibbiyoti uchun katta kashfiyot edi.

Erazistrat yurak va qon tomirlarini ham anatomik va fiziologik jihatdan tekshirdi. Ularning harakatini (qisqarish va kengayishini) o'z ko'zi bilan ko'rdi. Yurak va yurak dahlizi borligini aniqladi. Qorin bo'shlig'idagi a'zolari tekshirib, ichak peristaltikasini ko'zdan kechirdi. Peristaltika tufayli ovqat ichaklarda mexanik jihatdan ishlanishi haqida fikr yuritdi. Bu fikr so'nggi tekshirishlarda isbot etildi.

Aleksandriyalik ikkinchi buyuk olim Herofil edi. Bu olim eramizdan oldingi 300-yilda tug'ulgan. Herofil ham o'z tabiblik faoliyatini anatomiyani o'rganishdan boshlagan. U bosh miya, jigar va yurakni sinchiklab tekshirishdan boshlagan. Miya chuqurchalarini tekshirib to'rtinchi qorincha boshqa qorinchalardan kattaroq ekanligini aniqlagan. Yurak ishini tekshirib, uning harakatida uch davr — sistola, diastola va pauza borligini kuzatgan. Arteriya qon tomirlarini tekshirib, uning urishini yurak ishiga monand ekanligini aniqlagan. O'n ikki barmoq eniga teng keladigan ichak (duodenum)ni birinchi marta ko'zdan kechirgan. Shunday qilib, Herofil odam anatomiyasini chuqur o'rganib, bir qancha muhim kashfiyotlar qilgan edi.

Kasalliklarning sabablari masalasida Herofil unchalik to'g'ri fikrda bo'lmagan. U kasallik ilohiy kuchlarga bog'liq degan fikrni ham e'tirof etardi. Lekin, ayrim kasalliklarni davolashda har xil afsunlar o'qish bilan birga dori-darmonlarni ham ishlatardi.

Herofilning fikricha har bir kasallikning o'ziga xos dorisi bo'ladi, tabibning vazifasi shu dorini topib, uni ishlata bilish, deb uqtirgan. U amaliy tibbiyotda ko'p moddalardan iborat bo'lgan retseptlarni ishlatgan.

Shunday qilib, qadimgi Misr tibbiyoti jahon tibbiyoti tarixida o'z davrida yetakchi o'rin tutgan edi. U jahon tibbiyotining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi, uni boyitdi.

QADIMGI XITOIY TIBBIYOTI

Xitoy — uzoq o'tmishda fan va madaniyat yuksak darajada rivojlangan mamlakatlardan biri bo'lgan. Xitoy tibbiyoti ham uzoq o'tmish tarixga ega. Uning kelib chiqishi sinantrop davriga borib taqaladi.

Qadimgi Xitoy tibbiyoti haqidagi birinchi yozma ma'lumot "Ney-tzin" ("odam tabiati va hayoti") nomli kitob hisoblanadi. Kitob o'sha zamondagi Xitoy imperatori Xuandi sharafiga "Xuandi-neytzin" deb ham yuritiladi. "Xuandi-neytzin", eramizdan oldingi uchinchi mingyillikda yozilgan, deb taxmin qilinadi. Kitobning muallifi Van-Shu-Xe ismli mashhur hakimdir. "Ney-tzin" Xuandi bilan Hakim Van-Shu-Xe o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javob tariqasida yozilgan. Xuandi savol bergan Van-Shu-Xe javob bergan. Shu savol-javob yozib borilgan va kitob sifatida bayon etilgan. Kitobda odam organizmining tuzilishi, uning tabiati

(xususiyatlari), salomatlik, har xil kasalliklarning alomatlari, kasallarga tashxis qo'yish va davolash usullari ko'rsatilgan.

Kitob odam organizmining tuzilishi, uning tabiati va xususiyatlari haqida fikr yuritish bilan boshlanadi. So'ng salomatlik va kasallik, uning sabablari, har bir alohida kasallikning alomatlari, tashxis qo'yish va davolash usullari bayon etiladi.

Odam organizmining tuzilishi va uning tabiati haqida, qadimgi Xitoy tabiblari, samoviy unsurlar tushunchasida bo'lganlar. Ular butun borliq to'rt samoviy unsur (element) — yer, suv, havo va olovdan tashkil topgan, degan naturfilosofik nazariyaga asoslanganlar.

Salomatlik va kasallik masalasida Xitoy tabiblari ikki qarama-qarshi kuch tushunchasida bo'lganlar. Bu tushunchaga binoan, ular odam organizmi ikki, bir-biriga qarshi kuch ta'siri ostida turadi. Shu kuchlar o'zaro muvozanatda bo'lsalar kishining salomatligi saqlanadi, agar ulardan biri ustun kelib qolib muvozanat buzilsa kasallik kelib chiqadi, deb o'ylaganlar. Bu kuchlarning birinchisini "yan", ikkinchisini "in", deb ataganlar. "Yan" harakatchan faol kuch, "in" esa sust inert kuch hisoblangan. O'tgan asrda yashagan taniqli tibbiyot tarixchisi F.R. Borodulinning fikricha Xitoylar "Yan" deganda pnevmani, "in" deganda esa tomirlarda suzib yuruvchi passiv suyuqliqni ko'zda tutgan ekanlar. Xitoy tabiblarining fikricha "yan" nafas yo'llari orqali o'pkaga kirib, undan yurakka o'tib undagi qonni isitadi va uni harakatga keltiradi. "In" esa passivligicha qolib, qon oqimi bilan tanaga tarqaladi. Bu fikrlar hozirgi fan nuqtai nazaridan asosli emas, albatta. Ammo, tabiatda qarama-qarshi omillar borligi aniqdir. Masalan, achchiq-chuchuk, shirin-bemaza, issiq-sovuq, ho'l-quruq va h.k.

Kasallarni tekshirish, tashxis qo'yish va davolashda qadimgi Xitoy hakimlari bir qancha yangiliklar kiritdilar. Ular bemorni juda sinchiklab tekshirganlar, erinmay soatlab kuzatganlar. Xitoylar birinchi bo'lib, bemor tomirini ushlab ko'rib tekshirish usulini qo'llaganlar. Tomir urishini o'zgartiruvchi omillar juda ko'p. Buni birinchi bo'lib xitoylar payqaganlar. Shuning uchun ular bemor tomirini turli holatda tekshirganlar. Xususan, bemor yotgan, tik turgan, o'tirgan holatlarda, ovqatdan oldin, ovqatdan so'ng, kishi tinch turgan holatda va jismoniy harakat vaqtida va h.k. Tananing har bir nuqtasidagi (qo'l, oyoq, bo'yin), tomir urishini bir-biriga solishtirganlar. Tomir urishini tekshirishda bemorning kayfiyati (ruhiy holatiga) ham alohida ahamiyat berganlar. Nihoyat, Xitoy hakimlari kasallikning og'ir-yengiligiga qarab, tomir urishi turlicha bo'lishini ham aniqlaganlar.

Kasallarni davolashda qadimgi Xitoy hakimlari boshqa xalqlarda bo'lmagan ko'p o'ziga xos usullarni qo'llaganlar. Bu usullardan eng mashhuri uchta. Bular, moksa, massaj va igna sanchib davolash usullaridir. Moksa — kasal a'zoni, to'g'rirog'i shu a'zoni qoplab turgan terini quritilgan

turli shifobaxsh o'simliklarni tutatib, bir o'z kuydirishdir. Bu usulning ta'sirini xitoylar qanday tushunganliklari aniq ma'lum emas, lekin uni hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan qaralsa, bu usul teridagi ekstraretseptorlarga (asab tomirlariga) ta'sir qilish prinsipiga asoslanganligi ma'lum bo'ladi. Fiziologiya fanida ekstraretseptorlar orqali ichki a'zolarga ta'sir qilish mumkinligi ma'lum. Demak, moksa usuli ilmiy jihatdan asosli ekanligi isbot etilgan.

Massaj (uqalash) usulidan ham xitoylar keng foydalanganlar. Bu usul oyoq-qo'lni yoki tanani xushbo'y, moysimon moddalar bilan uqalashdan iborat. Xitoylar bu usuldan oyoq-qo'l yoki tanadagi og'riqlarni (miozit, nevrit) davolash uchun foydalanganlar. Qadimgi Xitoyda ishlab chiqilgan va keng tarqalgan davolash usuli igna sanchib muolaja qilishdir. Bu usul ham teri retseptorlariga ta'sir qilish prinsipiga asoslangan. Xitoy hakimlarining fikricha odam tanasida og'riq sezmaydigan 360 ta nuqta bor. Shu nuqtalarga igna sanchiladi.

Igna sanchib davolash usuli akupunktura nomi bilan hozirgi klinikalarda ham qo'llanmoqda. Qadimgi Xitoy hakimlari igna sanchish usulining mohiyatini boshqacha tushunganlar. Ularning fikricha igna tanada yig'ilib qolgan ortiqcha kasallik omillarini chiqarib yuboradi. Shu maqsadda ignaning ichi kavak qilib yasalgan.

Qadimgi Xitoy hakimlari dori-darmonlardan foydalanishda ham muhim natijalarga erishganlar. Ular o'sha vaqtda jahon tibbiyotida ma'lum bo'lgan dori-darmonlardan tashqari bir qancha yangi dorilar kashf etdilar. Masalan, mashhur Jensch va pantokrin shular jumlasidandir. Bulardan tashqari Xitoy limonnigi deb ataluvchi dori ham mavjud. O'sha vaqtdayoq Xitoy tibbiyotida o'simliklar, hayvonlar va minerallardan olinadigan mingdan ortiq dorilar mavjud bo'lgan. Xitoylar birinchilardan bo'lib, dorivor moddalarga bag'ishlangan maxsus qo'llanma (farmakopeya) chiqarganlar.

Xitoy ilmiy tibbiyotining asoschilaridan biri mashhur hakim Byan Syaodir. U eramizdan oldingi VI asrda yashagan. Byan Syao birinchi bo'lib bemorning tomirini tekshirish usulini ishlab chiqqan. Ignasanchib davolash usulini ham Byan Syao birinchilardan bo'lib qo'llagan. Byan Syaoning tibga oid asari "Qiyin masala haqida kitob", deb ataladi. Kitob o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan hamma tashxis va davolash usullarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun uni "Tibbiyot qomusi" deb ataganlar.

Biz yuqorida qadimgi Xitoy hakimlari odam organizmida ba'zi yuqumli kasalliklarga nisbatan qabul qilmaslik xususiyati paydo bo'lishi mumkinligini bilganliklarini ko'rsatib o'tgan edik. Xitoylar birinchi bo'lib chechakka qarshi emlash usulini amalga oshirdilar. Bu o'sha zamon uchun juda katta kashfiyot edi.

QADIMGI HINDISTON TIBBIYOTI

Qadimgi Sharqning yuksak rivojlangan mamlakatlaridan biri Hindistondir. Hindistonning qadimgi zamon tibbiyotini o'rganishda asosiy manba Ayur-Veda nomli kitob hisoblanadi. Ayur-Veda so'zi hayotni bilish, degan ma'noni bildiradi. Tarixda uchta Ayur-Veda bo'lgan. Bular — Atrein Ayur-Vedasi, Charaki Ayur-Vedasi va Sushruta Ayur-Vedasi. Bular ichida Sushruta Ayur-Vedasi alohida o'rin tutadi. Bu kitob eramizdan oldingi VI asrda yozilgan, deb taxmin qiladilar. Kitobda odam organizmining tuzilishi, uning tabiati, sog'liqni saqlash masalalari, kasalliklarni aniqlash va davolash masalalari bayon etilgan.

Hindiston olimlari odam organizmining tuzilishi, uning tabiati masalasida xitoyliklar singari samoviy unsurlar nazariyasiga asoslanganlar. Hindlar ma'lum 4 unsurga yana beshinchi — ilohiy unurni qo'shdilar. Bu unsurlardan uchtasi organizmga ovqat moddalari sifatida havo-nafas yo'llari orqali kiradi, deb tushunganlar. Hind olimlarining fikricha organizmning tabiati shu unsurlarga bog'liq. Unsurlar o'z sifatlarini odam organizmiga beradilar. Shu sifatlar odam organizmining tabiatini belgilaydi. Demak, odam organizmida quruqlik, ho'llik, issiqlik va sovuqlik xususiyatlari mavjud.

Sog'liqni saqlash masalasida qadimgi hindlar birinchi o'ringa gigiyena qoidalariga rioya qilishni qo'yganlar. Xususan, tanani, kiyim-kechakni, ko'rpa-to'shakni, uy-joyini ozoda saqlashga alohida ahamiyat berganlar. Bundan tashqari jismoniy tarbiya mashqlarining ahamiyatini ham ko'rsatganlar. Oziq-ovqat masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Ko'p kasalliklar ovqatlanish rejimining buzilishidan kelib chiqishini alohida ta'kidlagan.

Kasalliklarni aniqlash va davolashda qadimgi hind hakimlari bemorni har tomonlama tekshirish, u bilan uzoq suhbatlashish (anamnez to'plash) va uni sinchiklab ko'zdan kechirishni tavsiya etganlar. Bemorning tomir urishini tekshirishga alohida ahamiyat berganlar.

Sushruta Ayur-Vedasida 1500 dan ortiq kasalliklarning belgilari bayon etilgan. Ularni aniqlash usullari ko'rsatilgan. Sushruta tibbiyot tarixida birinchi bo'lib yallig'lanish jarayonini to'liq ifodalab bergan. Bular — shish paydo bo'lishi, yallig'langan joyining qizarishi, haroratning ko'tarilishi, og'riq paydo bo'lishi va yallig'langan a'zoning funksiyasi ishdan chiqishidir.

Kasalliklarning kelib chiqishi masalasida qadimgi hind tabiblari rutubatlar (humoral) nazariyasiga asoslanganlar. Bu nazariyaga binoan

har qanday kasallikning umumiy sababi, a'zodagi to'rt suyuqlik (qon, safro, savdo va nazla)ning biri yoki, undan oshig'i miqdor yoki sifat jihatdan o'zgarishiga bog'liq, deb hisoblangan.

Kasalliklarni davolashda qadimgi hind tabiblari ishlatgan dorilarning soni 800 ga yaqin bo'lgan. Bular qatorida o'simliklar, hayvon a'zolari va mineral moddalar ko'pchilikni tashkil etadi.

Tabiblar bemorga dori berishdan oldin, uning organizmini ortiqcha rutubatlardan tozalash chorasini ko'rganlar. Bu bilan rutubatlarni muvozanat holatiga keltirmoqchi bo'lganlar. Shu maqsadda ko'pincha bemor tomiridan qon olganlar. Shundan so'ng bemorga dori-darmon berilgan va boshqa davo choralari amalga oshirilgan. Masalan, uqalash (massaj), vanna qabul qildirish va h.k.

Qadimgi hind tibbiyotida jarrohlik usuli juda rivoj topgan edi. Ayniqsa Sushruta juda mohir jarroh bo'lgan. Jarrohlar qovuqdagi toshni chiqarib olish, churrani operatsiya qilish, qattiq jarohatlanib ishga yaroqsiz bo'lib qolgan qo'l yoki oyoqni kesib tashlash, ko'z kataraktasini operatsiya qilish kabi usullarni muvaffaqiyatli amalga oshirganlar.

Hindlarda ayollar jarrohiyasi ham yaxshi rivoj topgan edi. Masalan, o'zi tug'a olmagan (tor chanoq sababli) homilador ayolning qornini yorib bolani chiqarib olish, bolaning boshi juda katta bo'lib o'sib ketgan bo'lsa onaning hayotini saqlab qolish uchun, katta o'sib ketgan boshni bo'laklarga bo'lib chiqarib olish, ona qornidagi bola ko'ndalang yotib qolgan bo'lsa, u tug'ilmasdan oldin, ona qornidaligida oyoq yoki boshini past tomonga aylantirish va h.k.

Qadimgi hind tabiblarining jarrohiya sohasida erishgan eng katta yutuqlari plastik operatsiyadir. Xususan, hind jarrohlari biror yetishmagan, yoki biror sabab bilan kesilib ketgan a'zoni tiklashda katta natijaga erishganlar. Bunday, operatsiya usuli o'sha vaqtda faqat hind tibbiyotida amalga oshirilgan. Plastik operatsiya sohasida Sushrutaning o'zi ayniqsa mashhur bo'lgan. U quloq, burun, lab kabi a'zolari plastik operatsiya usuli bilan tiklagan. Bu operatsiyalarni u juda mohirlik bilan bajargan. Plastik operatsiyalarda ishlatiladigan qurol va asboblari juda takomillashgan va xilma-xil bo'lgan. Ularning soni 200 dan ortiq edi. O'sha zamondagi plastik operatsiya "hind usuli" nomi bilan ma'lum bo'lgan.

Atreyn, Charaki Ayur-Vedalar ham Hindiston tibbiyoti tarixida muhim rol o'ynaganlar. Bu kitoblarda ham o'sha zamonda ma'lum bo'lgan kasalliklar, ularni aniqlash va davolash usullari bayon etilgan.

Shunday qilib, Hindiston ham tibbiyot sohasida yuksak darajada rivojlangan qadimgi Sharq mamlakatlaridan biri bo'lgan.

QADIMGI TIBET TIBBIYOTI

Qadimgi Tibetda ham tibbiyot yaxshi rivoj topgan edi. Bu mamlakatda tibbiyotning rivojlanishiga qadimgi Xitoy va Hind tibbiyoti ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Tibet tibbiyoti bilan biz "Jud-Shi" nomli kitob orqali tanishamiz. Bu kitob Xitoy tilidan tarjima qilingan, deb hisoblaydilar. Kitobda turli kasalliklar, ularning belgilari va davolash usullari bayon etilgan. Kasalliklar ayrim a'zolar bo'yicha ko'rsatilgan. Masalan, o'pka kasalliklari, jigar kasalliklari, me'da kasalliklari va h.k. "Jud-shi"da dori-darmonlardan foydalanishga alohida ahamiyat berilgan. Dori o'zining ta'mi bilan va moddasi orqali ta'sir etadi, deb ko'rsatilgan. Kitobda inson salomatligini saqlash masalasiga ham katta e'tibor berilgan.

Tibet hakimlari kasalliklarni 4 guruhga bo'lganlar. Bular — oson davolanadigan kasalliklar, qiyin davolanadigan kasalliklar, juda qiyin davolanadigan kasalliklar va davolab bo'lmaydigan kasalliklar. Tabiblar uchinchi va to'rtinchi guruh kasalliklarni davolashdan qochganlar.

Kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablar haqida Tibet tabiblari quyidagicha fikr yuritganlar: odam tanasida uch xil modda (havo, xilt va safro) aylanib yuradi. Shu uch moddaning miqdori va sifati barobar bo'lsa kishining salomatligi saqlanadi. Agar muvozanat buzilsa, kasallik kelib chiqadi. Ayniqsa safroning o'zgarishi xavflidir. Tibet tabiblarining fikricha, jigar kishi organizmida hayotiy jarayonlarni tartibga solib turadi. Shuning uchun jigar o'tining o'zgarishi (buzilishi) ko'p kasalliklarga sabab bo'ladi.

Tibet tibbiyotida shu uch modda asosida inson tanasining tabiati belgilangan. Bu tabiat shu uch moddaga bog'liq, deb tushunganlar.

Tibet tibbiyotida ham kasalliklarni aniqlash ya'ni tashxis qo'yish usuli yaxshi ishlab chiqilgan. Bu usul ma'lum qoidaga asoslanadi. Qoidada bunday deyilgan: "Tibbiyotning asosiy vazifasi bemorni sinchiklab ko'zdan kechirish, u bilan suhbat qilish (ya'ni anamnez to'plash) va har taraflama tekshirishdan iborat. Bemor tanasini eshitish ham kerak".¹

Kasalliklarni davolashda ham Tibet tabiblari yaxshi natijalarga erishganlar. Davolash usuli maxsus ishlab chiqilgan tartib asosida olib borilgan. Bunda birinchi galda bemor uchun yaxshi sharoit yaratib berish ko'zda tutilgan. Ikkinchi tadbir bemorga foydali va oson hazm bo'ladigan ovqatni tanlashdir. Tanlangan taom bemorga yoqishi kerak. Shu sharoitlar

¹ Bu yerda auskultatsiya ko'zda tutilgan bo'lsa kerak.

yaratib berilgandan so'ng bemorga dori-darmonlar beriladi. Dori-darmon yordam bermasa jarrohiy usuldan foydalanganlar.

Tibet tabiblari 400 dan ortiq kasallik turlari va 1500 ga yaqin kasallik aloqatlarini bilganlar. Bu yerda tabiblar ayollar va bolalarda uchraydigan kasalliklarning murakkabligi va qiyin tuzalishini ko'rsatib o'tganlar. Tibet tibbiyotida bunday naql bor: "O'nta erkakni davolashdan ko'ra bitta ayolni davolash va o'nta ayolni davolashdan ko'ra bitta go'dakni davolash qiyindir".

Tibet tibbiyotida ham hind tibbiyotiga o'xshash jarrohiyaga alohida ahamiyat berilgan. Jarrohiy usulni bilmagan tabibni haqiqiy tabib deb atash mumkin emas, deyilgan. Bu haqda tibet tibbiyotida, quyidagi naql mavjud: "Jarrohlikni bilmagan tabib — tabib emas, u qilich ichlatishni bilmaydigan sipohiga o'xshaydi".

Tibet tabiblari ishlatgan dorilarning soni ham ko'p bo'lgan. Ular 1000 dan ortiq dori-darmon xillarini bilganlar.

Tibet tabiblari kasalliklarni davolashda dorilar bilan birga gigiyenik qoidalardan va tabiat vositalaridan ham foydalanganlar. Ular kasallikdan saqlanish masalasiga katta ahamiyat berganlar. Shu maqsadda tozalik qoidaloriga rioya qilish, o'z vaqtida dam olish, uxlash, yomon odatlardan saqlanish, vaqtida sifatli ovqatlanishni tavsiya etganlar. Bundan tashqari, turli yo'llar bilan organizmni chiniqtirish, ko'proq ochiq havoda bo'lish, sayr qilish, tog' tepasiga chiqish, daryoda cho'milish ham yaxshi foyda berishini ta'kidlaganlar. *Har xil sport o'yinlarini ham tavsiya etganlar.*

Tibet tibbiyotida ta'kidlanishicha shu yuqorida ko'rsatilgan tadbirlarni bajarib yurgan kishilar juda kam kasal bo'ladilar. Tibet tibbiyoti ham o'sha davr Sharq tibbiyotida muhim o'rin tutgan.

QADIMGI BOBIL (VAVILONIYA) TIBBIYOTI

Eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda Dajla va Frot daryolari oralig'ida Babil davlati vujudga keldi. U yerda yashovchi xalqlar amoriylar, deb atalardi. Amoriylar sulolasi 400 yilga yaqin hukm surdi. Bu mamlakatda fan va madaniyat shoh Hammurapiy davrida (eramizdan oldingi XVIII asr) ayniqsa yuksak darajaga ko'tarildi. Shu jumladan tibbiyot ham ancha rivojlangan edi. Ammo, tibbiyot asosan koinlar (ruhoniylar) qo'lida edi. Tibbiy maskanlar ibodatxonalar qoshida barpo etilardi. Tibbiyot ishi bilan shug'ullanuvchi ozod kishilar ham bor edi. Ularning faoliyati hokimiyat tomonidan chiqarilgan maxsus qonun bilan belgilab qo'yilgan edi. Qonunda bunday deyilgan: "O'z kasbini yaxshi bilmagan yoki umuman davolash ishini o'zlashtirib olmagan kishi bu ish bilan shug'ullanib bemorga zarar keltirsa u qattiq jazolanadi — uning barmoqlari kesib tashlanadi". Bundan ma'lum bo'ladiki, qadimgi Bobilda tabiblar oldiga

juda qattiq talab qo'yilgan. Qonunda yana tabiblarning mehnatiga yarasha haq to'lash kerakligi ham ko'rsatilgan. Masalan, qonunning 22-moddasida bunday deyilgan: "Tabib singan suyakni biriktirib qo'ysa yoki shish kasalligini operatsiya usuli bilan davolab tuzatsa, bemor tabibga 5 shekel kumush tanga berishi kerak". Binobarin tabiblar yaxshi xizmat haqi olish va o'z barmoqlaridan ajralmasiik uchun kasallarga to'g'ri tashxis qo'yish va muvaffaqiyatli davolashga qattiq uringanlar.

Kasalliklarning umumiy sabablari masalasida qadimgi Bobil tabiblari ham rutubatlar nazariyasiga asoslanganlar. Odam anatomiyasini ham birmuncha yaxshi bilganlar. Masalan, tanada qizil qon tashuvchi arteriyalar va qora qon tashuvchi vena qon tomirlari mavjudligini bilganlar.

Kasallarni davolashda har xil shifobaxsh o'simliklar, mineral moddalar va hayvonlardan olingan dorivor moddalardan foydalanganlar. Lekin, asosiy davolash ishi ibodatxonalarda olib borilgan. Bu ish bilan asosan kohinlar va rohiblar shug'ullanganlar. Shuning uchun kasalliklarning mohiyati diniy tushuncha bilan izohlangan. Tibbiyotda astrologik tushuncha hukmron edi. Bu tushunchaga binoan har bir kishining taqdiri, uning salomatligi yoki kasallikga uchrashi samodagi yulduzlarga, ularning samodagi holatiga bog'liq deb tushunganlar. Yulduzlar emanatsiya yo'li bilan yerdagi barcha mavjudotlarga, shu jumladan odamlarga ham, ta'sirini ko'rsatadi, deb faraz qilganlar. Kasallik ham shu emanatsiya tufayli kelib chiqadi, deb o'ylaganlar. Umuman Bobil tibbiyotida ruhoniylar yetakchi o'rin egallaganlar. Ruhoniy tabib asosiy tabib, boshqa tabiblar ikkinchi darajali tabib, deb hisoblangan.

QADIMGI ERON TIBBIYOTI

Fan, madaniyat va tibbiyot ancha yuksalgan qadimgi Sharq mamlakatlari qatoriga Eron ham kiradi.

Eron tabiblari ham boshqa Sharq mamlakatlari tabiblari singari kishining sog'lig'i yoki kasallikning kelib chiqishi rutubatlariga bog'liq deb tushunganlar. Shu bilan birga sog'liq va kasallik kishining ruhiy holatiga bog'liq, degan fikrni ham quvvatlaganlar. Masalan, ularning ta'kidlashicha jaholat kishi ishtahasini bo'g'ib kasallik paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Yaxshi kayfiyat va xursandchilik esa bemorning ko'nglini ko'tarib, uni sog'aytiradi. Qadimgi eronliklar (parslar)ning o'z tibbiyot xudolari bo'lgan. U Traeton deb atalgan. Bu nom mashhur Avesto kitobida ham uchraydi.

Eronda tajribaga asoslangan amaliy tibbiyot ham ancha rivojlangan edi. Bu tibbiyotning vakillari bemorlarni davolashda har xil shifobaxsh o'simliklar, ma'danlar va hayvon mahsulotlaridan foydalanganlar.

Qadimgi Eronda tabiblar alohida guruhlarga bo'lingan edilar. Masalan, fuqarolarni davolovchi tabiblar, dengizchilarni davolovchi tabiblar va quruqlikdagi harbiylarni davolovchi tabiblar bo'lganlar. Bular harbiylar o'rtasida kasallik tarqalib ketmasligiga alohida ahamiyat berganlar. Kasallikning oldini olish Eron tibbiyotining asosiy vazifasi hisoblangan. Eron tibbiy aforizmlaridan birida bunday deyilgan: "Kasallik tanaga ziyon yetkazishidan oldin sen uni sug'urib tashla".

Qadimgi Eronda tabiblarga nisbatan alohida talablar qo'yilgan. U o'z kasbini yaxshi egallagan bilimdon kishi bo'lmog'i kerak. Kasallarga nisbatan muloyim so'z, xushmuomala, mehribon, dost bo'lishi zarur. Bemorga uning kasalligi haqida ezmalik qilib ko'p gapirmasligi lozim. Sir saqlanishi zarur bo'lgan narsalarni unga aytmasligi kerak.

Tashxis qo'yishda bemorlar bilan yaqin suhbatda bo'lishi (anamnez yig'ishi) juda muhim ish hisoblangan. Bunda bemorning subyektiv hislarini e'tiborga olganlar. "Agar bemor o'z kasalligini yashirsa, u o'zini o'zi aldagan bo'ladi", deyilgan.

Qadimgi Eron tabiblari ko'p sohalar bo'yicha ixtisoslashgan edilar. Masalan, ular orasida kakhollar (ko'z kasalliklari bo'yicha mutaxassislar), jarrohlar, tish tabiblari, tanosil a'zolari kasalliklari mutaxassislari, ruhiy kasalliklar tabiblari va hatto ayollar kasalliklari bo'yicha mutaxassislar bo'lganlar.

Jarrohlarning oldiga katta talab qo'yilgan. Ular kasallarni operatsiya usuli bilan davolashga kirishishdan oldin o'z mahoratlarini ko'rsatishlari zarur bo'lgan. Buning uchun ular kamida uchta operatsiyani muvaffaqiyatli bajarishlari kerak. Eron jarrohlari operatsiya vaqtida og'riqsizlantiruvchi moddadan foydalanganlar. Qadimgi Eron tabiblari bir qancha kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolash usullarini juda puxta ishlab chiqqanlar. Masalan, ular har xil isitmali kasalliklar, bezgak, bavirusil, chechak, trofik yaralar, dizenteriya, yallig'lanishlar, teri kasalliklari, parazitlar kasalliklarini yaxshi bilganlar va ularni muvaffaqiyatli davolaganlar.

Eron tabiblari ishlatgan dorilarning xili ko'p bo'lgan, ularni har xil shaklda — qaynatma, hab (tabletkalar), kukun (poroshok), surtma dori, tomizg'i dori sifatida ishlatganlar.

Eron tabiblari ham qadimgi Xitoy tabiblari singari immunitet paydo qilish usulini bilganlar.

Ular ba'zi bir kasb kasalliklarini ham bilganlar. Masalan, ularga mo'ynachilar, temirchilar, teri ishlovchi kosiblarda uchraydigan kasalliklar ma'lum bo'lgan. Eron tabiblari amalga oshirgan ba'zi tashxis va davolash usullari hozir ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.

IV bob

QADIMGI O'RTA OSIYO XALQLARI TIBBIYOTI

Qadimgi O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlar (bizning ajdodlarimiz) tibbiyoti ham boshqa Sharq xalqlari tibbiyotiga o'xshash bo'lgan. Ayniqsa Eron tibbiyoti bilan O'rta Osiyo xalqlari tibbiyoti o'rtasida umumiylik sezilarlidir. Bu mamlakatlarning tabiiy-jug'rofiy sharoiti, hayot tarzi, an'analari, diniy e'tiqodlari (zardushtizm) bir-biriga juda yaqin bo'lgan. Shuning uchun ularning tibbiyoti ham umumiy xarakterga ega edi.

O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekiston hududida qadim zamonlarda yashagan xalqlarning tibbiyoti haqidagi birinchi yozma ma'lumotlarni biz zardushtiylarning diniy-muqaddas kitobi "Avesto" dan topamiz.

Avesto O'rta Osiyo, Eron va Ozarbayjon hududida qadim zamonlarda yashagan xalqlarning diniy aqidalari haqidagi muqaddas kitobdir. Kitobni eramizdan oldingi VI asrda yashagan Zardusht yozgan, deb hisoblaydilar. Abu Rayhon Beruniy ham shunday fikrda bo'lgan. U mazkur shaxsni Zardusht ibn Safid Tuman, deb atagan.

Avestoda O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarda yashagan xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotiga oid ko'p ma'lumotlar bayon etilgan. Unda tibbiyotga oid ma'lumotlar ham mavjud. Kitob avvalo tibbiyotning mustaqil kasb ekanligini e'tirof etadi va tabiblarga bemorlarni davolaganlari uchun haq to'lash kerakligini ta'kidlaydi. Bu haqda kitobda bunday deyilgan: "Kohinlarga duo o'qiganlari uchun, tabiblarga kasallarni davolaganlari uchun, ularni chaqirganlarning daromadlariga qarab haq to'lash lozim". Bunda tabiblarning mehnat haqi rasmiy jihatdan belgilab qo'yilgan. Masalan, viloyat hokimini davolagani uchun ikki juft qora mol, tuman hokimini davolagani uchun ot aravasi bilan, jamoa boshlig'ini davolagani uchun bitta buqa berish lozimligi ko'rsatilgan.

Avesto uch kitobdan iborat. Birinchi kitob "Vendidat" ("Videvdat") deb ataladi. U jismoniy va ruhiy poklanish haqidagi qonunlar majmuasidan iborat. Ikkinchi kitob "Vispred" ("Vispart"), ya'ni hamma narsani bilish deb ataladi. U odamlar hayoti haqidagi tushunchalardan iborat. Uchinchi kitob "Yasna" deb ataladi. Bu kitobda zardushtiylar dinining ibodat qoidalari ko'rsatilgan. Biz uchun bu kitoblardan muhimi Vendidatdir. Bu kitobda tibbiyotga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Vendidat 22 bobdan iborat. Shulardan 8 tasi (V—XII boblar) tibbiyot nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Xususan, unda salomatlikni saqlash uchun nimalar qilish

zarurligi ko'rsatilgan. Birinchi galdga o'lgan odamning jasadidan ehtiyot bo'lish zarurligi ta'kidlangan. Kitobda yozilishicha, o'lgan odamning jasadida tiriklar uchun xavfli xususiyat paydo bo'ladi. Shuning uchun murdaga yaqinlashmaslik kerak deb uqdirilgan. Aftidan, o'sha vaqtdayoq kishilar murda zahari mavjudligidan xabardor bo'lganlar. Bundan tashqari, murda orqali har xil yuqumli kasalliklar tarqalishi mumkinligini ham taxmin qilgan bo'lsalar kerak. Zardushtizm dini yer, suv va havoni muqaddas deb e'lon qilgan. Ularni iflos qilish katta gunoh hisoblangan. Modomiki, murda o'zida kishilarga zarar keltiruvchi xususiyat paydo qilar ekan, uni yerga ko'mish, suvga cho'ktirish va yoqish mumkin emas. Chunki, u mazkur tabiat omillarini zaharlaydi. Natijada undan kishilar zararlanadilar. Shu sababdan o'lgan kishining jasadini aholi yashaydigan yerdan uzoq joyga olib borib, tepaliklarda ochiq qoldirganlar. U yerda murdaning yumshoq qismlarini jovvoyi hayvonlar yeb tugatganlaridan so'ng, uning suyaklarini yig'ib, ossuariy (suyakdon) larga solib, uyda maxsus qurilgan katakka (tokchaga) qo'yib saqlaganlar. Bunday ossuariylar O'rta Osiyo hududlarida ko'p topilgan. Vendidatda yozilishicha, birinchi bo'lib, Trita ismli zot tabiblik ishi bilan shug'ullangan. U birinchi bo'lib odamlarni kasallik va o'limdan saqlagan. Tritaga yaxshilik Xudosi Oxuramazda kasallarni davolash uchun samodan 10000 xil dori yuborgan. Trita xaoma, deb ataluvchi ichimlikni kashf etgan kohin hisoblanadi. Xaomani hayot va sog'liq manbai deb ataydilar.

Avestoda Traeton ismli tabib haqida ham ma'lumot keltirilgan. Qadimgi Eronliklar uni tabiblik xudosi, deb ataydilar. Ularning yozishicha Traeton har xil isitmalar, qichimalar, zaharlanishlar kabi kasalliklarni davolovchi dori kashf etgan. Fikrimizcha Trita va Traeton ikki nom bilan ataluvchi bir zot bo'lsa kerak.

Avestoda tibbiyotning kelib chiqishi haqida bir rivoyat bor. Unda aytilishicha, odamlarga tabiblik san'atini Yima ismli zot o'rgatgan. Bu zotni Nuh payg'ambarga nisbat qiladilar.

Avestoda odam anatomiyasi va fiziologiyasi haqida ham ba'zi ma'lumotlar mavjud. Unda odam gavdasi quyidagi qismlardan iborat, deb ko'rsatilgan: suyaklar, muskullar, yog'lar, miya, tomirlar, qon, jigar va jigar o'ti. Ikki xil tomir mavjudligi ko'rsatilgan. Ulardan biri qizil (sog'lom) qon oquvchi ikkinchisi qora (nosog'lom) qon oquvchi tomirdir. Bulardan tashqari oq qon tashuvchi yoki umuman qon tashimaydigan tomir ham borligi ko'rsatilgan. Bu yerda limfatik yo'llar (tomirlar) yoki asab tomirlari ko'zda tutilgan bo'lsa kerak. Kitobda qon, o't (jigar o'ti) va zurriyatning paydo bo'lishi haqida o'ziga xos fikr yuritiladi. Unda o't jigarda, qon yurakda, zurriyat (urug') umurtqa ustuni kovagida (kanalida) ishlab chiqiladi deyilgan. Sezish, hid bilish, eshitish, ko'rish va ta'm bilish markazlari miyada joylashgan deb tog'ri fikr

yuritilgan. Odam a'zolaridan suyak iligiga alohida ahamiyat berilgan. Hayot markazi shunda joylashgan, deb yozilgan. Hayot o't (olov)li jarayondir deb ko'rsatilgan. O'lim esa yonib tugashdir deyilgan.

Kasalliklarning kelib chiqishi masalasida bir necha xil fikr aytilgan. Avvalo kasallik Axriman deb ataluvchi johil ilohiyat bilan bog'langan. Har qanday kasallik shu Axrimanning ruhi kishi tanasiga kirishi bilan boshlanadi deb hisoblangan. Kasallik kishi organizmiga zararli yel (shamol)ning ta'siridan ham kelib chiqadi, deyilgan. Yozilishicha yel ikki xil — issiq va sovuq bo'ladi. Sovuq yel sovuqlik, issiq yel issiqlik paydo qiladi. Issiq yel ayniqsa xavflidir. Chunki unda Axrimanning ko'zga ko'rinmaydigan mayda bo'laklari bo'ladi, deyilgan.

Kitobda bu xayoliy fikrlardan tashqari haqiqatga yaqin amaliy mulohazalar ham mavjud. Masalan, kasallik paydo qiluvchi omillar qatoriga oziq-ovqat ham kiritilgan. Xususan, to'yib ovqat yemaslik, yoki aksincha badxo'rlik, sifatsiz ovqat iste'mol qilish kasallik keltirib chiqaradi, deb to'g'ri fikr yuritilgan. Odamlarning ruhiy holatiga ham alohida ahamiyat berilgan. Masalan, "chuqur o'ylash", ya'ni ruhiy tushkunlik kasallik keltirib chiqaradi, deyilgan. Har xil hasharotlar chaqishi natijasida ham kasallik paydo bo'ladi, deb yozilgan. Ammo, hasharotlarni Axriman yuboradi, deb yanglish fikr aytilgan.

Kasalliklardan qutilish masalasida avval yaxshilik xudosi Oxuramazdaga sajda qilmoq kerak, faqat uning yordami bilan kasallikdan qutilish mumkin, deyilgan.

Amaliy jihatdan Avestoda uch xil davolash usuli ko'rsatilgan. Bular — pichoq bilan davolash ya'ni jarrohiya, o'simliklar bilan davolash va avrash usuli bilan davolash. Hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan oxirgi usulni psixoterapiya, deb atash mumkin. Ammo, u zamondagi tabiblar bu usulning mohiyatini boshqacha tushunganlar. Ularning fikricha, kasallikni johil kuchlar paydo qiladi, shuning uchun uni avrash va afsungarlik usullari bilan tanadan chiqarib yuborish kerak, deb o'ylaganlar. Bu usul davolashning asosiy usuli hisoblangan. Amaliy tibbiyotda jarrohiy usullardan ham keng foydalanganlar. Demak, o'sha vaqtda jarrohiya yaxshi rivojlangan bo'lgan. Yaxshi tajribali jarrohlar ham bo'lgan.

Bemorlarni davolashda shifobaxsh o'simliklardan ham keng foydalanganlar. Avestoda ko'p dori-darmonlar o'simliklardan olinishi ko'rsatilgan. Kitobda o'simliklar orasida zaharlilari ham ko'p uchrashi ta'kidlanib, unga ehtiyot bo'lish ta'kidlangan.

Avestoda tibbiyotning asosiy vazifasi nimadan iborat, degan masalaga alohida ahamiyat berilgan. Bu masalada Avestoda aytilgan fikr hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan ham to'g'ridir. Chunonchi, unda tibbiyotning asosiy ishi tananing sog'lig'ini saqlashdan uborat deb, ko'rsatilgan. Tana sog'lig'ini saqlash va turli kasalliklarga qarshi muvaffaqiyatli kurashish

uchun birinchi galda gigiyenik qoidalarga rioya qilish va turar-joylarni obodonlashtirish kerakligi uqdirilgan. Xususan, chirib buzilayotgan narsalarga yaqinlashmaslik, turar-joylarni ozoda saqlash, obodonchilikka ahamiyat berish, ekin maydonlaridan to'g'ri foydalanish. Ko'proq mevali daraxtlar ekish va h.k. Zardusht eng muhim tadbirlardan biri sifatida aholini toza suv bilan ta'min etish, deb ta'kidlagan. Aholi iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari yetarli va yaxshi sifatli bo'lishi kerak, deb ko'rsatilgan. Kitobda to'g'ri ovqatlanish masalasiga alohida ahamiyat berilgan. Yetarli darajada ovqat bilan ta'min etilmagan xalq kamquvvat bo'ladi, bolalari yaxshi o'smaydi deyilgan. Avestoda kimki uzoq vaqt ovqat yemay yursa, u zaiflashib, bola yaratish qobiliyatini yo'qotadi, deyilgan.

Zardusht ba'zi demografik masalalarga ham ahamiyat bergan. Masalan, u aholi sonining ko'payishini ijobiy jarayon, deb hisoblagan. Yoshlar jismoniy va aqliy jihatdan yetuk bo'lib o'sishlari lozim, degan. Zardushtning ko'rsatishicha qiz bola 15 yoshdan boshlab bola tug'ish qobiliyatiga ega bo'ladi. Demak, u shu yoshdan erga tegishi mumkin. Aholi (millat) salomatligi uchun yigit faqat sog'lom qizga uylanishi kerak. Er o'z xotini uchun sog'lom hayot sharoitini yaratib berishi zarur. Ayniqsa xotini homilador bo'lganida unga nisbatan alohida g'amxo'rlik qilishi lozim. Shundagina ayol yetuk va sog'lom bola tug'adi.

Zardusht dini o'zining hayotga yaqinligi bilan boshqa dinlardan farq qiladi. U asketizmga berilishni qoralaydi. Unda yozilishicha kishilar o'z mehnatlari bilan real dunyoda o'zlari uchun eng yaxshi yashash sharoitini yaratishlari va sog'lom, uzoq umr ko'rishlari mumkin. Avesto bo'yicha O'rta Osiyo xalqlarining tibbiyoti va erishgan natijalari shulardan iborat.

Eramizdan oldingi IV asrning oxirlarida O'rta Osiyoni makedoniyalik Aleksandr qo'shinlari zabt etdilar. Bu yerda dastlab Yunon-Makedoniya, So'ng Yunon-Baqtriya davlatlari vujudga keldi. Yunonlar O'rta Osiyoga o'z hayot tarzlari va madaniyatlarini olib keldilar. O'sha davrda Yunoniston o'zining yuksak madaniyati va ilm-fani bilan jahonga mashhur edi. Mamlakatda buyuk faylasuflar, olimlar, donishmandlar yetishib chiqqan edi. Shular qatorida mashhur hakimlar ham bor edi. Shulardan eng mashhuri jahon ilmiy tibbiyotiga asos solgan buyuk Gippokratdir.

Yunonlar O'rta Osiyoni zabt etib, o'z hukmronliklarini o'rnatganlaridan so'ng bu yerga yunon savdogarlari, sayyohlari va turli kasb egalari kela boshladilar. Ulardan ko'plari O'rta Osiyo shaharlarida o'rtnashib qolib, bu yerda kasblari boyicha ishlay boshladilar. Ular qatorida hakimlar ham oz emas edi. Ammo, bizning qo'limizda o'sha davr tibbiyotiga oid ma'lumotlar mavjud emas.

Eramizdan oldingi II asrning oxirida Yunon-Baqtriya davlati yemirilib, uning o'rnida Kushon davlati vujudga keldi. Tarixiy ma'lumotlarda

aytilishicha, Kushon davlati ko'p Sharq va G'arb mamlakatlari bilan savdo-sotiq va iqtisodiy munosabatda bo'lgan. Tibbiyot sohasida ham tajriba va bilim almashib turilgan. O'rta Osiyo tabiblari ishlatadigan dori-darmonlar chet ellardan keltirilgan dorivor moddalar bilan boyigan. Kushon davlati eramizning V asriga qadar hukm surdi.

VI asrning o'rtalarida Eftalitlar davlati vujudga keldi. Eftalitlar davri bu yerdagi xalqlar hayotida iqtisodiy va madaniy jihatdan yangi yuksalish davri bo'ldi. Bu davrdagi eng muhim voqea yozuvning ixtiro etilishi edi. Yozuvning kashf etilishi mamlakat madaniy va ilmiy hayotida juda katta ahamiyat kashf etdi. Dastlabki kitoblar paydo bo'la boshladi. Ular qatorida tibga oidlari ham bo'lgan, albatta. Ammo, hozircha o'sha davrga oid tibbiy yozuvlar topilgan emas.

O'sha vaqtda O'rta Osiyoda Buddizm va boshqa dinlar tarqala boshladi. Ammo, Zardushtizm ham saqlanib qolgan edi. Lekin, u ilgari zardushtlikka nisbatan boshqacharoq ma'no kashf etgan edi. U boshqa dinlar bilan chalkashib ketdi. Unda yangi tushunchalar paydo bo'ldi. Xususan, Anaxita, Siyovush va Mitra kabi afsonaviy shaxslar nomi bilan bog'landi. Eftaliylar davlati VI asrning oxirlarigacha hukmronlik qildi. Bu davrga kelib Markaziy Osiyoda Turk hoqonligi tashkil topdi. Turk hukmronlari mamlakatning siyosiy va madaniy jihatdan yuksalishiga katta ahamiyat berdilar. Qadimgi Vizantiya, Xitoy, Hindiston kabi yuksalgan mamlakatlar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalar bog'landi. Mamlakat shaharlarida ichki bozor va tashqi savdo tez rivojlana boshladi. Masalan, o'sha vaqtga Shosh (Toshkent) savdogarlar shahri, deb nom chiqargan edi.

Umumiy iqtisodiy va madaniy yuksalish jarayonida tibbiyot ham rivoj topdi. Lekin, u davrdagi tibbiyot haqida aniq ma'lumotga ega emasmiz. Biz o'sha davrda yashagan kishilarning yashash tarzi va ba'zi urf-odatlariga qarab, ularning tibbiy tushunchalari haqida fikr yuritishimiz mumkin. Masalan, hoqon huzuriga kelgan chet el vakillari yonib turgan ikki gulxan o'rtasidan o'tar ekanlar. Shundan so'ng ularni hoqon qabul qilarkan. Ehtimol bu odat chet mamlakatdan kelib qolishi mumkin bo'lgan biror kasallikning oldini olish uchun qilingan tadbirdir? O'sha davrda yashagan turkiy xalqlar yosh bolalarni kasallikdan saqlash uchun ularning peshanasiga uzoq saqlanib qoladigan bo'yoq bilan xoch suratini chizib qo'yar ekanlar. Bular juda oddiy "tibbiy choralar"dir, albatta. Lekin har holda kasallik tarqalib ketmasligi choralarini ko'rish tibbiyotga ahamiyat berilganligini ko'rsatadi.

O'sha davrlardagi tibbiyot maxsus kitoblarda bayon etilgan bo'lmasa ham xalq orasida kasallarni muolaja qiluvchi kishilar bo'lardi. Ular xalq tibbiyotining vakillari edilar. Bu kishilar asosan o'zlarining empirik tajribalariga asoslanib bemorlarni ancha muvaffaqiyatli davolardilar.

V bob

QADIMGI OVRUPO MAMLAKATLARI TIBBIYOTI

Ovrupo qit'asida ilm-fan va madaniyat eng yuksak darajada rivojlangan mamlakatlar qadimgi Yunoniston va Rim edi. Bu mamlakatlar o'sha davrda siyosiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan boshqa Ovrupo mamlakatlariga nisbatan ancha ilgarilab ketdilar. Ma'naviy hayot va ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlar qilindi. Bu mamlakatlarda o'nlab buyuk olimlar, faylasuflar, san'at va adabiyot namoyandalari yetishib chiqdi. Shular qatorida mashhur hakimlar ham bor edi.

QADIMGI YUNONISTON TIBBIYOTI

Yunoniston jahon tibbiyoti tarixida eng buyuk hakim, deb tan olingan ulug' Gippokratning vatanidir. Gippokrat haqiqiy ilmiy tibbiyotning asoschisi hisoblanadi. Uning Yunoniston va umumjahon tibbiyotining shakllanishi va rivojlanishiga qo'shgan hissasi shu qadar buyuk ediki, uning bu xizmatini alohida taqdirlab, tirikligidayoq Afinada oltindan yasalgan haykal (byust) o'rnatgan edilar.

Qadimgi Yunoniston tibbiyoti tarixini Gippokratgacha bo'lgan davr va Gippokratdan so'nggi davr, deb ikki qismga bo'lish mumkin. Gippokratgacha bo'lgan davr uzoq tarixga ega bo'lsa ham u vaqtda unchalik katta kashfiyotlar qilingan emas. U vaqtdagi Yunoniston tibbiyoti haqidagi ma'lumotlar ko'proq har xil rivoyatlar shaklida yetib kelgan. Masalan, mashhur Yunon shoiri Gomerning "Iliada" nomli poemasida quyidagi rivoyat bor: Yunonlar Troya shahri ostonalari jang olib borganlarida ularning qo'shini safida afsonaviy hakim Asklepiy (Eskulap) ham bo'lgan. Asklepiyning Maxaon va Podaliriy ismli o'g'illari va Higiyeiya (Gigiyeya) hamda Panakeya ismli ikki qizi bor edi. Maxaon jarroh, Podaliriy terapevt edilar. Higiyeiya kishilarning salomatliklarini saqlash usullarini yaxshi bilgan. Panakeya esa har xil dori-darmonlarni yaxshi bilgan.

O'sha urushda Asklepiy o'z o'g'il-qizlari bilan yarador va kasal yunon jangchilariga tibbiy yordam ko'rsatgan. Bunda Maxaon jarroh sifatida otasi



Asklepiy — qadimgi yunonlarning tibbiyot xudosi.

bilan birga yaradorlarga yordam bergan, ularning jarohatlarini bog'lagan, tanalariga kirib qolgan o'q (nayza uchi)ni chiqarib olgan.

Afsonada aytilishicha bu urush eramizdan oldingi 1193—1184-yillarda bo'lib o'tgan. Agar bu afsona to'g'ri bo'lsa qadimgi yunonlarning tibbiyoti, xususan jarrohiyasi eramizdan oldingi ikki minginchi yilning oxirlaridayoq yaxshi darajada rivojlangan bo'lgan.

Yunon tasviriy san'atida Asklepiy ilon chirmashib olgan hassaga tayanib turgan baquvvat kishi sifatida tasvirlangan. Buning o'z tarixi bor. Afsonada aytilishicha Krit orolining podshosi Minosning o'g'li kasal bo'lib yotmay to'satdan vafot etgan. Minos bundan juda qayg'urib, o'g'lini tiriltirish uchun Asklepiyni saroyga chaqirtiradi: Asklepiy bu qiyin muammoni qanday qilib hal qilsam ekan, deb xayol surib sahroda ketayotganida og'zida giyoh tishlab olgan bir ilon Asklepiyning hassasiga chirmashib olib, ko'zi bilan giyohni ko'rsataveradi. Bu giyoh o'lgan odamni tiriltiradigan

o'simlik ekan. Asklepiy bundan sevinib ketib, o'z hassasiga chirmashib olgan ilon bilan Minosning saroyiga kirib boradi. Bundan saroydagilar qo'rqib ketadilar. Ammo, Asklepiy pinagini buzmay Minosga "men o'g'lingizni tiriltirish yo'lini shu ilondan topdim", deydi va ilon tishlab turgan giyohni olib undan qaynatma tayyorlab Minosning o'g'liga ichiradi, bola ko'zini ochadi. Shundan keyin ilon tabobat ramzi sifatida qabul qilinadi.

Yunon mifologiyasida aytilishicha Asklepiy tibbiyot xudosi Apollonning o'g'li bo'lgan. Asklepiy nomi bilan bog'liq bo'lgan yana bir rivoyat bor. Unda aytilishicha Asklepiy onadan o'zi tug'ilgan emas. Uni onasining qornini yorib chiqarib olganlar. Bundan ma'lum bo'ladiki, o'sha vaqtda Yunonistonda ayol kishi o'zi tug'a olmasa uning qornini yorib, bolani chiqarib olish operatsiyasi ma'lum bo'lgan.

Yunonistonda hakimlarni juda e'zozlaganlar. Masalan, Gomer bunday, deb yozgan edi: "Bitta yaxshi tajribali tabib o'nta boshqa kasbdagi kishidan afzaldir".

Yunonlarning haqiqiy ilmiy tibbiyoti Gippokratdan boshlanadi. Antik davr yunon tibbiyotini o'rganishda "Gippokrat to'plami" ("Corpus Gippokratikum") deb ataluvchi mashhur kitob asosiy manba hisoblanadi. Bu kitob eramizdan oldingi V—IV asrlarda yozilgan. Kitob butun jahonga ma'lum buyuk hakim Gippokrat nomi bilan bog'liq. Gippokrat bu

kitobning muallifi hisoblanadi. Lekin, tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Gippokrat kitobning asosiy qismlarini yozgan. U kitobga asos solgan. So'ng uning shogirdlari kitobni davom ettirib, oxiriga yetkazganlar.

Gippokrat to'plami qadimgi zamon ilmiy tibbiyotida eng buyuk asar hisoblanadi. Unda qadimgi zamon tibbiyoti haqida eng to'liq ma'lumot berilgan. Kitobda kasallarga tashxis qo'yish va davolash usullari shu qadar puxta ishlanganki, ularning ba'zilari hozir ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Ikki ming yildan oshiq davr ichida bu kitob hakimlar uchun dastur bo'lib kelgani buning dalilidir.

Qadimgi Yunonistonda ibodatxona tibbiyoti ham bo'lgan. Ammo, bu tibbiyot unchalik katta rol o'ynamadi. Amaliy tibbiyot tez rivojlandi va keng tarqaldi. O'sha davrda Yunonistonda birinchi shaxsiy kasalxonalar paydo bo'ldi. Yaxshi tajribali, puli ko'p hakimlar o'z uylarida shifoxona tashkil etdilar. Ular "yatreya", deb atalardi. Ba'zi yatreyalar qoshida tibbiy maktablar ham ochilgan edi. Bunday maktabda dars beruvchi muallimlar "yatrolipt", ya'ni tabiblikni o'rgatuvchi, deb atalardilar. Maktabni tugatgan tabiblar imtihon topshirganlar va "butun umrimni kasallarni sofdillik va halollik bilan davolashga bag'ishlayman", deb qasamyod qilganlar.

Qadimgi Yunoniston shaharlarida aholining sog'lig'ini saqlash tadbirlarini amalga oshiruvchi va uni nazorat qilib turuvchi maxsus shahar tabiblari bo'lgan. Bu bilan aholining sog'lig'ini saqlash ishini tashkil qilishga asos solingan edi.

O'sha davrda Yunonistonda ayrim shaharlar va orollarda hakimlarning o'ziga xos maktablari (jamiyatlari) tashkil topgan edi. Shulardan bizga Kroton, Knidos va Kos maktablari (jamoalari) ma'lum.

KROTON maktabi. Bu maktab hozirgi Italiya hududida bo'lgan. O'sha vaqtda Kroton yerlari Yunonistonga qaram edi.

Kroton maktabining vakillari inson organizmining tuzilishi va uning tabiati (xususiyatlari) masalasida mashhur faylasuf Anaksimening "hamma narsaning asosini havo tashkil etadi", degan fikriga asoslangan edilar. Bu fikrni mashhur hakim Alkmeon tibbiyotga olib kirdi. Alkmeon shu Kroton maktabining eng ko'zga ko'ringan vakili edi. Havoning tabiatdagi rolini o'sha vaqtda bunday tushuntirganlar: havo zichlanish va siyraklanish xususiyatiga ega. U zichlanib par (bug') so'ng suvga aylanadi. Yanada zichlanib tabiatdagi har xil buyumlar va tog'i toshlarga aylanadi. So'ng esa o'simliklar va hayvonot olamiga aylanadi. Nihoyat undan odamlar va ularning a'zolari ham paydo bo'ladi. Alkmeon odam organizmi va barcha a'zolar pnevma (havo)dan kelib chiqadi, deb fikr yuritgan. Uning fikricha pnevma o'zidan har xil qarama-qarshiliklar chiqarish xususiyatiga ega. Umuman tabiatda qarama-qarshiliklar ko'p. Masalan, issiqlik — sovuqlik, quruqlik — ho'llik, achchiqlik — chuchuklik, qattiqlik

— yumshoqlik, qoralik — oqlik va h.k. Odam organizmida to'rtta qarama-qarshilik bor. Bular issiqlik va sovuqlik hamda quruqlik va ho'llikdir. Shu qarama-qarshiliklarning kuchi muvozanatda bo'lsa kishining salomatligi saqlanadi. Agar bu qarama-qarshi xususiyalardan biri ustun kelib qolsa muvozanat buzilib kasallik kelib chiqadi.

Alkmeon odam organizmidagi to'rt qarama-qarshi kuch — issiqlik, sovuqlik, quruqlik va ho'llik haqidagi tushunchani qadimgi Sharq tibbiyotidan olgan bo'lsa kerak. Yunonlar muvozanatda bo'lishni "izonomiya", ulardan biri ustun kelib qolishini esa "monarxiya", deb ataganlar.

Alkmeon amaliy tibbiyotda juda tajribali hakim edi. U yaxshi anatom ham bo'lgan. Alkmeon birinchilardan bo'lib ko'rish nervini kashf etdi. Yevstaxiy nayini topdi. Bosh miyani tekshirib, unda fikrlash va idrok etish markazi mavjudligini aniqladi.

Kroton maktabining yana bir ko'zga ko'ringan vakili Diogen edi. U eramizdan oldingi III asrda yashagan. Diogen ham yaxshi anatom bo'lgan. U yurak va qon tomirlarini tekshirib yurakning o'ng qorinchasida qon, chap qorinchasida esa bo'shliq ko'rgan. Shuningdek tomirlarni tekshirib vena tomirlarida qon, arteriya tomirlarida bo'shliqni ko'rgan. Shunga asosan u yurakning chap qorinchasida va arteriya tomirlarida havo yurak ekan, degan xulosaga kelgan. Shuning uchun arteriya qon tomirini aero (havo) tashuvchi tomir, deb atagan. Bu yanglish nom hozirgacha saqlanib qolgan. Kroton maktabining vakillari odam anatomiyasi va fiziologiyasi haqida bir qancha kashfiyotlar qilgan bo'lsalar ham, ular ba'zi xatoliklardan ham xoli emas edilar.

KNIDOS maktabi. Knidos maktabi shu nomli shaharda tashkil topdi. Bu maktabga Evrifon ismli olim asos solgan. Knidos maktabidan bizga "Ichki kasalliklar" nomli asar qolgan. Knidos maktabining vakillari har xil kasalliklarning belgilarini juda sinchiklab o'rganganlar. Knidoschilar dori-darmon moddalarini ham boyitdilar. Masalan, ular dorilar qatoriga sarimsoq piyoz, ohak, oq tuproq va yana bir qancha moddalarni qo'shdilar.

Knidos maktabi, amaliy tibbiyot sohasida ayniqsa yaxshi natijalarga erishdi. Ammo, odam organizmining tabiati masalasida bular ham Krotonliklar singari pnevma nazariyasiga asoslanardilar. Odam organizmidagi qarama-qarshiliklardan bular faqat ikkitasini (issiqlik va sovuqlikni) qabul qilganlar. Bu qarama-qarshilikning muvozanatini "kraziya", muvozanatning buzilishini "diskraziya", deb ataganlar.

Knidos maktabining erishgan natijasi shu bo'ldiki, bular kasallik patogenezini ishlab chiqdilar. Bu tushunchaga binoan sog'liq va kasallik asosan organizmdagi suyuqliklarga (qon, safro, savdo va shilliqsimon moddaga) bog'liq. Shu suyuqliklar sog'lik va kasallikni belgilaydi, deb o'ylanganlar.

KOS maktabi. Kos maktabi Yunonistonning Kos orolida shakllandi. Bu maktabning eng yirik namoyondasi jahonga mashhur Gippokratdir. Bu olim eramizdan oldingi V—IV asrda yashagan.

Kos maktabining asosiy xizmati shundan iboratki, u amaliy tibbiyotni yuksak darajaga ko'tardi. Xususan, jarrohlik sohasida katta natijalarga erishdi va klinik tibbiyotga asos soldi. Gippokrat va uning shogirdlari jarrohlik texnikasini mukammal ishlab chiqdilar. Chiqqan va singan qo'l-oyoqlarni davolashda ularni o'z tabiiy holatiga keltirishga alohida ahamiyat berdilar.


Kos maktabining eng yashnagan davri eramizdan oldingi V asrdir. Bu davr eng yirik hakim Gippokratning hayoti yillariga to'g'ri keladi.

GIPPOKRAT

Gippokrat jahon ilmiy tibbiyotiga asos solgan buyuk olimdir. U eramizdan oldingi 460-yilda qadimgi Yunonistonga qarashli Kos orolida dunyoga keldi. Uning hamma o'tmish ajdodlari tabib bo'lganlar. Otasi Gerakles ham yaxshi tajribali tabib bo'lgan. Rivoyatga ko'ra Geraklesning o'tmish ajdodi afsonaviy tabib Asklepiyning o'g'li Podoliriyga borib taqaladi. Gippokratning bobosi ham Gippokrat deb atalarkan. Ma'lumotlarga ko'ra bu avlodda uchta Gippokrat bo'lgan. Biz so'z yuritayotgan Gippokrat shulardan uchinchisidir. Gippokrat ona tomonidan ham tabiblar oilasiga mansub. Onasining avlodlari ham hakim bo'lganlar. Gippokrat o'z bilimi va tajribasi bilan hamma avlodlaridan o'tib ketdi va juda erta katta shuhrat qozondi.

Gippokrat tabiblik kasbini dastlab otasidan o'rgandi. So'ng kasallarni o'zi mustaqil davolab, katta tajriba orttirdi. 17—18 yoshlaridayoq bilimdon tabib, deb tanilgan edi. Gippokratda tabiblikga onadan tug'ma talant bor edi. Gippokrat o'zi mustaqil ishlay boshlagandan so'ng Afinashahriga ko'chib keldi. O'sha vaqtda Afina fan va madaniyat yuksak darajada rivojlangan shahar edi. Shaharda mashhur olimlar, faylasuflar, shoirlar, dramaturglar, arxitektorlar va hakimlar yashardilar. Gippokrat ular bilan yaqin muloqotda bo'ldi va bilim ham tajribasini to'xtovsiz oshirib bordi. O'zidan oldingi yirik hakimlarning asarlarini qunt bilan o'qib o'rgandi va o'z bilimini takomillashtirdi. Ko'p mamlakatlarga sayohat qildi, u yerdagi tibbiyot bilan tanishdi. Boshqa mamlakatlarning mashhur hakimlari bilan tanishdi, ular bilan yaqin muloqotda bo'ldi. Shularning hammasi Gippokratning bilim va tajriba darajasini yuksaklikga ko'tardi.

Gippokrat o'zining bu sayohatlarida turli jug'rofiy mintaqalarda turlicha odamlar yashaganligini kuzatdi. Ular o'z tana tuzilishlari, qiyofalari va xarakterlari jihatidan bir-birlaridan farq qilishlarini ko'rdi. Bu turli-tumanlikda ma'lum qonuniyat mavjudligini sezdi. Bu qonuniyat inson organizmining konstitutsiyasi, ya'ni uning tabiatida ifodalanishini topdi.



Gippokrat
(460—377).

Gippokrat o'zi kashf etgan qonuniyatga binoan yer yuzidagi odamlarni to'rt xil konstitutsiya (toifa)ga bo'ldi. Bu toifalarning kelib chiqishini dunyoning to'rt mintaqasi (Sharq, G'arb, Shimol, Janub) bilan bog'ladi. Shu mintaqalar odamlarning tabiatini belgilaydi. Gippokratning ta'kidlashicha, mintaqalarning iqlimi va tabiiy sharoiti turlicha bo'lgani uchun shularning har birida yashaydigan xalqlarning tabiatlari ham turlichadir. Masalan, yer yuzining Sharq tomonida yashovchi odamlar tabiatan vazmin, xushmuomala va jismoniy sog'lom kishilardir. Chunki, sharq mintaqasining o'zi muloyim va serquyoshdir. Shu mintaqada yashovchi kishilarning tanasida qon ustun turadi. Shuning

uchun ularni Gippokrat sangviniklar (sangvis — qon so'zidan) deb atadi.

G'arbiy mintaqada yashovchi odamlar ruhan notetikroq, qandaydir kuzni eslatuvchi bo'ladi, chunki G'arb mintaqasida quyosh yerni kamroq yoritadi. Bu esa inson tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. G'arb odamlarini Gippokrat melanxoliklar (melanosa — qora o't) deb atadi.

Uchinchi toifadagi odamlarni Gippokrat flegmatiklar, deb atagan. Bular janub odamlaridir. Flegmatiklar tabiatdan kam harakat, jismoniy zaifroq odamlardir. Ularning tanalarida flegma (shilliqsimon modda — xilt) ustun turadi.

To'rtinchi toifaga kiruvchi odamlarni Gippokrat xoleriklar deb atagan. Bular shimol odamlaridir. Xoleriklar tabiatan qotma, mustahkam irodali kishilardir. Bularning organizmida safro (jigar o'ti) ustun turadi.

Gippokratning fikricha har bir toifaga kiruvchi odamlar o'ziga xos kasalliklar bilan og'riydilar. Shuning uchun bemorning qaysi toifaga kirishi aniqlansa, uning kasaliga tashxis qo'yish oson bo'ladi. Masalan, flegmatiklarning miyasida flegma (nazla) ko'p bo'ladi. U pastga tomon yo'nalib, og'iz-burun shamollashi (tumov)ni, so'ng yana pastroqqa tushib, o'pka va ichaklarda yallig'lanishni keltirib chiqaradi.

Xoleriklar ko'proq o'tkir kasalliklar bilan og'riydilar. Masalan, o'tkir oshqozon-ichak kasalliklari, ichburug' va h.k.

Sangviniklar va melanxoliklar haqida Gippokrat quyidagicha fikr yuritadi: Sangviniklar umuman kasallikga moyil emaslar, kasal bo'lsalar ham unchalik uzoq cho'zilmay tez tuzalib ketadilar.

Melanxoliklar kasallik masalasida juda noqulay ahvoldalar. Bular ham flegmatiklar, ham xoleriklarda uchraydigan kasalliklar bilan og'riydilar. Lekin, hozirgi zamon ilmiy tibbiyotida Gippokratning suyuqliklar haqidagi fikrlari tasdiq etilmadi.

Gippokratning yozishicha organizm konstitutsiyasi uni u yoki bu kasallikka moyilligini belgilaydi. Kasalliklarning aniq sabablari kishining ichki va tashqi sharoitidir. Tashqi sabablarga Gippokrat iqlim, ob-havo, suv, tuproqni kiritgan. U hatto mamlakatning siyosiy tizimi va ijtimoiy sharoitini ham kishining sog'lig'iga ta'sir qiluvchi omillar qatoriga kiritgan. Ichki sharoitlarga tanadagi xilllar va jigar o'tini kiritgan. Bulardan tashqari Gippokrat ichki sharoitlar qatoriga, bemorning yoshi, jinsi, nasli, ko'nikmalari, hayot tarzini ham kiritgan.

Gippokratning ta'kidlashicha kasallik kelib chiqishida turmushdagi salbiy hodisalar va ovqat ham katta rol o'ynaydi. Uning bu fikrlari hozir ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Gippokrat kasallik paydo qiluvchi qandaydir g'ayri tabiiy johil kuchlar bo'lishini qat'iy inkor etgan.

Gippokrat to'g'ri ovqatlanishga katta ahamiyat bergan. Uning fikricha, har qanday ovqat mahsulotida ma'lum darajada o't moddasi, qon moddasi, flegma moddasi va suv moddasi bo'ladi. Kishi iste'mol qiladigan ovqatda shu moddalar barobar muvozanatda bo'lsa salomatlik saqlanadi, agar muvozanat buzilsa, kasallik kelib chiqadi. Masalan, yeyiladigan ovqat mahsulotida o't moddasi ortiqcha bo'lsa, u organizmda ustunlik qilib, kasallikka olib keladi.

Gippokrat kasallarni tekshirishda hozir klinikalarda ishlatiladigan ba'zi tashxis usullaridan ham foydalangan. Masalan, a'zoni paypaslab ko'rish (palpatsiya), quloq qo'yib eshitish (auskultatsiya), barmoq bilan tiqillatib ko'rish (perkussiya) va h.k. Bemorning chiqindilarini (siydik, ahlat) tekshirish usulidan ham foydalangan. Siydikni parlatib, undan qolgan cho'kmani ham ko'zdan kechirgan.

Ko'krak qafasidagi a'zolari (o'pka, yurak) eshitib ko'rib tashxis qo'ygan. Masalan, o'pka pardalari orasida yig'ilib qolgan suv bor yoki yo'qligini aniqlash uchun qulog'ini bemor ko'kragiga qo'yib turib, uni silkitgan, suv bor bo'lsa u chayqalish ovozini bergan. Shunga qarab hozirgi tilda ekssudativ plevrit deb ataluvchi kasallikni aniqlagan.

Qorin bo'shlig'idagi a'zolari (oshqozon, ichaklar, jigar va h.k.) teri ustidan turib paypaslab tekshirgan. Masalan, ularda shish bor yoki yo'qligini aniqlagan. Shunday qilib Gippokrat tashxis usullarini takomillashtirgan.

Kasallik patogenezi masalasida Gippokrat "kraziya" va "diskruziya" tushunchasida bo'lgan.

Gippokratning tibbiyot ilmiga qo'shgan katta xizmatlaridan biri shuki, u tabobat tarixida birinchi bo'lib, kasalxonada yotgan har bir bemorga "kasallik tarixi" to'ldirish usulini joriy qildi. Shu kasallik tarixiga yozib olingan ma'lumotlarni umumlashtirib, har xil kasalliklarning belgilari, ularning kechishi va oqibati haqida xulosalar chiqarardi va davolash usullarini ishlab chiqdi.

Gippokrat juda ham kam uchraydigan o'tkir zehn va kuzatish qobiliyatiga ega bo'lgan. U har bir bemorni ko'zdan kechirib, uning kasali qanchalik og'ir-yengilligi va kasallikning oqibati nima bilan tugashini oldindan bilgan. Gippokrat o'limgamahkum bo'lgan bemorning tashqi qiyofasi qanday bo'lishini juda aniq tasvirlab bergan. (Bu tasvir "Gippokrat beti" deb ataladi.) Masalan, peritonit kasalligidan o'layotgan kishining qiyofasini Gippokrat bunday tasvirlagan. "Bemorning rangi kulrang tus olgan, ko'zlari ich-ichiga botib ketgan, peshanasini ter bosgan, bemor atrofdagi voqealarga befarq yotadi, ko'zlari shi pga tikilgan".

Gippokrat tabiblar qanday kishi bo'lishi kerakligi, ular qanday fazilatlariga ega bo'lishlari lozimligi haqida juda muhim fikrlar bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, tabib avvalo o'z kasbini yaxshi egallagan yuksak bilimli mutaxassis bo'lishi kerak. Kasallarga nisbatan jonkuyar, kamtarin kishi bo'lmog'i lozim. U boshqalardan o'zining yuksak madaniyati, odobi va axloqi bilan ajralib turishi zarur. Tabib bir joyda qotib qolmay doim o'z bilimini oshirib, tajribasini takomillashtirib borishi lozim. Tashqi tomondan ozoda, xushko'rinish va nozik tabiatli bo'lmog'i darkor. Shundagina u bemorlar hurmatiga va ishonchiga sazovor bo'ladi. Bu esa tabib uchun juda muhimdir.

Tibbiyotda Gippokrat shug'ullanmagan biror soha bo'lmagan. U tibbiyotning hamma sohalarini o'sha davr fani darajasida mukammal, amaliy jihatdan to'g'ri ifodalab bergan.

Kasalliklarni davolash masalasida Gippokrat qarama-qarshiliklar nazariyasiga asoslangan, ya'ni qarama-qarshilikni qarama-qarshilik bilan davolagan.

Gippokrat har qanday kasallikni davolashda birinchi galda ikki tadbirni amalga oshirgan. Shulardan biri gigiyenik parhez tadbiri, ikkinchisi dori-darmon tadbiri. Bu yerdashuni ko'rsatib o'tish kerakki, Gippokrat tibbiyotning asosiy vazifasi kasallikning oldini olish, deb tushungan. Shuning uchun u gigiyenik parhez tadbirini birinchi o'ringa qo'ygan. Dori-darmonlardan Gippokrat ko'proq ichni (organizmni) bo'shatuvchi dorilardan foydalangan. Masalan, ichni suruvchi; qayt qildiruvchi, siydik haydovchi dorilarni ko'proq ishlatgan. Qon olish va uqalash (massaj) usullaridan ham keng foydalangan.

Gippokrat maxsus davolash usullarini ishlab chiqqan. Bu usullar quyidagilardan iborat: 1. Bemorga faqat foyda keltirish, uning tanasiga zarar yetkizmaslik. U tabiblarga qarab "non nacere!" — "zarar keltirma!" deb xitob qilgan. U bunday degan: "Agar qo'lingdan bemorga yordam berish kelmasa, uni o'ziga qo'yib ber. Bilar-bilmas urinib unga zarar keltirma. Kasal kishining organizmi o'zi kasal bilan kurashadi. 2. Qarama-qarshilikni qarama-qarshilik bilan davolash — "contrariya contrariis curantur". Bu yerda Gippokrat tabiatda doim ikki bir-biriga qarshi

kuch turadi, degan falsafiy tushunchaga asoslangan. 3. Organizmning o'z tabiiy xususiyatigayordam berish usuli. Gippokrat odam organizmida har qanday kasallikga qarshilik ko'rsatish xususiyati borligini yaxshi bilgan. Uning ta'kidlashicha tabibning vazifasi organizmning shu qarshilik ko'rsatish xususiyatiga yordam berishdan iborat. 4. Bemorning gavdasini va uning kuchini asrash. Bu yerda Gippokrat bemor tanasiga nisbatan juda ehtiyot bo'lishni, unga zarar yetkazmaslikni ko'zda tutgan. Beriladigan dorilar va qilinadigan muolajalar bemorga faqat foyda keltirishi kerak. Uning tanasiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi kerak, chunki ba'zan dori bir tomondan kasallikni tuzatib, ikkinchi tomondan tanaga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Tabib buni unutmashligi kerak. Gippokrat tomonidan ishlab chiqilgan bu usullar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Gippokrat juda mohir jarroh ham bo'lgan. U har xil jarohatlar va chiqqan-singanlarni davolashning umumiy usullarini ishlab chiqqan. Chiqqan-singanlarni davolashda ishlatadigan har xil moslamalar va richaglarni kashf etgan. Singan suyakni tortib, o'z joyiga tushiradigan g'altaklar, qiyshiq bo'lib qolgan umurtqa ustunini to'g'rilaydigan taxtakachlarni ham yasagan. Jarohatlangan joyni bog'lashning o'ziga xos usullarini ham ishlab chiqqan. Masalan, bosh jarohatlanganida uni bint bilan maxsus bog'lash usuli. Bu usul "Gippokrat qalpog'i" nomi bilan ma'lum.

Gippokrat mashhur hakim (tabib) bo'lish bilan birga o'z davrining ulug' donishmandi va faylasufi ham edi. Demokritning atomistik nazariyasini tibbiyotga olib kirdi. U odam organizmi atomlardan tashkil topgan, degan fikrni olg'a surdi.

Shunday qilib, Gippokrat tibbiyotni ham nazariy ham amaliy jihatdan eng yuksak pog'onaga ko'tardi.

Gippokrat tibbiyot kasbini egallashni istagan yoshlar haqida fikr yuritib, quyidagilarni aytgan edi. Birinchidan ularda tibbiyot san'atiga nisbatan tug'ma qobiliyat bo'lishi kerak. Ikkinchidan unda juda yosh bolaligidan boshlab shu kasbga intilish bo'lishi zarur. Uchinchidan u tabiblik kasbini sevishi kerak. Nihoyat u o'qishga kirish va uni oxiriga yetkazishi uchun zarur sharoitga ega bo'lishi zarur. Shu talablardan kelib chiqib qadimgi Yunonistonda hakimlar o'z bolalarini juda yoshligidan (10—12 yoshdan) o'zlari bilan olib yurib kasallarga muolaja qilish usullarini o'rgatganlar. Gippokratning o'zi ham juda yosh bolaligida otasi va bobosi bilan birga yurib muolaja usullarini o'rganib olgan edi.

Gippokrat hayotda juda kamtarin bo'lgan. Kasallardan hech vaqt ko'p pul talab qilmagan. Nochor kambag'allarni bepul davolagan. U o'zi shunday deb yozgan: "Men kishilar kasalligidan o'zim uchun hech qachon foyda chiqarmadim. Bunday yo'l bilan foyda qiluvchi tabiblar o'z bilimlarini qullarcha sotadilar, o'z erkinliklarini kishanga soladilar".

Gippokrat tabobat olamiga buyuk asar yozib qoldirdi. Bu asar "Corpus Gippocraticum" ("Gippokrat to'plami") deb ataladi.

"Gippokrat to'plami" 72 ta katta-kichik kitobcha va maqolalardan iborat. Shulardan 12 tasi Gippokratning o'z qalamiga mansub. Qolganlarini uning shogirdlari yozganlar. Gippokratning o'zi yozgan asarlariga quyidagilar kiradi: "Havolar, suvlar va manzillar", "Tibbiy qasam", "Epidemiyalar", "Prognostika", "O'tkir kasalliklarda parhez", "Chiqqan bo'g'inlarni joyiga solish". "Chiqqan-singanlar", "Bosh jarohatlari", "Richag" ("Moslama"), "Qonun", "Aforizmlar" ("Hikmatli so'zlar"), "Qadimgi tibbiyot". Ba'zi tibbiyot tarixchilari oxirgi ikki kitob Gippokratdan oldin o'tgan boshqa hakim tomonidan yozilgan, degan fikrdalar.

"Gippokrat to'plami" dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Uni Samarqand tibbiyot institutining professori I.V.Rudnev qadimgi yunon (ionia) tilidan ruschaga tarjima qilib, uch jildli kitob qilib chiqardi, birinchi jild "Tanlangan asarlar" deb ataladi. Ikkinchi va uchinchi jildlari "Asarlar" deb ataladilar.

"Havolar, suvlar va manzillar"da Gippokrat atrof tabiat, undagi omillar va ularning insonlarga ta'siri haqida so'z yuritadi. Gippokrat insonlar yashaydigan tashqi tabiiy sharoitga juda katta ahamiyat bergan. Gippokratning yozishicha insonlarning gavda tuzilishi, ularning xususiyati, konstitutsiyasi (o'ziga xos belgilari), sog'liq va kasallik, hammasi shu tashqi va ichki omillarga bog'liq. Tashqi omillarga Gippokrat tabiiy sharoit bilan birga mamlakatdagi ijtimoiy tuzum va davlat siyosatini ham kiritgan. Ichki sharoit, deganda Gippokrat inson organizmining konstitutsiyasini ko'zda tutgan. Gippokrat tomonidan bundan ikki yarim ming yil burun aytilgan bu fikrlar hozirgi ilmiy tushunchaga tamomila mos keladi.

Kitobning Gippokrat qalamiga mansub muhim qismlaridan biri "Tibbiy qasam"dir. Unda Gippokrat hakimlar oldiga juda qattiq talablar qo'yadi. "Qasamyod"da bunday deyilgan: "Tabib Apollon, Asklepiy, Higiyea va Panakeya hamda barcha xudolar nomi bilan va ularni guvohlikga olib, quyidagilarni halol bajarishga qasamyod etaman va yozma ravishda va'da beraman": "Meni tabiblik san'atiga o'rgatgan kimsani o'z ota-onam bilan barobar ko'raman u bilan boyligimni bo'lishaman, agar u muhtoj bo'lib qolsa, yordam beraman, uning avlodini o'z aka-ukalarimdek ko'raman va bu san'atni o'rganishni istasalar, pul olmay hech qanday shartsiz o'rgataman. O'z o'g'illarimni, ustozimning o'g'illarini va talabalarimni qo'llanma, og'zaki dars berish va boshqa usullarda o'qitaman. Men har qanday zarar keltirish va adolatsizlikdan saqlangan holda o'z kuchim va idrokim darajasida bemorning hayot tarzini uning foydasiga yo'naltiraman. Men hech qachon mendan iltimos qilgan

kimsaga o'ldiradigan dori bermayman va bunday yo'lni ko'rsatmayman, shuningdek, hech qanday ayolga bola tushiruvchi dori bermayman. O'z hayotim va san'atimni pok va nuqsonsiz o'tkazaman. Men qanday uyga kirmayin, u yerga hech qanday g'arazsiz va yomon niyatsiz, faqat bemor manfaatini ko'zlab qadam qo'yaman. Ayniqsa, ayollar va erkaklar, ozod kishilar va qullar o'rtasidagi ishqiy ishlardan uzoq bo'lishga intilaman. Davolash jarayonida yoki usiz kishilarning hayotida oshkor qilinishi mumkin bo'lmagan va sir saqlangan nimaniki ko'rgan yoki eshitgan bo'lsam, bu haqda hech kimga hech narsa aytmayman. Menga shu qasamyodni so'zsiz bajaruvchi sifatida hayot va san'atda abadiy baxt va shuhrat ato etsin. Bu qasamyodni buzuvchilar va yolg'on qasamyod beruvchilar uchun buning aksi bo'lsin".

O'rta asrlarda dorifununlarning tibbiy fakultetlarini bitiruvchilar tantanali ravishda shu qasamyodni berganlar va uni so'zsiz bajarganlar.

"Havolar, suvlar va manzillar" Gippokratning tibbiyot nazariyasi haqidagi asosiy asaridir. Bu asarda olim ko'p mamlakatlarga sayohat qilib, u yerlarning tabiati inson organizmiga ta'sir qilishini ko'rib, chiqargan xulosalarni bayon etgan. Gippokrat o'zining ko'zdan kechirganlari va tekshirishlariga asoslanib insonni tashqi sharoit shakllantiradi, degan xulosaga kelgan. Sog'liq ham, kasallik ham shu tabiiy muhitga bog'liq ekanligini aniqlagan. Shu bilan birga Gippokrat yana bir muhim masalani — kasallik nasliy bo'lishini aniqladi. U kitobida flegmatikdan — flegmatik, holerikdan — holerik tug'iladi deb yozgan.

Gippokrat tabiblar haqida so'zlab, ularning eng yaxshi xislati bemor taqdirini oldindan bilishdir, deb yozgan. Tabib bemorning taqdiri nima bilan tugashiga qarab, o'z muolaja usullarini belgilaydi.

Gippokrat salomatlikni saqlash ishini doim birinchi o'ringa qo'ygan va bu ishni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib bergan. Bu masalada Gippokrat jismoniy mashqlarni birinchi o'ringa qo'ygan. Uning ta'kidlashicha jismoniy mashq bilan shug'ullanuvchi kishilar o'rtasida kasallanish juda kam bo'ladi.

Umuman, Gippokratning "Havolar, suvlar va manzillar" nomli kitobini profilaktik tibbiyotdan qo'llanma, deb atash mumkin.

Gippokratning muhim kitoblari qatoriga "Epidemiyalar", "Chiqqan-singanlar", "Richaglar" ("Moslamalar"), "Aforizmlar" nomli asarlari ham kiradi.

"Epidemiyalar" nomli kitobda asosan ma'lum tabiiy sharoitda uchraydigan kasalliklar, ularga atrof tabiatning ta'siri, kasallikning kechishi kabi masalalar bayon etilgan. Lekin, yuqumli kasalliklar haqida so'z yuritilmagan. Faqat bir joyda saramas kasalligining epidemiyasini ko'rsatgan, xolos.

"Epidemiyalar" kitobining eng katta qiymati shundaki, bu kitobda tibbiyot tarixida birinchi bo'lib, ko'zdan kechirilgan har bir kasalga "kasallik tarixi" to'ldirilgan. Xususan, 42 ta "kasallik tarixi" yozilgan.

"Chiqqan-singanlar" kitobi ham muhim ahamiyatga ega. Uni travmatologiyadan qo'llanma, deb atash mumkin. Gippokrat bu sohani shu qadar mukammal ishlab chiqqanki, uning usullari hozir ham o'z qiymatini yo'qotgan emas. O'sha davrda har xil singan-chiqqanlarni davolash uchun turli moslamalar kashf etildi. Ular yordamida singan oyoq yoki qo'lni tortib, singan suyak bo'laklarini o'z joyiga tushirganlar. Umuman, Gippokrat jarrohlik va travmatologiya sohasini juda yaxshi ishlab chiqqan.

Gippokratning asarlari orasida "Aforizmlar" o'ziga xos o'rin tutadi. Bu qismda u tibbiyot fani va kasbi bilan bog'liq ko'p hikmatli so'zlar keltirgan. Bir necha misol keltiramiz:

1. Har qanday kasallikda bemorning ruhi tushmasa va ishtahasi yaxshi saqlansa, u albatta tuzaladi. 2. Keragidan ortiqcha yeb-ichish (badxo'rlik) kasallikka olib keladi. 3. Odamning tabiati tibbiy mushohadaning boshlang'ich nuqtasidir. 4. Jismoniy mehnat muskullar uchun oziqdir. 5. Bemorni noto'g'ri davolashdan ko'ra davolamaslik afzaldir va h.k.

Gippokrat umrining oxirida Larissa shahrida yashab shu shaharda miloddan oldingi 377-yilda, 83 yoshda vafot etdi. Shahar ma'muriyati Gippokratning bu shahar aholisi oldidagi alohida xizmatlarini taqdirlab, uning boshiga oltindan yasalgan gulchambar qo'ygan edi. Ammo, Gippokratning buyuk hakim sifatidagi xizmatlari faqat Larissa shahar aholisi oldidagina emas, balki butun jahon xalqlari oldida behahodir.

QADIMGI RIM TIBBIYOTI

Qadimgi Rim tibbiyotining tarixini o'rganishda biz uchun mashhur olim va hakim Klavdiy Galen va boshqa olimlarning asarlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu asarlarda o'sha zamon G'arbiy Yevropa tibbiyoti va uning erishgan natijalari haqida ko'p ma'lumot berilgan.

Rim markazlashgan kuchli davlat bo'lib, mamlakat iqtisodiy va madaniy jihatdan tez rivojlanib ketdi. Bu o'z navbatida ilm-fanning rivojlanishini taqozo qildi. Tibbiyot ham yuksak darajada rivojlandi. Ko'p ming sonli armiyani jangovor holda saqlash uchun ularning sog'lig'ini saqlash choralarini ko'rish zarur edi. Shu maqsadda armiya va flotda vrachlik vazifalari ta'sis etildi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra qadimgi Rimda tabiblik kasbi bilan ko'proq boshqa mamlakatlardan, xususan Yunonistondan kelgan hakimlar shug'ullanganlar. Rimliklarning o'zi bu ish bilan shug'ullanmaganlar. Ular nima uchundir tabiblik kasbini "past ish", deb bilganlar. Rimliklarning

armiya va flotida yunonlar hakimlik qilganlar. Shu sababdan Qadimgi Rimning mashhur tabiblari ko'proq yunonlar bo'lgan. Hatto Rimning eng mashhur hakimi Galen ham kelib chiqishi bo'yicha yunon edi.

KLAVDIY GALEN

Antik dunyoning eng mashhur hakimlaridan biri Klavdiy Galen edi. U Jahon tibbiyoti tarixida Gippokratdan keyin eng yirik tib olimi hisoblanardi. U buyuk olim, anatom, eksperimentchi va tabiatshunos sifatida shuhrat qozongan.

Klavdiy Galen eramizning 131-yilida Pergam shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi mashhur arxitektor bo'lgan. U yosh Klavdiyga yaxshi tarbiya bergan. Uning o'qimishli kishi bo'lib yetishishi uchun, harakat qilgan. Klavdiyning o'zi ham yoshligidan har xil fanlarga qiziq boshlagan. Ayniqsa tabiat fanlarini qiziqib o'rgangan. So'ng tibbiyotga qiziqib qolib, uni yaxshi o'zlashtirib olgan. Kasalxonada ishlab va tibbiy maktabda o'qib tajribasini orttirgan. Aleksandriyada ko'p yil yashab, bu shahardagi yuksak fan va madaniyat bilan tanishgan. So'ng tug'ulgan shahri Pergamga qaytib kelb, tabiblik kasbi bilan shug'ullangan. Bu yerda fiziologik eksperimentlar o'tkazgan.

Galen ko'p yil o'sha vaqtdagi gladiatorlar maktabida hakim bo'lib ham ishlagan. Bu uning uchun katta amaliy maktab bo'ldi.

164-yilda Galenni Rimga chaqirib, imperator Mark Avreliyning shaxsiy tabibi etib tayinladilar. Galen bu yerda tabiblik vazifasini o'tash bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug'ullandi. Xususan, u anatomik va fiziologik tekshirish ishlari olib bordi. Anatomiya sohasida bir qancha kashfiyot ham qildi. Masalan, u tomirlar va bosqa kavak a'zolarining devori ilgari faraz qilinganidek bir qavat emas, balki bir necha qavatdan iborat ekanligini aniqladi. Galen yurak, qon tomirlari va nafas yo'llarini chuqur o'rgandi, ularning anatomik tuzilishi va fiziologik funksiyasini aniqladi.

Nafas olish jarayonini tekshirib, unda ko'krak muskullari va diafragma ishtirok etishini isbotladi. Bosh miyani tekshirib, unda harakat qilish, fikrlash va sezish markazlari mavjud ekanligini belgiladi. Buyuk filosof Aristotel esa sezish va fikrlash markazi yurakda bo'ladi, deb o'ylagan edi.

Galen o'z tekshirishlari natijasida anatomik va fiziologik jarayonlarga ko'pgina aniqliklar kiritdi. Lekin, bunda ba'zi xatoliklarga ham yo'l qo'ydi. Masalan, u qon iste'mol qilingan ovqatdan jigarda paydo bo'ladi va yurakdan o'tib, tomirlar orqali butun tanaga tarqaladi, so'ng shimilib yo'q bo'lib ketadi, deb o'ylagan edi.¹ Qon aylanishi tizimini bilmagan edi.

¹ Hozir aniqlanishicha, yurak bir sutkada tomirlarga bir tonnadan ortiq qon o'tkazib beradi. Shuncha miqdor qon paydo bo'lishi uchun kishi qancha miqdor ovqat iste'mol qilishi kerak? Galen ishning bu tomonini mulohaza qilmagan ekan.



Klavdiy Galen
(131—201).

Galen har xil kasalliklarning kelib chiqishi masalasida o'sha vaqtda keng tarqalgan gumoral (rutubatlar) nazariyasiga asoslanardi. Kasalliklarni davolashda Galen bir qancha yangi muolaja usullarini ishlab chiqdi. Xususan, u dori-darmonlardan foydalanishning yangi usullarini qo'lladi. Dori tayyorlashda ularning shifobaxsh qismini ajratib olib ishlatishni joriy qildi. Bunday dorilar "Galen preparatlari", deb ataladi. Galen har qanday dorivor o'simlikda, dorilik moddadan tashqari keraksiz, ba'zan esa zararli moddalar ham bo'lishi mumkin, biz dorilik moddasini undan ajratib olishimiz kerak, deb to'g'ri fikr yuritgan.

Bir qancha dorivor moddalarni qo'shib undan murakkab dori tayyorlashda bu moddalarning bir-biriga nisbatan miqdor va hajmda mutanosib bo'lishi kerakligini uqdirgan.

Galen parhez terapiyasiga alohida ahamiyat bergan. Uning fikricha ba'zi kasalliklarni faqat parhez yo'li bilan ham davolash mumkin. Uning ta'kidlashicha bemorni davolashdan ko'ra kasallikning oldini olish oson va muhim. Bunda jismoniy tarbiya asosiy rol o'ynaydi.

Galen gerontologiya va reriatriya masalalari bilan ham ko'p shug'ullangan. U qari odamlarning tanalarida ro'y beradigan o'zgarishlarni juda sinchiklab o'rgangan. Galen o'z kuzatishlariga asoslanib, qari odamlarning tanasida ro'y beruvchi o'zgarishlarni juda aniq va batafsil ifodalab bergan. Galenning fikricha qarilarga xos kasalliklar ham bo'ladi. Masalan, har xil artrit va artrozlar, podagra, astma hamda turli falajlar. Qarilikdagi har xil kasalliklardan mumkin qadar saqlanish uchun Galen bir qancha gigiyenik va tibbiy tadbirlar ishlab chiqqan va tavsiya etgan.

Galen serunum olim bo'lgan. U o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan fanning ko'p sohalari bilan shug'ullangan. Lekin ko'proq tibbiyotga ahamiyat bergan. Hammasi bo'lib Galen 400 ga yaqin asar yozgan. Ular asosan anatomiya, fiziologiya, ichki kasalliklar, jarrohiya, gigiyena, ayollar kasalliklari va shular kabi tibbiy masalalarga bag'ishlangan. Lekin bu asarlarning ko'pi bizgacha yetib kelmagan. Galenning ko'p asarlari Rimga o't ketganida yonib ketgan ekan. Galenning tibga oid asarlaridan bizga ma'lumlari quyidagilardir: "Odam tanasi qismlarining ahamiyati", "Anatomik tekshirishlar", "Tabiblik san'ati", "Davo usullari", "Dorilarning tarkibi haqida", "Gippokrat qoidalari", "Higiyena" ("Gigiyena").

Galenning tibbiyotga oid eng yirik asarlaridan biri "Odam tanasi qismlarining ahamiyati" nomli kitobdir. Bu kitob 17 jildidan iborat bo'lib, unda odam organizmining tuzilishi, undagi a'zolar, ularning xususiyatlari va funksiyalari bayon etilgan. Galen har bir a'zoni bayon etishda uning

fiziologiyasi, ya'ni funksiyasini ham ko'rsatib o'tadi. Olim anatomik va fiziologik tekshirishlarga katta ahamiyat bergan. U har bir hakim odam gavdasining tuzilishi va a'zolarining funksiyasini bilishi shart ekanligini ta'kidlagan.

Galen odam gavdasi va uning a'zolari haqida g'alati fikr yuritadi. Uning fikricha, har bir a'zoning vasifasi oldindan belgilab olinadi. So'ng shunga muvofiq uning o'zi (shakli) yaratiladi. Galen odam anatomiyasini bayon etishda bir muhim xatoga yo'l qo'ygan. U injilda yozilgan rivoyatga ishonib, er kishining chap qovurg'asi 11 dona bo'ladi, deb yozgan.¹

Galen o'z dunyoqarashi bo'yicha dualist edi. U material va ideal borliqni tan olgan. Umuman Galen idealistikka moyil edi. Masalan, odam organizmidagi fiziologik jarayonlarni yo'naltiruvchi qandaydir ilohiy kuch bor, deb faraz qilgan. Chunonchi muskullarni harakatga keltiruvchi kuch, ovqat hazm qildiruvchi kuch, yurak ishini boshqaruvchi kuch va h.k. Galenning fikricha dorilar o'z massasi bilan emas, balki ular ichiga kiritib qo'yilgan davolik kuchi bilan ta'sir qiladilar.

Bu yuqorida keltirilgan ba'zi xato va noaniqliklar istisno qilinsa Galenning asarlari jahon tibbiyoti tarixida juda katta o'rin tutgan. Ular jahon tibbiyotini boyitgan va rivojlantirgan.

Qadimgi zamon Ovrupo tibbiyoti haqida so'z yuritilganda shuni e'tiborga olish kerakki, Ovrupo olimlari kasallarga tashxis qo'yish va ularni davolashda ko'p narsani Qadimgi Sharq tibbiyotidan olganlar. Masalan, bemorning tomiri urishini, qarama-qarshilikni qarama-qarshilik bilan davolash, unsurlar (elementlar) nazariyasi, tabiatning shifobaxsh omillaridan foydalanish va h.k. Keyingi arslarda esa aksincha, Sharq tibbiyoti o'z rivojlanishida to'xtab qolib, G'arb tibbiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanib ketdi.

¹ Injilda yozilishicha tangri er kishining 11-chap qovurg'sidan ayol kishini yaratgan deyilgan.

VI bob

**SHARQ MAMLAKATLARIDA O'RTA ASRLAR
DAVRIDAGI TIBBIYOT**

O'rta asrlarda Sharq mamlakatlari o'zining iqtisodiy va madaniy rivojlanishida yuksak darajaga yetdi. Yirik shaharlarda bilim markazlari, madrasalar, xonaqohlar barpo etildi. Fan sohasida muhim kashfiyotlar qilindi. Tibbiyot ilmi ham yuksak darajaga ko'tarildi. Shaharlarda kasalxonalar, shifoxonalar, mustaqil dorixonalar, tibbiy maktablar barpo etildi. Mashhur hakimlar yetishib chiqdi.

Sharq mamlakatlarining ko'p shaharlari qadimgi karvon yo'llari bo'yida bunyod etilgan edi. Shuning uchun bu shaharlarda, yo'lda betob bo'lib qolgan yo'lovchilar uchun dastlab kichik shifoxonalar, keyin esa yirik kasalxonalar barpo etildi. Shunday kasalxonalar qadimgi Bag'dod, Ray, Damashq, Samarqand, Marv, Shosh (Toshkent) shaharlarida ochilgan edi. Bu davrga xos hodisalardan biri, mamlakatlar o'rtasida tez-tez urushlar chiqib turishi va buning natijasida odamlarning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chib yurishlari edi. Buning natijasida ko'pincha bir mamlakatda tarqalgan kasalliklar boshqa mamlakatlarga ham o'tib ketardi. Bu esa o'z navbatida ommaviy kasalliklarga qarshi choratadbirlar qilishni taqozo etardi. U vaqtlarda yuqumli kasalliklarni paydo qiluvchi kichik jonzo'tlar (mikroblar) aniq emas edi. Ammo, kasallikning bir kishidan boshqa kishiga yuqushi ma'lum edi. Shunga ko'ra kasallik tarqalmasligining oddiy yo'lini amalga oshira boshladilar. Bu karantin edi. Moxov kasalligiga yo'liqqanlar uchun maxsus joylar (moxov qishloqlar) ajratib bemorlarni o'sha yoqqa jo'natardilar.

Tibbiy maktablarda o'qitish ishlari ancha yuqori darajada olib borilgan. Talabalar uchun maxsus darsliklar tuzilgan. O'qish muddati tugagandan so'ng bo'lg'usi hakimlar hamma fanlardan imtihon topshirganlar. Shundan keyin ularga tabiblik guvohnomasini topshirib amaliy tibbiyot bilan shug'ullanishga ruxsat berganlar.

Sharq mamlakatlarida dorishunoslik ilmi ham yaxshi rivojlangan edi. Ayniqsa dorivor o'simliklarni izlab topish, ularni yig'ish, saqlash va ishlatish yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Ulardan qaynatmalar, damlamalar, tomchi dorilar, surtma dorilar, hablar, kukun dorilar tayyorlardilar.

Sharq mamlakatlarida oʻrta asrlardayoq hakimlar alohida sohalar boʻyicha ixtisoslashgan edilar. Masalan, tabiblar orasida ichki kasalliklarni davolovchilar, jarrohlr, kakhollar (koʻz kasalliklari mutaxassislari), teri kasalliklari mutaxassislari, quloq va tomoq kasalliklari mutaxassislari, rishtani chiqarib oluvchilar va qon oluvchilar boʻlgan.

Oʻrta asr Sharq tibbiyoti ikki tushunchaga (mizojlar va rutubatlar tushunchasiga) asoslanardi.

Mizoj tushunchasi juda uzoq oʻtmishga borib taqaladi. U qadimgi Xitoy va Hind naturfilosoflarining samoviy unsurlar (elementlar) haqidagi taʼlimotlari bilan bogʻliq. Qadimgi Xitoy va Hind naturfilosoʻflari butun borliqning asosini toʻrt unsur (element) — yer, suv, havo va olov tashkil etadi, deb tushunganlar. Ularning fikricha dunyodagi hamma jonli tabiat shu toʻrt unsurdan paydo boʻlgan. Shu unsurlarning har birining oʻz xususiyati bor. Masalan, yer — quruq, suv — hoʻl, havo — sovuq, olov — issiq. Modomiki, dunyodagi har bir jonotning gavdasi shu unsurlardan tashkil topgan ekan, unda mazkur unsurlarning xususiyatlari — yaʼni issiqlik, sovuqlik, quruqlik va hoʻllik bor. Naturfilosoflarning bu fikrini hakimlar tibbiyotga tadbiiq etdilar va sogʻlik hamda kasallik holatlarini izohlashda ishlatdilar. Ular bunday fikr yuritdilar: Inson organizmini tashkil qiluvchi shu toʻrt unsur son va sifat jihatdan barobar boʻlsalar muvozanat saqlanib kishi sogʻ qoladi. Agar ulardan biri yoki undan oshigʻi ustun kelib qolsa muvozanat buzilib kasallik holati yuzaga keladi. Hakimlar shu unsurlarning xususiyatlarini mizoj deb atadilar. Binobarin, toʻrt xil mizoj — issiqlik, sovuqlik, quruqlik va hoʻllik mizojlari mavjud. Shunday qilib, mizojlar tushunchasi kelib chiqdi. Mizojlar masalasini oʻzbekistonlik mashhur olim Abu Ali ibn Sino mukammal ishlab chiqqan.

Rutubatlar tushunchasini yunon olimlari yaxshi ishlab chiqqanlar. Bu tushuncha haqida yuqorida soʻzlab oʻtgan edik. Rutubatlar (qon, safro, savdo, flegma) ham mizojlar singari oʻzaro mutanosib muvozanatda boʻlsalar kishi sogʻ boʻladi, agar muvozanat buzilsa kasallik kelib chiqadi, deb faraz qilganlar.

Sharq hakimlarining fikricha mizoj keng diapazonga ega. U faqat odamlar organizmiga xos boʻlmay ovqat mahsulotlari va dori-darmonlarga ham tegishlidir. Har bir ovqat mahsulotining va dorining oʻz mizoji boʻladi, deb tushunganlar. Bemorlarni davolashda shularning hammasi hisobga olingan. Agar kasallik issiq mizoj ustun kelib qolganligi natijasida kelib chiqqan, deb faraz qilinsa sovuq mizojli dorilar va sovuq mizojli ovqatlar berganlar. Yaʼni qarama-qarshilikni qarama-qarshilik bilan davolash kerak degan aqidaga amal qilganlar.

Rutubatlariga nisbatan ham shunday fikr yiritganlar. Masalan, kasallik qon koʻpayib ketganligi yoki uning sifati buzilganligi sababli kelib

chiqqan, degan xulosa chiqarilsa bemorlardan qon olingan, agar safro ko'payib ketgan bo'lsa safroni haydovchi dorilar berganlar va h.k. Sharq tibbiyotida rutubatlar tushunchasi ham juda uzoq davom etdi. U ham mizojlar tushunchasi bilan yonma-yon yashadi. Ammo, rutubatlar tushunchasi ham ilmiy jihatdan isbot etilmadi.

O'rta asr Sharq mamlakatlarida tibbiyot ilmining asosiy prinsiplari ko'p jihatdan umumiy bo'lsa ham, har bir mamlakatning o'z tibbiyoti va uning tarixi bor. Biz quyida ayrim Sharq mamlakatlarining tibbiyoti bilan tanishib chiqamiz.

ARAB XALIFALIGI MAMLAKATLARIDAGI TIBBIYOT

VII asrning boshlarida tarqoq arab qabilalari birlashtirilib, markazlashgan arab davlati barpo etildi. U arab xalifaligi, deb nom oldi. Arablar islom dini bayrog'i ostida urush qilib, boshqa ko'p mamlakatlarni bosib oldilar. Sharqda Hindiston va Xitoygacha, G'arbda Ispaniya va Portugaliyagacha bo'lgan yerlarni zabt etdilar. Ular o'zlari bosib olgan mamlakatlardagi fan, madaniyat va texnika yangiliklarini o'zlariniki qilib oldilar, yerli olim va fozillarni ko'pincha qirib tashladilar. Tibbiyot sohasidagi yutuqlarni ham o'zlashtirdilar.

Zabt etilgan mamlakatlarda arab dini (islom), yozuvi va tili joriy qilindi. Davlat ishlari ham, fan, adabiyot ham arab tilida olib boriladigan bo'ldi. Ilmiy kitoblar, hatto badiiy adabiyot ham arab tilida yozilardi. Shunday qilib, "arab madaniyati", "arab tibbiyoti", degan tushuncha yuzaga keldi. Aslida esa bu madaniyat va ilm-fan boshqa xalqlar tomonidan yaratilgan edi. Tibbiyotda ham shunday bo'ldi. Boshqa mamlakatlarning olimlari o'z asarlarini majburan arab tilida yozganlari uchun ular arab olimlari, deb atalardilar. Ammo, arablarning o'zlaridan ham olimlar yetishib chiqqan edi. Shular qatorida taniqli hakimlar ham bo'lgan.

Arablarning tibbiyoti avvalo, ularning diniy muqaddas kitoblari "Qur'on" va "Hadis" da o'z ifodasini topgan. Bu kitoblarda tibbiyot, salomatlik va kasallikdan xoli bo'lish masalalariga oid ko'p hikmatli so'zlar, maslahatlar va tavsiyalar mavjud. Ayniqsa, "Hadis"da bunday nasihat va tavsiyalar ko'p. Salomatlikni saqlash va kasalliklarning oldini olishda birinchi o'ringa poklik qo'yilgan. Bu yerda ikki xil poklik, jismoniy ozodalik va ruhiy benuqsonlik ko'zda tutiladi. "Qur'on"da bunday deyilgan: "o'zlarini doimo pok va ozoda tutib yuruvchi bandalarni xudo o'ziga do'st tutadi". "Hadis"da aytilganki, pokizalik kishining zehn-idrokini oshiradi, tabiatini ravshan qiladi, chiroyiga chiroy qo'shadi, uni har xil

kasalliklardan saqlaydi. Pokizalik salomatlik uchun eng zarur va muhim omildir. "Hadis"da bunday tavsiya berilgan: butun tanani ozoda saqlash, kam deganda haftada bir marta hammomga tushish, qo'ltiq osti, chov va boshqa tukli joylarni qirib turish, oyoq-qo'l tirnoqlarini o'stirib yubormay olib turish, har kuni bir marta tishni tozalash, og'iz va burunni toza suv bilan chayish, ovqatdan oldin va keyin, hojatxonaga kirib chiqqandan so'ng albatta qo'lni yuvish zarur.

Hadisda o'g'il bolalarni xatna qilish salomatlikni saqlash choralaridan biridir, deyilgan. Demak, xatna odamlar o'ylaganidek diniy udum bo'lmay, salomatlik tadbiri hisoblangan.

Kasalliklarni davolashda har xil dori-darmonlardan foydalanish kerakligi ham ko'rsatilgan. "Hadis"da yozilishicha qarilikdan tashqari har qanday dardga qarshi dori-darmon topiladi. Unda yana bunday deyilgan: o'limdan tashqari har qanday kasallik ham, agar unga muvofiq dori ishlatilsa tuzaladi. Bemorlarni faqat yaxshi bilim va tajribaga ega bo'lgan tabib davolashi kerakligi ta'kidlangan. Bemorlar o'zini tabib, deb e'lon qilgan har bir kishiga ishonaverishlari kerak emas, deb tayinlangan. Bunday tasodifiy kishilar odamlar sog'lig'iga ko'p zarar keltirishlari mumkinligi ogohlantirilgan.

"Hadis"da yuqumli kasalliklarning oldini olish choralariga alohida ahamiyat berilgan. Bu haqda "Hadis"da "Agar biror joyda vabo paydo bo'lgan bo'lsa, bemor yotgan uyga kirmangiz" deb tayinlangan.

"Qur'on" kayf beruvchi ichimliklar va giyohvand moddalarni iste'mol qilishni taqiqlaydi. U axloqiy buzuvchi va shahvoniy ishlarga berilishni ham qoralaydi.

Ayollar va bolalarning, ayniqsa homilador ayolning sog'lig'ini saqlashga alohida ahamiyat berilgan. Homilador ayollar, yosh bolalar va yangi tuqqan ayollarga nisbatan maxsus rejim tavsiya etilgan. Ular musulmon dinida zarur qoidalardan biri hisoblangan ro'za tutishdan ozod qilingan.

"Qur'on" va "Hadis"da bayon etilgan qonun-qoidalarni sinchiklab tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ularda keltirilgan tavsiya va o'gitlarning ko'pi xalq tajribasidan olingan.

Shunday qilib, "Qur'on" va "Hadis" ham sog'liqni saqlash masalalarida ijobiy rol o'ynagan. Ularda keltirilgan tavsiya va nasihatlar zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"dagi tavsiya va nasihatlariga o'xshaydi.

"Hadis"da ko'proq Muhammad payg'ambarning tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasidagi o'gitlari keltirilgan. Ulardan tashqari xalq tajribasi ham to'plangan. Muhaddislar ("Hadis" to'plovchilar) shularning hammasini yig'ib "Tibbi Nabiy" ("Payg'ambar tabobati") nomi bilan alohida kitob qilib chiqqanlar.

"Qur'on" va "Hadis" qadimgi Arabiston tibbiyoti haqida ma'lum darajada tushuncha bersa ham, ular arablar tibbiyotini yetarlicha ifodalay olmaydi.

Qadimgi arablarda tajribaga asoslangan amaliy tibbiyot ham mavjud edi. Bu tibbiyot ayniqsa VIII—X asrlarda yuqori darajada rivoj topdi. Shaharlarda kasalxonalar, shifoxonalar, dorixonalar barpo etildi. Tibbiy maktablar ochildi, yirik mutaxassis hakimlar yetishib chiqdi. Tibbiyot ilmi rivojlandi. Arabistonda tibbiyot ilmining rivojlanishida qadimgi Yunon, Rim va boshqa rivoj topgan mamlakatlar olimlarining asarlari muhim rol o'ynadi. O'sha vaqtda ularning asarlari arab tiliga tarjima qilingan edi. Xususan o'sha davrda Gippokrat, Galen, Oribaziy, Korneliy, Sels asarlari arab tiliga tarjima qilingan edi. Buning natijasida arablar qadimgi Yunon, Rim olimlarining asarlari bilan tanishdilar. Arablarning o'zlaridan ham, yirik hakimlar yetishib chiqqanlar. Shunday mashhur hakimlardan biri Ali ibn Abbos Zahraviydir. Bu olim chuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lgan. Bizga bu olimning "Shohona kitob" ("Kitob al-Malik") nomli asari ma'lum. Abbos Zahraviy o'z kitobida amaliy tibbiyotga alohida ahamiyat bergan. Uning fikricha bemorlarni kasalxonaga yotqizib davolash yaxshiroqdir. Uning yozishicha bu yerda bemorlarni sinchiklab tekshirish, uning holini ko'zdan kechirib borish va muolaja usullarini oson amalga oshirish mumkin.

Yana bir ko'zga ko'ringan arab hakimi jarroh Abul Qosim ibn Muhammad edi. U jarrohiy operatsiyalarni juda muvaffaqiyatli bajargan. Xususan, u bemor qovug'idan toshni chiqarib olish, churra (grija)ni operatsiya qilish, jarohatlar va chiqqan-singanlarni davolash, ko'z kataraktasini operatsiya usuli bilan davolashda juda mohir bo'lgan.

Bizga Ishoq ibn Sulaymon ismli yana bir arab hakimi ma'lum. Bu olim ichki kasalliklarni yaxshi davolagan, parhez taomlar, ulardan foydalanish usullarini yaxshi ishlab chiqqan. Olim parhez masalasiga katta ahamiyat bergan. U bunday deb yozgan: "Agar sen bemorni dori va parhez bilan davolash mumkinligini bilsang parhezni tanla". Arab tibbiyotida dorishunoslik yaxshi ishlab chiqilgan. Arab halifaligi shaharlarida tabiblarning retsepti bilan dori tayyorlab beradigan do'konlar (dorixonalar) bo'lgan.

Arabistonda yuqumli kasalliklarga qarshi choralar ham yaxshi ishlab chiqilgan edi. Yuqumli kasalliklar bilan og'rikan kishilarni sog'lardan alohida joylarga joylashtirganlar. Ularning idish-tovoqlarini ham ajratib qo'yganlar.

Arab tibbiyotida anatomiya va fiziologiya sohaları yaxshi rivojlanmadi. Chunki ularning muqaddas kitobida odam jasadini yorish va anatomik-fiziologik tekshirishlar o'tkazish mumkin emas edi.

O'RTA ASR ERON TIBBIYOTI

O'rta asrlarda yuksak darajada rivojlangan mamlakatlardan biri Eron edi. Biz qadimgi Eron tibbiyoti bilan tanishgan edik. O'rta asrga kelib bu mamlakatda tibbiyot yanada rivoj topdi. Yirik shaharlarda kasalxonalar, shifoxonalar, dorixonalar barpo etildi. Bu tibbiy maskanlar qoshida tibbiy maktablar tashkil etildi. Ularda bilimdon hakimlar talabalarga dars berardilar. O'sha vaqtdagi eronlik tib olimlaridan eng mashhuri Abu Bakr Roziy edi.

ABU BAKR ROZIY

Abu Bakr Roziy (Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy) 865-yilda hozirgi Eronning Ray shahrida badavlat oilada tavallud topgan.

Ray o'sha zamonda Eronning yirik ma'muriy, savdo-sotiq va madaniy markazlaridan biri bo'lgan. Shaharda ko'p yirik olimlar, faylasuflar, san'at va madaniyat namoyandalari yashardilar. Roziyning bolalik davri va uning olim sifatida shakllanishi shunday ko'tarinki muhitda o'tdi. Abu Bakr yoshligidanoq juda qobiliyatli, hamma narsaga qiziqaveradigan, idrokli bola bo'lgan. Juda erta o'qish va yozishni o'rganib olib qo'liga tushgan har bir kitobni o'zicha mustaqil o'qiy boshlagan. Buning natijasida tez orada ko'pgina fanlardan xabardor bo'lib olgan. Badiiy adabiyotga ham qiziqib, she'rlar yozgan, ularni musiqiy asboblarga solib chalib, atrofdagilarning tahsiniga sazovor bo'lgan.

Roziy dastlab ko'p fanlarga qiziqqan. Keyin kimyo faniga juda qiziqib qolib, bu fanni yaxshi o'zlashtirib olgan. Uyida kimyoviy laboratoriya ochib, unda har xil kimyoviy tekshirishlar o'tkazgan. Buning natijasida bir qancha kashfiyotlar qilgan. Masalan, o'sha davr tarixchilarining yozishlaricha Roziy azot va gugurt kislotalarini kashf etgan. Al-kahholni sof holida olgan.

Roziy boshqa ko'p bilimlarni o'zlashtirib olganidan keyin ancha kech (30 yoshlarida) tibbiyotni o'rganishga kirishgan va bu fanni ham tez va mukammal o'zlashtirib olgan. Kasallarni muvaffaqiyatli davolab kishilarning hurmatiga sazovor bo'lgan.

Roziyning tibbiyotni o'rganishga nima uchun bunchalik kech kirishganligi haqida bir necha rivoyat bor. Ulardan birida aytilishicha qandaydir kimyoviy moddaning paridan Roziyning ko'zi zaharlanib qoladi. U kahholga (ko'z tabibiga) murojaat qiladi. Kahhol uni juda tez va oson tuzatadi. Ammo, buning uchun juda katta pul oladi. Shunda Roziy



Abu Bakr Roziy
(865—925).

o'ziga o'zi bunday deydi: "Men oltin topaman, deb¹ kecha-kunduz laboratoriyadan chiqmay ko'zimdanda ajralayozdim. Bu kahhol esa arzimagan kasalni tuzatish uchun shu qadar ko'p pul oldi. Yaxshisi men ham tabib bo'la qolay deb, tibbiyotga oid kitoblarni o'qiy boshlabdi.

Boshqa bir rivoyatda aytilishicha Roziy Bog'dodda bir dorishunos bilan tanishib, uning do'koniga (dorixonasiga) tez-tez borib turarkan. Buning nati-jasida u dorishunoslikga qiziqib qolgan. Keyin esa umuman tibbiyotni sevib qolgan va bu kasbni ham o'rganib olgan.

Roziy o'z tabiblik faoliyatini Ray shahridagi kasalxonada ishlashdan boshlagan. Bu kasalxonada Roziy o'z tajribasini yana orttirdi. U kasalxonadagi boshqa tabiblardan o'zining o'tkir zehni, chuqur mulohazalari va bilimi bilan ajralib turgan. Kasallarga tashxis qo'yishda deyarli xatoga yo'l qo'ymagan va ularni doim muvaffaqiyatli davolardi.

Roziy o'sha davrdagi ko'pchilik hakimlar singari ko'p sayohat qildi, ko'p shaharlarda bo'ldi. U bir qancha vaqt Xuroson shaharlarida yashaydi. Xuroson hukmdori Abu Solih Mansur ibn Isoqning shaxsiy tabibi bo'lib xizmat qildi va unga atab "Kitob at-tib al-Mansuriy" ("Mansurga bag'ishlangan tib kitobi") nomli asar ham yozdi va shohga taqdim qildi.

Xurosonda Roziy bemorlarni davolash bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib bordi, tib ilmining har xil sohalariga oid kitoblar yozdi, shogirdlar tayyorladi. Shulardan biri — Muhammad ibn Yunus yirik olim bo'lib yetishdi.

Abu Bakr Roziy o'z umrining ko'p qismini Yaqin Sharq mam-lakatlarida, xususan Iroq (Bog'dod)da yashab o'tkazgan. Bu yerda u Iroq hukmdorining saroyida xizmat qilgan. O'sha vaqtda Bog'dodda kasalxona qurilgan edi. Roziyning maslahati bilan kasalxona qurish uchun, shaharning eng ko'rkam, bahavo, ozoda joyi tanlab olingan ekan. Rivoyatda aytilishicha Roziydan "kasalxonani qayerda qurish yaxshiroq", deb so'rganlarida u bunday maslahat beribdi: "Bir qo'zichoqni so'yib uning go'shtini shaharning har qaysi burchagiga osib qo'yinglar. Qayerda go'sht buzilmay uzoqroq saqlansa, o'sha joyda quringlar". Kasalxona qurilib tayyor bo'lgandan so'ng Roziyni unga bosh tabib etib tayinlabdilar.

Roziy kasalxonada bemorlarni davolash va parvarish qilish ishini yuksak darajada tashkil etgan edi.

¹ O'rta asr kimyogarlari (alximiklar) kimyoviy usul bilan oddiy metallardan oltin olish mumkin, deb o'ylaganlar va shu maqsadda son-sanoqsiz har xil kimyoviy analizlar qilish bilan shug'ullanganlar. Roziy shunga ishora qilgan bo'lsa kerak.

Kasalxonada Abu Bakr Roziyning umumiy rahbarligi ostida katta va kichik tabiblar (hozirgi tilda assistentlar va ordinatorlar) xizmat qilganlar.

Kasalxonada har bir bemorga "kasallik varaqasi" to'ldirilgan. Varaqaga har kuni bemorning ahvoli, uning organizmida ro'y bergan o'zgarishlar, o'zini qanday sezishi, uni nimalar bezovta qilayotganligi, tomiri urishidagi o'zgarishlar batafsil yozib borilgan. So'ng bu ma'lumotlar fikrdan o'tkazib, umumlashtirib, turli kasalliklarning kechishi, ularning bemor a'zolarida qanday o'zgarishlar paydo qilishi va oqibatlari aniqlangan va kerakli davo choralari ishlab chiqilgan.

Roziy dori-darmon masalasiga alohida ahamiyat bergan. Dorilarni to'g'ri ishlatish, ayniqsa murakkab doridan foydalanishda xatoga yo'l qo'ymaslik kerakligini ta'kidlagan. Yangi kashf etilgan dorini kasalga berishdan oldin, uning ta'sirini biror hayvonda, masalan, maymunda sinab ko'rgan, so'ng bemorga tavsiya etgan.

Roziyning tibbiyot, uning mohiyati haqidagi fikrlari uning asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu masalada Roziy hamma Sharq hakimlari singari mizojlar va rutubatlar nazariyasiga asoslanadi. Umuman, Roziyning tibbiyot ilmining mohiyati haqidagi fikr-mulohazalari o'rta asr Sharq tibbiyoti darajasida bo'lgan. Lekin, ba'zi masalalarda Roziy o'z zamonasidan ancha ilgari ketgan edi.

Roziy odam tanasining tuzilishi (anatomya) va uning funksiyalari (fiziologiya)ni ham yaxshi bilgan. Fikrimizcha Roziy taqiq qilinishiga qaramay, anatomik tekshirish bilan shug'ullangan bo'lsa kerak.

U odam a'zolarining tuzilishini o'zidan ilgari o'tgan ko'p hakimlarga nisbatan aniqroq bayon etgan.

Roziy yaxshi tajribali va mohir jarroh ham bo'lgan. U sharq tibbiyotida birinchilardan bo'lib, jarohatlarni bog'lashda bint ishlatgan. Ma'lumotlarga ko'ra Roziy qo'y ichagidan tayyorlangan ip (ketgut)ni ham birinchi bo'lib ishlatgan.

Roziy yuqumli kasalliklar haqida ham yaxshi tushunchaga ega bo'lgan. Xususan, u bezgak, chechak, qizamiq, sil va moxov kasalliklarini yaxshi bilgan. Ularning belgilarini aniq va batafsil tasvirlab bergan.

Roziy tibbiyotning nazariy va amaliy masalalariga oid ko'p asar yozgan. Roziyning muhim asarlaridan biri "Mansurga bag'ishlangan tibbiyot kitobi"dir. Kitob 10 jilddan iborat. Birinchi jildda odam anatomiyasi bayon etilgan." Ikkinchi jild mizojlar masalasiga bag'ishlangan. Uchinchi jildda g'izolar va dorilar haqida so'z yuritiladi. To'rtinchi jild gigiyena masalalariga bag'ishlangan. Bu kitobda Roziy salomatlikni saqlashda gigiyenik qoidalarga rioya qilish juda muhim ekanligini alohida ta'kidlaydi. Beshinchi jild kosmetika masalalariga bag'ishlangan. Oltinchi jildda safarga chiquvchilar uchun har xil tavsiyalar berilgan. Masalan, sayyohlar va savdogarlar safarda kasal bo'lib qolmaslik uchun qanday tadbirlarni amalga

oshirishlari kerakligi ko'rsatilgan. Yettinchi jildda jarrohiy kasalliklar va ularni davolash usullari ko'rsatilgan. Sakkizinchi jild toksikologiya haqida. Bu jildda Roziy har xil zaharlanishlar va ularga qarshi choralarni ko'rsatgan. To'qqizinchi jildda ayrim a'zolarning kasalliklari, ularni aniqlash va davolash bayon etilgan. O'ninchi jild isitmali kasalliklarga bag'ishlangan.

Roziyning o'sha vaqtdagi Xuroson hukmdori Abu Solih Mansurga bag'ishlangan kitobi tibbiyot tarixida muhim amaliy qo'llanma sifatida keng tarqalgan edi. Undan tabiblar ko'p yillar o'z amaliy ishlarida keng foydalanganlar.

Roziyning "Chechak va qizamiq" nomli kitobi ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Unda Roziy bu har ikki kasalliklarning belgilarini juda aniq va to'liq tasvirlab bergan, ular o'rtasidagi farqni ko'rsatgan. Har birining kechishi, organizmda qanday o'zgarishlar paydo qilishi va qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Abu Bakr Roziyning tibga oid asarlari orasida hajm jihatidan eng kattasi va mazmun jihatidan eng to'lig'i "Tibbiyotni to'liq qamrab olgan kitob"dir. Kitob 25 jilddan iborat. Bu kitobda Abu Bakr Roziy nazariy va amaliy tibbiyotda o'zigacha bo'lgan davrda erishilgan natijalarni to'plagan, umumlashtirgan va o'z tajribalari bilan boyitgan.

Abu Bakr Roziyning bu yuqorida ko'rsatib o'tilgan asosiy kitoblaridan tashqari tibga oid yana quyidagi katta-kichik asarlari ma'lum.

Anatomiyaga oid: "Odam tanasining tuzilishini o'rganish", "Yurakning tuzilishi", "Jigarning tuzilishi", "Ko'zning tuzilishi", "Bo'g'imlarning tuzilishi", "Quloqning tuzilishi".

Fiziologiyaga oid: "Ta'm bilish", "Tashnalik", "Ko'rish va ko'zdan nur chiqmasligi", "Ko'z qorachig'ining qorong'ida kengayishi va yorug'da torayishi sabablari", "Ko'z qovog'ining ochilib yopilishi va uning foydasi", "Odam a'zolarining ishi (funktsiyasi)", "Yurakning ichki a'zolar bilan bog'liqligi", "Jinsiy aloqa haqida".

Ayrim kasalliklarga oid: "Podagra kasalligi va bo'g'imlar yallig'lanishi", "Sanchiqqlar", "Bavosil kasalligi", "Teri kasalliklari", "Moxov kasalligi", "Falajlar", "Bolalar kasalliklari", "Shamollash kasalligi haqida".

Jarrohiy kasalliklarga oid: "Jarrohlik operatsiyalari", "Jarohatlarni davolash", "Chiqqan-singanlarni davolash", "Qon oqishi".

Dorishunoslikga oid: "Dorilar haqida", "Dori tayyorlash usullari", "Issiq mizojda ishlatiladigan surgu dorilar", "Sun'iy dorilar", "Shifobaxsh balchiq", "Kayf beruvchi ichimliklar", "Kayf bermaydigan ichimliklar", "Parhez haqida", "Sutning shifobaxsh xususiyati", "Bemorni faqat parhez bilan davolash".

Bu asarlar o'z davrida tibbiy maktablarda ta'lim olayotgan talabalar uchun dastur (darslik) bo'lib, xizmat qilganlar. Ularning ba'zilar Ovrupo tillariga (nemis, ingliz) tarjima qilingan va G'arb mamlakatlarida tarqalgan. Masalan, "Mansurga bag'ishlangan tib kitobi", "Nonus almasorius" nomi bilan olmon tiliga tarjima qilinib, Ovrupo dorilfununlarida darslik sifatida foydalanilgan.

Roziy o'z zamonasining ilg'or fikrli allomalaridan biri bo'lgan. U faqat kasallarni davolash bilan cheklanib qolmay, xalq salomatligi masalalari bilan ham shug'ullangan. Masalan, uning aholiga tibbiy yordam ko'rsatish ishini tashkil qilish masalalariga bag'ishlangan quyidagi asarlari ma'lum: "Shifoxonalar haqida", "Faqirlar tibbiyoti", "Shohlar tibbiyoti", "Tabiblarning bilimini sinash". Bu asarlarda sog'liqni saqlash ishini tashkil qilish haqidagi o'z fikr-mulohazalarini ifodalaydi va tavsiyalar beradi.

Abu Bakr Roziy tibbiyot tarixi bilan ham shug'ullangan. U o'zidan ilgari o'tgan yirik hakimlarning asarlarini qunt bilan o'rgangan va targ'ib qilgan. Masalan, u bunday deb yozgan: "Tabib chuqur bilimli va yaxshi tajribali mutaxassis bo'lib yetishishi uchun o'tmishdagi hakimlarning asarlarini qunt bilan o'rganishi zarur. Chunki, tibbiyot ilmi ko'p asrlar davomida rivojlanib takomillashgan. Bunda minglarcha tabiblarning xizmatlari bor. Kimda-kim ularning asarlarini qunt bilan o'rganib, bu asarlarning mohiyatini anglar ekan, u o'zining qisqa vaqtli umri davrida juda ko'p kasallar ortidan yugurib yurib, orttirgan tajribalaridan ko'ra ko'proq narsani bilib oladi, chunki bir kishi u hatto ming yil umr ko'rsa ham, o'zidan ilgari o'tgan olimlarning tajribasi bilan tanish bo'lmasa, faqat o'z kuzatishlari bilan tibbiyot ilmini yetarli darajada egallay olmaydi".

Roziyning bu fikr-mulohazalari tibbiyot tarixi ilmining qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Darhaqiqat tibbiyot ilmini puxta egallash uchun uning kelib chiqishi, shakllanishi va bosib o'tgan yo'lini, ya'ni uning tarixini bilishimiz lozim. Abu Bakr Roziy shunga ishora qilmoqda.

Abu Bakr Roziy umrining oxirida ko'zi ojiz bo'lib qoldi va 925-yilda o'zining tug'ulgan shahri Rayda vafot etdi.

Abu Bakr o'zidan so'ng katta ilmiy meros qoldirgan. U tib ilmining nazariy va amaliy sohalariga oid ko'p asarlar yozgan. Ularning har biri jahon tibbiyot ilmiga katta hazina bo'lib qo'shilgan. So'nggi hakimlar bu qimmatbaho asarlardan ko'p yillar foydalanganlar. Ibn Sino ham Roziyga nisbatan katta hurmat bilan qaragan va uning asarlariga yuksak baho bergan.

VII bob

O'RTA OSIYO DAVLATLARIDA O'RTA ASR DAVRIDAGI TIBBIYOT

O'рта asrlarda O'рта Osiyo davlatlarida fan va madaniyat yuksak darajaga ko'tarildi. Yirik shaharlarda ilm-fan markazlari, dorilfununlar, madrasalar barpo etildi. Ko'plab olimlar, faylasuflar, adabiyot va san'at namoyandalari yetishib chiqdilar. Bu olim va fozillar fan va madaniyatning turli sohalariga oid o'lmas asarlar yaratdilar. Ular jahon fani va madaniyatiga bebaho durdonalar bo'lib qo'shildilar. Firdavsiyning "Shohnoma"si, Ibn Sinoning "Tib qonunlari", Shayx Sa'diyning g'azallari, Alisher Navoiyning "Hamsa"si shular jumlasidandir. Bunday umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham rivoj topdi. Shaharlar va aholi yashaydigan yirik maskanlarda kasalxonalar, dorixonalar barpo etildi. Katta shaharlarda tibbiy bilim yurtlari tashkil etildi. Bundan tashqari madrasalarda ham boshqa dunyoviy bilimlar qatorida tibbiyot ilmi ham o'qitila boshladi. Ular ko'p bo'lmasa ham yaxshi bilimli hakimlar tayyorlab chiqardilar.

O'рта asrlarda O'рта Osiyo davlatlarida ilm-fan va madaniyatning yuksalishi mamlakatlarda ro'y bergan, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning natijasi edi. Ikkinchi jihatdan buning sababi shu ediki, o'sha vaqtdagi ko'p davlat boshliqlari ilm-fan ahllarini qo'llab-quvvatlardilar. Ilm-fannig qadriga yetardilar. Ko'plari o'zlari ham o'qimishli kishilar edilar. Tarixda o'sha zamondagi Xorazm, Buxoro va Samarqand hukmdorlari shunday davlat arboblari bo'lganlari ma'lum. Biz quyida shu davlatlarda tibbiyotning rivojlanishi bilan tanishib chiqamiz.

XORAZMSHOHLAR DAVRIDAGI TIBBIYOT

IX—X asrga kelib, jahonga mashhur bo'lgan qadimgi Xorazmning mavqei qayta tiklana boshladi. Arablar istilosi davrida parchalanib ketgan Xorazm davlati tiklandi. O'sha vaqtda hukmronlik qilgan shoh Ma'mun ibn Muhammad shimoliy va janubiy Xorazm yerlarini birlashtirib, yagona Xorazm davlatini barpo etdi. Xorazm siyosiy va iqtisodiy jihatdan bir butun davlat bo'lib taraqqiy eta boshladi. Buning natijasida Xorazm yana

sharqning eng rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylandi. Uning poytaxti Gurganch (Urganch) o'z madaniy hayoti va turli fanlarning rivoji jihatidan butun sharqqa dong taratdi. Davlatning poytaxti Urganch katta karvon yo'llari tutashgan yerda joylashgan bo'lib, mamlakatlararo savdo-sotiq ishlarida muhim rol oynadi. Shaharga uzoq o'lkalardan ko'plab savdogarlar kelib turardilar. Shuning uchun Urganchda ko'p karvonsaroylar, bozorlar, hammomlar, hashamatli saroylar bunyod etilgan edi. Bu yerda ko'p sonli olimlar, faylasuflar, me'morlar, san'at namoyandalari, shoirlar va hakimlar yashardilar. Xorazm shohlari ularni qo'llab-quvvatlardilar, saroylaridan joy berib, yaxshi maosh to'lardilar.

Xorazm Ma'mun ibn Ma'mun shohlik qilgan davrda (XI asr boshi) ayniqsa ravnaq topdi. Bu shohning o'zi bilimdon va o'qimishli kishi edi. Shuning uchun u ilm-fanning qadriga yetar va fan ahllarini har tomonlama qo'llab-quvvatlardi. Uning saroyida o'nlab olimlar, faylasuflar, san'at namoyandalari, shoirlar va hakimlar yashardilar.

Xorazm olimlari o'sha davrdagi fanni yuksak darajaga ko'tardilar, uni yangi kashfiyotlar bilan boyitdilar. Bunday umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham rivojlandi. Chuqur bilimli va yaxshi tajribaga ega bo'lgan hakimlar yetishib chiqdilar. Boshqa mamlakatlardan ham taniqli hakimlar kelib, Xorazm shaharlarida xizmat qildilar. Ayniqsa Xorazm davlatining poytaxti Urganch shahrida ko'p olimlar va hakimlar to'plangan edilar. Ularning aksariyati Xorazm shohining saroyida tashkil etilgan "Olimlar jamiyati"ga uyushgan edilar. Bu jamiyat tarixda "Ma'mun akademiyasi" nomi bilan mashhur bo'lgan. Akademiyaga mashhur qomusiy bilimga ega bo'lgan Abu Rayhon Beruniy rahbarlik qilgan. "Akademiya" tarkibida o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan fanlarning deyarli hamma sohalari bo'yicha yirik mutaxassislar bo'lgan. Shular qatorida mashhur hakimlar ham bor edi. Bizga shulardan Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Mansur Qamariy, Abul Hayr Hammor ma'lum.

Urganchda shoh saroyi huzurida maxsus kasalxonaga bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra shu kasalxonada Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy va Abu Abdulloh Iloqiy bir qancha vaqt xizmat qilganlar. Ular bemorlarga tashxis qo'yish va davolashda kasalxonaga tabiblariga yordam berish bilan birga kasallar ustida ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib borganlar. Xususan, har xil kasalliklarning asosiy belgilari, ularning kechishi va oqibatlarini ko'zdan kechirib, xulosalar chiqarganlar, ular yangi davolash usullarini ishlab chiqqanlar.

O'sha vaqtda Xorazmda yuqorida nomlari keltirilgan hakimlardan tashqari boshqa mashhur hakimlar ham xizmat qilganlar. Bizga shulardan Ismoil Jurjoniy va Umar Chag'miniy ma'lum.

Shunday qilib, o'rta asrlarda Xorazm davlatida ko'p mashhur hakimlar yashaganlar, ijod qilganlar va o'lkamizda ilmiy-amaliy tibbiyotning

rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Biz quyida shu hakimlar bilan tanishib chiqamiz.

ABU ABDULLOH ILOQIY

Abu Abdulloh Iloqiy (Sharafuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Yusuf Iloqiy) asli Toshkent vohasidan bo'lgan. U vaqtda bu voha "Iloq vohasi" deb atalgan. Iloqiyning tug'ilgan yili ma'lum emas, vafoti 1068-yil.

Iloqiy dastlab Shosh (hozirgi Toshkent) madrasalaridan birida ta'lim olgan. U vaqtda Shosh qadimgi O'zbekistonning boshqa shaharlari kabi Sharqda juda rivoj topgan shaharlardan biri edi. Shaharda masjid-madrasalar, xonagohlar, savdo rastalari, karvonsaroylar ko'p bo'lgan. Shular qatorida kasalxona, shifoxona va dorixonalar ham bo'lgan. Shaharda ko'p olimlar, faylasuflar va tajribali hakimlar yashaganlar, madrasalarda diniy aqidalar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlar ham o'qitilgan.

Iloqiyda yoshligidan hakim (o'qimishli tabib) bo'lib yetshish niyati bor edi. Shu maqsadda u Toshkentdagi madrasada asosiy bilimlarni egallab olganidan so'ng Buxoroga, Abu Ali ibn Sinoning oldiga jo'nadi. Ammo, Iloqiy Buxoroga yetib kelganida Ibn Sino Xorazmga ketib qolgan edi. Iloqiy Buxoroda bir oz vaqt to'xtab, bu yerdagi olimlardan har xil fanlardan saboq olib, so'ng Xorazmga, Ibn Sinoning oldiga jo'naydi. Bu vaqtda Iloqiy o'z bilim va tajribalari bilan ancha ko'zga ko'rinib qolgan edi. Shuning uchun uni Xorazmda yaxshi kutib oladilar va "Ma'mun akademiyasi" a'zolari qatoriga kiritadilar.

Xorazmda Iloqiy o'z maqsadiga erishib, Ibn Sinodan tib ilmining sir-asrorlarini o'rganib oladi. Xorazmda Iloqiy uzoq vaqt yashadi va Urganchdagi saroy kasalxonasida ishlab o'z tajribalarini yanada orttirdi. Bu yerda Iloqiy faqat bemorlarni davolash bilan cheklanib qolmay, kasallar va har xil kasalliklar ustida tadqiqot ishlari olib bordi. So'ng bu kuzatish natijalarini umumlashtirib, kerakli xulosalar chiqardi. Shunga asosan kasalliklarga tashxis qo'yish va davolash ishlarini takomillashtirdi. Iloqiy shularning hammasini jamlab, o'tmish buyuk hakimlarining asarlarini chuqur mutolaa qilib, o'zi ham tibbiyotning turli masalalariga oid ko'pgina asar yaratdi. Shulardan bizga quyidagi kitoblari ma'lum: "Kasalliklarning sabablari va belgilari", "Davolash usullari", "Tibbiyot to'plami", "Qisqacha qonun".

"Kasalliklarning sabablari va belgilari" da Iloqiy tashxis masalalarini yoritadi. Kasallik sabablari haqida olim o'sha vaqtda asosiy tushuncha bo'lgan rutubatlar patologiyasi nuqtai nazarida turadi. Bunda u qon va safroga alohida ahamiyat bergan. Shuning uchun bemorlarni davolashda u dastlab qon olish va safro haydovchi dorilar berishni tavsiya qilgan.

Tashxis masalasida Iloqiy bemorlarni sinchiklab ko'zdan ko'chirish,

kasallikning har bir belgisiga e'tibor berishni ta'kidlagan. Bemorning tomirini tekshirishni u asosiy usul, deb hisoblagan. Bemorning chiqindilarini (siydik, ahlat, balg'am va h.k.) tekshirish ham zarur ekanligini eslatib o'tadi.

"Davolash usullari"da muallif o'sha davrda ma'lum bo'lgan barcha davo tadbirlari — dori-darmon berish, qon olish, parhez usuli bilan davolash va hokazolar haqida batafsil ma'lumot bergan. Bulardan tashqari tabiat omillaridan (toza havo, suv, quyosh nuri, dengizda cho'milish, sayr qilish) foydalanish ham yaxshi natija berishini eslatgan. Parhez taomga ham katta ahamiyat bergan. Uning ko'rsatishicha, ba'zan kasalni faqat parhez bilan davolash ham mumkin.

"Tibbiyot to'plami" asarida o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan nazariy va amaliy tibbiyot yutuqlarini umumlashtirgan. Bunda u ilgari o'tgan olimlarning fikrlarini ham keltiradi.

"Qisqacha qonun" kitobida Iloqiy asosan Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobida bayon etilgan fikr va tavsiyalarni qisqa qilib, ifodalab bergan. Bu kitob O'rta Osiyo tabiblari o'rtasida keng tarqalgan edi. Undan tabiblar o'z amaliy ishlarida foydalanganlar.

ISMOIL JURJONIY

Ismoil Jurjoniyy (Zayniddin Abu Ibrohim ibn Hasan ibn Mahmud ibn Ahmad al-Husayn Jurjoniyy) 1080-yilda Jurjon shahrida tug'ilgan. U yoshligida juda o'tkir zehnlil va zo'r qobiliyatli bola bo'lgan. Ko'p fanlarga qiziqqan. Ammo, tibbiyot ilmiga ko'proq ahamiyat bergan. Bu fanga oid kitoblarni o'qib yaxshi o'zlashtirib olgan. So'ng bemorlarni davolay boshlagan.

Jurjoniyy o'zining chuqur bilimi va tajribalari tufayli aholi o'rtasida juda tez shuhrat qozongan. U tashxis qo'yish va kasallarni davolashda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Shuning uchun nufuzli kishilar, hatto shohlar ham betob bo'lib qolganlarida unga murojaat qilganlar.

1110-yilda Xorazm shohi Qutbiddin Muhammad Anush Tegin Ismoil Jurjoniyni o'z saroyiga taklif etib, o'ziga shaxsiy tabib qilib tayinlaydi. Qutbiddin Muhammad hukmronlik qilgan vaqtda Xorazmda Ma'mun davrida bo'lganidek, ilm-fan yuksak darajada rivojlanadi. Ma'mun Akademiyasi tiklandi, unga yangi olimlar qo'shiladi. Jurjoniyy ham Akademiyaga kiritiladi.

Jurjoniyy shohning shaxsiy tabibi bo'lish bilan birga Urganchdagi saroy kasalxonasiga ham boshlilik qiladi. Kasalxonada u har xil kasalliklarning kechishini kuzatib boradi va tegishli xulosalar chiqarib, yangi tashxis va davo choralarini ishlab chiqadi. Bu sohadagi o'z tajribalarini umumlashtirib, o'z asarlarida bayon etadi.

Jurjoniyning Xorazmda yashagan davri uning hayotida eng unumli yillar bo'lgan. U Xorazmda o'zining eng asosiy asarlarini yozdi. Shulardan eng mashhuri "Xorazmshoh zaxirasi"dir. Bundan tashqari Jurjoniyni "Kasalliklarga tashxis qo'yish", "Tibbiyotning mohiyati", "Dorilar zaxirasi" va "Ibn Sino haqida so'z" nomli asarlar ham tasnif etdi. Bu kitoblarning har biri nazariy va amaliy tibbiyotning ayrim muhim masalalariga bag'ishlangan. Bu asarlar o'rta asr Sharq tibbiyotining rivojlanishida katta rol o'ynadi.

"Xorazmshoh zaxirasi" 600 sahifadan oshiq katta ilmiy asardir. Asarda muallif odam anatomiyasi va fiziologiyasidan boshlab, kasalliklarni aniqlash (tashxis qo'yish) va ularni davolashgacha barcha muhim masalalarni bayon etgan. Kitob 10 qismdan iborat bo'lib, har bir qismi tibbiyotning ayrim sohalariga bag'ishlangan. Kitobda muallif tibbiyot va uning vazifalari haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon etgan. Xususan, Jurjoniyni o'zining bu asarida tibbiyotning asosiy masalasiga to'xtalib, birinchi galda kishilar salomatligini saqlash tadbirlarini ko'rsatgan. Uning yozishicha salomatlikni saqlash uchun birinchi galda sog'liqqa salbiy ta'sir etuvchi barcha omillarni bartaraf qilish zarur.

Kitobda muallif yana quyidagi muhim masalalar haqida so'z yuritadi: Odam a'zolarining tuzilishi va ularning funksiyasi, sog' va kasal organizmning holati, har xil kasalliklarning belgilari, bemor organizmini tekshirish usullari, tomirni ushlab ko'rib tekshirish, organizm chiqindilarini tekshirish, odam organizmiga turli omillarning ta'siri, ovqat moddalari va ularning ahamiyati, gigiyenik qoidalar, ularning sog'liq uchun ahamiyati, odam hayotida suv, havo, tuproq, kiyim-kechak, turar joy, uyqu va uyqusizlikning ahamiyati. So'ng Jurjoniyni har xil kasalliklarning oqibati (prognostika) haqida ham so'z yuritadi.

Kasalliklarning umumiy sababi haqida Jurjoniyni barcha Sharq hakimlari singari rutubatlar nazariyasi va mizojlar tushunchasiga asoslangan. Jurjoniyni ham Ibn Sino singari kasalliklarni umumiy a'zo kasalligi va ayrim a'zolar kasalliklariga bo'lgan. Umumiy a'zo kasalligiga birinchi galda yuqumli kasalliklarni kiritgan. Ayrim a'zolar kasalligini 21 qismga bo'lgan. Shu qismlarning har biri ayrim bir a'zo haqida. Bunda muallif avval har bir a'zoning o'zi, uning tuzilishi haqida ma'lumot berib, so'ng unda uchraydigan kasalliklar, ularni aniqlash va davolash choralarini ko'rsatadi. Kitobda travmatologiya, teri kasalliklari, zaharlanishlar, ularga qarshi choralar ham batafsil bayon etilgan.

Ismoil Jurjoniyni yozishicha har bir kasallik olti jarayon ta'sirida kechadi. Bu jarayonlar quyidagilardan iborat: birinchisi to'rt unsur (yer, suv, havo, olov), ikkinchisi to'rt mizoj (issiqlik, sovuqlik, quruqlik, ho'llik), uchinchisi to'rt rutubat (qon, xilt, safro, savdo), to'rtinchisi tanadagi uchta ruh (tabiiy, hayvoniy, fikriy ruhlar), beshinchisi tananing

tabiiy holati, oltinchisi tananing oddiy va murakkab qismlari. Jurjoniyning yozishicha shu olti omil odatdagidek ya'ni mo'tadil holatda bo'lsa kishi sog'lom, agar ulardan birida chekinish ro'y bersa kishida kasallik paydo bo'ladi. Jurjoniyning mulohaza qilishicha kasallik juda murakkab jarayonda kechadi. Har bir tabib bemorga tashxis qo'yish va uni davolashda buni hisobga olishi kerak. Shunday qilib, Jurjoniyni kasalliklarning mohiyati, sabablari va oqibatlari haqida o'ziga xos fikr va mulohazalar yuritgan.

"Xorazmshoh zahirasi"da tibbiyot ilmining barcha sohalari qamrab olingan. Bu kitobni hozirgi tilda "ichki kasalliklar propedevtikasi" deb atash mumkin. Kitob o'zining hajmi, mazmuni va ahamiyati jihatidan ibn Sinoning "Tib qonunlari kitobi" dan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. Jurjoniyni Anush Tegin vafot etganidan so'ng uning o'g'liga bir oz vaqt xizmat qilib, so'ng Xorazmdan ketadi. Umrining oxirida Marv shahrida yashab, shu yerda 1141-yilda vafot etadi.

UMAR CHAG'MINIY

Umar Chag'miniy (Mahmud ibn Muhammad ibn Umar Chag'miniy) har tomonlama chuqur bilimli olim bo'lgan. U Xorazm viloyatidagi Chag'min nomli qishloqda tavallud topgan.¹ Chag'miniyning tug'ilgan yili ma'lum emas, vafoti 1221-yil.

Chag'maniy yoshlik chog'idayoq har xil bilimlarga qiziq boshlagan. U chuqur va keng ma'lumotli olim bo'lib yetishishga intilgan. Shu maqsadda Urganchga kelib, bu yerdagi madrasalardan birida ta'lim oladi. So'ng o'z bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida Samarqanga boradi. Bu yerda aniq fanlar (astronomiya, riyoziyot, fizika va h.k.) va falsafa ilmini chuqur o'rganadi. So'ng tibbiyotga qiziqib qolib, bu fanni ham o'zlashtirib oladi. Shundan keyin Urganchga qaytib kelib, o'z ilmiy ishlarini davom ettiradi va muhim kashfiyotlar qiladi. Masalan, Chag'miniy N.Ko'pernikdan bir necha asr ilgari geliosentik (Quyosh markazi) gipotezani oldinga suradi.² Bundan tashqari Chag'miniy yil fasllarining almashinishini yerning Quyosh atrofida aylanishi bilan bog'liq ekanligini matematik hisob bilan isbotlab bergan. Bu kashfiyotlar jahon faniga qo'shilgan katta hissa edi.

Chag'miniy tibbiyot ilmi sohasida ham mashhur bo'lgan. Ammo, bizga Chag'miniyning tabiblik faoliyati haqidagi ma'lumotlar juda kam yetib kelgan. Olimning tibga oid birgina asari ma'lum, xolos. U "Qonuncha" ("Kichik qonun"), deb ataladi. Kitobda o'sha vaqtdagi tibbiyotning asosiy

¹ Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra Chag'min nomli qishloq Buxoro viloyatida bo'lgan.

² Aslida bu gipotezani birinchi bo'lib, IX asrda yashagan farg'onalik mashhur astronom olim Muhammad al-Farg'oniy aytgan edi.

masalalari, ixcham bayon etilgan. Chag'miniyning bu kitobi haqida turlicha fikr mavjud. Ba'zilar bu kitob Chag'miniyning o'z qalamiga mansub asar desalar, boshqalar u Ibn Sinoning "Tib qonunlari" nomli asarining qisqartirilgan variantidir, deydi. Ammo, ikkinchi fikr to'g'ri bo'lmasa kerak. Chunki, Chag'miniyning "Qonuncha"si Ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobidan o'zining tuzilishi va masalalarning bayon etilishi jihatidan boshqachadir. Aftidan Chag'miniy o'z "Qonuncha"sida ko'p mualliflarning kitoblarini umumshtirib bayon etgan bo'lsa kerak. Bu fikrni Chag'miniyning o'zi ham tasdiqlaydi. U o'z kitobi haqida so'zlab, "mazkur kitobni tuzishda men ko'p mualliflarning kitoblaridan foydalandim", deb yozgan.

"Qonuncha" 10 bobdan iborat. Ularning har biri bir necha qismga bo'lingan. Kitobda quyidagi masalalar bayon etilgan: tabiat hodisalari va ularning kishi organizmiga ta'siri; jug'rofiy ma'lumotlar, inson tanasining tuzilishi (anatomya); salomatlikni saqlash tadbirlari; teridagi har xil chiqiqlar va ularni davolash, yara-chaqalar, tashqi a'zolar kasalliklari, oziq-ovqatlar; ichimliklar, ularni tayyorlash va iste'mol qilish va h.k.

Chag'miniy organizmning tabiati (xususiyati) masalasida unsurlar nazariyasiga asoslangan. Olimning yozishicha unsurlarning xususiyatlari (mizojlari) sharoitning ta'siriga qarab, o'zgarishi mumkin. Masalan, yoz faslida havo issiq va quruq mizojli bo'ladi. Kuzda esa sovuq-quruq mizojli bo'lib qoladi. Qishda havo sovuq va ho'l mizojli bo'ladi. Havoning bunday o'zgarib turishi kishi organizmiga salbiy ta'sir etib, unda kasallik keltirib chiqarishi mumkin.

Chag'miniy ko'proq ichki kasalliklar bilan shug'ullangan bo'lsa kerak. Chunki, u ichki a'zolar (o'pka, me'da, jigar, ichaklar, yurak) kasalliklarini batafsil bayon etgan. O'pkada uchraydigan kasalliklardan sil, zotiljam, havo o'tkazuvchi yo'llar (traheya, bronxlar) kasalliklari hamda o'pkadan qon kelishi (qon tupurish) kabi holatlarni juda mufassal yozgan. Bu kasalliklarning belgilari va davolash usullarini ko'rsatib bergan. Me'da-ichak kasalliklarini davolashda har xil dori-darmonlardan tashqari parhez usulidan foydalanishni ham tavsiya etgan. Boshqa a'zolarining kasalliklariga ozroq o'rin bergan. Ularda bosh miya, buyrak, jinsiy a'zolar va teri kasalliklari ko'rsatilgan.

Chag'miniyning "Qonuncha"si o'zining masalani aniq, ravshan va qisqa ifodalab berishi bilan ajralib turadi. Shuning uchun o'sha davrdagi tabiblarning ko'pchiligi shu "Qonuncha"dan foydalanganlar. Chag'miniy O'zbekistonda tibbiyot bilimdoni sifatida ham yaxshi iz qoldirgan.

VIII bob

BUXORO DAVLATIDAGI TIBBIYOT

IX—X asrlarda Buxoro davlatida ham ilm-fan va madaniyat tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Buxoro hukmdorlari Xorazm shohlariga taqlid qilib, o'z saroylarida olimlar, faylasuflar, shoirlar va san'at namoyandalariga o'rin berib, ularni qo'llab-quvvatladilar.

O'sha davrda Buxoro davlati Yaqin Sharq miqyosida eng rivojlangan davlatlardan biriga aylangan edi. Bu yerda boshqa fanlar qatorida tibbiyot ilmi ham yuksak darajaga ko'tarilgan edi. Buxoroda ko'p ko'zga ko'ringan hakimlar yashagandilar. Shulardan eng mashhuri Abu Ali ibn Sinodir.

ABU ALI IBN SINO

Abu Ali ibn Sino (Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino) 980- (370 hijriy) yilda Buxoro yaqinidagi Afshona nomli qishloqda tavallud topgan. Mashhur tarixchi Abu Bakr Narshahiyning yozishicha Afshona ilgari kattagina shahar bo'lgan. So'ng vaqt o'tishi bilan u o'z mavqeyini yo'qotib, kichikroq qishloqqa aylanib qolgan va Isfana, deb atala boshlagan. Bu qishloq hozir yana Afshona deb atalmoqda.

Ibn Sinoning o'zi tarjimai holida yozishicha, uning otasi Abdulloh ibn Hasan Afshonaga qo'shni bo'lgan Hurmayson (hozir Romiton) qishlog'ida ma'muriy xizmatga boshliq bo'lgan. Ko'pchilik tarixchilar Abdulloh ibn Hasan soliq yig'uvchi edi, deb yozadilar. Demak, u soliq yig'uvchilarning boshlig'i bo'lgan.

Hurmayson Buxoro muzofotidagi yirik qishloqlarning biri bo'lgan. Atrof qishloqlardan yig'ilgan soliqlarni dastlab, shu yerga to'plab, so'ng podshoh xazinasiga topshirgan bo'lsalar kerak. Soliq yig'uvchilik daromadli ish. Abdulloh bu ishga boshchilik qilgani uchun ancha badavlat kishi bo'lgan. U o'z vazifasiga ko'ra Hurmayson atrofidagi qishloqlarga tez-tez borib turgan. Shulardan birida Afshona qishlog'ida bir husndor qizni ko'rib, uni yoqtirib qolib, uylanadi va uning oilasiga ko'chib kelib, shu oilada yashay boshladi. Bu oilada dastlab Husayn (ibn Sino), so'ng Mahmud ismli ikki og'il tug'iladi.

Abdulloh ibn Hasan o'z davrining ilg'or fikrli ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan. Ilm-fanni qadrlagan, o'zi ham ba'zi fanlarga (falsafa, riyoziyot, ilohiyot) qiziqqan. U o'z bolalarini ham o'qimishli kishilar bo'lib yetishishlari uchun harakat qilgan. Shu maqsadda bo'lsa kerak, katta o'g'li Husayn maktab yoshiga yetganida o'z oilasini ilm o'chog'i



Abu Ali ibn Sino
(980—1037).

bo'lgan Buxoroga ko'chirib olib kelgan. Buxoroda Abdulloh Husaynni dastlab, odatdagidek, shahardagi yaxshiroq hisoblangan musulmoncha diniy maktablardan biriga o'qishga bergan. Bu yerda Husayn arab alifbosidan savod chiqarganidan so'ng u Qur'on va adab ilmini o'rganishga kirishgan.

"Qur'on ilmi"ga uni yodlab olish, qiroat bilan o'qish, uning suralari va oyatlarini izohlab berish kiradi. "Adab ilmi"(Adabiyot)ga arab tili qoidalari, she'r san'atini egallash, xususan ma'oniylar, bayon va qofiyani to'g'ri ishlatish kiradi. Odatda talabalar bu bilimlarni egallash uchun yillab, hatto o'n yillab vaqtlarini sarf qiladilar. Ibn Sino "Qur'on" va adab ilmlarini juda oz muddatda o'zlashtirib

olgan. Buning natijasida u yosh bo'lishiga qaramay, hadis va tafsirda boshqalardan ancha o'tkirlik qilgan. U badiiy adabiyotga ham qiziqqan, she'rlar yoza boshlagan. O'sha vaqt tarixchilarining yozishlaricha, Husayn o'qigan kitoblarini shu qadar tez va mukammal o'zlashtirib olar ekanki, buni ko'rgan kishilar hayratga tushgan ekanlar.

O'g'lining bunchalik iste'dodi va ilmga bo'lgan kuchli intilishini ko'rgan Abdulloh uning bilimini yanada oshirish maqsadida Buxorodagi taniqli ilm sohiblarini yollab, ularda Husaynni o'qitadi. Dastlab uni Mahmud massoh¹ ismli hind hisobi (riyoziyot) va handasa bo'yicha mutaxassisda o'qitadi. So'ng Husayn Ismoil Zohid ismli qonunshunosdan fiqh (qonunshunoslik) ilmini o'rganadi. Shundan keyin u o'sha zamonda ma'lum bo'lgan boshqa fanlarga ham qiziqqa boshlaydi. Ko'p o'qish va o'qiganlarini chuqur mulohaza qilish natijasida Husaynda yosh bo'lishiga qaramay, har xil fanlar va dunyoviy masalalar haqida mustaqil fikrlar paydo bo'la boshlaydi.

O'sha vaqtda Buxoroga Abu Abdulloh an-Notiliy ismli bir faylasuf olim kelib qoladi. Husaynning otasi o'glim bu olimdan falsafa ilmini o'rgansin, deb an-Notiliyni o'z uyiga joylashtiradi. Husayn bu olimdan falsafa, mantiq va handasa ilmlaridan dars ola boshlaydi. Ammo, ko'p o'tmay an-Notiliy bu fanlarda unchalik kuchli emasligi ma'lum bo'lib qoladi. Bu haqda ibn Sinoning o'zi tarjimai holidan bunday, deb yozgan; "U (Notiliy) menga qaysi ilmiy masala haqida gapirmasin, men bu masalani undan ko'ra yaxshiroq tasavvur qilardim". An-Notiliy ko'p o'tmay Xorazmga ketib qolgan. Shundan so'ng ibn Sino fanlarni mustaqil

¹ Massoh — yer o'lchovchi kishi — tanobchi.

o'rganishga kirishadi. Xususan, u falsafa, mantiq, fiqhga oid kitoblarni mutolaa qiladi. Tabiatga oid kitoblarni ham o'qib chiqadi. Shunday qilib Ibn Sino ancha yosh chog'idayoq o'sha zamonda ma'lum bo'lgan bilimlarning ko'pini puxta o'zlashtirib olgan edi. U hatto katta olimlar qatorida ilmiy munozaralarda ham qatnasha boshlaydi. Shunday suhbat va munozaralarda Ibn Sino o'zining chuqur ilmiy mulohazalari va mantiqiy fikrlarining zo'rliigi jihatidan ko'pgina katta olimlardan ustunlik qiladi. Bu Ibn Sinoning faqatgina zo'r iste'dodi natijasi bo'lmay, shu bilan birga uning tinimsiz mehnati mahsuli ham edi. Haqiqatan, Ibn Sino bilim olishda juda tirishqoq va sabot-matonatli bo'lgan. Bu haqda uning o'zi shunday, deb yozgan: "Keyin men yana bir yarim yil ilm va mutolaaga berildim. Mantiq va falsafaning hamma sohalarini qaytadan puxtalab o'qib chiqdim. O'sha kezlarda biror kecha ham to'yib uxlamasdim. Kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmasdim. Kechalari oldimga shamchiroq qo'yib olib faqat o'qish va yozish bilan band bo'lardim. Ana shunday zayilda hamma ma'lum ilmlarni mustaqil egallab oldim". Bu yerda Ibn Sino ilm o'rganishda o'zining qanchalik tirishqoq va sabot-matonatli ekanligini ko'rsatuvchi quyidagi misolni keltiradi: Ibn Sino barcha tabiiy fanlarni o'zlashtirib olganidan so'ng, ilohiyotni o'rganishga kirishgan va Aristotelning "Mo ba'da at-tabia" ya'ni tabiatdan keyingi fan ("Metafizika") kitobini o'qiy boshlagan. Ammo, uning mazmuniga tushunolmay, qayta-qayta o'qiyvergan. U hatto bu kitobni tamoman yodlab olgan. Shunda ham Ibn Sino uchun bu kitobning mazmuni qorong'i bo'lib qolavergan. Faqat shundagina Ibn Sino "bu kitob tushunib bo'lmaydigan kitob ekan", deb undan umidini uzgan. Ammo, bir tasodifiy hodisa tufayli Ibn Sino bu kitobning mazmunini tushunib olgan. Bu voqea shunday bo'lgan ekan: o'sha vaqtda Buxoro bozorida maxsus kitobfurushlar va muqovachilar rastasi bo'lgan ekan. Ibn Sino u yerga tez-tez borib, yangi kitoblar xarid qilib turarkan. Bu kitob rastasi faqatgina kitob sotiladigan joy bo'lmay, bu yerda ko'pincha olimlar, faylasuflar va shoirlar yig'ilishib, har xil kitoblar va ularning mazmuni haqida suhbatlar, munozaralar va bahslar o'tkazib turisharkan. Ibn Sino ham ko'pincha bu yig'inlarda qatnashib turarkan. Bir gal Ibn Sino shu kitob rastasiga borganida bir kitobfurush chiroyli qilib muqovalangan bir kitobni unga ko'rsatib, — "buni sotib ol, juda yaxshi kitob", deb maqtaydi. U Abu Nasr Forobiyning "Mo ba'da at-tabia"ga yozgan sharhi ekan. Ibn Sino bu kitob, ya'ni "Mo ba'da at-tabia" tushunib bo'lmaydigan asar, deb sotib olishdan bosh tortadi. Ammo, kitobfurush — "bu kitobning egasi pulga muhtoj, uni juda arzonga beraman, ol", deb Ibn Sinoni ko'ndiradi, ibn Sino kitobni sotib oladi va uyga kelib, uni o'qib chiqib, "Mo ba'da at-tabia"ning mazmunini tushunib oladi. Ibn Sino bu voqeani shogirdi Abu Ubayd Juzjoniya aytib berib, uni quyidagi so'zlar bilan

tugatgan ekan: "Bundan men o'zimda yo'q xursand bo'lib ketdim va tangri taologa shukur aylab, o'sha kunning ertasiayoq kambag'allarga ancha sadaqa ulashdim".

Bu voqea uch muhim jihatdan guvohlik beradi. Birinchidan, Ibn Sinoning bilim yo'lida zo'r sabot-matonatligiga. Ikkinchidan, bozorida "Metafizika"ning sharhidek nodir kitobni bimalol sotib olish mumkin bo'lgan Buxoroning yuksak madaniyati. Uchinchidan, o'sha vaqtda yurtimizda Aristoteldek buyuk faylasufning asariga sharh yozish qo'lidan keladigan chuqur bilimli olimning mavjud bo'lishidir.

Abu Ali ibn Sino tib ilmi bilan ancha erta shug'ullana boshlagan. Uning o'zi bu haqda bunday, deb yozgan: "Keyin men tib ilmi bilan shug'ullangim kelib qoldi va bu bilimga oid kitoblarni o'qishga kirishdim. Tib o'zi qiyin fanlardan emas. Shu sababli qisqa vaqt ichida bu bilimda katta natijalarga erishdim. Endi hatto bilimdon tabiblar ham huzurimga kelib, mendan tib ilmidan dars oladigan bo'ldilar. Bemorlarni ham ko'rib turardim. Ortirgan tajribalarim tufayli men uchun davolash eshiklari shunday keng ochildiki, buni ta'riflab berish qiyin. Bu vaqtda men o'n olti yoshda edim". O'sha zamon tibbiyot tarixchilarining guvohlik berishlaricha, Ibn Sino tib ilmini haqiqatan tez va oson o'zlashtirib olgan va bemorlarni muvaffaqiyatli davolab, Buxoro aholisi o'rtasida ko'p hurmatga sazovor bo'lgan. Shahardagi nufuzli kishilar ham betob bo'lib qolganlarida Ibn Sinoda davolana boshlaganlar. Buning natijasida Ibn Sinoning obro'si yana oshib ketgan. Nihoyat, bu "yosh mo'jizakor tabib" haqidagi xabar podshoh saroyiga ham borib yetibdi. Bir kun esa Ibn Sinoni shohning o'zini davolashga chorlaydilar. Ibn Sino o'zining chuqur bilimi va o'tkir mulohazalari bilan shohning kasaliga tashxis qo'yish va uni davolashda saroy tabiblariga yordam beradi va bu bilan shohning hurmatiga sazovor bo'ladi, hamda saroyga yaqin kishilar qatoriga kiradi. Bu haqda olimning o'zi bunday deb yozgan: "Buxoroning podshohi Nuh ibn Mansur edi, ittifoqo u shunday bir kasallikka muhtalo bo'lib qolibdiki, tabiblar uning kasalligi haqida bir fikrga kela olmabdilar. O'qishga qattiq kirishganim tufayli nomim ular o'rtasida mashhur bo'lib qolgan ekan. Podshoh huzurida mening haqimda gapirishib, undan meni chaqirishni so'rashibdi. Podshoh bunga rozi bo'libdi. Men borib tabiblar bilan birgalikda shohni davolashda ishtirok etdim va shu orqali unga tanildim"².

Buxorodagi shoh saroyida nodir kitoblarga boy katta kutubxona bo'lgan. Bu Ibn Sinoga ma'lum edi. Ammo, bu kutubxonadan faqat saroy amaldorlari va shohga yaqin kishilargina foydalana olardilar. Ibn Sino

¹ Abu Ali Ibn Sino, Tarjimai holi. Toshkent "Fan". 1980. 11-b.

² O'sha joyda.

saroyga yaqin kishilar qatoriga kirganidan so'ng uning uchun ham bu kutubxonadan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. U bu yerdagi kitoblarni o'qishni juda istardi. Bir kun qulay fursat topib, shohdan saroy kutubxonasiga kirib, u yerdagi kitoblarni o'qish uchun ruxsat so'raydi. Xususan, Ibn Sino tibga oid kitoblar bilan tanishish zarurligini bildiradi. Shoh Ibn Sinoga kutubxonaga kirish uchun ruxsat beradi. Ibn Sino kutubxonaga kirib, u yerdagi kitoblarning ko'pligi va xilma-xilligini ko'rib, hayratda qoladi. Bu yerda olimga nomlari ham ma'lum bo'lmagan kitoblar ko'p ekan. Ibn Sino bu kutubxona va undagi kitoblar haqida quyidagicha ma'lumot bergan: "Men ko'p xonalardan iborat, kutubxonaga kirdim. Har bir xonada kitob sandiqlari turar, kitoblar esa ustma-ust taxlab qo'yilgan edi. Xonalarning birida arab tiliga oid kitoblar, she'rlar, boshqasida fiqhga oid asarlar turardi. Shu tartibda har bir xonada fanning ayrim bir sohasiga oid kitoblar to'plangan edi. U yerda shunday kitoblarni ko'rdimki, ko'pchilik hatto ularning nomini ham eshitmagan bo'lsa kerak. O'zim ham ilgari bularni ko'rmagan edim, keyin ham uchratmadim".

Ibn Sino o'ziga xos tirishqoqlik va qunt bilan kutubxonadagi nodir kitoblarni o'qishga kirishadi. Ammo, u bu yerda tibga oid qanday kitoblarni ko'rgani va o'qigani haqida hech narsa yozmagan. Lekin, bunday kitoblar bo'lgan, albatta. Chunki o'sha vaqtlarda yozilgan va arab tiliga tarjima qilingan kitoblarning ichida tibga oid asarlar ko'pchilikni tashkil etgan.

Ibn Sino kitob o'qishga shu qadar berilib ketadiki, kutubxonadan chiqmay, kecha-kunduz o'sha yerda qolib ketadi. Bundan xabardor bo'lgan kishilarning yozishlaricha, faqat shohning o'zi yoki saroy amaldorlaridan biri kasal bo'lib qolib, Ibn Sinoni chaqirtirganlaridagina u o'qishdan boshini ko'tararkan. Shunday matonatli mehnat tufayli Ibn Sino qisqa vaqt ichida kutubxonadagi kitoblarning juda ko'pini o'qib chiqishga ulguradi. Buning natijasida Ibn Sinoning bilimi tengi yo'q darajada yuksaladi. Bu vaqtda u endigina 18 yoshga to'lgan edi. Shu yoshda u o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan dunyoviy fanlarning deyarli hammasini egallab olgan edi.

Ba'zi tarixchilarning yozishlaricha Buxorodagi shoh saroyida "Majlisi ulamo" ("Olimlar majlisi") bo'lgan. Uni "Buxoro akamediyasi" deb ham ataydilar. Bu "Akademiya"da shoh saroyidagi olimlar to'plangan ekanlar. Ibn Sino ham shu majlisda qatnashgan ekan.

997-yilda Nuh ibn Mansur vafot etadi. Uning o'rniga o'tirgan katta o'g'li Abul Xoris Mansur ibn Nuh Soniy Ibn Sinoni saroydagi kattaroq lavozimlardan biriga tayinlaydi. Abul Xoris ibn Nuh Ibn Sino bilan yaqin do'st bo'lgan ekan. Ular ilgari saroy kutubxonasida uchrashib, do'stlashib qolishgan ekan.

¹ Abu Ali Ibn Sino, Tarjimai holi. Toshkent "Fan". 1980. 11-b.

Saroydagi xizmat Ibn Sinoning ko'p vaqtini olardi. Shuning uchun uning ilmiy-ijodiy ishlari ancha sekinlashib qoladi. Buning ustiga hakimning boshiga boshqa tashvishlar ham tushadi. Ko'p o'tmay Abul Xoris ibn Nuh saroydagi fitna natijasida o'ldiriladi. Uning o'rniga o'tirgan ukasi Abul Favaris ibn Nuh Ibn Sinoga nisbatan unchalik iltifot qilmaydi. Shuning uchun Ibn Sino saroy xizmatidan ketadi.

X asr oxirida (999-yil) Yettisuv va Oltoy tomonidan kelgan qoraxoniylar Buxoroni zabt etadilar. Somoniylar davlati tugatilib, qoraxoniylar hokimiyati o'rnatiladi. Qoraxoniylar mamlakatda o'zgacha siyosat, yangicha tartib o'rnatadilar. Bu Ibn Sinoga unchalik yoqmaydi. Ammo, shunday bo'lsa ham u qoraxoniylar saroyida xizmat qilishga majbur bo'ladi. Bu haqda olimning o'zi bunday, deb yozgan: "Otam vafot etib, ahvolimda o'zgarish yuz berdi. Sulton huzuridagi vazifalardan birini o'z zimnamga oldim. Keyin zarurat yuzasidan Buxoroni tark etdim."

Ma'lumotlarga ko'ra Ibn Sinoning otasi 1002-yilda vafot etgan. Demak bu voqealar o'sha yillarda sodir bo'lgan. 1004-yil kech kuzida yoki 1005-yil boshida Ibn Sino Buxoroni tark etadi. Ibn Sino buning sababini ochiq aytmay, "zarurat yuzasidan Buxoroni tark etdim" deb qo'ya qolgan. Bu iboralardan Buxoroda Ibn Sino uchun noxush holatlar yuz berganligini payqab olish qiyin emas. Uning Buxorodan yashirinch qiqib ketganligi ham shuni ko'rsatadi. Fikrimizcha qoraxoniylar Ibn Sinoga nisbatan unchalik do'stona munosabatda bo'lmaganlar. Buning natijasida olimning boshiga tashvishli ishlar tushishi mumkin edi. Bunday vaziyatdan qutilish uchun u zohidlar ridosini kiyib olib, Xorazm davlatining poytaxti Urganch tomonga jo' naydi. Bu vaqtda Xorazmning qadimgi madaniyati tiklanib uning poytaxti Urganch Sharqning yuksak darajada taraqqiy etgan shaharlaridan biriga aylangan edi. O'sha vaqtda hukmronlik qilgan Ma'muniylar mamlakatda ilm-fan va madaniyatni yuksaltirishga katta ahamiyat berardilar. Fan ahllarini qo'llab-quvvatlardilar. Ularga saroydan joy berib, ilmiy-ijodiy ishlari uchun zarur sharoit yaratib berardilar. Bu Ibn Sinoga ma'lum edi. Shuning uchun u Xorazm tomonga yo'l oldi.

Ibn Sino yo'lda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirib, 1005-yil boshlarida Urganchga yetib bordi. Bu yerda olimni yaxshi kutib oldilar, unga saroydan joy berib, yashashi va ilmiy-ijodiy ishlari uchun zarur sharoit yaratib berdilar. Bu haqda ibn Sinoning o'zi tarjimai holida bunday deb yozgan: "U yerda ilmni sevuvchi Abul Husayn¹ as-Sahliy vazir edi. U yerning amiri huzuriga kirdim. Amir Ali ibn Ma'mun edi. Men uchun menga o'xshaganlarga beriladigan yetarli miqdorda oylik tayin qilishdi"².

Ibn Sino o'z tarjimai holida Xorazmda yashagan yillari haqida juda oz

¹ Ba'zi manbalarda bu vazirning ismi Hasan deb yozilgan.

² Abu Ali Ibn Sino, "Tarjimai holi", Toshkent. "Fan", 1980. 12-13-b.

yozgan. Lekin, tarixdan ma'lumki, olimning bu o'lkada yashagan yillari uning hayotida eng samarali yillar bo'lgan. Xorazm shohi Abul Hasan ibn Ma'mun ma'rifatparvar shoh bo'lgan. U ilm ahllarini qadrlagan va ularni doim qo'llab-quvvatlagan. Shuning uchun Ibn Sino bu yerda moddiy va ma'naviy jihatdan muhtojlik sezmay juda yaxshi yashagan.

Ali ibn Ma'mundan keyin shohlik qilgan Abu Abbos Ma'mun ibn Ma'mun ham ilm ahllarini qadrlaydigan shohlardan edi. Urganchdagi mashhur Akademiya shu shoh davrida barpo etilgan. Ibn Sinoni ham Akademiyadagi olimlar qatoriga kiritdilar. Akademiyaga o'sha davrning mashhur allomasi buyuk Abu Rayhon Beruniy rahbarlik qilardi. Ibn Sino Beruniy bilan juda do'stlashib olgan edi. Ular ko'p ilmiy masalalarni birgalikda o'rganib, birgalikda yechar edilar. Beruniyning o'zi ham bir jihatdan tibbiyotga yaqin bo'lgan. U turli dorivor o'simliklar va kimyoviy moddalarni yaxshi bilgan.

Ibn Sino Xorazmda o'zining tibga oid birinchi asarlarini yoza boshlagan. Uning bu sohadagi asari "Daf' al-madorr al-kulliya al-abdan al-insoniya bi tadoruk anva xata at-tadbir" ("Tadbirda yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf qilish yo'li bilan inson tanasiga yetgan zararlarini tuzatish"), deb atalgan. Bu kitob keyin qisqaroq qilib, "Tadoruk anva al-xata al-voqe' fit-tadbir at-tibba" ("Tibbiy qoyidalarda uchraydigan xatoliklarni tuzatish") deb atagan. Kitobning muqaddimasida aytilishicha, Ibn Sino bu asarni Xorazm shohining bosh vaziri Abul Husayn Muhammad as-Sahliyning taklifiga binoan yozgan ekan. Kitob o'z nomidan kelib chiqib; tibbiy amaliyotda va hayotda xatoliklarga yo'l qo'yish natijasida paydo bo'ladigan kasallik holatlarining oldini olish va tuzatishga bag'ishlangan.

Xorazmda Ibn Sino 7 yilcha (1005—1011) yashadi. So'ng 1011-yilning o'rtalarida u Xorazmni tark etishga majbur bo'ldi. Chunki, qo'shni mamlakat — Xurosonning hukmdorlari Sulton Mahmud G'aznaviy zo'rayib ketib, Xorazmga tahdid sola boshladi. Xorazm uning ta'siriga tushib qolgan edi. Mahmud Xorazm shohiga maktub yozib, uning saroyidagi olimlarni G'aznaga, uning saroyiga yuborishni talab qildi. U Beruniydek ulug' olim, Ibn Sinodek buyuk hakimning o'z saroyida xizmat qilishlarini istardi. Ammo, Sulton Mahmud juda mutaassib odam edi. U dahriy, deb ataluvchi erkin fikrli kishilarni yoqtirmasdi. Ibn Sino esa "dahriy", deb nom chiqargan edi. Shuning uchun uning Mahmud saroyida xizmat qilishi xavfdan xoli emasdi. Abu Sahl Masihiy esa g'ayridin (nasroniy) bo'lgan. Shuning uchun shoh Ma'mun Sulton Mahmudning xatini olimlarga o'qib berib, har kim bu masalani o'zi hal qilishini so'rganida Ibn Sino bilan Masihiy Sulton Mahmud saroyiga bormasliklarini bildirdilar. Ular shohning topshirig'i bilan vazir Abul Husayn as-Sahliy yordamida Xorazmdan yashrincha chiqarib yuborildilar. Ko'p tarixchilarning yozishicha, Beruniy ularga Jurjonga — Qobus huzuriga

yoki Rayga Malika Sayida saroyiga borib, o'sha yerda xizmat qilishni tavsiya etgan va ularning qo'liga bu shohlar nomiga xat bitib bergan. Xatda Beruniy bu shohlardan Ibn Sino va Masihiyga zarur sharoit yaratib berishni iltimos qilgan ekan. Abu Rayhon Beruniy bir vaqtlar Jurjonda, Qobus saroyida va Rayda Malika Sayida saroyida xizmat qilib, ularning hurmatiga sazovor bo'lgan ekan. Shuning uchun ularga xat orqali murojaat qilishga jur'at etibdi.

Sulton Mahmud haqiqatan juda mutassib odam bo'lganligi va dahriylarni yoqtirmasligi to'g'ri. Lekin, ba'zi tarixchilar yozganidek, u har qanday taraqqiyotga qarshi johil odam bo'lgan emas. U mamlakat taraqqiyotida ma'naviyatning tutgan o'rmini tushunardi. Ilm-fan va madaniyat davlatning shuhratini oshirishini ham bilardi. Shu sababdan fan ahllarini qo'llab-quvvatlardi. Ularga turli imtiyozlar ham berardi. Ma'lumotlarga ko'ra Mahmud va uning o'g'li Mas'udning qo'li ostida bo'lgan shaharlarda masjid-madrasalar, xonaqohlar, karvonsaroylar, kasalxonalar barpo etilgan. Masalan, Mas'ud G'azna shahrida katta shahar kasalxonasi qurdirgan. Unga boshliq qilib o'sha davrning ko'zga ko'ringan hakimlaridan biri Abu Hamid an-Naqshiyini tayinlagan.

Shoh saroyida ko'plab o'sha zamonning ko'zga ko'ringan olim va fozillari xizmat qilganlar. Binobarin, Sulton Mahmud Ibn Sinoni o'z saroyiga taklif etganida uni shu yerda xizmat qilishini ko'zda tutgan edi. Lekin, Ibn Sino Masihiy bilan birga G'aznaga emas, Jurjon tomonga yo'l oldilar. Urganch bilan Jurjon o'rtasida dahshatli Qora qum sahrosi yotardi. Bu sahrodan o'tishda Masihiy yo'l azoblariga chidash berolmay olamdan o'tdi. Ibn Sino ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechrib, hozirgi Turkmaniston hududida bo'lgan Niso shahriga yetib oldi. Bir oz vaqt o'tgach Abiverd shahriga o'tadi. Ammo, bu shaharda ham uzoq turmadi, chunki Sulton Mahmud Ibn Sino uning saroyiga borishdan bosh tortganligi uchun darg'azab bo'lib, ko'p shaharlarga o'z ayg'oqchilarini yuborib, ularga Ibn Sinoni topib, zo'rlik yo'li bilan bo'lsa ham G'aznaga olib kelishni topshirgan edi. Shuning uchun Ibn Sino bir shaharda uzoq vaqt qola olmasdi.

Ba'zi tarixchilar Sulton Mahmud o'z saroyida xizmat qiluvchi musavvir Abu Nasr A'roqqa Ibn Sinoning suratini (yoddan) chizdirib, uni ko'paytirib ko'p shaharga yubortirgan va shu suratga qarab, Ibn Sinoni topishni buyurgan edi deb yozadilar. Bu haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Chunki, birinchidan odamning suratini yoddan yasab bo'lmaydi, ikkinchidan musulmon dinida odamning suratini chizish man etilgan.

Ibn Sino o'z tarjimai holida yozishicha, u Abiverddan Tusga, so'ng Shiqqanga, undan Samniqonga, keyin esa Jojorumga o'tib, nihoyat, Jurjonga yetib kelgan. Ammo, qo'lidagi xatni Qobusga topshira olmagan. U Qobusning oldiga kirmoqchi bo'lib turganida uni taxtdan tushurib,

qal'aga qamab qo'ygan edilar. Qobus qal'ada vafot etadi. Shuning uchun Ibn Sino bu shahardan ham ketishga majbur bo'ladi. U Jurjondan unchalik yiroq bo'lmagan Dehstonga boradi. Bu yerda qattiq isitma kasalligiga (bezgak bo'lsa kerak) uchrab qolib Jurjonga qaytib keladi.

Jurjonda Ibn Sino Abu Ubayd Juzjoniyligi ismli yosh olim va faylasuf bilan uchrashib, do'stlashib qoladilar. Abu Ubayd Juzjoniyligi asli Xurosonlik bo'lib, Xirotda yaqin joydagi Juzjon (ba'zi manbalarda Juzajon) shahrida tavvalud topgan.

Abu Ali ibn Sino bilan Abu Ubayd Juzjoniyligi Jurjonda uchrashib qolib, do'stlashgan kunlaridan boshlab, umr bo'yi birga bo'lganlar. Juzjoniyligi Ibn Sinoning to'vafotiga qadar uning sodiq shogirdi bo'lib qolgan.

Abu Ubayd Juzjoniyligining yozishicha, Jurjonda ilm-fanni qadrlaydigan Abu Muhammad ash-Sheroziyligi ismli badavlat kishi bo'lgan. U Ibn Sinoning muxlislaridan biri ekan. Shu kishi Ibn Sinoga bo'lgan zo'r hurmatini ifodalab, hovlisiga yaqin joydan uy sotib olib, unga Ibn Sinoni ko'chirib olib keladi. Ibn Sino bu orttirgan do'stlarining yordamida Jurjonda muhtojlik sezmay yaxshi yashaydi. Abu Muhammad ash-Sheroziyligi Ibn Sinoga moddiy tomondan ham yordam berib turgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Ibn Sino Jurjonga kelganida bu shaharda aholi o'rtasida qandaydir kasallik tarqalgan ekan. Ibn Sino zudlik bilan bemorlarni davolashga kirishadi. Ko'p bemorlar undan najot topib, sog'ayib ketadilar. Ibn Sino bu yerda ular ustida kuzatish ishlari ham olib boradi, har xil dorilarni sinab ko'radi. Bo'lgusi kitoblariga ma'lumot to'playdi.

O'sha vaqtda Jurjonda bunday voqea bo'lib o'tgan ekan: Ibn Sinoning Jurjonga kelganligi haqidagi xabar shoh saroyiga borib yetibdi. Shoh Manucehrning bir jiyani qandaydir noma'lum kasallikka muhtalo ekan. Saroydagi tabiblar uning kasalini aniqlay olmabdilar. Manucehr Ibn Sinoning xabarini eshitib uni saroyga chaqirtiribdi. Ibn Sino bemorni ko'rib, uning a'zolarida biror kasallik alomatini topmabdi. Shunda ibn Sinoda bu yosh yigit sevgi dardiga muhtalo emasmikin, degan fikr paydo bo'libdi va olim o'zining bu fikrini ustalik bilan (bemorning ruhiy-emotsional holatiga ta'sir etib) isbotlabdi. Ibn Sino Manucehrga bu kasallikning davosi faqat bitta narsa, u ham bo'lsa yigitni o'zi sevgan qiziga uylantirishdir, debdi. Ibn Sinoning aytganini qilibdilar va yigit tez kunda butunlay sog'ayib ketibdi.¹ Ibn Sinoning tabiblik faoliyatida bu kabi hodisalar ko'p bo'lgan!

Ibn Sino Jurjonda to'rt yilcha (1012—1015) yashagan. Bu davr Ibn Sino uchun Xorazmdan keyin ikkinchi osoyishta va tinch hayot yillari

¹ Bu hodisaning to'liq fafsiloti bizning 1980-yilda chiqargan "Abu Ali ibn Sino — O'rta osiyolik buyuk hakim" nomli kitobimizda keltirilgan.

bo'lgan. Shu davr ichida olim yigirmadan ortiq katta-kichik asarlar yozgan va ko'p shogirdlar tayyorlagan. Ibn Sino Jurjonda o'zining mashhur kitobi "Tib qonunlari"ni ham yoza boshlagan.

Sulton Mahmud Ibn Sinoni ta'qib qilishdan to'xtamaydi. U olimning Jurjondan ekanligini eshitib bu shaharga tahdid qiladi. Bir vaqt shaharda "Sulton Mahmud Jurjonga yurish qilarmish", degan xabar tarqaladi. Bundan xavf olgan Ibn Sino 1015-yilning oxirlarida Jurjondan chiqib ketadi va Abu Rayhon Beruniyning maslahatini eslab, Rayga tomon yo'l oladi. Rayda Ibn Sinoni yaxshi kutib oladilar. Malika Sayida Beruniyning xatini o'qib, Ibn Sinoga unda iltimos qilinganidek sharoit yaratib beradi.

Ray malikasi Sayidaning Maj ud-Davla ismli o'g'li bo'lib, u qandaydir ruhiy kasallikka uchragan ekan. Ibn Sino uni davolab tuzatadi. Bundan mamnun bo'lgan malika Ibn Sinoga nisbatan yana ham do'stona munosabatda bo'ladi. Ibn Sinoning yashashi va ijodiyoti uchun hamma qulay sharoitni yaratib beradi. Ammo, Ibn Sino Rayda uzoq muddat yashay olmaydi. Sulton Mahmud Ibn Sino Rayda ekanligini eshitib, Sayidadan uni G'aznaga jo'natishini talab qiladi, aks holda shaharga harbiy yurish qilishini bildiradi. Ammo, aql-idrokli malika urushning oldini olishga muvaffaq bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra Sayida Mahmudga quyidagi mazmunda xat yuborgan: "Agar urush natijasida siz meni yengsangiz odamlar Sulton Mahmud bir ojiza ayolni yengdi, deydilar, xolos. Agar men sizdan g'olib chiqsam, sizdek buyuk podshohga katta nomus bo'ladi". Sulton Mahmud malika Sayidaning bu xatini olganidan so'ng Ray ustiga qo'shin tortishni to'xtatgan ekan. Tarixchilar bu xatning matnini Ibn Sino yozib bergan, deydilar. To'g'ri bo'lsa kerak.

Ammo, baribir Ibn Sino Rayda uzoq yashamadi. U bir yilcha bu shaharda yashaydi, xolos.

Ibn Sino Sulton Mahmudning qo'li yetmaydigan birorta mamlakatga borib, o'sha yerda istiqomat qilmoqchi bo'ladi. Bu masalada uning uchun eng qulay joy Hamadon podshohligi edi. Bu mamlakat Sulton Mahmudga tobe bo'lmay, o'zi mustaqil siyosat olib borardi. Ibn Sino bir oz vaqt Qazvinda yashab, so'ng 1016-yilda Hamadonga keladi. Bu yerda olim o'zi uchun bir qadar tinchroq yashash sharoitini topgan edi.

Hamadon hukmdori Shams ud-Davla tez-tez xuruj qilib turadigan ichak kasalligiga muhtalo ekan. (Unda surunkali kolit bo'lsa kerak.) Shuning uchun u doim tajribali tabib yordamiga muhtoj bo'lgan. Shu sababdan u Ibn Sinodek buyuk tabibning o'z shahriga kelganligidan xursand bo'lib, uni juda yaxshi qabul qiladi. Hakim shohni davolay boshlaydi. Shams ud-Davla sog'ayganidan so'ng Ibn Sinodan ko'p minnatdor bo'lib unga qimmatbaho sovg'alar hadya etadi va o'ziga shaxsiy tabib qilib tayinlaydi. Shams ud-Davla Ibn Sinoni o'zidan uzoqlashtirmasdi. Olim uning eng yaqin kishilaridan biri bo'lib qolgan edi. Ibn Sinoning

huquqshunoslik ilmi va davlat tuzilishi masalalarini yaxshi bilishidan xabardor bo'lib, uni o'ziga vazir qilib ham tayinlaydi. Vazir sifatida davlat ishlarini boshqarish va shohning shaxsiy tabibi vazifasini bajarish Ibn Sinoning ko'p vaqtini olardi. Lekin, olim har bir bo'sh fursatdan foydalanardi. Boshlab qo'yan kitoblarini davom ettirar, ko'p o'qir va yangi asarlar tasnif etardi.

Ibn Sino Hamadonda 8 yilcha (1016—1024) yashadi. Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, Ibn Sino bu davr ichida bir necha asar tasnif etgan. Shular ichida "Tib qonunlari"ning birinchi kitobini yozib tugatgan. Bundan tashqari tibga oid "Al adviyat al-qalbiya" ("Yurak dorilari") nomli kitobni yaratgan.

Hamadonda Ibn Sinoning ko'pgina shogirdlari va muxlislari bo'lgan. Olim kunduzlari davlat ishlari bilan band bo'lganligi uchun, shogirdlari bilan kechalari shug'ullangan. Bu haqda Juzjoniyni bunday deb yozgan: "Kechalari Shayxning uyida tolibi olimlar yig'ilar edilar. Men "Ash Shifo"dan o'qirdim. "Mendan boshqalar navbat bilan "Tib qonunlari"ni o'qirdilar. Bulardan bo'shaganimizdan so'ng xonanda va sozandalar kelishar, shu bilan o'tirish boshlanib, kosalarga sharob suzilardi. Biz shogirdlar har xil ishlarni bajarardik".¹ Demak, Ibn Sino yaxshi ishlashni, yaxshi ishlagandan keyin yaxshi dam olishni yaxshi bilgan. Ammo, olim sharob ichishga berilib ketishga qarshi edi. U ayniqsa, o'z shogirdlaridan sharobdan uzoqroq bo'lishni talab qilgan. Bu haqda shunday rivoyat bor. Bir kecha talabalar to'ydami, yig'indami ortiqcha ichib yuborib, ertasi kun darsga boshlari og'rigan holda kelibdilar. Ular buni yashirishga qanchalik urinmasinlar, Ibn Sino uni sezibdi. Shunda u bugun dars bo'lmasligini aytib, talabalarni qaytarib yuboribdi va ularga debdi: "Sizlar bu kecha ichkilik ichib, bugun bir kuningizni yo'qotdingiz. Fanni egallashga esa bir kun emas, hatto bir daqiqa ham gavhardek qimmatdir. Mast kishidan aql, hayo va sabr ketadi. Modomiki, inson shularni yo'qotar ekan, u odamgarchilikdan chiqadi".

Ibn Sino o'z shogirdlaridan doim rostgo'y, pok va haqqoniy bo'lishni talab qilgan. Har xil maishiy hislarga berilmaslik, har bir narsada me'yor bo'lishini uqtirgan. Tabiblik bilimi masalasida so'zlab bu bilimni egallashni istagan kishi kasallarga nisbatan mehribon va samimiy bo'lishi kerakligini uqtirgan, ochko'z, tama'gir, g'arazgo'y bo'lmaslik kerakligini tushuntirgan.

Ibn Sino vazirlik vazifasiga o'tganidan so'ng aholining manfaatlarini ko'zlab ba'zi tadbirlarni amalga oshirgan, obodonchilikga ahamiyat bergan, saroydagi ortiqcha dabdabalar va ayshi-ishratlarini cheklab qo'yan. Bu saroy amaldorlari va harbiy boshliqlarga yoqmagani. Ular Ibn Sinodan norozi bo'lganlar. Hatto, uni vazirlik lavozimidan bo'shatilishini talab etganlar. Lekin, shoh bunga ko'nmagan.

¹ Abu Ali ibn Sino, Tarjimai holi, 1980, 18-19-betlar.

Ibn Sino vazirlik vazifasini yaxshi bajarayotgan bo'lsa ham o'zini siyosatchi arbob emas, balki olim deb hisoblardi. Shuning uchun o'z faoliyatida ilmiy-ijodiy ishlarni birinchi o'ringa qo'yardi. U davlat ishlari orasida, hatto harbiy yurishlar vaqtida ham qulay fursat bo'lib qolsa, kitob o'qish va asar yozish bilan shug'ullangan.

Shams ud-Davlaning harbiy yurishlardan birida kasali avj olib ketib, ahvoli og'irlashib qoladi. Uni tuzatish uchun ibn Sinoning har qancha urinishiga qaramay, u Hamadonga qaytish yo'lida vafot etadi.

Shams ud-Davlaning o'rniga taxtga o'tirgan o'g'li Samo ud-Davla ibn Sinoga nisbatan unchalik iltifot qilmaydi. Shuning uchun Ibn Sino vazifasini topshirib, saroydan ketadi. Olimning maqsadi o'z ilmiy-ijodiy ishlarini davom ettirish edi. Ammo, Ibn Sinoning oldida yangi qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Saroydagi Ibn Sinodan norozi kishilar va harbiylar yangi shohning olimga nisbatan iltifotsizligidan foydalanib, unga qarshi g'arazli ishlar qila boshlaydilar. Ibn Sino bu hujumlardan qutilish va o'zining hayoti hamda ijodiy ishlari uchun qulay sharoit topish maqsadida bo'lsa kerak, Isfaxon hukmdori A'lo ud-Davlaga xat yozib, unga xizmat qilishga tayyor ekanligini bildiradi. Bu xatdan Samo ud-Davlaning vaziri Toj ul-Mulk xabardor bo'lib qolib, uni shohga ma'lum qiladi. Samo ud-Davla Ibn Sinoni hibsga olish haqida farmon beradi. Ammo, olimning do'stlari uni bir ishonchli kishining uyiga joylashtirib, yashirib qo'yadilar. Ibn Sino bu yerda ham vaqtni bekor o'tkazmay, o'z asarlari ustida ishni davom etdiradi. Bu haqda Abu Ubayd Juzjoniy quyidagilarni yozgan: "O'shanda shayx Abu G'olib al-Attor degan kishining uyida yashirilib yotardi. Men u kishidan "Ash-shifo" kitobini tugatib berishni so'radim. Shayx uy egasidan qog'oz va siyoh olib kelishni iltimos qildi. U kishi shayxning so'rganlarini keltirib berdi. Shayx o'z qo'li bilan yigirma qismdan iborat sakkizdan bir taboq qog'ozga asosiy masalalarni yozib chiqdi. Bunda u birorta kitobga ham qaramaydi, birorta manbaga ham murojaat qilmadi. Barchasini yoddan yozdi".

Shayx dasta-dasta qog'ozlarni oldiga qo'yib olib, sarlavhalari qo'yilgan har bir mavzuga nazar tashlardida yozishga kirishardi. Har kuni 50 varaq yozardi. Bu yerda Juzjoniy Ibn Sinoning har kimda ham bo'lavermaydigan uchta fazilatini ko'rsatib bergan. Birinchidan, Ibn Sino har qanday mushkul vaziyatda ham tushkunlikga tushmasligi; ikkinchidan, uning zo'r ish qobiliyatiga ega ekanligi; uchinchidan uning o'ziga xos takomillashgan ish uslubi borligi. Bularga yana Ibn Sinoning o'z asarlarini yoddan yozishligi qo'shilsa, bu olimning haqiqatan buyuk iste'dod egasi ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Ibn Sino o'shanda, yashirilib yotgan joyida o'zining "Kitob ash-shifo" nomli asarini tugatish arafasida edi. Ammo, uni bu yerdan topib

olib, shahar chekkasidagi qal'aga qamab qo'ydilar. Olim bu qal'ada to'rt oycha qamalib yotdi. Bu yerda ham u tushkunlikga tushmay, o'ziga xos, matonat bilan kitob yozishni davom ettirdi. Xususan, Ibn Sino bu qal'ada "Kitob al-hidoiya" ("To'g'ri yo'l kitobi"), "Hayyi ibn Yakzon" ("Uyg'oq o'g'li tirik") va "Kitob al-qulanj" ("Yo'g'on ichak yallig'lanishi") nomli uchta asar yaratdi. Bularning oldingi ikkitasi falsafaga, keyingisi esa tibga oiddir. Bu voqea 1023-yilda bo'lib o'tgan edi. Demak, "Kitob al-qulanj" 1023-yilda yozilgan.

O'sha vaqtda Isfaxon hukmdori A'lo ud-Davla Hamadonga yurish qilib, u yerga bostirib keladi. Samo ud-Davla bilan Toj ul-Mulk qochib ketadilar. Buning natijasida Ibn Sino hibsdan qutiladi. Abu Ubayd uni kutib olib, bir tanish kishining uyiga joylashtirib qo'yadi. Ammo, Ibn Sinoning Hamadonda qolishi xavfli edi. Samo ud-Davla bilan Toj ul-Mulk qaytib kelganlaridan so'ng uni yana hibsga olishlari yoki boshqa yo'l bilan undan o'ch olishlari mumkin edi. Shuning uchun Ibn Sino bu shaharga kelgan ukasi Mahmud va shogirdi Juzjoniylar bilan Hamadondan yashirincha chiqib ketadilar va Isfaxon tomonga jo'naydilar. Ularni Isfaxon darvozasi yaqinida A'lo ud-Davla yuborgan kishilar kutib oladilar. Bundan ko'rinadiki, A'lo ud-Davla Ibn Sinoga nisbatan hurmatni bajo keltirgan.

Bir oz vaqtdan so'ng Ibn Sinoni saroyga chorlaydilar. Bu yerda uni A'lo ud-Davla qabul qilib, saroy ahllariga tanishtiradi. A'lo ud-Davlaning saroyida "Majlisi ulamo" ("Olimlar majlisi") tashkil etilgan bo'lib, unda saroydagi barcha olimlar birlashgan edilar. Ibn Sinoni ham bu anjumanga kiritadilar. Majlis a'zolari har juma kuni kechqurun yig'ilishib, fanning turli sohalari bo'yicha suhbatlar, bahslar va munozaralar o'tkazib turarkanlar.

A'lo ud-Davlaning o'zi ham o'qimishli, bilimdon kishi bo'lgan. Shuning uchun anjumanni ko'pincha uning o'zi olib borgan. Abu Ubayd Juzjoniylarning yozishicha "Majlisi ulamo" a'zolarining orasida Ibn Sino o'z bilimining chuqurligi va kengligi jihatidan boshqalardan ajralib turarkan. Shuning uchun A'lo ud-Davla Ibn Sinoga alohida hurmat bilan qararkan.

Isfaxonda Ibn Sino 14 yilcha (1024—1037) yashagan. Bu yerda ham u o'zining ijodiy faoliyatini davom ettirib, turli sohalarga oid ko'pgina asarlar, sharhlar va kitoblarga qo'shimchalar yozgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Isfaxonda Ibn Sino rahbarligida bir kasalxonaga barpo etilgan. Uni "Davolash uyi" deb atagan ekanlar. Kasalxonaga bunday nom berishning o'z tarixi bor ekan. Ibn Sino tomonidan tuzilgan loyihada bu kasalxonaga "Davolash uyi", deb atalgan ekan. Loyihani tasdiqlashda A'lo ud-Davla bu so'zni "Bemorlar uyi", deb o'zgartirib qo'yibdi. Shunda Ibn Sino odob va muloyimlik bilan A'lo ud-Davlagacha kasalxonani "Davolash uyi" deb atash maqsadga muvofiq, chunki bunda

bemorlarda kasallikdan qutilish umidi paydo bo'ladi. "Bemorlar uyi" deganda esa, umidsizlik hissi kelib chiqishi mumkin, deb tushuntiribdi va qo'shib qo'yibdi — "Mening ko'p yillik tajribam shuni ko'rsatdiki, xastalikdan qutilish mumkinligi haqida ishonch paydo bo'lishi bemor uchun juda yaxshi dorilardan biridir". Shunda A'lo ud-Davla Ibn Sinoga qarab, bir oz o'ylab qolibdi, so'ng "Bemorlar uyi" degan so'zni keskin o'chirib, "Davolash uyi" deb yozib qo'yibdi.

Abu Ubayd Juzjoniyy Ibn Sinoning tibbiy asarlari va amaliy tabiblik faoliyati haqida unchalik ko'p ma'lumot bermagan. Faqat olimning tibga oid ba'zi asarlari qachon va qayerda yozilganligi haqida qizqa-qisqa ma'lumot berib o'tgan. Bir joyda Shayx bemorlarni davolash jarayonida ko'p tajriba hosil qildi. Ularni "Al-qonun" kitobiga kiritmoqchi bo'ldi, lekin ular "Qonun" kitobi yozilishidan oldin turli sabablar bilan yo'qolib ketdilar" deb xabar qilgan, xolos.

Ibn Sinoning amaliy tabiblik faoliyati haqida esa "Olim bir marta o'zini bosh og'rig'i kasalligidan tuzatgan edi va xorazmlik bir ayolni o'pka sili kasalligidan davoladi", deb yozish bilan cheklangan. Bizning fikrimizcha Ibn Sino ko'proq shohlar va katta amaldorlarni davolash bilan band bo'lgan bo'lsa kerak.

Biz yuqorida Ibn Sinoning tibga oid asosiy asarlarini ko'rsatib o'tdik. Rasmiy ma'lumotlarga binoan Ibn Sino tibga oid 31 asar tasnif etgan. Shulardan eng kattasi va eng muhimi "Tib qonunlari" kitobidir. Ibn Sino ana shu kitobi tufayli jahonga mashhur bo'lib ketgan.

Ibn Sino asarlarining hammasi ham bizgacha yetib kelgan emas. Ularning ko'pi vaqt o'tishi va turli suronli voqealar natijasida yo'q bo'lib ketgan. Masalan, olimning ko'p asari G'azna shahridagi kutubxonada saqlangan ekan. 1150-yilda bu shaharga o't ketganida shu kitoblar ham yonib ketibdi.

Abu Ubayd Juzjoniyyning yozishicha "Tib qonunlari" dastlab 14 jilddan iborat bo'lgan. Keyin u 5 jildga keltirilgan. Hozir bu kitob o'zbek va rus tillarida 6 jildlik qilib chop ettirilgan.

Ibn Sino hayotining so'nggi davri haqida Juzjoniyy quyidagi ma'lumotni bergan: "Ustoz jismoniy jihatdan juda baquvvat odam edilar. U kishining tanasi kasalliklarga nisbatan chidamli edi. Ammo, 425-hijriy (1035-milodiy) yilning yozida u kishida qandaydir ichak kasalligi paydo bo'lib, unga har qancha muolaja qilsalar ham tuzalmadi. Aksincha kasallik og'irlashaverdi. Hech qanday dori kor qilmadi. Bunday ahvol bir yildan ortiq davom etdi. Nihoyat, ustozning darmoni butunlay qurib, ahvoli haddan tashqari og'irlashib qoldi va kasalni tuzatish uchun har qancha urinishlarga qaramay, 427-yil (1037-milodiy)ning 24-iyunida ustoz olamdan o'tdi. Shunday qilib qanchadan-qancha odamlarni o'lim changalidan olib qolgan buyuk hakim o'z dardiga davo topa olmadi. ...

Tarixchilar Ibn Sino qulanj (kolit) kasalligidan vafot etgan deb yozadilar. Bizning fikrimizcha olim ichakda paydo bo'lgan saraton (rak) kasalligidan vafot etgan. Fikrimizni shu narsa tasdiqlaydiki, birinchidan Ibn Sinodek buyuk hakim saratondan boshqa har qanday kasallikni muolaja usuli bilan davolay olardi. Ayniqsa o'zini. Ikkinchidan kasallikga hech qanday dori kor qilmagan. Chunki saratonni dori bilan tuzatib bo'lmaydi. Uni operatsiya qilish kerak. Tabiiyki, Ibn Sino o'zini-o'zi operatsiya qila olmasdi. Ehtimol, Isfaxonda o'sha vaqtda bunday operatsiyani qila oladigan jarroh bo'lmagandir. Uchinchidan rak kasalligi bir-bir yarim yildan oshmaydi. Shu muddat ichida bemor vafot etadi. Ibn Sino ham o'zida kasallik alomatlari paydo bo'lgan kundan boshlab bir yarim yilcha yashagan, xolos. Hastalikning bunday kechishi aynan saraton (rak) kasalligiga xosdir. Shu dalillarga asosan biz Ibn Sino rak kasalligi bilan og'rigan va shu kasallikdan vafot etgan, degan qat'iy fikrdamiz.

Abu Ali ibn Sino qomusiy bilimga ega bo'lgan buyuk hakim edi. Shuning uchun biz bu yerda olimning tibbiy fikrlari va tabiblik faoliyati haqida so'z yuritamiz.

IBN SINONING TIBBIY FIKRLARI

Abu Ali ibn Sinoning tibbiyot, uning mohiyati va vazifalari haqidagi ilmiy-nazariy fikrlari asosan uning o'zi yashagan o'rta asrlar fani darajasida bo'lgan. Lekin, u o'zining chuqur bilimi, o'tkir zehni va mantiqiy mulohazalari bilan o'sha davrdagi ko'p olimlardan ancha yuqori turgan. Ibn Sino tibbiyotning mohiyati va vazifalarini boshqalardan chuqurroq va kengroq tasavvur etgan.

O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida ilm-fan yuksak darajada rivojlangan edi. Lekin, shu bilan birga u ba'zi xato va kamchiliklardan ham xoli emas edi. Asosiy kamchilik shundan iborat ediki, u vaqtlarda tabiat hodisalari tajriba yo'li bilan chuqur tekshirilmay, ko'pincha abstrakt falsafiy fikr yuritish va intuitsiya orqali hal qilinardi.

Tibbiyot sohasida ham shunday edi. Masalan, kasallikning mohiyati va kelib chiqish sabablari eksperimental usul bilan isbot etilmagan rutubatlar nazariyasi va mizojlar tushunchasiga asoslanardi. Bu tushunchalar tibbiyotda asosiy mezon hisoblanardi. Ibn Sinodek buyuk olim ham bu tushunchalarni bosib o'tolmadi. U inson organizmida sodir bo'lib turuvchi fiziologik va patologik jarayonlarni izohlashda shu rutubatlar va mizojlar tushunchasiga asoslanardi. Lekin, Ibn Sino o'zining o'tkir zehni va chuqur mulohazalari bilan bu masalada boshqa ko'p olimlarga nisbatan aniqroq va tog'riroq fikr yuritardi.

Abu Ali ibn Sinoning tibbiy fikrlari uning tibga oid asarlarida, xususan, mashhur "Tib qonunlari" kitobida o'z ifodasini topgan. Biz Ibn Sinoning



Ibn Sino talabalar bilan dars o'tmoqda.

tibbiy fikrlari haqida so'z yuritishni shu kitobni tahlil qilishdan boshladik.

Ibn Sino tibbiyot, uning mohiyati va vazifalari haqida so'zlab, avvalo tibbiyotning o'zi qanday fan degan masalaga to'xtaladi. U tibbiyotga bunday ta'rif bergan. "Tibbiyot shunday bir ilmki, u bilan inson gavdasining ahvoli sog'lik va kasallik jihatidan o'rganilib, uning mavjud sog'lig'i saqlanadi va yo'qotilgani tiklanadi". Ibn Sinoning bu ta'rifida juda muhim bir fikr bor. U salomatlikni saqlash masalasini birinchi o'ringa qo'ygan. Demak, Ibn Sinoning tushunishicha, tibbiyotning asosiy vazifasi kishilar sog'lig'ini saqlashdan iborat. Bu fikr yuksak darajada rivojlangan hozirgi zamon tibbiyotining asosiy qoidasiga butunlay mos

keladi. Ibn Sino o'zining bu fikri bilan o'sha zamondagi ko'pchilik tibbiyot namoyandalarining fikrlaridan ming yil ilgari ketgan edi.

Ibn Sino tibbiyotning vazifasi salomatlikni saqlashdan iborat, degan fikrni boshqa asarlarida ham ko'p marta ta'kidlagan. Masalan, nazm bilan yozilgan "Urjuza fi-t-tib" ("Tibbiy urjuza") nomli kitobida bu fikrni qisqa va ilcham qilib, "Tibbiyot — sog'liqni saqlash va kasallikni tuzatishdan iborat (fan)", deb yozgan.

"Urjuza fi-t-tib" mazmun va hajm jihatidan "Tib qonunlari" dan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi katta she'riy asardir.

Ibn Sino tib ilmini nazariy va amaliy qismlarga bo'lgan. Uning yozishicha, nazariy qism tibning asosiy qoidalarini o'rganadi. Xususan, u kasalliklarning turlari va sabablarini aniqlaydi. Amaliy qism esa tadbir va amalning qanday bo'lishini ko'rsatadi. Bu yerda Ibn Sino ikki muhim masalani ko'zda tutgan. Ulardan biri sog'lom tananing tadbirini bilish, ya'ni tana sog'lig'ini saqlash, buni olim sog'liqni saqlash ilmi deb atagan. Ikkinchi masala kasal tananing tadbirini bilish, ya'ni kasallikni muolaja qilib, uni sog'lom holatga qaytarish. Buni Ibn Sino davolash ilmi deb atagan.

Ibn Sino nazariy-tibbiy bilimlar doirasiga unsurlar, mizojlar, xilllar, quvvatlar, a'zolar va ularning funksiyalari haqidagi tushunchalarni kiritgan. Olimning ta'kidlashicha bu tushunchalarning har biri o'ziga xos mohiyatga ega.

Ibn Sinoning unsurlar haqidagi tushunchasi atomistik nazariyaga yaqinlashib boradi. Ibn Sino unsurga bunday ta'rif bergan: "Oddiy jismlar

¹ Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari, 1-kitob, Toshkent, "Fan" 1983-y. 5-bet.

(unsurlar) shunday narsalarki, ular shakli turlicha bo'lgan bo'laklarga bo'linmaydi. Shu oddiy jismlarning qo'shilishidan koinotdagi turli shaklga ega bo'lgan navlar paydo bo'ladi"¹.

Ibn Sinoning unsurlar haqidagi fikrlari Demokritning atomistik nazariyasining xuddi o'zidir, deyish to'g'ri emas. Atomistik nazariyada bir xil atom (bitta materiya) ustida so'z boradi. Ibn Sinoda esa to'rtta unsur (to'rtta materiya) ustida fikr yuritiladi. Demokritning fikricha butun borliqning asosini bitta materiya (bir xil atom) tashkil etadi. Ibn Sinoning fikricha esa borliq to'rt xil unsur (atom) ya'ni to'rt xil materiyadan tashkil topgan, deb hisoblanadi. Bu tushunchalar bir-birlaridan farq qilsalar ham, ularda umumiylik bor. Ularning har ikkovida borliq bo'linmas atomlardan tashkil topganligi e'tirof etiladi.

Ibn Sino unsurlarni og'ir va yengil turlarga bo'lgan. Yer va suvni og'ir, havo va olovni yengil unsur, deb atagan. Uning yozishicha og'ir unsurlardan odam tanasidagi a'zolar, yengil unsurlardan esa ruh paydo bo'lgan. Demak, odam gavdasi ikki qismdan — a'zo va ruhdan iborat.² Ibn Sinoning bu fikridan ma'lum bo'ladiki, u odam gavdasining tuzilishi va tabiati (fiziologik xususiyat) masalasida dualizm nuqtai nazarida turgan.

Ibn Sino odam gavdasining tuzilishi va uning faoliyati haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarida unsurlar tushunchasini asos qilib olgan.

Mizojlar haqida Ibn Sino juda murakkab fikr yuritgan. U mizojni to'rt unsur bilan bog'laydi. Bunda u qadimgi naturfilosoflarning juda sodda fikriga qo'shiladi.

Ibn Sino mizojlar masalasiga katta ahamiyat bergan. Uning yozishicha kasalliklarni aniqlashda tana va a'zolarining mizojini bilish muhim ahamiyatga ega. Chunki mizojga qarab tashxis qo'yish oson.

Ibn Sinoning yozishicha mizoj tug'ma va araziy, ya'ni keyin orttirilgan bo'lishi mumkin. Tug'ma mizoj, masalan, tug'ma issiqlik kishining tanasiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Araziy (g'ayri tabiiy) issiqlik kishiga aziyat beruvchi alanganishdir, u isitmalar paydo qilib, tanani zaiflashtiradi. Mizojning mo'tadil bo'lgani eng foydalidir. Mo'tadil mizojli odamning hamma harakatlari mutanosib va takomillashgan bo'ladi. Bunday kishi doim yaxshi kayfiyatli va zavqlidir. U yaxshi tushlar ko'radi. O'zi ochiq yuzli va odamshavandadir. Ishtahasi yaxshi, ovqatni yaxshi hazm qiladi. Bunday kishining tanasi kasalliklarga nisbatan chidamlidir.

Ibn Sino mo'tadillik holatiga bunday ta'rif bergan: "Mo'tadillik — mizoj egasining butun gavdasida yoki bir a'zosida unsurlar miqdori va kayfiyatlari (xususiyatlari) bilan odamning mizojiga keragicha eng to'g'ri

¹ Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari, 1-kitob, Toshkent, "Fan" 1983-y. 5-bet.

² Bu yerda Ibn Sino ruhni ilohiy kuch emas, balki qonda aylanib yuruvchi omil sifatida tushungan.

taqsimlanib, eng to'g'ri nisbatda to'la-to'kis bo'linganligidan iboratdir".¹ Demak, Ibn Sinoning fikricha mo'tadillik, (mo'tadil mizoj) inson tanasida va uning ayrim qismlarida unsurlarning kerak darajada to'g'ri (barobar) taqsimlangan holatidir. Bu yerda Ibn Sino mizoj tushunchasiga unsurlarni asos qilib olgan. Demak, Ibn Sinoning fikricha mizoj unsurlarga xos xususiyatdir.

Nomo'tadil, ya'ni mo'tadillikdan chiqqan mizoj haqida Ibn Sino quyidagicha fikr yuritadi: "Nomo'tadil mizoj shunday holatki, unda organizmdagi issiqlik va sovuqlik, quruqlik va ho'llik xususiyatlar o'zaro muvozanatda bo'lmay, ularning biri ustun kelib qolgan bo'ladi".²

Ibn Sino nomo'tadil mizojni oddiy va murakkab xillarga bo'lgan. Oddiy nomo'tadillikda xususiyatlardan biri keragidan ortiqcha bo'lib qoladi. Murakkab nomo'tadil mizojda ikki xususiyat bir vaqtda keragidan ortiq bo'lib qoladi. Masalan, mizoj bir vaqtning o'zida keragidan ortiqcha issiq va quruq yoki keradigan ortiqcha issiq va ho'l yoxud keragidan ortiqcha sovuq va quruq, yoinki keragidan ortiqcha sovuq va ho'l bo'lishi mumkin va h.k. Ammo, mizoj bir vaqtning o'zida issiq va sovuq, yoki quruq va ho'l bo'lishi mumkin emas.

Ibn Sinoning yozishicha dorilarning ham o'ziga xos mizojlari bo'ladi. Doridagi mizoj turli tanaga turlicha ta'sir etadi. Masalan, bir dorining mizoji odam gavdasiga nisbatan issiq, ilon gavdasiga nisbatan sovuq ta'sir etishi mumkin. Shuningdek, bir dorining mizoji bir kishi gavdasiga nisbatan ko'proq issiq, boshqa bir kishining gavdasiga kamroq issiq ta'sir etishi mumkin va h.k.

Ibn Sino mizoj masalasiga berilib ketib, fikrimizcha bu tushunchani juda oshirib yuborgan bo'lsa kerak. Masalan, uning yozishicha odam gavdasining har bir nuqtasi ayrim mizojga ega. Hatto, odam panjasining har bir barmog'i, har barmog'ining har bir bo'g'uni o'ziga xos mizojli bo'ladi. Masalan, bosh barmoq issiq mijozli, ko'rsatgich barmoq esa sovuq mizojli bo'lishi mumkin. Bu haqiqatga unchalik to'g'ri kelmasa kerak. Bir dona olmaning bir pallasi shirin, ikkinchi pallasi nordon bo'lmaganidek, odam panjasining bir barmog'i issiq, ikkinchi barmog'i sovuq mizojli bo'lishi mumkin emas. O'rta asr sharq hakimlari, shu jumladan Ibn Sino ham, odam organizmida sodir bo'lib turuvchi murakkab biologik, fiziologik va patologik jarayonlarni faqat ikki omil — issiqlik va sovuqlikka bog'lab, jiddiy xatoga yo'l qo'rganlar.

Ibn Sino rutubatlar nazariyasi haqida ham o'z fikr va mulohazalariga ega bo'lgan. U rutubatlarni ho'l, suyuq, oquvchan jismlar deb ataydi.

¹ Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari, 1-kitob, Toshkent "Fan" 1983-y. 11-bet.

² Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari, 1-kitob, Toshkent "Fan" 1983-y. 12-bet.

Olimning yozishicha rutubatlar sifat jihatidan ikki xil bo'ladi. Ulardan biri kishi uchun foydali, yaxshi xilt, ikkinchisi past sifatli, ortiqcha suyuqlik. Yaxshi sifatli xilt tanaga singib tarqalib ketgan moddalarning o'rnini to'ldiradi. Past xilt organizmga uncha foyda keltirmaydi. Uning ko'p qismi organizmga keraksiz modda sifatida chiqarib tashlanadi. Ibn Sinoning yozishicha eng yaxshi xilt qondir. U murakkab xilt. Qonga boshqa xiltlar ham aralashgan bo'ladi. Qon tomirdan chiqarilib, bir idishga solib qo'yilsa boshqa xiltlar undan ajralib chiqadi. Dastlab ko'pikka o'xshagan bir modda ajraladi. Bu safrodur. So'ng tuxum oqiga o'xshagan modda ajraladi. Bu — shilliqidir. Undan keyin esa quyqa va cho'kma ajraladi. Bu savdodir. So'ng suvga o'xshagan modda ajraladi. Bu suvli rutubat bo'lib, uning ortiqchasi esa siydik bilan chiqib ketadi. Bu yerda Ibn Sino qonning ayrim qismlarini to'g'ri ifoda etib bergan. Ma'lumki, qon tomirdan chiqarilib, bir idishga masalan, probirkaga solib qo'yilsa bir oz vaqt o'tgandan so'ng u turli komponentlarga ajraladi. Xususan, u plazma, shaklli elementlar, fibrin va eritrositar massasiga ajraladi. Ibn Sino qonning bunday komponentlardan iborat ekanligini bilmagan bo'lsa ham, uning turli tarkibiy qismlardan iborat ekanligini yaxshi tushungan. Ibn Sinoning qonning qismlari haqidagi fikrlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, qadimgi tabiblar savdo (qora o't) deganda idishning tagiga cho'kuvchi eritrositar massani tushunganlar. Lekin, uning eritrositar massa ekanligini bilmaganlar. Uning organizmdagi o'rni haqida noto'g'ri fikr yuritganlar. Ibn Sino ham juda chuqur bilim va mulohazasiga qaramay, rutubatlar haqida o'sha davr tushunchasidan unchalik uzoq ketolmagan.

Ibn Sinoning fikricha inson tanasidagi jarayonlar (o'sish, rivojlanish, ovqat hazm qilish, muskullar harakati, fikrlash va h.k.)ni boshqaruvchi quvvatlar (ya'ni kuchlar) mavjud. Aslida bu tushunchaga mashhur Rim hakimi Klavdiy Galen asos solgan edi. Galen har bir a'zoning o'z boshqaruvchi quvvati bo'ladi, deb hisoblagan. Ibn Sino quvvatlar haqidagi mulohazalarida shu fikrni asos qilib olgan bo'lsa kerak. Ibn Sino quvvatlarni uch turga bo'lgan. Bular nafsoniy, tabiiy va hayotiy quvvatlar. Bu quvvatlarning har biri o'ziga xos funksiyani bajaradi. Har bir quvvatdan ma'lum bir harakat, (faoliyat) paydo bo'ladi. Nafsoniy quvvatning manbai miyadir. Nafsoniy quvvat, idrok etish va fahm qilish jarayonlarini bajaradi. Ibn Sino bosh va periferik asab tizimining funksiyasini to'g'ri ko'rsatib bergan. Lekin, bu faoliyatning reflektor usulda amalga oshishini bilmay, uni mavhum quvvat (kuch) bilan bog'lagan. Ibn Sinoning yozishicha, tabiiy quvvat inson shaxsini saqlaydi, va uning o'sishini boshqaradi. Bunda u ko'payish (urchish) ishini ham yo'lga solib turadi. Umuman tabiiy quvvat inson navini saqlaydi. Shuning uchun tabiiy quvvatning navni saqlash qismi moyakda joylashgan.

Hayotiy quvvat masalasida Ibn Sino bunday fikr yuritadi: hayotiy quvvatning turar joyi yurakdir. Bu quvvat a'zolari his, harakat va faoliyatni qabul qilishga tayyorlaydi. Qo'rqish va g'azab harakatlari ham shunga kiradi. Bu yerda Ibn Sino Aristotelning fikriga asoslangan bo'lsa kerak. Aristotel sezish va his qilish markazi yurakdadir, deb yozgan edi.

Quvvatlar tushunchasi mizojlar va rutubatlar nazariyalaridan ham uzoq umrli bo'lib chiqdi. Hatto Ovrupa mamlakatlarida ham XIX asrning o'rtalariga qadar bu tushuncha saqlanib qolgan edi. Olimlar tirik jonzoqlar organizmida sodir bo'luvchi fiziologik jarayonlarni boshqarib turuvchi qandaydir kuch bo'lsa kerak, deb o'ylardilar. Bu kuchni hayotiy kuch (vita) deb atadilar. Shunday qilib vitalizm tushunchasi kelib chiqdi.

Ibn Sino a'zolar, ularning tuzilishi va funksiyalarini nazariy tibbiyot doirasiga kiritgan. Uning fikricha, a'zolar yaxshi sifatli xiltlarning bir-birlari bilan qo'shilishidan paydo bo'ladi. Xiltlar esa, unsurlardan kelib chiqadi. Demak, a'zolar xiltlar orqali kelib chiqqan unsurlardir. Olimning fikricha bu jarayon mizojlarning ishtirokida amalga oshadi.

Ibn Sino a'zolar haqida fikr yuritib, ularning organizmda tutgan o'rni va vazifalarini birinchi o'ringa qo'ygan. So'ng ularning tuzilishi (anatomiyasi) va boshqa xususiyatlarini bayon etgan.

Ibn Sino a'zolari oddiy va murakkab turlarga bo'lgan. Oddiy a'zoga bunday ta'rif bergan: "A'zoning butun o'zi ham, bir kichik bo'lagi ham shu a'zoni ifoda etadi". Bunga misol qilib Ibn Sino asab, suyak va go'shtni ko'rsatgan. Ibn Sino bunday deb yozgan: "Asabning butun o'zi ham, uning bo'laklari ham asabdir. Suyakning butun o'zi ham uning bo'laklari ham suyakdir. Shuningdek, go'shtning o'zi ham bo'laklari ham go'shtdir".

Murakkab a'zolariga Ibn Sino bunday ta'rif bergan: "Murakkab a'zolar shunday a'zolariki, ulardan qaysi bo'lagini olmang, u na ismda, na tarifda butun a'zo bilan bir xil bo'lmaydi, ya'ni murakkab a'zoning bir bo'lagi shu a'zoni to'la ifoda etmaydi". Olim bunga misol qilib, qo'l va yuzni oladi va yozadi. "Yuzning bir bo'lagi yuz emas. Shuningdek qo'lning bir bo'lagi ham qo'l emas."

Umuman olganda, Ibn Sino odam organizmi va undagi a'zolarining tuzilishini bayon etishda Galenning fikrlariga asoslangan. Lekin, o'zidan ham ba'zi bir qo'shimchilar qilgan. Masalan, Ibn Sino tomirlarning tuzilishini Galenga nisbatan aniqroq va to'liqroq ifodalab bergan. U o'rta asr olimlari orasida birinchilardan bo'lib, o'mrov suyagi faqat odamda bo'lishini ko'rsatgan. Galen bilak muskulini bir qorinli, deb hisoblagan edi. Ibn Sino bu muskul ikki qorinliligini ko'rsatib bergan.

Ibn Sino organlarning funksiyalari haqida ham aniqroq va to'laroq ma'lumot bergan. Masalan, u suyakning vazifasi haqida so'zlab, umurtqa ustunini misol qilib oladi va yozadi — umurtqa ustuni gavdaning tayanchi bo'lib, gavda unda kema dastlab yog'och ustiga qurilgan kabi quriladi.

Ba'zi suyaklar gavdaga nisbatan qalqon xizmatini o'taydi. Ba'zi suyaklar esa zarba beruvchi narsalarning zarbasini qaytaruvchi qurolga o'xshaydi. Lekin, Ibn Sinoning tibbiyot, uning mohiyati va funksiyalari haqidagi fikrlarining hammasi ham to'g'ri emas. Shunday bo'lsa ham olimning bu masala haqidagi fikrlari o'sha davrda ijobiy rol o'ynagan edi.

IBN SINONING TABIBLIK FAOLIYATI

Ibn Sino amaliy tibbiyot bilan ham erta shug'ullana boshlagan. Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, u 16 yoshidayoq kasallarni davolashga kirishgan.

Ibn Sino amaliy tibbiyot haqida so'zlab, uning asosiy vazifasi kishilar salomatligini saqlashdan iborat, deydi. U o'zining tabiblik faoliyatida bu vazifani birinchi o'ringa qo'yib, odamlar sog'lig'ini saqlash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan ko'p muhim tadbirlarni ishlab chiqqan va ularni amalga oshirish yo'llarini ko'rsatib bergan.

Ibn Sino sog'liqni saqlash ishini san'at deb ataydi. Uning vazifasi har xil foydali tadbirlarni amalga oshirib, odamlarni tabiiy o'lim yoshiga yetkazish deb ta'kidlaydi.

Ibn Sinoning ko'rsatishicha, salomatlikni saqlash uchun birinchi galda quyidagi yetti tadbirni amalga oshirish kerak: 1) kishi mizojini mo'tadil holatga keltirish; 2) yeyiladigan va ichiladigan narsalarni to'g'ri tanlash; 3) odam gavdasining to'g'ri tuzilishini saqlash; 4) tanani chiqindilardan tozalab turish; 5) nafas olinadigan havoni yetarli va yaxshi qilish; 6) tanaga va mavsumga muvofiq kiyim tanlash; 7) jismoniy va ruhiy harakatlarni mo'tadil bajarib turish. Bular qatoriga Ibn Sino yana mo'tadil uyqu va uyg'oqlikni kiritgan. Olim bu tadbirlarni yangi tug'ilgan chaqaloqdan boshlab to qarillikkacha bo'lgan hamma davrda bajarishni ta'kidlaydi. Ibn Sino bu tadbirlardan eng muhimi badantarbiya (jismoniy harakatlar), deb hisoblagan. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarga ovqat tadbiri va uyquni qo'ygan.

Ibn Sino badantarbiyaning ahamiyati haqida so'zlab, mo'tadil ravishda va o'z vaqtida badantarbiya bilan shug'llanuvchi kishi kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmaydi, ya'ni kasal bo'lmaydi, deydi. Olim badantarbiyaning quyidagi turlarini ko'rsatgan: tez yurish, chopish, sakrash, qilichbozlik, kamondan o'q uzish, chavandozlik, chovgan o'yini, koptok o'yini, kurash, tosh ko'tarish, nayza sanchish va h.k. Badantarbiya mashqlari har bir kishi uchun alohida tayinlanadi. Bunda uning yoshi, jinsi, quvvati, imkoniyati va sog'liq darajasi hisobga olinadi. Ibn Sinoning ta'kidlashicha badantarbiyani boshlashdan oldin qovuqni va ichni bo'shatish zarur. Badantarbiyaning davomiyligi kishining kuchi, holati va sog'liq darajasiga qarab belgilanadi. Badantarbiyaning turlari qatoriga Ibn Sino uqalash

(massaj)ni ham kiritgan. Uning ko'rsatishicha uqalash to'rt xil – mo'tadil, kuchli, kuchsiz va davomli xillarga bo'linadi. Kuchlisi gavdani baquvvat qiladi. Kuchsizi yumshatadi. Davomlisi ozdiradi. Mo'tadili tanani yayratadi. Shu yerda Ibn Sino ovqatlanish tartibi, uyqu, hammomda yuvunish, turar-joylarni tanlash kabi usullarni keltirgan.

KASALLARGA TASHXIS QO'YISH

Ibn Sino kasallarga tashxis qo'yish, ya'ni uni aniqlashga juda katta ahamiyat bergan. Uning ta'kidlashicha, bemorning kasaliga to'g'ri tashxis qo'yish davolashning birinchi garovidir. Kasallarga tashxis qo'yishda Ibn Sino o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan hamma usullardan foydalangan. O'rta asr Sharq tibbiyotida tashxis qo'yishning bir qancha usullari qo'llanilgan. Shulardan eng asosiysi tomirni ushlab ko'rib, tekshirish hisoblangan. Bu usulni Ibn Sino juda mukammal bilgan.

Ibn Sino tomir urishini tekshirish usulini bayon qilishda dastlab sog' odamda tomir urishini o'zgartiradigan omillarga to'xtaladi. Buni bilish va hisobga olish har bir tabib uchun birinchi galdagi vazifa ekanligini ta'kidlaydi. Bunda tomir urishini avval mo'tadil mizojli sog'lom kishida sinab ko'rish kerak, deb uqtiradi.

Ibn Sino sog' odamda tomir urishini o'zgartiruvchi omillardan quyidagilarni ko'rsatgan: har xil hayajonli holatlar (qo'rquv, g'azab, g'amginlik yoki kuchli shodlik, lazzatlanish) jismoniy harakat, jins, yosh, iqlim, ob-havo, havo harorati, uyqusizlik, qorin ochligi yoki o'ta to'yish, ichimliklar va h.k. Shu yerda Ibn Sino yuqorida sanab o'tilgan omillarning har biri tomirda qanday o'zgarish paydo qilishini batafsil ko'rsatib o'tgan. Chunonchi uning yozishicha, g'azab tomir urishini katta, juda baland, tez va ketma-ket qiladi. Lazzatlanish esa tomir urishini sekin va siyrak qiladi. Qo'rquvda tomir urishi tez, qaltiroq, notekis va tartibsiz bo'ladi: jismoniy mehnat vaqtida tomir urishi tez va kuchli bo'ladi. Bahorda tomir urishi har taraflama mo'tadil va kuchda ortiq bo'ladi. Qishda tomir urishi siyrak, sekin va zaifroq bo'ladi. Kuzda tomir urishi notekis va biroz sekin bo'ladi.

Ibn Sino tomir urishiga quyidagicha ta'rif bergan: "Tomir urishi tomirning siqilishi va kengayishidan hosil bo'ladigan holatdir. Har bir siqilish va har kengayishing oxirida tinish (pauza) bo'ladi". Demak, Ibn Sinoning ko'rsatishicha tomir urishi ikki harakat (kengayish va siqilish) va ikki tinishdan tashkil topadi. Tomir kengayishini barmoq uchi bilan sezish oson, lekin uning siqilishini bilib bo'lmaydi.

Ibn Sinoning fikricha, tomir urishidagi siqilish va kengayish harakati, qonning yurakdan itarilib kelishi yoki yurakka tomon tortilishi natijasi bo'lmay, tomirning o'z jismidagi kengayish va siqilish natijasidir.

Ibn Sinoning yozishicha tomir urishini tekshirishda uning quyidagi 10 ta belgisi aniqlanadi: 1) tomirning kengayish darajasi; 2) tomirni tekshiruvchi kishining barmog'iga urilish kuchi; 3) har bir tomir urishi harakatining davom etish davri; 4) tomir urishining qattiq yoki yumshoqligi; 5) tomirning to'laligi yoki bo'shligi; 6) tomir tekshirilayotgan joyning harorati; 7) tinish (pauza)ning davomliligi; 8) tomir urishining tekisligi yoki notekisligi; 9) notekislikda tartib borligi yoki yo'qligi; 10) tomir urishining vazni.

Tomir urishini Ibn Sino 3 o'lchovga bo'lgan. Bular: tomir urishining kengligi, uzunligi va chuqurligi. Bulardan tashqari Ibn Sino yana "chuvalchangsimon, chumolisimon, arrasimon, sichqon dumisimon urishlar va yetiluvchi, zich, siyrak, sust, g'ovak, deb ataluvchi tinishlar" bo'ladi, deb yozgan. Bunday xil tomir urishlar va tinishlar hozirgi zamonning yuksak darajada rivojlangan klinik tibbiyotiga ham ma'lum emas. Aftidan, Ibn Sino bu xil tomir urishlar va tinishlar haqidagi ma'lumotlarni qadimgi Xitoy tibbiyoti manbalaridan olgan bo'lsa kerak. Tibbiyotda tomir urishini tekshirish usulini ishlab chiqqan qadimgi Xitoy tabiblari juda ko'p xil urishlar va tinishlar bo'lishini ko'rsatgan edilar. Masalan, tomir urushini tekshirishga asos solgan qadimgi Xitoy hakimlaridan biri Van Shu He 24 xil tomir urishi bo'lishini ko'rsatgan edi. Ibn Sino shu Van Shu He ma'lumotiga asoslangan bo'lsa kerak.

Bu ma'lumotlardan keyin Ibn Sino turli kasallik holatlarida tomir urishining o'zgarishi masalasiga o'tadi. Bunda dastlab har xil mizojdagi kishilarda tomir urishi qanday bo'lishini ko'rsatadi. Ibn Sinoning yozishicha, issiq mizojli kishilarda tomir urishi katta va yuqori bo'ladi. Sovuq mizojli kishilarda tomir sekin va siyrak uradi. Ho'l mizojda tomir urishi to'lqinsimon va keng bo'ladi. Quruq mizoj tomir urishini tor va kichik qiladi.

Ibn Sino quyidagi kasallik holatlarida tomir urishining qanday o'zgarishini ko'rsatgan: har xil isitmalar, letargus, yomon xiltlarning ko'payib ketishi, me'dada yomon xilt paydo bo'lishi, ozib ketish, uyqusizlik, bo'hron, mushaklarning taranglashishi, ovqatning yomon hazm bo'lishi, quvvatning sustlashishi, qon yopishqoqligining oshishi, asab buzilishi va h.k.

Ibn Sinoning ko'rsatishicha tomir urishini tananing va qo'l-oyoqning har bir nuqtasida tekshirish mumkin lekin, ko'proq bilak tomiri tekshiriladi. Ibn Sinoning yozishicha, buning uch afzalligi bor. Birinchidan bilak tomirini topish oson. Ikkinchidan kasallar, (ayniqsa ayollar) uni ko'rsatishdan tortinmaydilar. Uchinchidan, u yurakka yaqin joylashgan bo'lganligi uchun aniqroq belgi beradi.

Ibn Sinoning ta'kidlashicha tomiri tekshirilayotgan kishi har xil hayajonli holatlardan va jismoniy harakatlardan xoli bo'lishi lozim.

Umuman, bemor kasallikdan tashqari tomir urishini o'zgartiruvchi hamma holatlardan xoli bo'lishi zarur. Shundagina uning tomiri qanday kasallikdan o'zgaranligini aniqlash mumkin.

Ibn Sino tomirni tekshirib, kasallikni aniqlashda o'ziga xos ruhiy-hayajonli sinash usulidan ham foydalangan. Bu usulda tabib bemorning tomirini ushlab turib, uning ruhiy holatiga turli usullar bilan ta'sir qiladi, va bemorning tomir urishidagi o'zgarishga qarab, uning kasalligini anqlaydi. Ibn Sino Jurjon hukmdori Manuchehrning sevgi dardiga muhtalo bo'lgan jiyaning "kasali"ni aniqlashda shu usuldan foydalangan edi.

Sharq tibbiyotida tomir urishini tekshirishdan keyin ikkinchi o'rinda tananing chiqindilarini tekshirish turgan. Ibn Sino bu tekshirish usullarini ham muhim ekanligini ta'kidlagan. Bu yerda ham chiqindilarni sun'iy ravishda o'zgartiruvchi omillar bo'lmasligi kerak. Masalan, siydigi tekshiriladigan bemor erta bilan suv, choy ichmasligi, ovqat yemasligi, biror dori va siydikka rang beruvchi narsa qabul qilmasligi zarur, shuningdek, bemor safro va shilliqni haydovchi narsalar ham iste'mol qilmasligi lozim. Kayf beruvchi ichimlik ham ichmasin.

Siydikni tekshirishda uning rangi, tiniqligi, quyuq-suyuqligi, ko'p yoki ozligi, hidi, qanday cho'kma berishi aniqlanadi. Tekshirish uchun faqat ertalabki siydik olinadi. U bir soatdan ortiq turib qolmasligi kerak.

Ibn Sino o'sha vaqtdayoq hozirgi klinikalarda qo'llaniladigan ba'zi bir tashxis usullaridan ham foydalangan. Masalan, tukillatib ko'rish (perkussiya), eshitib ko'rish (auskultatsiya), paypaslab ko'rish (palpatsiya) usullarini ishlatgan. Ibn Sino ishlatgan bu usullar u vaqtda hozirgidek takomillashgan bo'lmasa ham, har holda ko'krak va qorin bo'shlig'ida joylashgan a'zolarining kasalliklarini aniqlashda yordam bergan. Ibn Sino perkussiya usuli haqida bunday deb yozgan: tukillatib ko'rish yordami bilan meshsimon istisqo (assit) bilan nog'orasimon istisqo (meteorizm) o'rtasidagi farq aniqlanadi.

Auskultatsiya haqida Ibn Sino yozadi: "Eshitib ko'rish orqali a'zolaridan chiqadigan tovushlarni tekshirib, uning holati aniqlanadi. Masalan, ichaklarning quldirashi ularda havo dam bo'lib qolganini ko'rsatadi. Bu esa ovqat yomon hazm bo'lganining nishonidir".

Ibn Sino bundan ming yil muqaddam qo'llagan bu diagnostik tekshirish usullari hozirgi zamon klinikalarida ishlatiladigan perkussiya, auskultatsiya va palpatsiya usullaridan juda oz farq qiladi.

Ibn Sino tashxis qo'yishda har bir a'zoning holatiga va uning o'z funksiyasini qanday darajada bajarishiga qarab, xulosa chiqarish kerakligini ta'kidlagan. Masalan, u miya haqida sezgi va erkin (ixtiyoriy) harakatlarning darajasiga, hisning va fikrlashning qanchalik aniqligiga, falajning bor yoki yo'qligiga qarab, yurak haqida tomir urishiga, nafas olishning oson

yoki qiyinligiga qarab, jigar haqida najas va siydikning tusiga qarab, xulosa chiqarish kerakligini alohida ta'kidlagan.

Tabib bemordagi og'riqqa va uning xillariga, shishgan a'zoning vaziyatiga ham ahamiyat berishini ta'kidlagan. Eng muhim belgilardan biri a'zo o'z funksiyasini qanday bajarayotganligidir. Faoliyat pasayishi yoki butunlay yo'qolishi mumkin. Masalan, falajda faoliyat butunlay yo'qoladi. Tabib kasalga tashxis qo'yishda bunga alohida ahamiyat berishi zarur.

KASALLARNI DAVOLASH

Ibn Sino kasallarni davolash masalasiga o'tib, dastlab kasalliklar haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. So'ng ularni davolash usullarini ko'rsatadi.

Ibn Sino kasalliklarni sodda (oddiy) va murakkab xillarga bo'lgan. Uning ko'rsatishicha, sodda kasalliklar asosan ayrim a'zolarida uchraydi, u mizoj buzilishi, tarkib o'zgarishi va uzluksizlikning uzilishi kabi holatlar bilan namoyon bo'ladi. Murakkab kasallik sodda kasalliklar qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Ammo, u sodda kasalliklarning oddiy yig'indisi emas, balki yangi holatdir. Ibn Sino murakkab kasalliklarga har xil shishlar, yallig'lanishlar va o'smalarni misol qilib ko'rsatgan.

Kasalliklarni Ibn Sino yana yengil va og'ir turlarga bo'lgan. Bundan tashqari, ayrim o'lkalar va xalqlarga xos kasalliklar ham bo'lishini ta'kidlagan. Bu jihatdan Ibn Sinoni o'ika kasalliklari fanining asoschisi deb atash mumkin.

Ibn Sinoning yozishicha, kasalliklar o'z rivojlanishi va tugallanishi jihatidan to'rt bosqichni bosib o'tadi. Birinchi bosqich kasallikning boshlanish davri, ikkinchi bosqich kasallikning zo'rayish davri, uchinchi bosqich kasallikning nihoyasiga yetgan davri, to'rtinchi bosqich kasallikning pasayish davri. Bu sxema ba'zi yuqumli kasalliklarga nisbatan to'g'ri bo'lsa ham, uni hamma kasalliklarga tadbiiq qilish mumkin emas. Chunki, kasalliklarning hammasi shu to'rt davrni bosib o'tmaydi.

Ibn Sino kasallarni davolashning asosiy qoidalarini quyidagicha ifodalaydi: "Sog'liq o'ziga mos narsa bilan saqlanadi, kasallik o'ziga zid narsa bilan davolanadi". Bu yerda Ibn Sino, albatta mizojni ko'zda tutgan. O'sha zamon tibbiyotida bu qoida to'g'ri, deb hisoblangan. Ammo, bu uslub amalda o'zini yuz foiz oqlamadi, aksincha ko'pincha u noxush natijalarga ham olib kelgan.¹

¹ Aytishlaricha Amir Temur zotiljam kasalligi bilan og'rib qolib, harorati juda baland ko'tarilib ketgan ekan. Uning haroratini tushirish uchun tabiblar boshiga muz to'ldirilgan pufak qo'yibdilar. Ming afsuski, buning natijasida zotiljamga meningit ham qo'shilibdi. Meningitga xos belgilar paydo bo'libdi.

Amaliy tibbiyotda Ibn Sino kasalliklarni davolashning ikki asosiy usulini ishlab chiqqan. Biri umumiy muolaja qoidalari, ikkinchisi har bir kasallikning o'ziga qaratilgan davo usuli.

Umumiy muolaja qoidalari har qanday kasallik tanadagi xiltlar va mizojlarning o'zgarishi natijasida kelib chiqadi, degan tushunchaga asoslangan. Bu yerda davolashning asosiy maqsadi shu o'zgargan xilt va mizojni mo'tadil holatga keltirishga qaratiladi. Kasalliklarning o'ziga xos davolash usuli asosan uning belgilarini yo'qotishga qaratiladi. Bu hozirgi tilda simptomoterapiya deyiladi.

Ibn Sino kasalliklarni ikki xil — umumiy gavda kasalligi va ayrim a'zolar kasalligiga bo'lgan. U inson gavdasini 22 qismga bo'lib, shu qismlarda uchraydigan turkum kasalliklarni aniqlash, tashxis qo'yish va davolash usullarini ko'rsatib bergan. Avvalo, shu qism (a'zo)ning funksiyasi, anatomik-fiziologik xususiyatlari, tabiati va mizojini bayon etadi. So'ng uning kasalliklari va ularni aniqlash haqida ma'lumot beradi. Keyin kasallikni davolash usullarini ko'rsatadi. Masalan, bosh va miya kasalliklarini bayon etar ekan, dastlab miyaning anatomiyasi va funksiyasini tushuntirib, so'ng uning kasalliklari, ularni aniqlash yo'llari va davolash usullarini ko'rsatgan. Ibn Sino bu masalaga o'zining "Al-qonun" asarida juda katta (74 fasl) o'rin bergan. Miya va asab tizimiga dahli bo'lgan birorta, masalani ham qoldirmagan. U hatto ishq (sevgi)ni ham bosh miya kasalligi qatoriga kiritgan. Bu haqda Ibn Sino bunday, deb yozgan: "Ishq — vasvasali va melanxoliyaga o'xshash bir kasallik bo'lib, bunda oshiqning butun fikri-zikri mahbubning qiyofasiga muhtalo bo'lib qoladi. Darhaqiqat, oshiqning xayolidan mahbubning qiyofasi hech ketmaydi. Ibn Sino haq. Ishq haqiqatan juda kuchli ruhiy-emotsional holat. Bizning fikrimizcha ishq qattiq o'rnatilgan shartli refleksdir.

Ibn Sino juda og'ir miya kasalliklaridan birinchi bo'lib meningitni ko'rsatgan. Bu kasallikning belgilarini u boshqa hakimlardan aniqroq va to'laroq ifodalab bergan. Ibn Sino og'ir kasalliklardan yana yurak kasalligini ko'rsatgan. Olimning yozishicha yurakda ham uch turkum kasallik — mizoj buzilishi, a'zo massasining o'zgarishi va jarohatlanishlar uchraydi. Ibn Sinoning aytishicha yurak holatining o'zgarishi boshqa kasalliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, yurakdan bo'ladigan xafaqon, yurakdan bo'ladigan behushlik, to'satdan bemor quvvatining zaiflanishi shunday kasalliklardir. So'ng Ibn Sino boshqa a'zolar kasalliklarini bayon etadi. Xususan, jigar, o'pka, me'da, taloq, buyrak, ichaklar kasalliklarini ko'rsatgan. Umuman Ibn Sino shu 22 qismda boshdagi sochdan tortib, to'tovonlargacha kishi gavdasining hamma a'zolarini batafsil bayon etgan. Ular "Tib qonunlari"ning 1500 sahifadan ortiq bo'lgan uchinchi kitobida bayon etilgan.

Ibn Sino jarrohlik kasalliklarini uzliksizlikning buzilishi deb ataydi va uni ikki turga bo'ladi: 1) jarohatlar, 2) yaralar. U jarohatlarga a'zoning

majaqlanishi; suyak sinishi, bo'g'im chiqishi, qon oqishi, ezilish, kuyish va teri shilinishini kiritgan. Ularning har birini ta'riflab bergan.

Ibn Sino jarrohiya bilan kam shug'ullangan bo'lsa kerak. U jarohatlarni operatsiya usuli bilan davolashga juda oz o'rin bergan. Shunda ham Galenning so'ziga asoslanib, jarohatlangan joydagi yiring pastga tomon oqib tushishi uchun qulay bo'lgan tomonga qarab yorish kerak, deb yozadi xolos. Qorin jarohatiga to'xtalib, "bir olim (kimligini aytmagan) uni qanday tikish kerakligini ko'rsatgan" deyish bilan cheklangan. Tikish usulini ko'rsatmagan. Faqat qovuqdagi toshni chiqarib olish usulini ancha batafsil yozgan. Ammo, bu usul qadimgi mashhur jarroh Antill yozib qoldirgan usulga juda o'xshaydi. Binobarin, Ibn Sino bu operatsiya usulini yozishda shu jarrohning asariga asoslangan bo'lsa kerak: sovuq shish (o'sma)ni davolash usulini ham ancha to'liq yozgan. Chiqqan-singanlarni davolash usullarini batafsil ko'rsatgan. Bunda u ko'proq Gipokrat yozib qoldirgan usullarga asoslangan.

Jarohatlarni davolashda Ibn Sino ko'proq et undiruvchi dorilar ishlatgan. Uning yozishicha, et undiruvchi dori sog'lom qonni ko'paytirib, uni etga aylantiradi. Ibn Sino et bitiruvchi doridan ham foydalangan. Uning yozishicha et bitiruvchi dori shunday doriki, u jarohat sirtini quritib, ustida quruq po'stloq paydo qiladi. Bu po'stloq tabiiy teri paydo bo'lgunga qadar jarohatlangan joyni zararli omillardan saqlaydi.

Ibn Sinoning ta'kidlashicha, har bir jarohatda ishlatiladigan dorining mizoji shu jarohat mizojiga mos bo'lishi kerak. (Demak, Ibn Sinoning fikricha har bir jarohat o'z mizojiga ega bo'lar ekan.) Masalan, agar jarohatda qon yig'ilgan bo'lsa jarohat mizojini hisobga olgan holda qonni quritish xususiyatiga ega bo'lgan dori ishlatiladi.

Ibn Sinoning yozishicha, uzliksizlikning buzilishi, ya'ni jarohat uzoq vaqt davom etsa va yiring bog'lasa u yaraga aylanadi. Yaradan chiqayotgan yiringning suyuq qismi zardob, quyug'i esa chirk deyiladi. Zardob xiltlarning suyuq qismidan, chirk esa ularning quyug' qismidan paydo bo'ladi. Zardob ko'pincha shish paydo qiladi. Zardobga qarshi qurituvchi dori ishlatiladi. Chirkka qarshi tozalovchi dori qo'llanadi. Chirk quyug'lashib, qotgan modda bo'lib, oq yoki qoramtir ranglidir.

Ibn Sino yaralarni chuqur va yuza, xavfli va xavfsiz xillarga bo'lgan. Ularni davolash masalasida travmatik yaralardan boshqasini quritish yo'li bilan davolashni tavsiya etgan. Yaralarni davolashda ularning chetlarini yaqinlashtirishni va dorini uzoqroq saqlab qolish chorasini ko'rish kerakligini ta'kidlaydi. Yaradagi chirk chiqarib olinishi kerak. Agar yara paydo bo'lgan joyda shish ham bo'lsa, dastlab shu shishni davolash chorasini ko'rish kerak.

Yaralarni yuvish va tozalash uchun Ibn Sino sharob (spirt) ishlatishni tavsiya etgan. Demak, u spirtning bakteriostatik ta'sirini bilgan, deyish

mumkin. Ibn Sinoning yozishicha, sharob tozalovchi, burishtiruvchi va qurituvchi xususiyatga ega.

Ibn Sino nosur (oqma) yaralarga alohida ahamiyat bergan. Bunday yaralarni kesish va olov bilan kuydirib davolashni tavsiya etgan.

Suyak sinishi va bo'g'imlar chiqishi haqida Ibn Sino to'g'ri fikr yuritgan. Uning ta'kidlashicha, gavdadagi deyarli hamma bo'g'imlar chiqishi mumkin. Ba'zilar tez-tez, ba'zilar kam chiqadi. Masalan, olimning yozishicha, barmoq bo'g'imlari sinsa sinadiki, lekin chiqmaydi. Bo'g'imda suyak boshi kirib turadigan chuqurcha qancha yassi bo'lsa, shu bo'g'im shuncha oson chiqadi. Masalan, yelka suyak bo'g'imi shundaydir. Bu yerda Ibn Sino pay cho'zilishini ham ko'rsatib o'tgan.

Ibn Sino biror bo'g'imning chiqqanligini aniq belgilash uchun bo'g'imni sog' kishining shunday bo'g'imiga taqqoslab ko'rishni tavsiya etgan. Olim odat bo'lib qolgan bo'g'im chiqishini ham eslatib o'tgan. Ammo, bu yerda xato fikr yuritgan. Uning yozishicha, bunday chiqish rutubatlarga bog'liq emish.

Suyak sinishini Ibn Sino oddiy ajralish va majaqlanishga bo'lgan. Suyak sinib, mayda bo'laklarga ajralib ketsa, uni majaqlanish deb atagan. Suyak sinib, uning bo'laklari o'z joyida qolsa uni yorilish deb atagan. Bu yerda suyakning darz ketishini ham eslatib o'tilgan. Ibn Sino suyak sinishini yana ochiq va yopiq xillarga bo'lgan. Ochiq sinishni davolash ancha qiyin ekanligini ko'rsatgan. Singan suyakni davolashda asosiy qoida sifatida siniq bo'laklarini tortib o'z joyiga tushirib, so'ng mahkam bog'lab qo'yishni (taxtakachlash, gipslash) tavsiya etgan. Bog'langandasuyak (a'zo) o'zining tabiiy holatini olishi kerakligini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning yozishicha, bog'lab qo'yilgan suyak qimirlatilmisligi lozim. Ammo, suyak (bo'g'im) qotib qolmasligi uchun a'zo goho-goho astagina harakatlantirib turilishi kerak.

Umuman, Ibn Sino travmatologiya masalalarini ancha batafsil bayon etgan. Chiqqan-singanlarni davolashda ishlatiladigan dorilar qatorida mumiyoni ham ko'rsatgan.

Ibn Sino umumiy kasalliklarga asosan isitmali xastaliklarni kiritgan. U o'z asarlarida, birinchi galda "Tib qonunlari" da bu masalaga katta o'rin bergan. Olim 60 dan ortiq har xil isitmalar va isitmali kasalliklarni bayon etgan. Faqat bir kunlik isitmadan 23 xilini ko'rsatgan. Ularning belgilari, kechishlari va oqibatlarini ko'rsatib bergan.

Ibn Sino isitmaga bunday ta'rif bergan: "Isitma yurakda alangalanib, arteriya va venalardagi ruh hamda qonning vositachiligida butun tanaga tarqaladigan, natijada badanda ham alangalanib, kishining tabiiy holatiga zarar yetkazadigan yot haroratdir"¹. Demak, Ibn Sinoning fikricha isitmaning dastlabki paydo bo'ladigan joyi yurakdir.

¹ Abu Ali ibn Sino, Tib qonunlari, IV kitob, Toshkent, "Fan", 1980, 11-b.

Ibn Sino isitmalar harorat ko'tarilishidan tashqari yana bir qancha belgilar bilan kechishini ko'rsatgan. Chunonchi, tomir urishining tezlashishi, burun qonashi, et uvishishi, ter bosish, ishtaha pasayishi, tashnalik, betoqatlik va h.k. Olim isitmaning davom etish muddatini to'rt davrga bo'lgan. Birinchi davr, isitmaning boshlanish davri, ikkinchisi, uning zo'rayish davri, uchinchisi nihoyasiga yetib, to'xtash davri, to'rtinchisi pasayish davri. Ibn Sinoning yozishicha bu davrlar hamma isitmalar uchun umumiydir. Bundan tashqari olim isitmalarini doymiy, vaqt-vaqt bilan ko'tariluvchi xillarga bo'lgan. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, shu isitmalarining har biri ma'lum kasallikka xosdir. Masalan, har bir yuqumli kasallik o'ziga xos isitma keltirib chiqaradi. Isitmali kasalliklardan Ibn Sino vabo, chechak, qizamiq va har xil shishlarni ko'rsatgan.

Vabo kasalligining sababi masalasida Ibn Sino unchalik to'g'ri fikr yuritmaydi. Uning yozishicha, vabo havo iqlimining o'zgarishidan kelib chiqadi. Bunda osmon jismlarining ta'siri ham bor, deydi. Yomon havo va nomo'tadil iqlim tanadagi xillarni buzib, vaboning kelib chiqishiga sabab bo'lar emish.

Ibn Sino chechakning belgilarini to'g'ri ta'riflab bergan. Ammo, bu kasallikning sababini ham noto'g'ri tushungan. Uning yozishicha, chechak kasalligi yomon shamollardan, ayniqsa, janubning issiq shamolidan kelib chiqadi, deb ko'rsatilgan. Ibn Sinoning fikricha, chechak buzilgan qondan ham paydo bo'lishi mumkin. U hatto, chechak sifatsiz ovqatdan ham paydo bo'ladi, deb yozgan. Masalan, achib buzilgan sut mahsulotlari chechak paydo qilar ekan. Ibn Sino suvchechakni ham eslatib o'tgan. Uning yozishicha, suvchechak qizamiq bilan chinchechak o'rtasidagi holatdir.

Ibn Sinoning yozishicha, qizamiq, buzilgan safrodan paydo bo'ladi. Qizamiqning chechakdan farqi shuki, bu kasallikda toshmalar chechakdagidek g'udda-g'udda bo'lib, teridan bo'rtib chiqmaydi. Qizamiq chechakka qaraganda xavfsizroqdir. Ammo, isitma qizamiqda balandroq bo'ladi. Davo masalasida Ibn Sino qizamiqda ham qon olish kerakligini ko'rsatgan. Bundan tashqari, ichni yumshatadigan dori berishni tavsiya etgan.

Ibn Sino chirish natijasida paydo bo'ladigan shishlarni ham isitmali kasalliklar qatoriga qo'shgan. Masalan, ichki a'zolaridagi saramasdan paydo bo'ladigan shish shundaylardandir, deydi. Bu shish qon bilan safroning aralashib ketishi natijasida tashnalik va alanganish zo'rayishi sababli paydo bo'lar ekan. Ibn Sinoning yozishicha isitmaning kuchliligi, davomiyligi va qaytalanuvchiligi shishning qaysi a'zoda joylashganligi va katta-kichikligiga bog'liq. A'zo yurakka qancha yaqin joyda bo'lsa, unda paydo bo'lgan shishning isitmasi shuncha baland bo'ladi. Ibn Sinoning

ko'rsatishicha, bunday isitmalarni davolashda dastlab shishga qarshi tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Asosan sovituvchi va rutubatlantiruvchi dorilar beriladi.

Ibn Sino eng xavfli shishlardan biri deb, saraton (rak)ni ko'rsatgan. Uni sovuq sish, deb atagan. Olimning yozishicha, bu ham umumiy kasalliklardan biridir.

Ibn Sino saraton haqida umuman to'g'ri fikr yuritadi. Ammo, bu shish safro moddasining quyindisi savdo (qora o't)ga aylangan qismdan paydo bo'ladi, deb xatoga yo'l qo'ygan. Saratonni davolash uchun Ibn Sino sovituvchi va ho'llovchi moddalarni tavsiya etgan. U boshlanayotgan saratonni yaraga aylantirmay o'z joyida to'xtatib qolish mumkin, deb o'ylagan. Uni operatsiya usuli bilan kesib olishni ham ko'rsatgan. Bunda operatsiya juda ehtiyotlik bilan amalga oshirilishi kerakligini alohida ta'kidlagan. Chunonchi saraton o'smasini butunlayin hamma ildizlari bilan chuqur kesib olish kerak, aks holda uning qolgan qismi (ildizi)dan yana saraton o'sib chiqishi mumkinligini ta'kidlagan.


Ibn Sino umumiy kasalliklar qatoriga bir vaqtlar O'rtasiyoda ko'p tarqalgan rishta (*dracunculus medinensis*) kasalligini ham kiritgan. Bu yerda shuni ko'rsatib o'tish kerakki, Ibn Sino O'rtasiy asr tabiblaridan birinchi bo'lib bu kasallikni tashqaridan kiradigan tirik jonzot (gijja) paydo qilishini ko'rsatib bergan. Mashhur hakim Galen esa bu kasallik tomirlar kasalligidir deb o'ylagan edi. Ibn Sino rishtani tirik jonzot, deb aniq ko'rsatib berdi, uni eng qulay davolash usulini ishlab chiqdi.

Ibn Sino eng og'ir va xavfli yuqumli kasalliklardan bo'lgan quturish kasalligi haqida ham to'liq ma'lumot bergan. Bu kasallikning belgilarini juda aniq ko'rsatib bergan. Bu kasallikka uchragan jonzot shu jumladan odam ham, suvdan qo'rqishini Ibn Sino birinchilardan bo'lib ko'rsatgan.

Yana bir juda xavfli yuqumli kasallik – moxov haqida ham Ibn Sino to'la ma'lumot bergan. Bu kasallikning belgilarini juda aniq ko'rsatgan. Lekin, moxov kasalligi savdoning butun badanga tarqalishidan paydo bo'ladi, deb noto'g'ri fikr aytgan. Ibn Sino yozishicha, moxov kasalligida tananing mizoji ham buziladi. Olimning fikricha moxov kasalligi nasliy kasallikdir. Kasallik otaning zurriyodi va onaning hayz qoni orqali bolaga o'tadi, deb ko'rsatgan.

Ibn Sino diabet (qand kasalligi)ni ham yaxshi bilgan. Uning belgilarini aniq ko'rsatib bergan. Ammo, bu kasallikning kelib chiqishi sababi haqida noto'g'ri fikr yuritgan. Uning yozishicha, diabet buyrakning kuchsizligidan va siydik yo'llarining kengayib qolishidan paydo bo'lar ekan. Bunda yomon xiltlar kam sabab bo'lishi mumkin, deydi.

Ibn Sino yuqumli kasalliklar qatoriga terida paydo bo'ladigan kosmetik o'zgarishlarni ham kiritgan. Bunday kasalliklardan soch, ki prik va boshqa



Abu Ali ibn Sino maqbarasi.

tuqlarning to'kilishi va tirnoqlarning qurib — qovjirashi, vetiligo (pes) va temiratkini ko'rsatgan.

Ibn Sino umumiy kasalliklarning oqibati xususida so'z yuritib, bo'hron (kriz) tushunchasiga to'xtalib o'tadi. Uning yozishicha, bo'hron — ajrim qilish ma'nosini bildiradigan holatdir. U bemorning sog'ayishi yoki uning og'irlashishi tomonga keskin burilishini ko'rsatadi. Bo'hronning dalillariga qarab, kasalning bo'lajak holati (taqdiri) aniqlanadi.

Ibn Sino yuqumli kasallikni ramziy ravishda ifodalab, bunday deb yozgan: kasallik tana uchun bir shaharga bostirib kirgan tashqi "dushman" kabidir. Agar "dushman" (ya'ni kasallik paydo qiluvchi sabab) yengsa, tanada kasallik kelib chiqadi. Agar, "shahar mudofaachilari" (ya'ni kasallikka qarshi turuvchi kuch) yengsa kishi omon qoladi.

Ibn Sino umumiy kasalliklar qatoriga zaharlanishni ham qo'shgan. U zaharga shunday ta'rif beradi: "Zahar shunday doriki, u mizojni faqat unga zid bo'lishlik bilangina emas, balki o'zidagi xusisiyat bilan ham buzadi". Demak, Ibn Sinoning fikricha, zahar mizojni buzish bilan kishini zaharlaydi. Olimning yozishicha, o'ldiruvchi, deb ataladigan maxsus dori ham bo'ladi. Bu dori mizojni haddan tashqari buzilishiga olib keladi.

Ibn Sino zaharga nisbatan chidamlilik holati (hozirgi tilda immunitet) paydo qilish mumkinligini ham ko'rsatgan.

Bu haqda u quyidagi rivoyatni keltirgan: Bir podshohni o'ldirmoqchi bo'lgan kishi podshoh bilan aloqa qiladigan kanizakka oz-ozdan zahar berib borib, uning tanasini zaharga o'rgatgan. Kanizakning tanasi zaharga nisbatan shu qadar chidamli bo'lib qoladiki, unda o'rnashgan zahar hatto so'lagida ham paydo bo'lgan. Shunda podshoh bu kanizak bilan aloqa qilganidan so'ng tezda o'lib qolgan, kanizak esa tirikligicha qolavergan. Ibn Sinoning yozishicha ayrim a'zolarga ta'sir qiluvchi zaharlar ham bo'ladi. Ibn Sino quturgan hayvon, hatto quturgan odamning tishlashini ham zaharlanish deb ataydi.

U yuzga yaqin har xil zaharlarni bayon etgan. Ularning har biri bilan zaharlanish alomatlarini ko'rsatib bergan. Ibn Sino bayon etgan zaharlarning 56 tasi o'simliklardan, 14 tasi ma'danlardan, 24 xili hayvonlardan olinadi.

Ibn Sino zaharli hayvonlar to'g'risida soz yuritib, birgina zaharli ilonlardan 25 xilini ko'rsatgan. Zaharlanishni davolashni Ibn Sino 2 bosqichga bo'lgan. Birinchi bosqich umumiy chora, ikkinchi bosqich har bir zaharning o'ziga qarshi ishlatiladigan chora. Ibn Sinoning ko'rsatishicha umumiy chora quyidagilardan iborat: 1) zahar tanaga tarqalib singib ketmasligi uchun uni tezda a'zodan chiqarib yuborish. Chunonchi, bemorni qustirish, ichini surdirish, huqna qilish. Ikkinchi bosqich zaharni kuchini susaytirish. Chunonchi, zaharni o'ziga tortib oluvchi, uni suyultiruvchi, o'rab oluvchi moddalar (sut, qatiq, sharob va h.k.) ichirish.

Ibn Sino ba'zi kasalliklarni davolashda shartli refleks hosil qilish usulidan ham foydalangan. Masalan, odat bo'lib qolgan va dorilar bilan davolab bo'lmaydigan surunkali qabziyat kasalligini davolashda bemorga har kuni ma'lum vaqtda (yaxshisi erta bilan) ichini bo'shatish uchun hojatxonaga kirib ma'lum vaqt o'tirishni tavsiya etgan. Bu tadbir ko'p marta qaytarilgandan so'ng shu soatda ich yurishi paydo bo'ladi va bu ham odat bo'lib qoladi, ya'ni ich yurishiga nisbatan shartli refleks paydo bo'ladi.

Ibn Sino ba'zi kasalliklarni, xususan asab buzilishi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklarni davolashda hozir ikkinchi signal tizim deb ataluvchi so'z ta'siridan foydalanish usulini ham ishlatgan. Masalan, ishq hastaligini davolashda shu usuldan foydalangan. Shunday qilib Ibn Sino kasalliklarni davolash usullarini bir qancha o'ziga xos chora-tadbirlar bilan boyitgan.

Abu Ali ibn Sinoning jahon ilmiy tibbiyotining rivojlanishidagi roli juda kattadir. Shuni e'tiborga olib bizda prezidentning farmoni bilan 1999-yilda xalqaro Ibn Sino jamg'armasi tashkil etildi.

IBN SINO ISHLATGAN DORI-DARMONLAR

Ibn Sino o'zining tibga oid asarlarida, xususan "Tib qonunlari" kitobida o'simliklar, hayvonlar va minerallardan olinadigan juda ko'p dorilarni bayon etgan. "Qonun"ning ikkinchi va beshinchi kitoblari dorivor moddalarga bag'ishlangan. Hammasi bo'lib olim 810 xil sodda (yakka) va 275 xil murakkab dorilarni ko'rsatgan. Bunda u juda ko'p murakkab dorilarning 2—3 va undan ham ortiq nusxalarini keltirgan. Bundan tashqari Ibn Sino 65 xil yurak kasalligida ishlatiladigan dorilarni bayon etgan. Shularning hammasini hisobga olsak, Ibn Sino ishlatgan murakkab dorilarning soni 400 dan oshadi.

Ibn Sino dorilarning xossalari haqida so'zlab, birinchi galda, ularning issiqlik, sovuqlik, quruqlik va ho'llik xususiyatlarini ko'rsatadi. Bu xususiyatlarni u mizoj, deb ataydi. Demak, Ibn Sinoning tushunchasiga ko'ra dori moddalarning asosiy xususiyatlari ularning mizojlaridir.

Ibn Sinoning ko'rsatishicha dorilar umumiy va xususiy ta'sir quvvatiga ega bo'ladilar. Umumiy ta'sir quvvati qizdirish, sovutish, ho'lash va quritish sifatida namoyon bo'ladi. Xususiy ta'sir quvvati ayrim kasallik holatiga ta'sir qilishdir. Dorilarda yana uvishtiruvchi, jarohatlarni bitiruvchi, tortuvchi, to'sqinliklarni ochuvchi, ichni suruvchi, siydikni yo'naltiruvchi, qonni yurishtiruvchi xususiyatlar ham mavjud, deb yozgan.

Ibn Sino zamonasida dorilar asosan o'simliklardan, ma'danlardan va hayvonlar a'zolaridan olingan. Sun'iy moddalar bo'lmagan. Ibn Sinoning o'zi ham asosan shu uch manbalarni ko'rsatgan. U o'simliklardan olinadigan dorilarga ko'proq ahamiyat bergan. Ularni qay vaqtda yig'ish, saqlash, ishlatish usullarini juda batafsil bayon etgan. Bu umumiy ma'lumotlardan so'ng Ibn Sino oddiy va murakkab dorilar ustida alohida to'xtaladi.

Ibn Sino oddiy dorilarni, ularning ta'siri va xossasiga qarab, 64 xilga bo'lgan. Shular orasida erituvchi, tozalovchi, yetishtiruvchi, ovqatni hazm qildiruvchi, burishtiruvchi, xiltlarni quyiltiruvchi, suyultiruvchi, shimdiruvchi, uvishtiruvchi, ichni suruvchi, va h.k. dorilarni ko'rsatgan.

Turli kasalliklarda ishlatiladigan oddiy dorilardan Ibn Sino quyidagilarni ko'rsatgan: shish va toshmalarda ishlatiladigan 42 xil dori, bo'g'im kasalliklarida ishlatiladigan 23 xil dori, bosh va miya kasalliklarida ishlatiladigan 60 xil dori, ko'z kasalliklarida ishlatiladigan 45 xil dori, nafas yo'llari va ko'krak qafasidagi a'zolar kasalliklarida ishlatiladigan 35 xil dori; oziqlanish a'zolari (me'da-ichaklar) kasalliklarida ishlatiladigan 46 xil dori, chiqarish a'zolari kasalliklarida ishlatiladigan 88 xil dori. Shulardan taxminan yarmisi (36 tasi) ayollar va erkaklar jinsiy a'zolari kasalliklarida ishlatilgan ekan. Isitmalarda ishlatiladigan 18 xil dorini

ko'rsatgan. Olim kosmetikada ishlatiladigan moddalarga ham to'xtalib o'tgan. Shundaylardan 60 xilini ko'rsatgan.

Ibn Sino har bir dorini bayon qilishda dastlab u qanday dori ekanligi (tuzilishi, shakli) qayerdan olinishini ko'rsatib o'tadi. So'ng har bir dorining mizoji, xossalari, ta'siri va nihoyat uning qanday kasallikda ishlatilishini ko'rsatadi.

Ibn Sino "Tib qonunlari"ning butun bir kitobini (ikkinchi kitob) oddiy (yakka) dorilarga bag'ishlagan bo'lsa ham, amalda u ko'proq murakkab dorilardan foydalangan. Olim murakkab dori ishlatishning afzalligini so'zlab, bunday, deb yozgan: "Ba'zan biz biror kasallik uchun oddiy dori topolmaymiz. Ko'pincha hatto murakkab dori ham bemorni davolashda uning kasaliga biz istagan darajada ta'sir qilolmaydi. Bunda buz mazkur doriga uning kuchini oshiruvchi modda qo'shishga majbur bo'lamiz. Ba'zan esa biz tanlagan dori kasallikga yaxshi ta'sir etadi, ammo boshqa tomondan bemorga zarar yetkazadi. Bunda biz mazkur dorining zararli tomonini qirqadigan modda qo'shishimiz lozim bo'ladi. Boshqa bir holda dori kasallikga yaxshi ta'sir qiladi, lekin u juda achchiq yoki hidi badbo'y bo'ladi. Bemor uni icha olmaydi, ko'ngli aynib, qayt qilib yuboradi. Bunday holda biz dorining achchiq ta'mini va badbo'y hidini yo'qotadigan modda qo'shishimiz kerak. Shuning uchun biz ko'proq murakkab dorilar ishlatamiz".

Ibn Sinoning yozishicha murakkab dori shu doriga kirgan moddalarning oddiy yig'indisi emas, balki u yangi sifatdir. Ibn Sino ishlatgan va tavsiya etgan dorilarning ko'pi har xil kasalliklarni davolashda albatta naf keltirgan. Ularning ba'zilari hozirgi zamon amaliy tibbiyotida ham ishlatiladi. Masalan, Ibn Sino ishlatgan 497 dorivor o'simlik moddalarining 165 tasidan hozir ham foydalaniladi. Shulardan 110 tasi hozirgi zamon farmakopeyasiga kiritilgan. Shu bilan birga u ba'zi kasalliklarni davolashda hayvonlarning tezagi, siydigi, quloqning chirki, so'lak, tupuq kabi chiqindilarni dori sifatida tavsiya etgan. Shunday tavsiyalar qadimgi Misr hakimlarining asarlarida ham uchraydi. Qadimgi Misr hakimlaridan birining tuzgan retseptida achigan sut, hayvon tezagi, maydalangan (hovonchada yanchilgan) suyak, tuyoq kabilar bo'lgan. Ibn Sino ham o'z asarlarining ba'zilarida shunday tavsiyalar bergan. Uning yozishicha eshakning siydigi moxov kasalligini davolar emish. Cho'chqaning siydigi esa, buyrakdagi va siydik qopchasidagi toshni eritib yuborarmish. Ibn Sinoning tibbiyot, uning mohiyati va vazifalari haqidagi fikr-mulohazalari, shuningdek, tavsiya etgan dori-darmonlari o'z vaqtida to'g'ri va foydali bo'lgan. Ular ko'p asrlar davomida tabiblar uchun, haqiqatan "qonun" bo'lib xizmat qildilar.

QORAXONIYLAR DAVRIDAGI TIBBIYOT

X asrning oxirida O'rta Osiyoda yashagan va Yettisuv hamda Oltoy tomonlaridan kelgan turkiy xalqlar katta va kuchli davlat barpo etdilar. Ular Samarqandni o'z davlatlarining poytaxti deb e'lon qildilar. Bu davlat tarixda Qoraxoniylar hokimiyati, deb ataladi.

Qoraxoniylar mamlakatni iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rivojlantirishga harakat qildilar. Shaharlarda, ayniqsa davlatning poytaxti Samarqandda katta qurilish ishlari olib borildi. Boshqa binolar qatorida kasalxonalar, shifoxonalar ham qad ko'tardi. Masalan, o'sha vaqtdagi Samarqand hukmdori Ibrohim ibn Nasr Tamg'ach Bo'g'roxonning farmoni bilan 1066-yilda Samarqandda kasalxona barpo etildi. Kasalxona bilan bir vaqtda tibbiy bilimlarni o'qituvchi maxsus madrasa (tibbiy maktab) ham qurildi. Uni "Tibbiy bilim maskani" deb atadilar. Bu madrasa va kasalxona xonning o'ziga qarashli vaqf yerlar va korxonalaridan keladigan daromad bilan ta'minlanib turilardi.

Ibrohim Tamg'achxon kasalxonaga boshliq qilib, o'sha vaqtda ko'zga ko'ringan yirik hakimlardan biri Abu Tohir ibn Abdurahmon al-Jazoliyni tayinladi. Kasalxona nizomiga binoan u yerda faqat kasallargina emas, shu bilan birga ular qatorida hech kimi yo'q qariyalar va nogironlarga ham o'rin ajratilgan edi. Shunday qilib, bu kasalxona g'aribxonalik vazifasini ham bajarardi.

Kasalxona uchun ajratilgan mablag' turli sohalar bo'yicha belgilab qo'yilgan. Masalan, umumiy mablag'dan 10 foizi kasalxonada xizmat qiluvchi tabiblarga maosh uchun, 15 foizi kasallarning ovqati uchun, 15 foizi binolarni ta'mirlash uchun, 5 foizi o'tin-ko'mir uchun, 2 foizi bo'yra, obdasta va sham sotib olish uchun, 3 foizi oshpaz uchun, 5 foizi farroshlar uchun belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari qon oluvchilar uchun 2 foiz, go'rkovlar uchun 3 foiz pul ajratilgan. Demak, kasalxonada maxsus qon oluvchi mutaxassislar bo'lgan. Go'rkovlarga pul ajratib qo'yishning boisi shuki, kasalxonada vafot etgan g'arib, kimsasiz bemorlar va nogironlarni dafn etish shu kasalxona ma'muriyati zimmasiga yuklangan.

Umumiy mablag'dan 1000 dirhami ko'rpa, choyshab va bemorlar kiyadigan joma uchun ajratib qo'yilgan. Tibbiy maktabga ajratilgan pul bir yilda 35 ming dirham qilib belgilangan. Undan bosh mudarris yiliga 2000 dirham olgan. Maktabda dars beruvchi muallimlarga ularning bilim darajasiga qarab, 1000 dirhamdan 1500 dirhamgacha maosh to'langan. Kutubxona mudiri 1200 dirham olgan. O'quvchilarga nafaqa (sti pendiya)

uchun 1800 dirham ajratilgan. Nafaqa o'quvchining bilimni o'zlashtirishiga qarab belgilangan. Ular bir oyga o'rtacha 30 dirham olganlar. Demak, bu tibbiy maktabda 50 tacha talaba o'qigan. Bundan ko'rinadiki, o'sha vaqtda hakimlar tayyorlashga katta ahamiyat berilgan.

Samarqand kasalxonasi va tibbiy maktabiga o'xshash muassasalar boshqa shaharlarda ham bo'lgan. Ularda ham bilimdon va yaxshi tajribali hakimlar bemorlarni davolaganlar va talabalarga dars berganlar. Shulardan bizga Muhammad al-Kalonisiy, Qatton al-Marvaziy, Najibuddin Samarqandiy va yana bir nechta hakim ma'lum.

Muhammad al-Kalonisiy (Bahridin Muhammad ibn Bahrom al-Kalonisiy as-Samarqandiy) Samarqandda tavallud topib shu yerda bilim olgan. Tug'ilgan yili ma'lum emas, vafoti 1194-yil. Kalonisiyning otabobolari Kalonchi (telpakchi) bo'lgan bo'lsalar kerak. Shuning uchun, u "Kalonisiy" ("Telpakchi") degan taxallus olgan ekan.

Kalonisiy yaxshi tajribali tabib va dorishunos bo'lgan. Uning dorishunoslikga oid "Kitob al-qarobodin" ("Murakkab dorilar haqida kitob") nomli asari ham bor. Muallif kitobida murakkab dorilarni tayyorlash va ularni ishlatish usullarini bayon etgan. Xususan, u kukun dori (poroshok), hab dori (tabletk), qaynatma va dimlama dori, eritma va har xil surtma dorilar tayyorlash usullarini ko'rsatib bergan. Bizga Kalonisiyning tibga oid asari ma'lum emas. U ko'proq dorishunoslik bilan shug'ullangan bo'lsa kerak.

Qatton al-Marvaziy (Ayn az-Zamon al-Qatton al-Marvaziy) ham o'z zamonasining ko'zga ko'ringan hakimlaridan biri bo'lgan. Qaysi yilda tug'ilib qaysi yilda vafot etgani ma'lum emas. Manbalarda aytilishicha Marvaziy XII asrda yashagan mashhur faylasuf Abu Abbos al-Muqriyning shogirdi bo'lgan. Demak, u XII asrda yashagan.

Qatton al-Marvaziy Marv shahrida tavallud topgan. Shuning uchun u "Marvaziy" taxallusini olgan. Olim tibbiyotdan tashqari falsafa, astronomiya, riyoziyot va boshqa tabiiy fanlar bilan ham shug'ullangan. Lekin, asosiy kasbi tabiblik bo'lgan. Bizga uning tibga oid "Rasoil fi-t-tib" ("Tib haqida risolalar") nomli asari ma'lum. Kitobda olim nazariy va amaliy tibbiyot haqida birmuncha qisqaroq ma'lumot bergan.

Najibuddin Samarqandiy (Najibuddin Abu Homid Muhammad ibn Ali ibn Umar as-Samarqandiy) XII asrning oxiri va XIII asrning boshida yashagan mashhur hakimlardan biridir. Taxallusidan ma'lumki, u samarqandlik bo'lgan. Ammo, tavallud topgan yili ma'lum emas.

Najibuddin Samarqandiy hayotining oxirida Marv shahrida yashab, shu yerda fojiali halok bo'lgan. 1222-yilda mo'g'ul qo'shinlari Marvni qamal qilib, uning devorini buzib, shaharga bostirib kirganlar va deyarli

hamma shahar aholisini qirib tashlaganlar. Shu qirg'inda Najibuddin Samarqandiy ham halok bo'lgan.¹

Najibuddin yoshligidanoq har xil bilimlarga qiziqqa boshlagan. Xususan, tabiiy fanlarga oid kitoblarni juda qiziqib mutolaa qilgan. U madrasada o'qishni tugatganidan so'ng o'z bilimini oshirish va kengaytirish maqsadida mustaqil ravishda bilimlarni o'rgana boshlaydi. Ayniqsa tibbiyot ilmiga oid kitoblarni qiziqib mutolaa qilgan va bu fanni yaxshi o'zlashtirib olgan. Bu haqda mashhur tarixchi ibn Abu Usaybi'a bunday deb yozgan: "Najibuddin Samarqandiy tib ilmi sohasida har tomonlama chuqur bilimga ega edi. U qadimgi Yunoniston, Rum, Hindiston va boshqa buyuk mamlakatlar tib olimlarining asarlarini qunt bilan o'rgandi va o'zi ham buyuk hakim bo'lib yetishdi".

Najibuddin Samarqandiy ko'p qirrali olim edi. U o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan fanlarning deyarli hammasini chuqur bilardi. Lekin, u kasb jihatidan hakim bo'lgan. Shuning uchun uning asarlari ichida tibga oid kitoblar ko'pchilikni tashkil etgan. Bizga olimning tibga oid quyidagi asarlari ma'lum: "Kasalliklarning sabablari va alomatlari", "Bemorlar g'izosi", "Bo'g'imlar kasalliklarini davolash", "Murakkab dorilarni tayyorlash". Bu asarlar o'sha davr amaliy tibbiyotining rivojlanishida katta rol o'ynaganlar. Ayniqsa "Kasalliklarning sabablari va alomatlari" kitobi katta shuhrat qozondi. Kitobda asosan tashxis va davolash masalalari bayon etilgan. Dastlab har xil kasalliklarning kelib chiqish sabablari ko'rsatiladi. Bunda muallif mizojlar haqidagi umumiy fikr yuritishdan tashqari kasalliklarning kelib chiqishida tabiat omillarining ahamiyatini ham ko'rsatgan. Xususan, kasallik paydo qiluvchi omillardan suv, noqulay iqlim kabi omillarni sanab o'tgan. Bulardan tashqari Samarqandiy ovqat tartibining buzilishini ham kasallik sabablari qatoriga qo'shgan. So'ng olim har bir kasallikning o'ziga xos alomatlarini ko'rsatib bergan. Samarqandiyning ta'kidlashicha kasalga tashxis qo'yishda kasallikning belgilarini sinchiklab o'rganish hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Najibuddin Samarqandiyning bu kitobini hozirgi tilda "Ichki kasalliklar propedevtikasi", deyish mumkin. "Bemorlar g'izosi" kitobida har xil kasallik holatlarida bemorni ovqatlantirish qoidalari mufassal bayon etilgan. Unda yozilishicha ovqat mahsulotlaridan davo vositasi sifatida ham foydalanish mumkin. Masalan, ba'zan bemorga dori bermay faqat kerakli ovqat berib davolash ham mumkin.

"Murakkab dorilarni tayyorlash" kitobi amaliy tibbiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Unda murakkab dorilarni tayyorlash usullari ko'rsatib berilgan. U vaqtlarda ko'p hakimlar yoki bilmaslikdan, yoki

¹ Ba'zi manbalarda yozilishicha, bu halokat Xirotda ro'y bergan va Najibuddin Samarqandiy shu shaharda halok bo'lgan.

tasodifiy holda murakkab dori retseptini tuzishda o'z ta'sirlari bo'yicha bir-birlariga qarama-qarshi bo'lgan moddalarni ham qo'shib yuborardilar. Najibuddin Samarqandiy o'z kitobida shu haqda so'zlab bunday noaniqliklar va xatolarni ko'rsatib bergan. U bunday deb yozgan: "Hozirgi kunda murakkab dorilar tayyorlashga bag'ishlangan kitoblar juda oz ekanligi, borlari esa juda qisqa, yuzaki va noaniq yozilganligi uchun men shu kitobni yozishga qaror qildim. Kitobda qo'limdan kelgancha murakkab dorilarni tayyorlash usullarini tog'riroq va aniqroq ko'rsatib berishga harakat qildim".

"Bo'g'im kasalliklarini davolash" kitobi ham muhim ahamiyatga ega. Kitobda muallif har xil bo'g'imlarda uchraydigan turli kasalliklar (artritlar, artrozlar) haqida so'z yuritgan. Bunday kasalliklarni davolashda Najibuddin Samarqandiy har xil dori-darmonlar berish bilan birga isitish manbalari (masalan, hammomda bug'latish)ni ham tavsiya etgan.

O'zbekiston tibbiyoti tarixida Najibuddin Samarqandiy katta iz qoldirdi. U o'zining tibga oid asarlari bilan o'lkamizda tibbiyot ilmining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Sharqning o'rta asr tibbiyoti haqida so'z borganida bir muhim masalani e'tiborga olish zarur. O'sha davrda yashagan olimlarning ko'pi qomusiy bilimga ega bo'lgan. Ular hamma ma'lum fanlarni, shu jumladan tibbiyot ilmini ham yaxshi bilganlar.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra o'rta asr madrasalarida boshqa fanlar qatorida tibbiyot ilmi ham o'qitilgan. Binobarin, madrasani tugatgan talabalar tibbiyot ilmi asoslari bilan ham tanishib chiqqanlar. Ba'zilari esa bu ilmni chuqurroq o'rganib, shu sohada asarlar ham yaratganlar. Masalan, o'sha vaqtdagi mashhur olimlardan Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Nizomiy Aruziy Samarqandiyning tibga oid asarlari ma'lum. Ular amaliy tibbiyot bilan shug'ullangan bo'lmasalar ham bu fanni yaxshi bilganlar. Abu Rayhon Beruniy dorivor o'simliklarni chuqur o'rgangan va bu sohadagi o'z bilim va kuzatishlarini umumlashtirib "Kitob ash-saydana fit-tib" ("Farmakognoziya kitobi") nomli asar yozgan. Kitobda muallif 1000 dan ortiq dorivor moddalarning xususiyatlari va ulardan foydalanish yo'llarini ko'rsatib bergan. Bu kitob dorivor moddalar haqidagi bilimni ancha boyitdi.

Abu Nasr Forobiy ham tibbiyotni chuqur o'rgangan va bu ilm haqida ikkita asar yozgan. Ulardan biri "Odam gavdasining tuzilishi" deb ataladi. Unda a'zolarning anatomiyasi va funksiyasi ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari kitobda har xil kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ularning belgilari va kasalliklarga qarshi amalga oshiriladigan tadbirlar bayon etilgan.

Forobiyning ikkinchi kitobi "Nazariy va amaliy tibbiyot", deb ataladi. Bu kitobda muallif salomatlik va kasallik holatlari haqida soʻz yuritib, bu holatlar tashqi muhit taʼsiriga bogʻliq ekanligini koʻrsatgan. Forobiy tibbiyotning asosiy vazifasi haqida soʻzlab, bu fanning vazifasi kishilarning salomatligini saqlashdan iborat deb yozgan. Olimning bu fikri hozirgi zamon tushunchasiga juda mos keladi. Binobarin Forobiy tibbiyot fani va uning vazifasi haqida togʻri fikrga ega boʻlgan.

Nizomiy Aruziy Samarqandiy ham yaxshi tibbiyot bilimdoni boʻlgan. Olimning tibga oid fikrlari uning "Majmuʼ an-Navodir" ("Nodir fikrlar toʻplami") ismli asarida bayon etilgan. Bu asar "Chahor maqola" ("Toʻrt maqola") deb ham ataladi. Kitob toʻrt qismdan iborat. Oldingi uch qismi har xil fanlarga bagʻishlangan. Toʻrtinchi qism tibbiyot haqida. Bu qism "Tibbiyot va tabiblar uchun qoʻllanma" deb ataladi. Kitobda Aruziy dastlab tibbiyotning oʻziga taʼrif bergan. Olimning yozishicha tibbiyot shunday sanʼatki, uning yordamida kishining sogʻligʻi saqlanadi, agar u yoʻqolgan boʻlsa qaytadan tiklanadi. Maʼlumki bu fikr birinchi marta Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza fit-tib" kitobida bayon etilgan edi. Demak, Aruziy Samarqandiy bu masalada Ibn Sino bilan bir fikrda boʻlgan.

Aruziy kitobida tabib qanday xususiyatlarga ega boʻlishi kerakligi haqida oʻz fikrini ham bayon etgan. Uning yozishicha tabib, xush feʼl, kuzatuvchan va mulohazali boʻlishi kerak. Aruziy bunday deb yozgan. "Agar tabib kuzatuvchan va mulohazali boʻlmasa, u kasalga toʻgʻri tashxis qoʻyolmaydi, binobarin uni togʻri davolay olmaydi".

Kasalliklar masalasida Aruziy isitmali holatlarga alohida ahamiyat bergan. U isitmaning turlariga qarab, bemorga tashxis qoʻyishni koʻrsatgan.

Aruziy Samarqandiy oʻz kitobida buyuk hakimlarning faoliyati va ularning tibbiyot fanining rivojiga qoʻshgan hissalarini haqida muhim maʼlumotlar keltirgan. Bu maʼlumotlar tibbiyot tarixchilari uchun foydali boʻlishini taʼkidlagan. Nizomiy Aruziyning kitobi hajm jihatidan unchalik katta boʻlmasa ham mazmun jihatidan juda muhim asardir.

Kitobining oxirida Aruziy mashhur hakimlarning hayoti va tabiblik faoliyatidan bir qancha ibratli rivoyatlar keltiradi. Xususan, u Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy, Abu Sahl Masihiylarning hayotidan boshqa hakimlarga ibrat boʻladigan voqealar bayon etgan. Boshqalarni bu olimlardan oʻrnak olishga daʼvat etgan.

Aruziy Samarqandiy oʻz asarlarida va keltirgan rivoyatlarida bemorlarni davolashda uning kasalligi har qancha ogʻir boʻlsa ham tushkunlikka tushmaslikni, baʼzan "davosi yoʻq", deb hisoblangan kasallik ham tuzalishi mumkinligini uqdiradi.

X bob

**OVRUPO MAMLAKATLARIDA O'RTA ASR
DAVRIDAGI TIBBIYOT**

Biz yuqorida O'rta asrlarda tibbiyot yuksak darajada rivojlangan edi deb yozdik. Bu asosan Sharq mamlakatlariga tegishlidir. Ovrupo mamlakatlarida ahvol boshqacha bo'lgan. Ovrupo o'rta asr davrida, xususan, uning dastlabki ikki bosqichida (V—XV asrlar) fan va madaniyat sohasida rivojlanish bo'lmadi. Aksincha, bu davrda Ovrupo moddiy va ma'naviy hayot jihatidan turg'unlik davrini boshidan kechirdi. Fanda sxolastika hukmronlik qildi. Har qanday erkin fikr ta'qib ostiga olindi. Erkin fikrli dahriylar bilan, kurashish uchun dahshatli inkvizitsiya qo'llanildi. Ilg'or fikrli fan namoyandalari o'tda kuydirildi. Shuning uchun dunyoviy bilimlar, shu jumladan tibbiyot ilmi ham uzoq vaqt rivojlanmay qoldi.

Amaliy tibbiyotda afsungarlik, duoxonlik va shamonlik hukm surdi. Lekin, bunday chekinishdan so'ng taraqqiyot davri ham yetib keldi. XVI—XVII asrlarga kelib, Ovrupoda iqtisodiy va madaniy jonlanish yuz berdi. Tajriba va ko'zdan kechirishga asoslangan eksperimental fan tez rivojlana boshladi. Ayniqsa aniq fanlar — fizika, matematika, mexanika katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bunday umumiy taraqqiyot jarayonida tibbiyot ham yuksala boshladi. Ovrupodagi bu yangi taraqqiyot davri "Uyg'onish davri" deb nom oldi.

UYG'ONISH DAVRI TIBBIYOTI

Uyg'onish davriga kelib, tabiiy fanlar tez rivojlana boshladi. Bu esa o'z navbatida tibbiyotni yanada boyitdi. Hakimlar kasalliklarning mohiyatini yanada chuqurroq bilish uchun odam organizmining tuzilishi va unda sodir bo'luvchi fiziologik va patologik jarayonlarni aniqlash maqsadida anatomik ham fiziologik tekshirish ishlari olib bora boshladilar. Bu ishda ularga texnika sohasida qilingan muhim kashfiyot — mikroskopning kashf etilishi juda qo'l keldi.

Mikroskopning kashf etilishini gollandiyalik olim Antoni Levenguk nomi bilan bog'laydilar. Aslida esa birinchi mikroskop ota-o'g'il Yan

Yansenlar tomonidan kashf etilgan edi. Umuman optik asbob haqida soʻz boradigan boʻlsa, birinchi boʻlib, optik qurol — koʻzoynakni arab olimi Ibn al-Haytam ishlatgan edi.

Antoni Levenjukning xizmati shundaki, u birinchi boʻlib mikroskop orqali tabiatdagi mavjudotlarni tekshira boshladi. Xususan, u suyak toʻqimasi, muskullar, teri va hayvonlarning boshqa organlarini mikroskop orqali kuzatdi. Qonda eritrositlarni topdi.

Levenjuk fanda yangi dunyoni — mikroskop orqali koʻrinadigan mayda jonzotlar dunyosini ochdi. U oʻz tekshirishlarini yakunlab, 1695-yilda "Tabiat sirlarining ochilishi" nomli kitob yozdi.

Mikroskopning kashf etilishi juda katta voqea boʻldi. Bu kashfiyotdan boshlab, tabiiy fanlar va tibbiyot olamida yangi davrga qadam qoʻyildi. Yangi fanlar — gistologiya (mikroskopik anatomiya), bakteriologiya, mikrobiologiya, embriologiya kabi fanlar kelib chiqdi. Mikroskop tufayli odam organizmining nozik tuzilishini tekshirish imkoniyati paydo boʻldi. Yuqumli kasalliklarning sababchilarini (mikroblarni) aniqlash mumkin boʻldi.

Uygʻonish davrining buyuk muvaffaqiyatlaridan biri odam anatomiyasi va fiziologiyasi sohalaridagi yutuqlar boʻldi. Ular mustaqil fan sifatida shakllandilar.

ODAM ANATOMIYASI FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Baʼzi bir anatomik kuzatuvlar juda qadimgi zamonlarda olib borilgan. Ammo, tekshirish metodikasining takomillashmaganligi va bunday kuzatuvlar juda oz olib borilganligi sababli, odam anatomiyasi yetarlicha tasvirlab berilmagan edi. Ammo, bu fan asta-sekin rivojlanishda davom etdi. Uygʻonish davriga kelib anatomiya mustaqil fan sifatida shakllandi. Bunda mashhur belgiyalik olim Andreas Vezaliusning xizmati juda katta. Bu olimni odam anatomiyasi fanining asoschisi deb atash mumkin. U birinchi boʻlib haqiqiy odam anatomiyasini chuqur oʻrgandi va bu sohadagi ilgari xatoliklarga chek qoʻydi. Andreas Vezaliusning hayoti va faoliyati katta tarixiy ahamiyatga ega.

ANDREAS VEZALIUS

Andreas Vezalius 1514-yil 31-dekabrda Bryussel shahrida shifokorlar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Andies Vezalius qirol Karl V ning saroyida dorishunos boʻlgan. Onasi Elizabetta Vezalius (Krabbe) ham bilimdon ayol boʻlgan. Vezaliuslarning kattasi, Andreasning katta bobosi Pyer Vezalius hakim va sharqshunos olim boʻlgan. Vezaliuslar uyida

o'sha Pyer Vezaliusdan qolgan kitoblar saqlanar ekan. Shu kitoblar orasida arab tilida yozilgan asarlar ham bo'lgan.

Andreas Vezalius yoshligidanoq har xil bilimlarga qiziq boshlagan. Uylaridagi kutubxonada saqlanayotgan kitoblarni qunt bilan mutolaa qilgan.

U ayniqsa, tabiiy bilimlar va tibbiyotga ko'proq qiziqqan. Xususan, u har xil hayvonlarning tana tuzilishini bilishga intilgan. Kichik hayvonlar va parrandalarning tanasini yorib, uning ichki a'zolarini tekshirgan.

1528-yilda Andreasni o'qishga beradilar. U lotin, yunon va arab tillarini o'rganadi. Tabiiy fanlar va falsafaga oid kitoblarni ko'p o'qiydi. Shu bilan birga anatomiya sohasida ko'p tekshirishlar olib boradi.

1533-yilda Vezalius Parijga kelib, dorilfununning tibbiyot fakultetiga o'qishga kiradi. Dorilfununda Andreas to'rt yil o'qidi. Shu davr ichida o'z vaqtini ko'proq anatomiya kafedrasida o'tkazadi. Bu yerda anatomik tekshirish ishlari bilan band bo'ladi.

Parij universitetining anatomiya kafedrasida mashhur anatom-olim Silvius boshliq edi. U Andreasning anatomiyaga juda qiziqishi va uning zo'r qobiliyatini ko'rib, o'ziga yordamchi qilib oladi. Andreas anatomik preparatlarni juda mohirlik bilan tayyorlagan ekan. Lekin, preparat tayyorlash uchun material (odam jasad) yetishmaydi. Shuning uchun Andreas o'zining kursdosh o'rtoqlari bilan kechalari qabristnonga borib, yangi ko'milgan murdaning qabrini kovlab ochib, uni olib kelisharkan. Bu intilishlar o'z samarasini berib, Vezalius talabalik davridayoq bir muhim kashfiyot qiladi — u odamning pastki jag'i Galen yozganidek, ikki suyakdan emas, balki bitta butun suyakdan iborat ekanligini isbot qiladi.

Andreas Vezalius Parij dorilfununini 1536-yilda muvaffaqiyat bilan tugatadi. Bu vaqtda u juda mohir va tajribali anatom bo'lib yetishgan edi. Vezalius dorilfununni tugatgandan so'ng bir oz vaqt harbiy qismda xizmat qildi. 1537-yilda Italiyaga ko'chib o'tdi. Bir oz vaqt Vizantiyada yashab, professorlik unvonini olishga tayyorlandi. 1537-yilning 5-dekabrida Vezalius dorilfununda doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi.

Dissertatsiya mavzui Sharq tibbiyotiga bag'ishlangan edi. Unda Vezalius mashhur O'rta asrlik olim Au Bakr ar-Roziyning "Nonus al-Mansorius" ("Mansurga bag'ishlangan 9-chi tibbiyot kitobi") nomli asarini sharhlab bergan edi. Vezalius ilmiy daraja olganidan so'ng pedagoglik faoliyatini boshladi. U 1538-yilda Paduya dorilfununining professori etib tayinlandi va anatomiya fanidan dars bera boshladi. Vezalius o'z ma'ruzalarini anatomik preparatlar tayyorlash va har xil tajribalar o'tkazish bilan olib borardi. Vezaliusga qadar anatomiya darslari ko'proq nazariy usulda olib borilgan edi. Talabalarga odam gavdasining tuzilishi rasm-suratlar yordamida ko'rsatilardi. Vezalius talabalarga murdani yorib uning real a'zolarini ko'rsatib dars berardi.

Vealiusgacha yozilgan anatomiya darsliklarida xatolar ko'p edi. Birgina Galenning anatomiyaga oid kitobida 100 dan ortiq xato bor edi. Shuning uchun Vealius o'zi kitob yozishga kirishdi. Buning uchun u yuzlarcha murda gavdasini yorib tekshirdi. Bu ish 5 yil davom etdi. 1543-yilda kitobni tugatib, uni chop ettirdi. Kitob 7 jilddan iborat bo'lib, u "Odam gavdasining tuzilishi haqida yetti kitob" deb ataladi.

Vealius anatomiya sohasida ko'p ilmiy kashfiyot qilgan bo'lsa ham, undan unchalik ko'p ilmiy meros qolgan emas. U ruhoniylar ta'zviqi ostida o'zining ko'p asarlarini yoqib yuborgan. Vealius qoldirgan eng katta asar "Odam gavdasining tuzilishi haqida yetti kitob"dir. Kitobning birinchi jildi suyaklar va bo'g'imlar haqida. Ikkinchisida muskullar bayon etilgan. Uchinchi jild qon tomirlari va bezlarga bag'ishlangan. To'rtinchi jildda periferik asab tomirlari va orqa miya bayon etilgan. Beshinchi jild hazm qiluvchi a'zolar va tanosil a'zolar haqida. Oltinchi jild nafas organlari va qon aylanish a'zolari haqida. Yettinchi jild bosh miyaning tuzilishiga bag'ishlangan. Vealius o'z kitobida ayrim organlarning suratini berar ekan, uni tabiat manzaralarida va harakatda ifoda etgan. Masalan, bilak ikki boshli muskuli (m.biceps)ni tasvir etar ekan, uni qo'lda bir narsani ko'tarib turgan holda ko'rsatgan. Oyoq muskullarini berar ekan, uni kishi yurib ketayotgan holatda ko'rsatgan, ya'ni har bir organ qanday ish bajarsa, uning anatomiyasini shu ish jarayonida ko'rsatgan. Bu bilan Vealius funksional anatomiyani yaratgan.

FIZIOLOGIYA FANINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Uyg'onish davrida odam anatomiyasi bilan bir vaqtda fiziologiya fani ham rivojlandi. Bu fanning shakllanishi mashhur ingliz olimi Villiam Garvey nomi bilan bog'liq. Villiam Garvey fiziologiya fanida yangi davr ochgan olimdir. I.P.Pavlov aynan V.Garvey fiziologiyani mustaqil fan darajasiga ko'tardi deb yozgan edi. Darhaqiqat, V.Garveygacha ham fiziologik tekshirishlar ko'p o'tkazilgan bo'lsa ham, bu fan mustaqil soha sifatida shakllanmagan edi. Garvey o'zining butun hayotini shu fanning ravnaqi uchun sarfladi va fiziologiyani mustaqil fan sifatida shakllantirdi.

VILLIAM GARVEY

Villiam Garvey 1578-yil 1-aprelda Angliyaning Folkston shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi Tomas Garvey savdo ishlari bilan shug'ullangan va ancha badavlat kishi bo'lgan.

Villiam 10 yoshga to'lganida uni Kenterber kollejiga o'qishga beradilar. Bu yerda u 6 yil tahsil oladi. So'ng Kembrij dorilfununiga o'qishga kiradi. Dorilfununni 1598-yilda tugatadi.



William Garvey
(1578—1657).

Villiam Garvey tibbiyot kasbini egallashni tanladi. Shu maqsadda Paduya Universitetiga o'qishga kirdi. Bu o'quv yurti o'sha vaqtda Ovrupodagi eng ilg'or dorilfununlardan biri edi. Bu yerda Garvey anatomiya fani bilan qiziqib qolib, bu fan bilan ko'p shug'ullandi. 1602-yilda Garvey tibbiyot doktori darajasini olgan edi.

Villiam Garvey o'z faoliyatini dastlab oddiy hakimlikdan boshlaydi. Bir oz vaqt Kembrij shahrida ishlagan. So'ng Londonga ko'chib o'tdi. Bu yerda u o'zining chuqur bilimi va katta tajribasi tufayli tez orada shuhrat qozondi. 1607-yilda Garveyni London hakimlarining kollegiyasiga a'zo qilib oldilar. 1609-yildan harbiy gospitalda ishlay boshladi. U kasallarga tashxis qo'yish va davolashda katta muvaffaqiyatlarga erishib, aholi o'rtasida hurmatga sazovor bo'ldi.

Garveyning shuhrati qiroi saroyiga ham yetib bordi. Uni saroy hakimi vazifasiga tayinlaydilar. O'sha vaqtdagi Angliya qiroli Yakob I Villiam Garveyni o'zining shaxsiy tabibi vazifasiga tayinladi.

Garvey o'zi davolagan, lekin tuzalmay vafot etgan kasallarning ichki a'zolarida qanday o'zgarishlar kelib chiqqanligini bilish uchun ularning jasadini yorib ko'rardi va murdaning a'zolaridagi o'zgarishlarga qarab xulosalar chiqarardi.

1615-yilda Garveyni London hakimlari kollegiyasining anatomiya va jarrohiya kafedrasiga mudir qilib tayinladilar. Bu yerda u yurak-qon tomirlar fiziologiyasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordi.

1642-yilda Garvey Oksford dorilfununining dekani vazifasiga tayinlandi. Lekin bu vazifada uzoq ishlamadi. Ko'proq ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullandi. Xususan, u o'sha vaqtda muhim muammo bo'lgan yurak ishi va tomirlarda qonning harakati mavzui ustida eksperimental tekshirish ishlari olib bordi, yuzlab tajribalar o'tkazdi. Natijada, Villiam Garvey juda muhim kashfiyot qildi — u kichik qon aylanish tizimini ochdi. Bu kashfiyot uning ko'p yillar olib borgan eksperimental tekshirish ishlarining natijasi edi. Garvey o'zining bu kashfiyotini 1628-yilda chop etilgan "Hayvonlarda yurak va qon tomiridagi qonning harakati" nomli asarida bayon qildi.

Garveygacha yashagan anatomlar va fiziologlar yurakning o'ng va chap qorinchalari o'rtasida qandaydir kovak bor, qon shu kovak orqali o'ng qorinchadan chap qorinchaga o'tadi, deb o'ylardilar. Masalan, mashhur Galen ham shunday fikrda edi. Garvey bu fikr noto'g'ri ekanligini isbot etdi. U qon o'ng qorinchadan a. pulmonalis orqali o'pkaga

borib, u yerda tozalanib v. pulmonalis orqali chap qorinchaga qaytib kelishini, so'ng aorta orqali tanaga tarqalishini isbotlab berdi. Bu yerda shuni aytib o'tish kerakki, kichik qon aylanish sistemasining mavjudligi haqidagi fikr Garveydan oldin ham ba'zi olimlar tomonidan aytilgan bo'lsa ham, lekin isbotlanmagan edi. Garveyning xizmati shundaki, u bu fikrni amalda (tajriba usuli bilan) isbotlab berdi. Bu xulosalar Garveyning asosiy asari bo'lgan "Hayvonlarda yurak va qon tomirlaridagi qonning harakati", nomli kitobida bayon etilgan. Bu kitob 17 bobdan iborat bo'lib, har bir bobi qon aylanishi jarayonining ayrim masalalariga bag'ishlangan. Dastlabki ikki bobida yurak ishining fiziologiyasi bayon etilgan. Uchinchi bobida tomirlar haqida fikr yuritiladi. So'nggi boblarda tomirlarda oquvchi qonning miqdori, yo'nalishi, tomirlar holati bayon etiladi.

Villiam Garveyga qadar olimlar qon iste'mol qilingan ovqatdan jigarda paydo bo'ladi, deb o'ylaganlar. Masalan, Galen shunday fikrda edi. Garvey qon faqat yeyilgan ovqat hisobiga hosil bo'lmashligini aniqladi. Eng muhimi shuki, Garvey qon Galen aytganidek har gal yeyilgan ovqatdan paydo bo'lib, tomirlar orqali tananing har burchagiga borib, shimilib yo'q bo'lib ketmasligini, u tomirlarda aylanib yurishini isbot etib berdi. Ya'ni qon aylanish sistemasi mavjudligini ko'rsatib berdi. Lekin, bu sistema qanday amalga oshishini Garvey bilmagan edi. Chunki, u vaqtda mikroskop bo'lmaganligi uchun Garveyga kapillar qon aylanish tizimi ma'lum emas edi.

Garvey organizmdagi qonning vazifasini (oziq moddalar tashishligini) to'g'ri tushungan. Shu bilan birga qon orqali turli kasalliklar kelib chiqishligini ham bilgan. Umuman, Garvey qon, uning organizmdagi roli va qon aylanishi sistemasini haqidagi tushunchalarni to'g'ri ifodalab berdi. Katta qon aylanish sistemasi mikroskop kashf etilgandan so'ng isbot etildi.

Villiam Garvey uzoq umr ko'rdi. Toki qarigunga qadar o'z ilmiy ishlarini to'xtatmadi. Kishi organizmidagi fiziologik jarayonlarni har taraflama tekshirdi va bu bilan fiziologiya fanini mustaqil fan darajasiga ko'tardi. Olim 1657-yil 3-iyunda 79 yoshida vafot etdi.

KLINIK TIBBIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Anatomiya va fiziologiya sohasidagi kashfiyotlar hamda fizika va kimyo kabi tabiiy fanlarning rivojlanishi natijasida klinik tibbiyot shakllandi va rivoj topdi. Ilgari hukm surgan sxolastik tushunchalar o'rniga bemorlarni to'g'ridan-to'g'ri tekshirish va shunga asosan tashxis qo'yib davolash

yo'lga qo'yildi. Bu ishlar maxsus kasalxonalarda amalga oshirildi. Bunday kasalxonalar klinika deb ataldi. Odatda, klinikalar oliy tibbiy o'quv yurtlari qoshida tashkil qilinardi. Ammo, mustaqil klinikalar ham bo'lgan. Ular ba'zan oliy tibbiy o'quv yurtlarining amaliy o'quv bazasi vazifasini ham bajarganlar.

Barcha bilimlar sohasida bo'lgani kabi, klinik tibbiyot sohasida ham tajriba usuli joriy qilindi. Ilgarigi abstrakt fikrlash o'rmini tajriba egalladi. Olimlar eski kitoblarda yozilgan qoidalarga ko'r-ko'rona ishonishdan voz kechdilar, chunki, bu qoidalarning ko'pi amalda noto'g'ri bo'lib chiqdi. Tajriba (eksperiment) usulining qo'llanishi klinik fanlarning tez rivojlanishiga olib keldi. Ayniqsa terapiya va jarrohiyada katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Klinikalarda kasallarni tekshiradigan laboratoriyalar tashkil etildi. Kasallarni tekshirish va davolashda har xil texnik vositalar ishlatila boshladi. Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek bu davrdagi eng katta kashfiyotlardan biri mikroskopning kashf etilishi edi. Bu kashfiyot klinik tibbiyotning rivojlanishida ham yangi davr ochdi. Mikroskop yordamida ilgari ma'lum bo'lmagan ko'p kasallarning etiologiyasini (sababchisini) aniqlash imkoniyati paydo bo'ldi. Ammo, bu yangiliklar unchalik tez va keng tarqalmadi. Hakimlar orasida eski sxolastik fikrdagi kishilar ham oz emas edi. Masalan, Parij dorilfununining ko'pgina professorlari shunday eskicha fikrda qolgan edilar. Lekin, yangilikka intiluvchilar ham paydo bo'la boshlagan edi. Masalan, o'sha Parij dorilfununi tibbiyot fakultetining professori J.Frenkel shunday ilg'or fikrli olimlardan biri edi. U o'zi rahbarlik qilayotgan klinikada tibbiyot ilmi sohasidagi yangiliklarni keng ishlatgan edi. Klinik tibbiyot sohalaridan biri jarrohlik ilmi edi.

Ovrupoda jarrohlik fani juda murakkab yo'lni bosib o'tdi. Uzoq vaqt u tibbiy fan emas, hunar hisoblandi. Jarrohlik ishi bilan uzoq vaqt hakimlar emas, sataroshlar shug'ullandilar. Ular tibbiy kasb egalari qatoriga qabul qilinmas edilar. Ammo, shunga qaramay, jarrohlik o'zining erishgan yutuqlari bilan asta-sekin tibbiy bilimlar qatoridan joy ola boshladi. Jarrohlikning fan sifatida tan olinishida fransuz jarrohi Ambruaz Pare katta rol o'ynadi. U jarrohlikni tibbiy kasb va fan darajasiga ko'tardi.

Uyg'onish davri tibbiyotining muhim yutuqlaridan biri yuqumli kasalliklar etiologiyasini o'rganish va ularga qarshi kurashda erishilgan natijalar bo'ldi. O'sha vaqtlarda Ovrupoda har xil yuqumli kasalliklar tez-tez tarqalib turardi. Bu yuqumli kasalliklarni chuqurroq o'rganish va ularga qarshi choralarni kuchaytirishni taqozo qilardi. Ammo, u vaqtlarda ko'pchilik yuqumli kasalliklarning sabablari ma'lum emas edi. Shu sababdan tez-tez epidemiyalar tarqalib, ko'p kishilar o'lib ketardilar. Shuning uchun bu masala ustida olimlar chuqurroq o'ylay boshladilar. Shulardan biri Jirolamo Frakastoro edi. U toshmalı tif, bezgak, qizamiq,

sil va zahm kasalliklarini chuqur tekshirdi. Bu ish bilan J.Merkuriali, T.Sidenxam kabi olimlar ham shug'ullandilar. J.Merkuriali o'lat kasalligini, T.Sidenxam vabo va bo'g'ma kasalliklarini tekshirdilar. Bu olimlar mazkur kasalliklarning sababchilarini topmagan bo'lsalar ham ularning qaysi yo'llar bilan tarqalishlarini ko'rsatib berdilar. Ular yuqumli kasalliklar bir necha yo'l bilan tarqalishini aniqladilar. Birinchi yo'l kontakt orqali ya'ni bemor bilan to'g'ridan-to'g'ri kontakda bo'lish. Ikkinchi yo'l bemor ishlatgan buyumlardan foydalanish, uchinchi bemor yotgan uyning havosi orqali yuqishi. Olimlar yana yuqumli kasallik kishiga yuqqandan so'ng uning birinchi belgilari namoyon bo'lgunga qadar bir qancha vaqt o'tishini ham aniqladilar. Shularning hammasi bilib olingandan so'ng, yuqumli kasalliklarga qarshi karantin joriy qilindi. Bu muddat 40 kun, deb belgilandi. Shu 40 kun (lotincha quarantayn) ichida yuqumli kasallik bilan o'g'rigan kishiga yaqinlashmaslik tavsiya qilindi. Karantin birinchi bo'lib, dengiz flotida amalga oshirildi.

Amalda bu ish quyidagicha qilinardi. Dengiz yoki daryo bo'yidagi biror shaharga boshqa mamlakatdan kemada savdogarlar o'z mollarini olib kelsalar, shahar ma'muriyati 40 kun davomida kemani shahar portiga yaqinlashtirmay uzoqroq masofada langar tashlashini buyurardi. Agar 40 kun davomida dengizchilar yoki kema'dagi savdogarlar o'rtasida kasal paydo bo'lmasa kema portga kiritilardi. Bu tadbir o'sha vaqtda dengiz orqali yuqumli kasallik tarqalib ketishini oldini olgan edi.

Uyg'onish davri tibbiyotining yutuqlaridan yana biri kasb kasalliklari haqidagi fanning rivojlanishidir. Ba'zi kasb egalariga xos kasalliklar mavjudligi ilgari ham qisman ma'lum bo'lgan. Lekin, bu masala XVII—XVIII asrlarga qadar o'rganilmay qolgan edi. Shu asrlarga kelib, shaharlarda sanoatning turli sohalari rivojlanishi natijasida kasb kasalliklari ancha ko'paydi. Bunga birinchi bo'lib mashhur italiya hakimi Bernardino Ramatsini e'tibor berdi. U har xil kasb egalariga xos ko'pgina kasalliklarni o'rganib, 1700-yilda "Hunarmandlar kasalliklari haqida fikr" nomli asar yozdi. Bu kitobda Ramatsini 60 xil kasb egalarida uchraydigan kasalliklar haqida ancha to'liq ma'lumot bergan. Shu kasalliklarning oldini olish va ularni davolash yo'llarini ham ko'rsatgan. Mazkur kitob hakimlar uchun qo'llanma hisoblanib, ko'p marta qayta nashr etildi.

Shunday qilib, Uyg'onish davrining oxiriga kelib, Ovrupoda tibbiyot ilmining deyarli hamma sohalari tez rivojlana boshladi. Klinik tibbiyot shakllandi, kasallarga tashxis qo'yish va davolashda muhim yutuqlarga erishildi. Ko'pgina yirik hakimlar yetishib chiqdilar. Shulardan eng ko'zga ko'ringanlari Filipp Aureol Paratsels, German Burxave va Ambruez Parelardir. Biz quyida bu olimlar bilan tanishib chiqamiz.

FILIPP AUREOL PARATSELS

Filipp Aureol Paratsels 1493-yilda Shveysariyada hakimlar oilasida tug'ulgan. U yoshligidanoq o'zining o'tkir zehni bilan boshqa bolalardan ajralib turgan. Har xil bilimlarga qiziqqan va o'z yurtida dastlabki bilimni olganidan so'ng Italiyada tibbiyot ilmini o'rgandi. Ko'p o'qish va kasallarni muolaja qilish natijasida katta tajriba orttirdi. Ko'p mamlakatlarga sayohat qildi, u yerlardagi tibbiyot bilan tanishdi, turli xalqlarning hayoti va yashash tarzini o'rgandi. Buning natijasida u ham amaliy ham nazariy tibbiyot sohasida yirik olim bo'lib yetishdi.

1526-yilda Paratsels Bazel dorilfununining professori etib tayinlandi. Shunday qilib, Paratselsning ilmiy va pedagogik faoliyati boshlandi.

Paratsels Uyg'onish davrining ilg'or fikrli olimlaridan biri edi. U talabalarga mumkin qadar amaliy tibbiyotni o'rgatishga harakat qilardi. Eski sxolastik fikrlarni qattiq tanqid qilardi. Ma'ruza (leksiya)larida talabalarga "tabib o'z bilim va tajribasini eski kitoblarni o'qish bilan emas, balki bemorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotda bo'lish yo'li bilan, ularni har tomonlama sinchiklab tekshirish va ko'zdan kechirish bilan oshiradi", deb uqtirardi. Ammo, u o'zining mazkur mulohazalarida haddan oshishlikga ham yo'l qo'yardi. O'tmishda yashab ijod etgan barcha olimlarning asarlarini o'rganish befoydadir, deb isbot etishga urinardi. O'zining bu fikrini tasdiqlash maqsadida ko'pchilik oldida Abu Ali ibn Sino va Klavdiy Galenning asarlarini yoqib yuborgan edi.

Paratsels o'zining bu o'ta radikal fikrlari bilan o'sha vaqtdagi ko'pchilik olimlar va cherkov boshliqlarining nafratiga uchradi. Ular Paratselsni ta'qib qila boshladilar. Shu sababdan u 1528-yilda dorilfununni tark etib, Bazeldan ko'chib ketishga majbur bo'ldi. Shu tariqa ko'p vaqt shahardan-shaharga ko'chib yurib, ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirdi.

Paratsels o'z ilmiy faoliyatida birinchi oringa tajriba usulini qo'yardi. Xususan, u kimyoviy tajribalarga alohida ahamiyat berardi. Paratselsning fikricha, tabibning eng asosiy ish joyi kimyoviy laboratoriya bo'lishi kerak. Bu fikr umuman xato emas. Lekin, hamma narsani faqat kimyoviy usulga bog'lash masalaga tor doirada yondashish edi. Paratselsning fikr va mulohazalari tibbiyot tarixida umuman ijobiy rol o'ynadi. Olim 1541-yilda 48 yoshida vafot etdi.

GERMAN BURXAVE

German Burxave 1668-yilda Gollandiyada tug'ilgan. Leyden dorilfununini tugatgan. U ko'p bilimlarga qiziqqan. Ayniqsa, botanika va

kimyo fanini chuqur o'rgangan. Keyinchalik tibbiyotga qiziqib qolib, bu fanni ham yaxshi o'zlashtirib olgan.

1701-yilda Burxave Leyden dorilfununining tibbiyot fakultetida amaliy tibbiyot kafedrasining mudiri vazifasiga tayinlandi. O'sha vaqtdan boshlab Burxave pedagogik ish bilan shug'ullana boshladi.

Burxave chuqur bilimli olim, tajribali hakim va zo'r notiq edi. Uning ma'ruzalarini faqat talabalargina emas, kafedraning hamma xizmatchilari va boshqa kafedradan kelgan xodimlar ham qiziqib tinglardilar. Burxave o'sha vaqtda tengi yo'q mutaxassis bo'lgan. Uning dovrug'i shu qadar mashhur ediki, unga xat yozganlar turar-joyini ko'rsatmay "Ovrupodagi German Burxavega" deb yuborsalar xat to'ppa-to'g'ri uning qo'liga borib tegardi.

Burxave bemorlarini klinika sharoitida tekshirish, ularga tashxis qo'yish va davolashda eng mukammal usullarni qo'llardi. Shu sababdan uning tashxisi doim to'g'ri chiqardi va bemorlar shifo topardilar.

Burxavening klinikasiga davolanish uchun Ovruponing deyarli hamma shaharlaridan bemorlar kelardi. Uning klinikasi o'sha vaqtda hakimlar va shogirdlar uchun amaliy tajriba bazasi hisoblanardi. Bu klinikada juda ko'p bo'lg'usi olimlar ta'lim olganlar.

Burxavening klinikasida har bir kasalga "kasallik tarixi" to'ldirilgan. Ma'lumki, bu usul birinchi bo'lib, Abu Bakr Roziy rahbarlik qilgan Bog'dod kasalxonasida qo'llangan edi. Ovrupoda bu ishni Burxave amalga oshirdi.

Burxave klinik tibbiyotning nazariy masalalarini ham juda chuqur va har tomonlama ishlab chiqqan. U organizmda sodir bo'lib turuvchi o'zgarishlar anatomik-fiziologik va kimyoviy jarayonlar muhitida kelib chiqadilar, deb juda to'g'ri fikr yuritgan. Uning ta'kidlashicha bemor organizmida ham shunday bo'ladi. Ya'ni bemorning kasali ham shunday muhit sharoitida kechadi. Ammo, kasalda bu jarayonlar o'zgargan bo'ladi. Burxavening kasallik, uning mohiyati va oqibatlari haqidagi ko'p fikrlari hozirgi zamon fani tomonidan tasdiq etildi. Burxave 1738-yilda 70 yoshida vafot etdi.

AMBRUAZ PARE

Ambruaz Pare 1509-yilda Fransiyada tug'ilgan. U dastlab o'sha vaqtdagi oddiy sartaresh-jarrohlardan biri sifatida ish boshlagan. Biror tibbiy o'quv yurtini tugatmagan edi. Lekin, zo'r idrokli bo'lgan Ambruaz jarrohiy operatsiyalarni mohirlik bilan amalga oshirardi. U vaqtda jarrohlr asosan jarohatlarni yuvib, tozalab bog'lash, qon oqishini to'xtatish, og'riq tishni olib tashlash kabi "kichik jarrohiya" bilan shug'ullanardilar. Ambruaz bu ishlarni juda mohirlik bilan bajarib, atrofdegilarni qoyil

qoldirardi. Lekin, unda tibbiy bilim yo‘q edi. Haqiqiy mutaxassis bo‘lish uchun esa tibbiy bilimga ega bo‘lish kerak edi. Xususan, odam anatomiyasi va fiziologiyasi bilan tanish bo‘lish zarur edi. Shu maqsadda Ambruaz Pare Parijdagi tibbiy maktabga o‘qishga kirdi. Bu yerda u ko‘proq odam anatomiyasini o‘rganish bilan shug‘ullandi. 1533-yilda o‘qishni muvaffaqiyatli tugatib, Parijdagi mashhur "Hotel Die" kasalxonasida jarroh yordamchisi bo‘lib ishladi. 1536—1539-yillarda harbiy gospitalda xizmat qildi. Bu yerda Ambruaz Pare ilmiy ish bilan ham shug‘ullandi.

Xususan, u o‘q tegib jarohatlangan bemorlarni davolash usullarini takomillashtirish ishini o‘rgandi. So‘ng o‘zining bu sohadagi tajribalarini umumlashtirib, bir asar yozdi. Shunday qilib, Ambruaz Pare oddiy sartaresh-jarrohlikdan hakim-jarroh darajasiga yetdi. Biz yuqorida ko‘rsatib o‘tganimizdek, u vaqtda jarrohlik kasb emas, balki oddiy hunar edi. Ambruaz Pare jarrohlikni muayyan bilim bilan bog‘liq bo‘lgan kasb darajasiga ko‘tardi. U jarrohiya sohasida ko‘p kashfiyotlar qildi. Xususan, operatsiya vaqtida qon oqayotgan tomirni bog‘lab qo‘yish, kuchli jarohatlangan qo‘l yoki oyoqni kesib, uning o‘rniga ortopedik moslama o‘rnatish va h.k. Ambruaz Pare yana bir juda muhim kashfiyot qildi. O‘sha vaqtda o‘q tekkan joy (jarohat) zaharlangan deb hisoblanardi va bu joyga qizdirilgan moy quyilardi. Ambruaz Pare bu usul tamomila zararli ekanini isbot qildi.

Jarohatga qizib turgan moy quyilganda, bu yerda o‘qning zararli ta‘siriga yana kuyish ham qo‘shilardi. Buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan Ambruaz Pare bu usuldan tamoman voz kechdi. U jarohatlangan joyga quyish uchun dori topilmaganda uni toza mato (bint) bilan bog‘lab qo‘yish yetarli ekanini ko‘rsatdi.

Ambruaz Pare ayniqsa harbiy jarrohiya sohasida ko‘p yangiliklar kiritdi. Olim 1590-yilda 81 yoshida vafot etdi.

XI bob

RUSIYADA TIBBIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Rusiyada uzoq vaqt ilmiy markazlar va oily o‘quv yurtlari bo‘lmaganligi sababli, tibbiyot XVIII asrga qadar xalq tibbiyoti va diniy-mistik tibbiyot sifatida rivojlandi. Xalq tibbiyoti oilaviy maqomga ega edi. Bu kasb oilada nasldan-naslga o‘tib keldi. Tabiblik kasbi ayrim sohalarga ixtisoslashgan edi. Masalan, xalq tibbiyoti vakillari orasida shifobaxsh o‘simliklarni biluvchilar, chiqqan-singanlarni davolovchilar, og‘riq tishni olib tashlovchilar, ko‘z kasalliklarini davolovchilar, qovuqdagi toshni chiqarib

oluvchilar, qon oluvchilar va doylar bor edi. Tabiblik diplomiga ega bo'lgan mutaxassislar asosan chet ellardan kelgan kishilar edi.

Rusiyada tibbiyot juda kech shakllandi. Bu shakllanish ikki bosqichni bosib o'tdi. 1) Kiyev Rusi davridagi tibbiyot; 2) Moskva feodal davlati davridagi tibbiyot. Har bir davr o'z xususiyatiga ega. Bu davrlarning tibbiyoti ham o'z xususiyatiga ega.

KIYEV RUSI DAVRIDAGI TIBBIYOT

Kiyev Rusi davrida diplomli hakimlar bo'lmagan. Kiyev knyazlari saroyida chet ellardan kelgan hakimlar ishlaganlar. Kiyev Russida xristian dini qabul qilinib, cherkovlar va rohibxonalar (monastirlar) barpo etilganidan so'ng, ular huzurida bemor va nogironlarni davolovchi maskanlar paydo bo'la boshladi. Cherkovdagi ruhoniylar (rohiblar, kohinlar) bemorlarni parvarish qilish va davolash ishi bilan shug'ullandilar. Shulardan Agapit ismli rohib ayniqsa katta shuhrat qozondi. U ruhoni bo'lishi bilan birga ancha bilimdon, o'qimishli kishi bo'lgan. Uning tug'ilgan yili ma'lum emas, vafoti 1095-yil. Uning qurib qolgan (tabiiy balzamlangan) jasadi hozirgacha saqlanib qolgan.

Odatda rohibxonalarda bemorlar asosan har xil duolar o'qish bilan davolanadi. Agapit duo o'qish bilan birga turli dori-darmonlarni ham ishlatgan. Kiyev Rusida knyazlar va badavlat kishilarning qizlariga ham davo ishlari bilan shug'ullanish odat bo'lgan edi. Masalan, rus knyazi Vladimir Monomaxning nabirasi Yevpraksiya yaxshigina tabib bo'lgan. Yevpraksiya Vizantiya shahzodasiga turmushga chiqqan edi. Vizantiya Sharqiy Rim imperiyasining markazi hisoblanardi. Yevpraksiya Vizantiyada yashab lotin tilini o'rganadi va bu tilda "Alimma" ("Surtmalar") nomli kitob yozadi.

Alimma 5 qismdan iborat bo'lgan. Birinchi qismda gigiyenaning umumiy qoidalari bayon etilgan, ikkinchi qism oila va bolalar gigiyenasi hamda homilador ayollar gigiyenasiga bag'ishlangan. Uchunchi qism ovqat gigiyenasi haqida. To'rtinchi qism tashqi (teri) kasalliklari va ularni davolashga bag'ishlangan. Beshinchi qismi ichki kasalliklar va ularni muolaja qilish haqida.

Kiyev Rusi tibbiyoti tarixini o'rganishda bu manbadan tashqari ibodatxona yozmalaridan ham foydalash mumkin. Ibodatxona va rohibxona yozmalarida har xil kasalliklar va ularni davolash bayon etilgan. Bulardan tashqari "Rus haqiqati" nomli hujjat XI asrda Kiyev knyazi tomonidan chiqarilgan bo'lib, unda tabiblarning haq-huquqlari va vazifalari qonun jihatidan belgilab qo'yilgan.

Rus feodal davlatining ikkinchi davrida Sharqiy-Shimoliy Rusiya paydo bo'ladi. Bu davlatning poytaxti dastlab Suzdal, so'ng Vladimir shahrida joylashgan edi. Sharqiy-Shimoliy rus davlati unchalik katta emas. Shuning

uchun bu yerda madaniy hayot ham, tibbiyot ham deyarli rivojlanmadi. 1237—1238-yillarda mo'g'ullar Suzdal va Vladimir shaharlarini bosib oldilar. Bu bilan Kiyev rusi davlati o'z mustaqilligini yo'qotdi. Mo'g'ullar rus yerlarida 200 yil hukmronlik qildilar.

MOSKVA FEODAL DAVLATI DAVRIDAGI TIBBIYOT

XV asr oxirida Rusiyaning sharqiy qismida Moskva davlati vujudga keldi. Bu vaqtga kelib, Rusiya mo'g'ullar hukmdorligidan ozod bo'lgan edi. Buning natijasida Rus yerlarida mustaqil iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning rivojlanishiga imkon paydo bo'ldi. Ichki va tashqi bozor rivojlandi. Yangi savdo-sotiq va hunarmandchilik markazlari kelib chiqdi. Madaniy hayotda ham jonlanish yuz berdi. Bu davrdagi muhim madaniy jarayonlardan biri bosma dastgohning ishga tushirilishi bo'ldi. Shundan so'ng har xil bosma asarlar va kitoblar nashr etila boshladi. Birinchi tibbiy asarlar ham paydo bo'ldi. Masalan, 1658-yilda A.Vezaliusning "Odam tanasining anatomiyasi" nomli asari tarjima qilinib, bosib chiqarildi. Ammo, bu vaqtda ham tibbiyot asosan xalq tibbiyoti sifatida bo'lib qolaverdi. Chunki, mamlakatda hakimlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari yo'q edi.

Moskva feodal davlatida ham xalq tibbiyotidan tashqari, ibodatxona tibbiyoti ham bor edi. Ibodatxonadagi davolash usuli asosan duolar o'qish va diniy marosimlarni amalga oshirishdan iborat edi. Ammo, ba'zan dori-darmonlardan ham foydalanardilar.

1551-yilda "Stoglaviy sobor" ("Yuz bobli to'plam") nomli hujjat chiqarildi. Unda boshqa tadbirlar qatorida bemorlar va nogironlarni cherkovlarga joylashtirib, ularni davolash zarurligi ko'rsatilgan edi.

XVII asrga kelib, Moskva davlatida ba'zi bir tibbiy muassasalar paydo bo'la boshladi. Masalan, 1620-yilda Moskva kremilida "Apteka mahkamasi" ta'sis etildi. Bu mahkama dastlab, podshoh va uning oilasiga tibbiy yordam ko'rsatishni uyushtirish vazifasini bajardi. Keyinchalik, bu mahkamaning vazifasi ancha kengaytirildi. Masalan, chet ellardan hakimlar taklif etish, hakimlarning bilimini sinab ko'rish vazifalari topshirildi. Mahkama harbiy qismlarga hakimlar tayinlash ishiga ham rahbarlik qilardi. Mahkamaga dori-darmonlar tayyorlash vazifasi ham topshirilgan edi. Mahkama yana bir muhim ish bilan shug'ullana boshladi. U chet ellardagi tibbiy o'quv yurtlariga talabalar yuborib, o'qimishli hakimlar tayyorlash ishi bilan shug'ullandi. Mamlakatda yuqumli kasalliklar tarqalib ketishining oldini olish ishi ham mahkama ustiga qo'yilgan edi.

1654-yilda "Apteka mahkamasi" huzurida rus lekarlari (hakimlari) maktabi tashkil etildi. Dastlab, maktabga 30 ta talaba qabul qilingan edi.

O'qish muddati 5 yildan 7 yilgacha belgilandi. Maktabni bitirib chiqqanlarga "lekar" ("hakim"), degan unvon berilardi. Bu maktabni bitirganlarning ko'pi harbiy qismlarga yuborilardi.

Rusiyada XVII asrga qadar kasalxonalar bo'lmagan. Ba'zan (urush davrida) harbiy qismlarda gospitallar tashkil etilardi, xolos.

Rusiyada birinchi doimiy kasalxona 1656-yilda ochildi. Unda o'rinlar soni 15 ta edi. Bu kasalxonani badavlat rus savdogari M.F.Rtishchev o'z mablag'iga qurdirgan edi. Birinchi dorixona 1581-yilda kremlda ochildi. Uni ingliz dorishunosi Jeyms French ochgan edi. Bu dorixona, asosan rus podshosi va uning oilasiga dori tayyorlab berish bilan shug'ullanardi. Taxminan yuz yil o'tganidan keyin 1672-yilda Moskvada ikkinchi dorixona ochildi. Keyin dorixonalar soni ko'paya bordi. 1682-yilda rus podshosi Petr I ning farmoni bilan yana 8 ta dorixona barpo etildi.

U vaqtlarda yuqumli kasalliklarga qarshi yetarli chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan edi. Shuning uchun mamlakatda tez-tez epidemiyalar tarqalib turar va odamlar ko'plab nobud bo'lardilar. Bu ruslarning o'zidan tibbiy bilimga ega bo'lgan hakimlar tayyorlashni taqozo qilardi. Shu maqsadda rus yoshlaridan o'qishga qobiliyati bo'lganlarini tanlab, chet el dorilfununlariga yubora boshladilar. Shulardan birinchisi Yuriy Drogobichevskiy edi. U Krakov dorilfununini bitirib, "Tibbiyot doktori" ilmiy darajasini oldi. Krakov dorilfununini ikkinchi bo'lib Georgiy Skorina bitirdi. P.V.Postnikov ismli rus yigiti 1696-yilda Italiyadagi Paduya dorilfununini tugatdi. Shunday qilib, asta-sekin ruslardan ham o'qimishli hakimlar yetisha boshladi.

XVIII asrga kelib, Rusiyada iqtisodiy va madaniy rivojlanish boshlandi. Davlat mahkamasida va ijtimoiy hayotda ba'zi islohotlar amalga oshirildi. Ammo, hali Rusiya o'z rivojlanishi jihatidan Ovrupo mamlakatlariga nisbatan ancha orqada edi. Tibbiyot sohasida Rusiya Ovrupoga yetisha olmasdi. Lekin, rivojlanish davom etdi. 1721-yilda "Apteka mahkamasi" "Tibbiy boshqarma"ga aylantirildi, boshqarmaning vazifasi ancha kengaytirildi.

XVIII asr boshida Rusiyada juda katta voqea bo'ldi. Petr I ning farmoni bilan 1725-yilda Peterburgda Fanlar Akademiyasi ta'sis etildi. Unga prezident qilib, tib olimi L.L.Blumentrast tayinlandi. Akademiyaning boshlig'i tib olimi bo'lganligi tibbiyot ilmining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Akademiyada talabalarga har xil fanlardan leksiya ham o'qilardi. Tibbiyot ilmiga alohida ahamiyat berilardi. Xususan, anatomiya va fiziologiya sohalariga oid leksiya ko'proq o'qilardi.

Petr I ning farmoni bilan 1707-yilda Moskvada harbiy gospital va uning qoshida tibbiy maktab barpo etildi. So'ngroq shu tibbiy maktab asosida oliy o'quv yurti barpo etildi. Bu bilan Rusiyada tibbiy mutaxassislar tayyorlash ishiga asos solingan edi. Boshqa gospitallarda ham tibbiy maktablar ochildi. Ammo, bunday maktablar dastlab kam va unda

o'qiyotgan talabalarning soni oz edi. Har bir maktabda 20 tadan talaba o'qirdi. Maktablar ikki kategoriyali — 10 yillik va 5 yillik maktablar mavjud edi. 10 yillikni bitirganlar "katta lekar", 5 yillikni bitirganlar "kichik lekar" unvonini olardilar.

1763-yilda "Tibbiy boshqarma" asosida "Tibbiy kollegiya" ta'sis etildi. Tibbiy kollegiyaning boshlig'i "Prezident" deb atalardi. Tibbiy kollegiya ilmiy unvonlar berish huquqiga ega bo'ldi. Peterburgdagi markaziy tibbiy boshqarmadan tashqari, guberniyalarda mahalliy tibbiy idoralar ham tashkil etildi.

1786-yilga kelib tibbiy maktablar "Tibbiy-jarrohiya bilim yurtlari"ga aylantirildi. Bularda o'qitish-tarbiya ishlari ancha takomillashtirildi. Tibbiy-jarrohiya bilim yurtlari, asosan jarrohiya sohasida mutaxassislar tayyorlardi.

1798-yilda Peterburg tibbiy-jarrohiya bilim yurti negizida oliy harbiy tibbiy o'quv yurti (tibbiy-jarrohiya akademiyasi) tashkil etildi. Moskva jarrohiya bilim yurti Peterburg tibbiy-jarrohiya Akademiyasining filiali bo'lib qoldi. XVIII asr oxirigacha Tibbiy-jarrohiya bilim yurtlari 2000 dan ortiq harbiy tibbiy xodimlar tayyorlab berdilar. Ammo, mamlakatda oddiy fuqarolarni davolovchi tibbiy xodimlar deyarli yo'q edi. O'sha vaqtdagi ilg'or rus ziyolilari fuqaroviy hakimlar yetishtirish masalasini ko'tarib chiqdilar. Ularning tashabbusi bilan 1755-yilda Rusiyada birinchi dorilfunun ta'sis etildi va uning tarkibiga tibbiyot fakulteti ham kiritildi. Dorilfunun birinchi rus Akademigi M.V.Lomonosovning tashabbusi bilan tashkil etilgan edi. Afsuski, tibbiyot fakulteti ro'yxatda bo'lsa ham, amalda 1764-yilga qadar ishlamadi. Chunki, bu fakultetda dars beruvchi mutaxassislar yo'q edi. Tibbiy fakultet 1764—1765-o'quv yilidan boshlab ishlay boshladi. Chet ellardan, xususan Gollandiyadan o'qituvchilar taklif etilgan edi.

Tibbiyot fakultetining talabalari maxsus forma — oq metall tugmali yashil mundir, boshlariga uchburchak shaklli qalpoq kiyib yurardilar. Bellaridagi tasma (kamar)da shpaga osilgan bo'lardi. O'qish muddati 4 yil edi. O'qishlar lotin va olmon (nemis) tilida olib borilardi.

Moskva dorilfununining tibbiyot fakulteti faqat talabalarni o'qitish bilangina cheklanib qolmay, u tibbiyot fani sohasida ilmiy ish ham olib borardi. 1791-yilda Moskva dorilfununi ilmiy daraja berish huquqiga ega bo'ldi. Shundan so'ng ruslardan ilmiy darajaga ega bo'lgan mutaxassislar yetishib chiqa boshladi. XIX asrning boshiga kelib, boshqa shaharlarda (Xarkov, Qozon, Kiyev) ham dorilfununlar ochildi. Dorilfununni bitirgan mutaxassislardan kelgusida ko'zga ko'ringan olimlar ham yetishib chiqdilar. Tibbiyot fakultetini bitirganlardan birinchi bo'lib, S.G.Zibelin va M.Ya.Mudrov olim bo'lib yetishdilar.

S.G.ZIBELIN

Zibelin Semyon Gerasimovich 1735-yilda Moskvada ruhoniy oilasida dunyoga keldi. U yoshligidanoq qobiliyatli va har narsaga qiziquvchan bola bo'lgan ekan.

S.G.Zibelin maktabda boshlang'ich ta'limni olganidan so'ng Moskvada ochilgan slovyan-grek-lotin akademiyasiga o'qishga kiradi. 1755-yilda Moskva dorilfununi tashkil etilganida S.G.Zibelin bir necha boshqa talabalar bilan dorilfununning umumiy ta'lim bo'limiga o'tadi.

S.G.Zibelin tibbiyotga juda qiziqardi. Moskva dorilfununida esa tibbiyot fakulteti hali ish boshlamagan edi. Shuning uchun chet elga o'qishga ketdi. S.G.Zibelin chet elda (Gollandiyada) Leyden dorilfununining tibbiyot fakultetiga o'qishga kirdi. U yerda muvaffaqiyatli o'qib, 1764-yilda tugatib, bilimli hakim bo'lib Rusiyaga qaytib keldi. Bu vaqtda Moskva dorilfununining tibbiyot fakulteti ham ishlay boshlagan edi. S.G.Zibelin shu fakultetga professor qilib tayinlandi. U vaqtlarda Rusiyada fan sohasida mutaxassislar juda kam edi. Shuning uchun S.G.Zibelin bir necha fandan dars berardi. Xususan, anatomiya, terapiya, jarrohiya va kimyo fanlaridan leksiya o'qirdi. Lekin, S.G.Zibelin asosan terapiya sohasida mutaxassis edi. Shuning uchun bu fanni o'qishga alohida ahamiyat berardi: talabalarga ko'proq amaliy tibbiyotni singdirishga harakat qilardi. Leksiya vaqtida har xil kasalliklar bilan og'rikan bemorlarni namoyish qilardi.

S.G.Zibelin o'z zamonasining ilg'or kishilardan edi. U doim yangilikka intilar, talabalarga ham tibbiyot sohasidagi yangiliklarni yetkazishga harakat qilardi. Ruslardan ko'proq mutaxassislar yetishib chiqishiga alohida ahamiyat berardi. O'zi chuqur bilimli olim va tajribali jamoat arbobi edi. Olim sifatida o'sha vaqtdagi ilg'or ilmiy fikr pozitsiyasida turardi. Ammo, kasalliklarning mohiyati masalasida inson konstitutsiyasi (mizoji)ga amal qilardi.

S.G.Zibelin tajribali pedagog ham edi. U o'z leksiyalarini yuksak saviyada o'qirdi. Uning o'z leksiya o'qish uslubi bor edi. Masalan, leksiyaning oddiy misollardan boshlab, so'ng murakkab muammolarga o'tardi. Har bir kasallikni bayon qilishda, avval shu kasal bo'lgan a'zoning tuzilishini (anatomiyasini), uning funksiyalarini bayon etib, so'ng patologiyasiga o'tardi. Shundan keyin kasallik sababini ko'rsatib, uni davolash usullarini bayon etardi. Bunda shu kasallikda beriladigan dori retseptini tuzishni va uni tayyorlash usullarini ko'rsatardi. Olim gigiyena masalalari, har xil kasalliklarda ovqat iste'mol qilish qoidalariga ham katta ahamiyat berardi.

S.G.Zibelinning ta'kidlashicha gigiyena qoidalariga rioya qilish, yaxshi sifatli ovqat iste'mol qilish kishilarni ko'p kasalliklardan saqlaydi. Olim

odam organizmi, uning ruhiy holati juda murakkab tizim ekanligini ko'rsatib, har bir individga nisbatan alohida munosabatda bo'lish kerakligini uqdirardi.

S.G.Zibelin o'z dunyoqarashi nuqtai nazaridan ilg'or fan tushunchasiga yaqin turardi. U odam organizmida sodir bo'luvchi fiziologik va patologik jarayonlarni tushunishda tajriba (eksperiment)ni birinchi o'ringa qo'yardi. Umuman Zibelin ilg'or fikrli olim edi. S.G.Zibelin Moskva dorilfununida 35 yil xizmat qilib, 1802-yilda 67 yoshida vafot etdi.

M. YA. MUDROV

Matvey Yakovlevich Mudrov 1776-yilda Vologda shahrida ruhoniy oilasida dunyoga kelgan. Dastlab shu shahardagi diniy seminariyada ta'lim olgan. Seminariyani tugatganidan so'ng xalq ta'limi bilim yurtiga o'qishga kiradi. Matvey juda o'tkir zehnlil bo'lgani uchun har ikkala o'quv yurtini ham muvaffaqiyatli tugatadi.

M.Ya.Mudrov ko'proq tibbiyotga qiziqardi. U hakim bo'lishni istardi. Shu maqsadda u 1795-yilda Moskvaga yo'l oladi. Bu yerda u universitetning bir yillik tayyorlov bo'limida o'qib, tibbiyot fakultetiga o'tadi. U vaqtda, Moskva dorilfununi o'quv vositalari bilan yetarli ta'minlanmagan, o'qish ishlari unchalik yuqori saviyada emas edi. Shuning uchun M.Ya.Mudrov ko'p fanlarni o'zi mustaqil, kitoblardan o'qib bilardi.

1801-yilda Mudrov dorilfununni muvaffaqiyatli tugatdi va bir yil dengiz askarlari gospitalida hakim bo'lib xizmat qildi. So'ng o'z bilimini oshirish maqsadida chet elga ketdi. M.Ya.Mudrov Ovruponing ko'p shaharlarida bo'lib, u yerlardagi dorilfununlar bilan tanishdi, laboratoriyalarda ishlab tajriba orttirdi. Kasalxonalarda bo'lib u yerdagi davolash ishlari bilan tanishdi. M.Ya.Mudrov chet elda ilmiy ish bilan ham shug'ullandi va dissertatsiya yozdi. Dissertatsiyaning mavzui "Chaqaloq yo'ldoshining o'zicha ajralishi", deb atalgan edi. Dissertatsiyani muvaffaqiyatli yoqladi va "Tibbiyot doktori" degan ilmiy daraja oldi.

1808-yilda M.Ya.Mudrov Rusiyaga qaytib keldi. Uni Moskva dorilfununi tibbiyot fakultetining dekani etib tayinladilar. Shu vaqtdan boshlab u pedagoglik ishiga qadam qo'ydi.

M.Ya.Mudrov chuqur bilimli olim, tajribali pedagog va yaxshi tashkilotchi edi. U 20 yil davomida dorilfununning tibbiyot fakultetiga rahbarlik qildi. O'qitish va ta'lim ishlarini yuksak darajada olib bordi. Talabalarga amaliy bilim berishga alohida ahamiyat qilardi. O'sha vaqtda Rusiyada tibbiyot sohasida ishlovchi olimlar va pedagoglar juda kam edi. Shuning uchun M.Ya.Mudrov mutaxassislar tayyorlash ishiga juda jiddiy ahamiyat berardi.

M.Ya.Mudrovning ko'p vaqti dekanlik vazifasini bajarishga ketib, u

katta ilmiy faoliyat ko'rsata olmadi. Lekin, iloji boricha bo'sh vaqtini ilmiy ishga berishni ham unutmasdi. Amaliy tibbiyot bilan ham shug'ullanardi. O'zi rahbarlik qilayotgan klinikadagi kasallarga tashxis qo'yish, ularni ko'zdan kechirib borish va davolash ishlarini ham yaxshi olib borardi. Bu sohada u bir nechta foydali tavsiyalar ishlab chiqdi va amalga oshirdi. U ayniqsa, kasallarga to'g'ri tashxis qo'yishga katta ahamiyat berardi. U o'z shogirdlariga "Kasallikni to'g'ri aniqlashning o'zi yarim davolashdir", derdi. U vaqtda hakimlar bemorning qaysi a'zosi hasta bo'lsa shu a'zoning o'zi bilan shug'ullanar edilar. M.Ya.Mudrov «odam organizmi bir butun tana, uning bir a'zosi kasal bo'lsa butun organism hastalanadi», deb ta'kidlardi. Shuning uchun u shogirdlarga «faqat xasta a'zoning o'zini davolamanglar, organizmni butunligicha davolanglar», deb uqdirardi. M.Ya.Mudrov bundan tashqari «har bir a'zo (to'g'rirog'i har bir kishi)ning o'ziga xos xususiyati bor, shuni ham hisobga olinglar», deb tushuntirardi.

M.Ya.Mudrov kasal haqida anamnez to'plash, ya'ni bemorning o'zi va kasalligi haqida ma'lumot yig'ishga ham alohida ahamiyat berardi. Aniq to'plangan anamnez kasallikning mohiyati va uning sabablarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlardi. M.Ya.Mudrov odam organizmi doimo tashqi muhit ta'sirida bo'lishi, salomatlik ham, kasallik ham shu tashqi muhit ta'siriga bog'liq ekanligini ta'kidlardi. Agar tashqi muhit ijobiy ta'sir etsa, kishi salomat, agar u salbiy ta'sir etsa, kasallik kelib chiqadi. Bundan tashqari salomatlik va kasallik, kishining yashash tarzi, ovqatlanishi va ruhiy holatiga ham bo'g'liq ekanini ta'kidlardi.

M.Ya.Mudrov kasallarni davolashda faqat dori-darmonlardan emas, balki tabiiy omillardan ham foydalanish kerakligini uqdirardi. Masalan, ochiq, sof havoda ko'proq bo'lish, quyosh nuridan foydalanish va h.k.

M.Ya.Mudrov rus klinik tibbiyotiga asos solgan hakimlardan biri bo'lgan.

1831-yilda Peterburgda vabo kasalligi tarqalib ketdi. Mudrovni tajribali klinist mutaxassis sifatida bu kasallikka qarshi choralarni amalga oshirish uchun bu shaharga yubordilar. M.Ya.Mudrov bu epidemiyani tugatish uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirdi. Chunonchi, sog' odamlarni bemorlardan ajratish chorasini ko'rdi. Vabo bilan og'riganlar uchun maxsus baraklar tashkil etdi. Bemorlarni davolash ishiga rahbarlik qildi. Ammo, bemorlar orasida yurib, o'zi ham vabo kasalligi bilan og'rib qoldi va shu sababdan 1831-yil 31-iyulda vafot etdi.

XII bob

BUYUK TEMURIYLAR DAVRIDAGI TIBBIYOT

XIV asrning ikkinchi yarmida hozirgi O'zbekiston hududida markazlashgan yirik temuriylar davlati vujudga keldi. Bu davlatning asoschisi buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur edi. U ko'p qo'shni mamlakatlarni birlashtirib, buyuk Temuriylar davlatini barpo etdi. Bu davlat tarkibiga Movarounnahr, Xuroson, Xorazm, sobiq Oltin O'rda yerlari, Hindiston, Eron, Turkiya kabi mamlakatlar kirardi.

Temuriylar davlati siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksak darajada rivojlangan edi. Temur mamlakatni, xususan, uning negizi bo'lgan Movarounnahrni yanada obod qilishga katta ahamiyat berdi. Shaharlarda ulkan qurilishlar olib borildi. Hashamatli saroylar, masjid-madrasalar, karvonsaroylar, yo'llar, ko'priklar, sardobalar¹, hammomlar barpo etildi. Shular qatorida kasalxona, shifoxona² va dorixonalar ham qad ko'tardilar.

Iqtisodiy jihatdan mamlakatda ichki bozor va tashqi savdo keng ko'lamda rivoj topdi. Bunday siyosiy va iqtisodiy yuksalish o'z navbatida madaniy rivojlanishni taqozo qildi. Mamlakatda ilm-fan, san'at va adabiyot yuksaldi. Yirik olimlar, faylasuflar, san'at va adabiyot namoyandalari yetishib chiqdilar. Shular qatorida yaxshi tajribaga ega bo'lgan hakimlar bor edi. O'sha davrda fanning hamma sohaları qatorida tibbiyot ilmi ham yuksaldi. Madrasalarda boshqa dunyoviy bilimlar qatorida tibbiyot ilmi ham o'qitila boshladi.

Temur olim va fozillarni qo'llab-quvvatlardi. Ularga hurmat bilan qarardi. Ayniqsa, turmush uchun foydali fanlarning rivojlanishiga katta ahamiyat berardi. Xususan, ilmi nujum (astronomiya), riyoziyot, tarix va tibbiyotga ko'proq e'tibor berardi. Ma'lumotlarga ko'ra Temur o'zi zabt etgan mamlakatlardan Samarqandga faqat qimmatbaho zebziyatlarga emas, shu bilan birga nodir kitoblarni ham olib kelarkan. Bu haqda taniqli tarixchi S.Fenyutin bunday, deb yozgan: "Temur o'zi zabt etgan mamlakatlarda ilm-fanga dahldor bo'lgan narsalarni yo'q qilgan emas, balki ularni ehtiyotkorlik bilan asrab-avaylagan". Temurning ilm-fanga qanchalik katta ahamiyat bergani shundan ma'lumki, uning farmoni bilan Samarqand saroyida kitoblar saqlash uchun maxsus bino ("Kitob

¹ Usti baland gumbaz bilan berkitilgan suv ombori, hovuz.

² Bu yerda "Shifoxona" so'zi kasallar qatnab davolanadigan joy (ambulatoriya) ma'nosida ishlatildi.

gumbazi") qurilgan edi. Bu "Gumbaz" (kutubxona)da ko'p nodir asarlar saqlangan. Kitoblar har kimning qo'liga tushib, yo'qolib yo'q bo'lib ketmasligi uchun Temur maxsus farmon chiqarib, kitoblar faqat shu yerning o'zida o'qilishi kerak, ularni qo'lga berib yuborish mumkin emas, deb ta'kidlab qo'ygan ekan. "Kitob gumbazi"da ko'p sonli olimlar xizmat qilganlar. Ular qo'lyozmalarni o'rganish va ularga sharh yozish bilan shug'ullanganlar. Ular qatorida mashhur hakimlar ham bo'lganlar. Biz kitob gumbazida xizmat qilgan hakimlar ro'yhatida quyidagilarning ismlarini uchratdik. Mavlono Fazlulloh Tabriziy, Mavlono Mansur ibn Muhammad Yusuf, Mavlono Xisomiddin Ibrohim Kermoniy. Ma'lumotlarga ko'ra Mavlono Fazlulloh Tabriziy Temurning shaxsiy tabibi bo'lgan.

Temur mamlakat obodonchiligi va aholi sog'lig'iga alohida ahamiyat bergan. Bu haqda Temurning o'zi yozgan yoki aytib turib yozdirgan "Temur tuzuklari" ("Temur qonun-qoidalari") nomli mashhur kitobda bunday deyilgan: "Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa holisa¹ tomonidan obod qilinsin. Ularda karizlar² qurulsin, buzilgan ko'priklar tuzatilsin, katta ariqlar va daryolar ustiga ko'priklar qurilsin, yo'l ustida har bir manzilgohda robotlar barpo etilsin".

"Temur tuzuklari"da kasalxonalar va g'aribxonalar barpo etish ham ko'rsatilgan. Bu haqda "Tuzuklar"da bunday deyilgan: "Men yana amr etdimki, katta-kichik har bir shaharda masjid-madrasa va xonaqoh bino etsinlar, faqir-u miskinlarga langarxonalar³ solsinlar. Kasallar uchun shifoxonalar qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlansin"⁴.

Temurning buyruq va farmonlari vojib bo'lgan, ular so'zsiz bajarilgan. Demak, Temur zamonida O'zbekiston hududida har bir shaharda kasalxona va shifoxonalar bo'lgan. Samarqandning o'zida "Dor ush-Shifo", deb ataluvchi katta kasalxona bo'lgan. Temur unga boshliq qilib, o'sha vaqtdagi mashhur hakimlardan biri bo'lgan Mir Sayyid Sharifni tayinlagan. Bu hakim asli Jurjonlik bo'lgan va Temurning taklifi bilan Samarqandga ko'chib kelgan.

"Dor ush-Shifo"da yana bir ko'zga ko'ringan hakim — Mansur ibn Muhammad Yusuf ishlagan. Bu olim "Kitob gumbazi"da saqlanayotgan tibbiy kitoblarning ko'piga sharh yozgan. O'zi ham bir nechta kitob tasnif etgan. Bizga bu muallifning "Odam gavdasining tuzilishi", "Mansurning to'liq to'plami", va "Giyosiya" nomli asarlari ma'lum.

¹ Holisa — davlat ishlari bilan shug'ullanuvchi oliy mansabdorlar hay'ati.

² Yer osti kanallari, quduqlar.

³ Kambag'al yetim-yesirlarga ovqat tarqatiladigan joy, g'aribxona.

⁴ Temur tuzuklari, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1991, 111-bet.

"Odam gavdasining tuzilishi" kirish qism, 4 bob va xotimadan iborat. Kirish qismida odam gavdasining tuzilishi haqida umumiy ma'lumot berilgan. So'ng 4 bobda suyaklar, mushaklar, qon tomirlari va asab tomirlari bayon etilgan. Xotimada ayrim a'zolar haqida ma'lumot berilgan.

"Odam gavdasining tuzilishi" kitobining ikki qo'lyozma nusxasi Sharqshunoslik institutining nodir qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

"Mansurning to'liq to'plami"da kishi salomatligini saqlash, kasalliklarning sabablari, bemorga tashxis qo'yish va davolash masalalari bayon etilgan. Turli kasalliklarda ishlatiladigan dorilar ham ko'rsatilgan.

"Giyosiya" haqida yetarli ma'lumot yo'q. Ma'lumotlarga ko'ra kitobning bir nusxasi Kalkutta shahridagi kutubxonada saqlanar ekan.

Temur "Dor ush-Shifo"da xizmat qiluvchi hakimlarga yaxshi maosh to'lagan. Uning buyrug'i bilan hakimlarning maoshi munajjimlar, tarixchilar va huquqshunoslarning maoshlariga tenglashtirilgan. Temur tabiblarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lgan. Ularga hurmat bilan qaragan. Bu haqda Temurning o'zi bunday, deb yozgan: "Men olim va tabiblar bilan yaxshi munosabatda bo'ldim. Tabiblarda kasal navkarlarimni davolatdim!". Bundan kelib chiqadiki, Temur qo'shinlarida kasallangan va jarohatlangan navkarlarni davolovchi hakimlar bo'lgan.

Temur aholi o'rtasida har xil ommaviy kasalliklar tarqalmasligiga alohida ahamiyat bergan. Buning uchun shaharlarni va boshqa aholi yashaydigan joylarni ozoda saqlash, xalqni yaxshi sifatli toza suv bilan ta'minlash choralarini amalga oshirgan. Ozodalikga rioya qilmagan va ko'cha-ko'ylarga axlat tashlab, ularni iflos qilgan kishilarni jazolagan. Suvni toza saqlash uchun yopiq tipdagi suv quvurlari qurdirgan. Shaharlararo yo'llarda sardobalar barpo ettirgan. Samarqand va Toshkent yaqinidagi Shohruhiya shaharlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar vaqtida bunday inshootlar ko'p topilgan.

Temur vafotidan so'ng ham bir qancha vaqt mamlakatda obodonchilik ishlari davom ettirildi. Uning o'g'il va nabiralari o'z bobolarining mamlakatni ulug'lash ishlarini davom ettirdilar. Bu ish ayniqsa, Temurning yuksak iste'dod egasi bo'lgan nabirasi Ulug'bek podshohlik qilgan davrda ayniqsa rivoj topdi. Mamlakatda buyuk qurilishlar olib borildi. Maktab, madrasa va kasalxonalar barpo etildi.

Ulug'bek olim va fozillarni doim qo'llab-quvvatlardi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Ulug'bekning o'zi boshqa fanlar qatorida tibbiyotga ham qiziqqan. U tibbiyotga oid kitoblarni ko'p o'qigan. Mashhur tarixchi V.V. Bartoldning yozishicha Ulug'bek Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari kitobi"ni juda sinchiklab o'qib chiqqan ekan. U umuman sog'liqni saqlash

¹ Temur tuzuklari, Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T., 1991, 111-bet.

ishlari va tibbiy fanlarning rivojlanishiga katta ahamiyat bergan. Samarqandda katta kasalxona qurdirgan. Unga boshliq qilib, o'sha vaqtda ko'zga ko'ringan hakimlardan biri bo'lgan Burhoniddin Nafis ibn Avaz Kermoniyini tayinlagan. Bu hakim Ulug'bekning shaxsiy tabibi bo'lgan.

Burxoniddin Nafis ibn Avaz Eronning Kermon shahrida tavallud topgan. O'sha yerda bilim olib, yaxshi hakim bo'lib yetishgan. Kasallarni muvaffaqiyatli davolab, aholi o'rtasida ko'p hurmatga sazovor bo'lgan.

Nafis ibn Avaz chuqur bilimli olim va yaxshi tajribali hakim edi. U Ulug'bek madrasasida talabalarga tib ildidan dars bergan. Binobarin, madrasada boshqa bilimlar qatorida tib ilmi ham o'qitilgan. Nafis ibn Avaz tibbiyot ilmining turli sohalariga oid bir nechta kitob yozgan. Ammo, ularning ko'pi bizgacha yetib kelmagan. Bizga bu olimning XIII asrda yashagan mashhur hakim Najibuddin Samarqandiyning "Kasalliklarning sabablari va alomatlari" nomli kitobiga yozgan sharhi ma'lum, xolos. Bu sharh 1424-yilda yozilgan bo'lib, u "Kasalliklarning sabablari va alomatlariga sharh", deb atalgan. Muallif kitobni Ulug'bekka bag'ishlagan va unga taqdim etgan. "Sharh"da Ibn Avaz Najibuddin Samarqandiy kitobining mazmunini tushunarli qilib bayon etgan va uning qiyin joylarini izohlab bergan. Nafis ibn Avaz O'zbekistonda tibbiyot ilmining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan.

Samarqandda o'sha davrda Tojiddin Hakim ismli mashhur jarroh ham yashagan. U murakkab operatsiyalarni ham bajara olgan. Masalan, ko'z kataraktasini juda muvaffaqiyatli operatsiya qilgan. Tojiddin Hakimning jarrohlik faoliyatidagi muhim tomonlaridan biri shuki, u operatsiya qilinayotgan joyga tashqaridan yiring paydo qiluvchi ko'zga ko'rinmas tirik mavjudotlar (hozirgi tilda mikroblar) tushishi mumkinligini bilgan va unga qarshi tadbir ko'rgan. Chunonchi, operatsiyada ishlatiladigan asbob va qurollarini olovda qizdirib olib (mikroblarni o'ldirib), so'ng ulardan foydalangan. Bu hozirgi tilda aseptika deyiladi. Operatsiya vaqtida esa piyozni mayda qilib to'g'ratib qo'yib, unga tez-tez qo'lini botirib turgan. Buni antiseptika deyish mumkin. Ma'lumki, piyozda mikroblarni yo'q qiluvchi fitonsidlar bor. Tojiddin Hakim mikroblarni ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa ham (u vaqtda hali mikroskop kashf etilmagan edi) atrof-muhitda yiring paydo qiluvchi mikroblar borligini fikran bilgan. Tojiddin Hakimni aseptika va antiseptikaning asoschisi deb atash mumkin. Ingliz jarrohi Lister esa bu usulni Tojiddin Hakimdan 400 yil keyin ishlab chiqqan edi. Afsuski, u tibbiyot tarixiga aseptika va antiseptikaning asoschisi sifatida kirib qolgan.

Temuriylar davridagi tibbiyot XV asrning ikkinchi yarmida juda yuksak darajaga ko'tarildi. Bu davrda mamlakatda temuriylardan bo'lgan Husayn Boyqaro podshoh bo'lgan. U o'qimishli, bilimdon shoh edi. Har xil fanlarga qiziqqan, olim va fozillarni qo'llab-quvvatlagan. Boyqaroning

saroyida xizmat qilgan olimlar qatorida hakimlar ham bo'lgan. Shulardan bizga quyidagilar ma'lum: Ne'matullo ibn Faxriddin Kermoniy, Abdulhay Ziyoradgohiy, Muhammad Husayn ibn Mirquvomiddin va b.

Ne'matullo ibn Faxriddin Kermoniy o'z davrining ko'zga ko'ringan hakimlaridan biri bo'lgan. U Kermon shahrida tavallud topgan va o'sha yerda o'qib tabiblik kasbini egallagan. Hakim Kermoniy Husayn Boyqaroning taklifi bilan Xirotda kelib, bu yerda saroy tabibi vazifasida xizmat qilgan. Kermoniy hakim, olim, faylasuf bo'lgan. Badiiy adabiyotga ham qiziqqan. "Hakimiy" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Ammo, asosiy kasbi tabiblik edi. Bizga hakim Kermoniyning tibga oid "Bahr al-Havvos" ("Hosiyatlar dengizi") nomli asari ma'lum. Kitob kirish qism, uch bob va xulosadan iborat. Kirish qismida har xil o'simlik va minerallardan olinadigan dorilar, foydali hayvonlar va qushlar bayon etilgan. Dorilarning nomi uch tilda – arab, fors va turkiy tilda berilgan.

Kitobning birinchi bobida sodda dorilar, ularning xossalari va ishlatish usullari bayon etilgan. Ikkinchi bob murakkab dorilarga bag'ishlangan. Bunda murakkab dorilarni tayyorlash, saqlash va ishlatish usullari ko'rsatilgan. Uchunchi bobda qaysi kasallikda qanday dori qo'llanishi tushuntirilgan. Shu bobda har xil ovqat mahsulotlaridan dori sifatida foydalanish ham ko'rsatilgan. Kitobning xulosasida tibbiy atamalar berilgan.

Abdulhay Ziyoratgohiy va Muhammad Husayn ibn Mirquvomiddin haqida yetarli ma'lumot yo'q.

Ma'lumki, Husayn Boyqaroning bosh vaziri Alisher Navoiy edi. U ko'p jihatdan tibbiyotga yaqin kishi bo'lgan. O'zi ham tibbiyotni yaxshi bilgan. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha Navoiy tabiblik kasbi bilan shug'ullanmagan bo'lsa ham tibbiy bilimdan yaxshi xabardor bo'lgan. Navoiy Samarqandda mashhur olim Fazlulloh Abulaysiy (Abu Lays) rahbarlik qilgan madrasada tahsil olgan. Bu olim tibbiyot sohasida ham chuqur bilimga ega bo'lgan. U Navoiyning ustozini hisoblanadi. Binobarin, Abulaysiy Navoiyga boshqa bilimlar qatorida tibbiyotdan ham ta'lim bergan bo'lishi mumkin.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek o'sha davrda madrasalarda boshqa fanlar qatorida tibbiyot ilmi ham o'qitilgan. Binobarin, Navoiy madrasani tugatganida tibbiyot fanidan ham bilimga ega bo'lib chiqqan. Tarixiy dalillar shuni ko'rsatadiki, Navoiy tibbiyotni juda qunt bilan o'rgangan va bu sohada o'z mulohaza va fikrlariga ega bo'lgan. Navoiy tibbiyot, sog'liqni saqlash masalalari va tabiblar haqida juda to'g'ri fikr yuritgan. Navoiyning bu masalaga oid fikrlari uning mashhur asari "Mahbub ul-qulub" ("Sevgili qalblar")da o'z ifodasini topgan. Bu kitobda Navoiy tibbiyot va tabiblar masalasiga maxsus bob (15-bobni) bag'ishlagan. Kitob Navoiy hayotining so'nggi davrida yozilgan. Bu vaqtga kelib, shoir juda katta hayotiy va ilmiy tajriba orttirgan edi. Kitobda shular umumlashtirilgan. Xususan, unda

Navoiyning siyosiy, ijtimoiy va axloqiy qarashlari bayon etilgan. Navoiyning dunyoqarashi va hayotga bo'lgan munosabati insonparvarlik, adolat, odam haqida g'amxo'rlik qilish, salomatlik va xalq farovonligiga asoslangan edi. Shuning uchun kitobda tibbiyot va tabiblar haqidagi masala yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Kitobda Navoiy inson salomatligi va tabiblar haqida so'z yuritib, dastlab tabibning o'zi qanday fazilatlariga ega bo'lishi lozim, degan masalaga to'xtaladi. Navoiyning ta'kidlashicha, tabibda birinchi galda bu kasbga qobiliyat va intilish bo'lmog'i lozim. U o'z kasbini a'lo darajada egallashi kerak. Bundan tashqari tabibda kishilarga nisbatan jonkuyarlik, mehribonlik va samimiylik bo'lishi shart. U muloyim so'z, ochiq ko'ngil va kamtarin bo'lmog'i darkor. Bundan ko'rinib turibdiki, Navoiy tabiblar oldiga juda mas'uliyatli talablar qo'ygan. Navoiyning ta'kidlashicha kishilar tabiblarga o'zlarining eng bebaho boyliklarini — ya'ni hayotlarini ishonib topshiradilar. Tabiblar bu ishonchga munosib bo'lishlari kerak. Tabiblar bu bebaho boylikni qadrlashlari lozim. Yana Navoiy ta'kidlaydiki, tabibning eng yuksak vazifasi bemorni hastalik azoblaridan forig' qilishdir. Buning uchun tabib yetarli bilim va tajribaga ega bo'lishi shart, tabib doim o'z bilimi va tajribasini orttirib takomillashtirib borishi zarur. Bu haqda Sharqning buyuk hakimlaridan biri Abu Bakr Roziy bunday deb yozgan edi: "Tibbiyot ilmi juda ko'p asrlar davomida rivojlanib, takomillashib bordi. Bunda minglarcha tabiblarning xizmati bor. Shuning uchun kimki, ularning asarlarini qunt bilan o'qib, ularning mohiyatini anglab olsa, u ko'p yillar kasallar ortidan yugurib, orttirgan tajribalaridan ko'ra ko'proq narsani bilib oladi. Chunki, bir kishi, u hatto ming yil umr ko'rsa ham, o'zidan oldin o'tgan donishmandlarning tajribalaridan bexabar bo'lsa, faqat o'z kuzatishlari bilan tibbiyot ilmini yetarli darajada egallay olmaydi". Navoiy ham shunga ishora qilib, tabiblik kasbini egallamoqchi bo'lgan har bir kimsa o'tmishdagi bu soha donishmandlarining asarlarini qunt bilan o'rganishi va ularga amal qilishi zarurligini uqtiradi. Shunday qilib, bu masalada Roziy bilan Navoiyning fikrlari bir-biriga mos keladi.

Alisher Navoiy har bir tabib uchun juda zarur bo'lgan xislatlardan shirinso'zlik va xushmuomalalikni alohida ta'kidlaydi. Navoiyning uqdirishicha, shirinso'zlik va xushmuomalalik bemorga madad bag'ishlab, unda kasallikdan qutilish umidini oshiradi. Bu esa eng yaxshi davodir. Navoiy o'zi tabib bo'lmasa ham, tabiblar faoliyatidagi bu nozik tomonni yaxshi tushungan. Bu haqda Navoiyning o'zi bunday, deb yozgan: "Xushmuomala va mehribon tabibning yuzi hastalar ko'nglida sevimlidir. So'zi esa bemorlar joniga yoqimlidir. Uning har bir nafasi bemorlarga davo, har bir qadami esa hastalarga shifodir".¹

¹ Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, Toshkent, "Fan", 1983. 25-bet.

Demak, Navoiy bemorni faqat dori bilan davolab bo'lmashligini, uning ruhiga ham ta'sir qilish kerakligini bilgan. Navoiyning ta'kidlashicha bemorga hadeb, har xil dori berilaversa-yu, lekin uning ko'nglini ranjitib, salbiy ta'sir etilsa u tuzalmaydi. Bu haqda Navoiy bunday, deb yozgan: "Tabib o'z kasbiga mohir bo'lsa-yu, ammo, o'zi badfe'l, qo'polso'z bo'lsa, bemorni har qancha muolaja qilganida ham, baribir uning ahvolido o'zgarish paydo qilolmaydi. Afsuski, bunday tabiblar oz emas".¹

Tibbiyot ilmini yaxshi o'zlashtirib olmagan, tajribasiz tabiblarni Navoiy jallodga o'xshatadi. Bu haqda u bunday, deb yozgan: "Tabobat ilmini yaxshi bilmaydigan tabib xuddi jallodning shogirdi kavidir. U tig' bilan o'ldirsa, bu zahar bilan azoblaydi. Shubhasiz, jallod bunday tabibdan yaxshiroqdir. Zero, u gunohkorni o'ldiradi. Bu esa begunohlarni halok qiladi. Hech bir gunohkor jallod qo'lida xor bo'lmasin, hech bir begunoh kasalmand bunday tabibga zor bo'lmasin".

Navoiy tabiblar haqidagi o'z fikr-mulohazalarini umumlashtirib, bunday bayt aytgan:

*Tabibi hoziq xushgo'y tan ranjig'a shifodir,
Omayin, tund-u badxo'y el jonig'a balodir.*

Mazmuni: *Shirin so'zli mohir tabib tan hastasiga shifodur
Badfe'l qo'pol va nodon tabib el joniga balodur.*

Navoiy "Mahbub ul-qulub" va boshqa asarlarida tibbiyot, salomatlik va tabiblar haqida ko'p baytlar aytgan. Bu misollar shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy tibbiyot bobida ancha chuqur fikr-mulohazalarga ega bo'lgan. Uni tibbiyot bilimdoni, deb atash mumkin.

Navoiy salomatlik haqida so'z yuritar ekan, ichkilikbozlikning kishi salomatligiga zarar keltirishini ham ko'rsatib o'tgan. U, muttasil ichish sog'likni kemiradi, deb yozgan. Navoiy sharobni zaharga qiyos qiladi. Umuman Navoiy ichkilikbozlik, giyohvandlik va buzuq ishlar bilan shug'ullanuvchilarni aslo yoqtirmagan. Bunday ishlar sog'liqni kemiruvchi balo ekanligini ko'p marta ta'kidlagan.

Navoiy yana bir yomon odatni — badxo'rlikni ham yoqtirmagan. Uni kasallikka olib keluvchi sabablardan biridir, deb bilgan. Shoir buni obrazli qilib — "badxo'r odam ovqatni emas, balki ovqat uni kemiradi", deydi.

Alisher Navoiy salomatlikni saqlash masalasiga o'tib, birinchi galdagi ovqatlanish tartibi va ozodalik qoidalariga rioya qilish kerakligini ta'kidlaydi. U sog'lom bo'lish uchun kishi o'z uy-joyi, kiyim-kechagi va tanasini ozoda saqlashi, tez-tez hammomga tushib turishi zarurligini eslatadi. Navoiy zamondoshlarining yozishlaricha shoirning o'zi odatan nozik, pok, zukko odam bo'lgan. Doim ozoda kiyinib yurgan. Bu haqda Zahiriddin

¹ Alisher Navoiy, Mahbub ul-qulub, Toshkent, "Fan", 1983. 25-bet.

Muhammad Bobur bunday, deb yozgan: "Alisherbek mizoji nozuk birla mashhurdir, bu sifat unga jibiliy (nasliy) ekandur".¹

Navoiy mamlakatda tibbiyot ilmi va sog'liqni saqlash ishlarining rivojlanishiga juda katta hissa qo'shgan. Tibbiy muassasalar ochish va ularni rivojlantirish ishiga rahbarlik qilgan. Yaxshi bilim va tajribali hakimlar yetishtirish masalasiga alohida ahamiyat bergan. Xususan, madrasalarda tibb ilmini o'qitish va maxsus tibbiy maktablar ochish ishiga shaxsan boshchilik qilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda Navoiy faqat tashabbuskor bo'libgina qolmay, u o'z mablag'larini ham sarflagan. Masalan, o'ziga qarashli yerlardan tushadigan daromadlarning bir qismini kundalik xarajatlar uchun olib qolib, qolganini shu qurilishlarga sarf qilgan.

Mamlakatning o'sha vaqtdagi poytaxti Xirotda shahrida ayniqsa katta qurulish ishlari olib borilgan. Bu yerda barpo etilgan binolar qatorida kasalxona va shifoxonalar ham bo'lgan. Ularda bilimdon va tajribali hakimlar xizmat qilganlar. Ba'zi kasalxonalar qoshida maxsus tibbiy maktablar ham bo'lgan. Navoiy madrasa va tibbiy maktablarda xizmat qiluvchi olim va hakimlar haqida doim g'amxo'rlik va homiylik qilib turgan. Bu haqda mashhur tarixchi Xondamir (Giyosiddin ibn Humomiddin) o'zining "Makorim ul-axloq" nomli kitobida bunday deb yozgan: "Navoiy zafarli sohibqiron (Husayn Boyqaro) ning podshohlik davrida atoqli olimlar va hurmatga loyiq fozil kishilarning darajalarini yuksaltirish va martabalarini oshirishga qo'lidan kelganicha sa'yi harakat qildi. Talabalarning tinch va tashvishsiz ilm olishlari uchun ularga nafaqalar belgilab, madrasa va xonaqohlar bino qildi".²

1480—1482-yillarda Alisher Navoiyning shaxsan tashabbusi bilan uning sarmoyasiga Xirotda maxsus tibbiy majmua (kompleks) barpo etildi. Bu majmua "Shifohiya" nomli kasalxona, "Ixlosiya" nomli madrasa va "Safohiya" nomli hammomdan iborat edi. "Shifohiya" qoshida tibbiy maktab ham bo'lgan. Bu majmua haqida Xondamir bunday ma'lumot bergan: "Bu binolar shahar chekkasida, Injil kanali bo'yidagi ko'rkam va bag'oyat bahavo joyda qurilgan. Jomiy madrasasining janub tarafida bag'oyat latofat va nazokat bilan "Shifohiya" qurilgan. O'sha jannatmisol binolar oralig'ida kavsar misol bir hovuz ham qurilgan bo'lib, Xizrnaqom hakimlar hamda Isodamlik tabiblar doimo g'ariblar va bemorlarni muolaja qilish bilan mashg'uldirlar".³

Tibbiy majmuaga hammomning kiritilgani tasodifiy emas. Hammomga faqat odamlar yuvinadigan joy emas, shu bilan birga salomatlikni

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", Toshkent, "Fan", 1983-y, 25-26-b.

² Xondamir, "Makorim ul-axloq". G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, "Fan", 1967-y, 40-b.

³ Xondamir, "Xulosat ul-axbor". "Fan". Sh. I. Qo'lyozma, inv. Nr.5366., 543 s.

mustahkamlovchi omil ham, deb qaralgan. Hammomda ba'zi muolaja usullari ham amalga oshirilgan. Masalan, qo'l oyoq bo'g'imlaridagi og'riqni davolash uchun ularni issiq suv bilan bug'lab, so'ng u yerga kerakli dori surtganlar. Hammomlarda maxsus uqalovchilar (massajistlar) xizmat qilganlar.

Xirotdagi Shahristonda maxsus kasalxonaga bo'lgan. Uni "Dor ush-shifo" ("Davo maskani") deb ataganlar. Bu kasalxonada saroy amaldorlari davolanganlar. Husayn Boyqaro kasalxonaga boshliq qilib, o'sha vaqtdagi yuksak bilimli va yaxshi tajribali hakim Mavlono Darvesh Alini tayinlagan. Bu kasalxonaga ham Navoiy homiylik qilgan.

"Dor ush-shifo" o'sha vaqtdagi sharq arxitekturasi usulida ikki qavatli bino-madrasa sifatida qurilgan. Kasalxonaning hovlisi va uning atroflariga har xil manzarali daraxtlar ekilgan. Hovlidagi ariqlardan doim muzdek, tiniq, toza suv oqib turgan. Boshqa kasalxonalarni qurishda ham o'sha vaqtdagi arxitektura qoidalariga rioya qilingan. Bunda kasalxonaga quriladigan joyni tanlashga alohida ahamiyat berilgan. Ular bahavo va ko'rkam joylarda, katta ariq va kanallarga yaqin yerda, kushxona va har xil chiqindili korxonalardan uzoqroqda barpo etilgan. Kasalxonaga binosi ayrim hujralar (palatalar), tabiblar uchun alohida xona, oshxona va boshqa yordamchi xonalardan iborat bo'lgan. Bemorlar hujralarda kasallik xiliga qarab joylashtirilgan. Masalan, ko'z kasalliklari hujrasi, jarrohiy kasalliklar hujrasi, ichki kasalliklar bilan og'riq bemorlar hujrasi bo'lgan. Marv shahridagi kasalxonada maxsus ruhiy kasalliklar bo'limi ham bo'lgan.

Kasalxonalarda davolash ishlari yuqori darajada olib borilgan. U yerlardagi tabiblarning bilimi va tajribasi ancha yuqori bo'lgan. O'sha vaqtdagi jarrohlar ham mahoratli bo'lganlar. Biz yuqorida shunday mahoratli tabib Tojiddin Hakimni ko'rsatib o'tgan edik. Navoiy zamonida ham shunday zo'r mahoratli jarrohlar bo'lgan. Masalan, Shayx Husayn ismli bir jarroh 18 joyidan pichoq yegan navkarni operatsiya qilib, sog'aytirib yuborgan.

"Shifohiya" va "Dor ush-Shifo" da ishlash uchun Navoiy mamlakatning ko'p shaharlaridan eng tajribali va yuksak bilimli hakimlarni tanlab olgan. Ular bemorlarni davolash bilan birga shu yerdagi tibbiy maktabda talabalarga tibbiyotdan dars ham berganlar. Shulardan, Muhammad Mo'in, Qutbiddin Odin, G'iyosiddin Muhammad, Darvesh Ali, Abdulhay Tuniy, Nizomiddin Abdulhay, Sulton Murod, Shayx Husayn, Shomiy Tabib, hamda Muhammad ibn Yusuf al-Haraviy ayniqsa shuhrat qozonganlar.

Muhammad Mo'in zamonasining ko'zga ko'ringan hakimlaridan bo'lgan. U tashxis masalasida yaxshi tajribaga ega edi. Bu olim "Shifohiya" kasalxonasida xizmat qilgan va tibbiy maktabda talabalarga dars bergan.

Olim o'zining chuqur bilimi va katta tajribasi bilan kasallar orasida zo'r hurmatga sazovor bo'lgan. Bu tabibda saroy amaldorlari ham davolanganlar.

Qutbiddin Odim o'sha vaqtda yashagan yirik hakimlardan biri bo'lgan. Bu olimning shuhrati shu qadar yuksak bo'lganki, uni Sharqning Galeni, deb atashgan. Alisher Navoiy bu hakimga alohida e'tibor bilan qaragan. Uning xizmatiga yuksak baho bergan. Qutbiddin Odim ham "Shifohiya" kasalxonasida xizmat qilgan.

G'iyosiddin Muhammad (G'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin) "Shifohiya" kasalxonasining rahbari bo'lgan. Shu kasalxona qoshidagi tibbiy maktabda talabalarga tibbiyotdan dars ham bergan.

G'iyosiddin Muhammad ko'pqirrali olim bo'lgan. U tibbiyotdan tashqari boshqa tabiiy fanlar bilan ham shug'ullangan. Badiiy adabiyotga ham qiziqqan, she'rlar yozgan. Alisher Navoiy bu olimning bilimi va amaliy tabiblik faoliyatiga yuksak baho bergan.

G'iyosiddin Muhammad haqida Xondamir bunday, deb yozgan: "Olimning chehrasi turli ilm va fazilatli fanlar bilan bezatilgan. Ayniqsa sharofatli tib ilmida zo'r mahorat hosil qilgan. Ko'p vaqt bo'ldiki, Navoiy hazratlarining "Dor ush-Shifosi"da amaliy tib kitoblaridan dars berish va bemorlarni davolash bilan mashg'uldir".¹ G'iyosiddin Muhammad O'zbekistonda tib ilmining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan.

Darvesh Ali chuqur bilim va katta tajribaga ega bo'lgan hakim. O'sha davr tarixchilarining yozishlaricha, u kamtarin, xushfe'l va yoqimtoy kishi bo'lgan. Darvesh Alida shoirlik iste'dodi ham bor edi. U o'zining ba'zi tibbiy asarlarini nazm bilan yozgan. Lekin, Darvesh Ali hakim sifatida shuhrat qozongan. Bu kasbni juda mukammal bilgan. Tashxis va muolaja usullarini takomillastirgan. Navoiy Darvesh Ali haqida bunday, deb yozgan: "Mavlono Darvesh Ali tabobatga mashg'uldir. Bu fanning hoziq mohirlari aning tab'ini ta'rif qiladurlar".

Darvesh Ali Shahristondagi "Dor ush-shifo" kasalxonasiga rahbarlik qilgan va shu yerda talabalarga tibbiyotdan dars bergan.

Abdulhay Tuniy o'sha davrdagi tajribali hakimlardan biri bo'lgan. Bu olim o'tkir zehni va zo'r qobiliyatli edi. Ammo, sharob ichishga berilib ketib, tibbiyot olamidani uzoqlashib qolgan.

Nizomiddin Abdulhay o'z davrining chuqur bilimli va yaxshi tajribali hakimlaridan hisoblangan. Manbalarda aytilishicha, Nizomiddin Abdulhay Navoiyning shaxsiy tabibi hisoblangan va shoir bilan juda yaxshi munosabatda bo'lgan. Ba'zi manbalarda esa aksincha, u Navoiyga nisbatan g'arazli bo'lgan, deb yoziladi.

Mavlono Sulton Murod juda chuqur bilim va tajribaga ega bo'lgan. Kasallarni muvaffaqiyatli davolagan. Sulton Murodga eng yuqori bahoni

¹ Xondamir, Xulosat ul-axbor. "Fan". Sh.I.qo'lyozma, inv. Nr.5366., 531-b.

Abdurahmon Jomiy bergan. Shoir Sulton Murodni zamonamizning Ibn Sinosi, deb atagan.

Shayx Husayn (Husayn Jarroh) juda mohir jarroh bo'lgan. U murakkab operatsiyalarni ham qila olgan. Shuni alohida ko'rsatib o'tish kerakki, Shayx Husayn o'sha davridayoq operatsiya qilishda og'riqsizlantirish usulini qo'llagan. Ikkinchidan operatsiya qilingan joyni qo'y ichadigan tayyorlangan ip (ketgut) bilan tikkan. Keyinroq bu usulni Ovrupo hakimlari ko'p ishlata boshladilar.

Shomiy Tabib ham yaxshi bilim va tajribaga ega bo'lgan. Kasallarni muvaffaqiyatli davolagan. Navoiyning ko'rsatishicha Shomiy Tabib dastlab ruhoniylar bo'lishga tayyorlangan. Lekin, tibbiyotga qiziqib qolib, bu kasbni yaxshi egallab olgan.

Muhammad ibn Yusuf al-Haraviy o'sha davrning mashhur hakimlaridan bo'lgan. Yaxshi bilim va tajribaga ega edi. O'zi juda kamtarin va kambag'alparvar bo'lgan. Sarmoyasi yetarli bo'lmagan kambag'al bemorlarni bepul davolagan.

Muhammad Haraviy tibga oid bir necha kitob yozgan. Bizga uning "Ayn al-hayot" ("Hayot bulog'i"), "Bahr al-javohir" ("Javohirlar dengizi") kabi asarlari ma'lum. Bu kitoblar nazariy va amaliy tibbiyotning muhim masalalariga bag'ishlangan.

"Hayot bulog'i"da muallif kasallarga tashxis qo'yish va ularni davolash masalalarini bayon etgan.

"Javohirlar dengizi"ni tibbiyot lug'ati, deb atash mumkin. Bu asarda muallif o'zidan ilgari o'tgan hakimlar haqida ma'lumot bergan.

O'sha davrda Movarounnahr va Xurosonda yuqorida sanab o'tilgan hakimlardan boshqa taniqli tabiblar ham ko'p edi. Ammo, ularning hammasi haqida ma'lumot berish imkoniyatiga ega emasmiz.

Hozirgi O'zbekiston hududidagi shahrlarda o'sha davrda mustaqil dorixonalar ham bo'lgan. U yerda tabiblarning retsepti bo'yicha bemorlarga dori tayyorlab berilgan. Shunday dorixonalardan biri haqida Navoiy bunday ma'lumot beradi: "Xirotda Hoji Ali ibn Kermoniy ismli dorishunos yashaydi. Uning dorixonasi bor. U o'z kasbiga juda mas'uliyat bilan qaraydi, dorilarni mohirlik bilan tayyorlaydi".

Alisher Navoiy bosh vazir va o'z zamonasining eng ilg'or kishisi sifatida mamlakatda hamma bilimlar, shu jumladan tibbiyot ilmining ham ravnaq topishi uchun ko'p mehnat sarf qildi. Uning ko'rsatmalari va bevosita ishtiroki bilan ko'plab shifoxonalar, kasalxonalar va tibbiy maktablar barpo etildi, ko'p bilimdon tajribali hakimlar yetishtirildi. Tibbiyot ilmi o'z davri darajasida rivoj topdi. Ammo, bu sohada hamma ish ko'ngildagidek edi, deb bo'lmaydi. Shifoxonalar unchalik ko'p emas edi. Ular ko'proq katta shaharlarda joylashgan edilar. Shuning uchun aholi, xususan mamlakat aholisining ko'pchiligini tashkil etgan qishloq

aholisi tibbiy yordam bilan to'liq ta'min etilmagan edi. Mamlakatda har xil ommaviy kasalliklar tarqalib turardi.

Temuriylar avlodining namoyandalaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur edi. U juda o'qimishli, bilimdon shoh bo'lgan. Har xil fanlarga qiziqqan. Ayniqsa, badiiy adabiyotni juda sevgan, jo'shqin she'rlar yozib, shoir sifatida ham tanilgan.

Bobur fan ahllarini qo'llab-quvvatlagan. Ularga saroydan joy berib, yaxshi maosh to'lagan. Boburning saroyida xizmat qilgan olim va fozillar orasida chuqur bilimli va o'tkir tajribali hakimlar ham bo'lgan. Shulardan biri mashhur Yusuf ibn Muhammad edi. Bu hakim Alisher Navoiyning tibbiy kompleksida xizmat qilgan Muhammad ibn Jusuf al-Haraviyning o'g'li bo'lgan.¹

Yusuf ibn Muhammadni ko'pincha oddiygina qilib, "Yusuf tabib" deb atashgan. Yusuf tabib yaxshigina shoir ham bo'lgan. Ko'pgina tibga oid asarlarini nazm bilan bayon etgan.

Yusuf tabib bilim va tabiblik kasbini dastlab otasidan o'rgangan. So'ng o'zi mustaqil tibbiy kitoblarni ko'p mutolaa qilib tabiblik kasbini mukammal o'zlashtirib olgan. Olim juda murakkab yo'lni bosib o'tgan. Ko'p shaharlarda yashagan. Ko'p olimlar va taniqli hakimlar bilan muloqotda bo'lib, o'z bilimini oshirgan. Bobur bu hakimning ta'rifini eshitib, uni o'z saroyiga taklif etgan. Tabib Boburning taklifini qabul qilib, Hindistonga, Bobur saroyiga ko'chib borgan. Bobur uni o'zining shaxsiy tabibi qilib tayinlagan.

Yusuf tabib tibbiyot ilmining turli sohalariga oid bir nechta asar yozgan. Shulardan birinchisi "Ovqatlanish va ichimliklar haqida risola", deb atalgan. Kitobda muallif hozir shartli refleks, deb ataladigan holat mavjudligini ko'rsatib o'tgan. Uning yozishicha, kishi bir kunda necha marta va qaysi soatlarda ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa (ya'ni unda ovqatlanishga qanday shartli refleks paydo bo'lgan bo'lsa) shu rejimni o'zgartirmasligi kerak (ya'ni shartli refleks buzilmasligi kerak), aks holda ichaklarda ovqat hazm qilish jarayoni o'zgarib, kasallik holati kelib chiqishi mumkin. Bu yerda muallif ichimlik suvi masalasiga ham to'xtalib o'tadi. Uning yozishicha, eng yaxshi suv buloq suvidir.

Yusuf tabib ikkinchi kitobini "Muruvvatli kishilarga foyda keltirish", deb atagan. Bu kitobda tibbiyot va sog'liqni saqlash masalalari keng ko'lamda qamrab olingan. Tibbiyotning asosiy vazifasi kishilarning sog'lig'ini saqlashdan iborat, deydi. Bu fikr hozirgi zamon tibbiyoti nuqtai nazariga mos keladi. Kasalliklarning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasida o'sha zamon tushunchasiga muvofiq organizmdagi to'rt suyuqlik nazariyasiga asoslangan.

¹ Bu tabibga bobosi Yusuf al-Haraviyning ismini qo'ygan bo'lsalar kerak.

Yusuf tabibning eng mashhur asari "Iloj al-amroz" ("Kasalliklarni davolash"), nomli kitobdir. Bu asar ham she'riy usulda yozilgan. Kitobda organizmdagi barcha a'zolarida uchraydigan kasalliklar, ularni aniqlash va davolash usullari bayon etilgan. Avval bosh miya kasalliklari haqida ma'lumot berilgan. So'ng quyi a'zolariga o'tilgan. Bosh miya kasalliklarining asosiy belgilaridan biri bemorning ruhiy holati o'zgarishi ekanini ta'kidlaydi. Miya kasalligidan eng og'iri miyaga qon quyilishi (insult) ekanini ko'rsatgan. Bunday holatda qon olish zarurligini ta'kidlaydi. Bosh miya kasalliklarining muhim belgilaridan biri falajlar ekanligini eslatadi.

Yusuf tabib Sharq hakimlaridan birinchi bo'lib, zahm kasalligini aniqlagan. Kasallik asosan tanosil a'zolarini zararlashini ko'rsatgan. Kasallikni davolashda simob qo'shib tayyorlanadigan dorilardan foydalangan.

Yusuf tabib kasalliklarni davolashda, o'sha vaqtdagi boshqa tabiblar singari simptomatik usulni qo'llagan, ya'ni ko'proq kasallikni emas, uning belgilarini davolashga uringan. Kitobning birinchi nusxasi ancha murakkab yozilgan bo'lib, undan foydalanish qiyinroq edi. Ko'pchilik tabiblarning iltimosiga ko'ra, muallif o'z kitobini qaytadan ishlab, uning qiyin joylariga sharh yozib bergan va kitobning nomini ham o'zgartirib, uni "Nafi' to'plami", deb atagan.

Hind tabiblari bu kitobni o'z tillariga tarjima qilib, uni "Tibbi Yusufiy" ("Yusuf tibbiyoti"), deb atadilar.

1882-yilda Yusufning kitobini xorazmlik hakim Muhammad Amin al-Husayniy o'zbek tiliga tarjima qildi. Kitobning asl nusxasi fors tilida yozilgan edi. Shunday qilib, Yusuf tabibning dastlab "Kasalliklarni davolash", deb atalgan kitobi bir necha xil nom bilan ataladigan bo'ldi.

Yusuf tabibning "Salomatlikni saqlash haqida risola" nomli asari kichikroq kitobcha, lekin mazmuni bilan muhim ahamiyatga ega. Muallif kitobda kasallikdan saqlanish uchun to'g'ri turmush tarziga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Xususan, to'g'ri ovqatlanish, ozodalikka rioya qilish, ko'proq ochiq havoda bo'lish va jismoniy harakat bilan shug'ullanish kabi tadbirlarni tavsiya etgan. Yusufiy jismoniy mashqlar bilan shug'ullanuvchilarning yuragi baquvvat, o'zi kuchli va ishtahasi yaxshi bo'ladi, deb yozgan. "Tibbi Yusufiy" O'rta Osiyo tibbiyotida ham keng tarqalgan edi. Bu kitob deyarli o'zbekistonlik har bir tabibning kitob javonida bo'lardi. U hakimlar uchun asosiy qo'llanma hisoblanardi. Yusufning boshqa asarlari ham tibbiyotning muhim masalalariga bag'ishlangan.

Shunday qilib, buyuk temuriylar davrida tibbiyot o'z rivojlanishida yuksak darajaga ko'tarilgan edi.

XIII bob

O'ZBEK XONLIKLARI DAVRIDAGI TIBBIYOT

SHAYBONIYLAR DAVRI

XVI asr boshida Idil (Volga) daryosi tomonidan kelgan Shayboniyxon qo'shinlari mamlakatni zabt etdilar.

Shayboniyklar o'zlarini biz o'zbeklarmiz, deb atardilar. Ular bu yerdagi mahalliy o'zbeklar (turkiy xalqlar) bilan qo'shib, yangi davlatni — o'zbeklar xonligini barpo etdilar. Shayboniyxon Samarqandni o'z davlatining poytaxti, deb e'lon qildi. Buxoroni ukasi Mahmud Sultonga berdi. Toshkent va uning atrofidagi yerlarni qarindoshlari Ko'chkinchixon va Suyinchxo'jaga bo'lib berdi.

Shayboniyxon Movarounnahrda mustahkam o'rnatib olganidan so'ng, Xuroson va Xorazmni zabt etdi. Xurosonga o'z o'g'li Temur Sultonni hokim qilib qo'ydi. Shunday qilib, Shayboniyklar sulolasi tashkil topdi. Bu sulolaning asoschisi Shayboniyxon ancha bilimdon odam edi. U adabiyot va san'atga qiziqardi. Bu soha ahllarini qo'llab-quvvatlardi. Temuriylarga taqlid qilib, mamlakatda fan va madaniyatni rivojlantirishga intilardi. Bu borada u ba'zi tadbirlarni ham amalga oshirdi. Ammo, temuriylar shon-sharafiga yeta olmadi. Dastlabki yillarda esa harbiy yurishlar natijasida mamlakat qo'shimcha vayronagarichiliklarga uchragan edi. Shayboniyxon askarlari bosib olingan shaharlarni talon-toroj qilardilar. Buning natijasida xalq xonavayron bo'lardi. Ular o'rtasida har xil kasalliklar tarqalib ketardi. Tarixda o'sha davrda bir necha marta ommaviy kasalliklar tarqalib ketganligi ma'lum.

Davlat barqarorlik topganidan keyin Shayboniyxon xo'jalik hayotini tartibga solishga qaratilgan ba'zi tadbirlarni amalga oshirdi. Bu tadbirlar aholiga bir qadar yengilliklar keltirdi, xalqning iqtisodiy ahvoli yaxshilandi. Madaniy hayot yuksala boshladi. Bunda bir yangilik — o'lkada qog'oz ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganligi katta rol o'ynadi. Samarqandda ishlab chiqariladigan "Sultoniy" va "Mir Ibrohimiy" markali qog'ozlar dunyo bozorida yuksak baholanardi.

Movarounnahr ba'zi boshqa qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va diplomatik aloqa o'rnatdi. Chet ellardan, xususan, Xitoy va Hindistondan choy, qora murch, har xil ziravor va dorivor mahsulotlar keltirilardi. Mamlakatda kattagina qurilish ishlari olib borildi. Ular qatorida tibbiy maskanlar ham bor edi. Eng muhimi shuki, shu vaqtga kelib, o'zbek tilida yozilgan dastlabki kitoblar paydo bo'la boshladi. Shulardan birinchisi mashhur "Boburnoma" edi.

Shayboniylar hukm surgan davrda tibbiyot anchagina yuksaldi. Shaharlarda kasalxonalar, nogironlar uyi, dorixonalar, tibbiy maktablar barpo etildi. Masalan, XVI asr o'rtasida Toshkentda "Chorbog'", degan joyda maxsus kasalxonalar barpo etilgan edi. Bu kasalxonada asosan harbiy kishilar davolanardilar. Kasalxonada chuqur bilimli va yaxshi tajribali hakimlar ishlardilar. Ular kasallangan va jarohatlangan harbiy kishilarni davolardilar. O'sha vaqtda O'zbekiston hududida bilimdon va yaxshi tajribali hakimlar ham anchagina edi.

Shayboniylar davrida O'zbekiston hududida yashab ijod qilgan taniqli hakimlardan bizga quyidagilar ma'lum. Muhammad Husayn Miroqiy as-Samarqandiy, Shayx Ali ibn Sulaymon, Sulton Ali Xurosoniy, Ubaydullo ibn Yusuf Ali al-Kahhol, Mullo Muhammad ibn Yusuf tabib, Mir Muhammad Husayn al-Oqiliy va boshqalar.

Muhammad Husayn Miroqiy as-Samarqandiy ko'proq dorishunoslik bilan shug'ullangan. U 1545-yilda dorishunoslikka oid katta bir asar yozib, unda har xil shifobaxsh o'simliklarning xossalari, ularni izlab topish, ulardan dori tayyorlash va qo'llash usullarini batafsil bayon etgan. Kitobda turli dorivor o'simliklarning rangli rasmlari ham berilgan. Dorixonada ishlatiladigan asbob-uskunalar, dori saqlanadigan idishlarning surati ham keltirilgan. Muhammad Husayn Miroqiyning kitobi dorixonalar xodimlari uchun dastur bo'lib xizmat qilgan. Undan tabiblar ham foydalanganlar, chunki, ular ko'pincha bemorlarga dorini o'zlari tayyorlab berganlar.

Shayx Ali ibn Sulaymon Toshkentda tavallud topgan. Tug'ilgan yili va vafoti ma'lum emas. Toshkent madrasalaridan birida tahsil olgan. So'ng tibbiyotga qiziqib bu fanni o'rgangan. Shayx Ali kahhol ya'ni ko'z kasalliklari bo'yicha mutaxassis bo'lgan. Lekin, boshqa sohalarga ham qiziqqan. Badiiy adabiyotni ham sevgan. Yaxshi she'rlar yozgan. O'zining tibga oid asosiy asari "Kahhollik san'atiga bag'ishlangan risola" kitobini ham nazm bilan yozgan. Kitobda ko'zning tuzilishi, ko'z kasalliklarining kelib chiqishi, ularni aniqlash va davolash masalalari bayon etilgan. Ko'z kasalliklarida ishlatiladigan dorilar ham ko'rsatilgan. Shayx Ali ibn Sulaymonning kitobi kahhol uchun dastur bo'lib xizmat qilgan.

Sulton Ali Xurosoniy Samarqand hukmdori Abu Mansur Ko'chkinchixon saroyida xizmat qilgan. O'zi chuqur bilimli va yaxshi tajribali tabib bo'lgan. Bemorlarni muvaffaqiyatli davolab, ko'p hurmatga sazovor bo'lgan. Bu olimning bizga "Dastur al-iloj" ("Davolash dasturi") nomli asari ma'lum. Asarda kishi organizmining barcha a'zolarida uchraydigan kasalliklar, ularga tashxis qo'yish va davolash usullari batafsil bayon etilgan. Sulton Ali "Dastur al-iloj"ga qo'shimcha qilib, "Muqaddimiy dastur al-iloj" nomli kitob ham yozgan. Bu kitob ba'zan "Dastur", debgina ataladi. Muallif "Muqaddima"ga oldingi asariga kirmay qolgan ba'zi masalalarni kiritgan. "Muqaddima"ning muhim tomoni

shundan iboratki, unda salomatlikni saqlash uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerakligi ko'rsatilgan. Sulton Ali Xurosoniyning bu kitobi ham amaliy tibbiyotda tabiblar uchun yaxshi dastur bo'lib xizmat qilgan.

Ubaydullo ibn Yusuf Ali ul-Kahhol – Toshkentlik ko'zga ko'ringan hakimlardan bo'lgan. U Toshkent hukmdori Muhammad Darvesh Bahodirxon saroyida xizmat qilgan. O'zi chuqur bilimli va yaxshi tajribali tabib bo'lgan.

Ubaydullo Kahholning bizga "Bemorlar muolajasi" nomli asari ma'lum. Bu asarda olim inson a'zolari, ularda uchraydigan kasalliklar va ularni davolash usullari bayon etilgan. Kitob ikki qismdan iborat. Birinchi qismda turli a'zolarining kasalliklari haqida ma'lumot berilgan. Bu qism muqaddima, 18 bo'lim va xulosadan iborat. O'z navbatida har bir bo'lim bir necha kichik bo'limchalarga bo'lingan.

Kitobning muqaddimasida muallif tib ilmi, uning vazifasi va xalq salomatligini saqlashdagi o'rni haqida fikr yuritadi. Muallifning yozishicha, tabibning asosiy vazifasi eng avvalo kishilar sog'lig'ni saqlash, kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish va davolashdan iborat.

Kitobdagi 18 qismning har birida amaliy tibbiyotning muhim masalalari bayon etilgan. Dastlab miya, uning kishi hayotidagi ahamiyati ta'riflanadi. So'ng bosh miyada uchraydigan kasalliklar, ularning alomatlari, tashxis qo'yish va davolash choralari ko'rsatiladi. Olim bu yerda muhim miya kasalliklaridan ruhiy hastalikni ham alohida ko'rsatgan. Shundan keyin ko'z, quloq, tomoq, burun, havo tashuvchi yo'llar (traxeya, bronxlar) kasalliklari bayon etilgan. So'ng quyiroqdagi organlarda (yurak, o'pka, qizilo'ngach, oshqozon, ichaklar, jigar, siydik qopchasi, erkak va ayol jinsiy a'zolari) kasalliklari haqida ma'lumot berilgan. Kitobda ziynat (kosmetika) va toksikologiya masalalariga ham to'xtaladi. Kitobning bir butun qismi (17-qism) bolalar kasalliklariga bag'ishlangan. Xususan, bu qismda bolalik davrining gigiyenasi, bolani to'g'ri tarbiya qilish, bolalarda uchraydigan kasalliklar, ularni davolash masalalari bayon etilgan.

"Bemorlar muolajasi"ning oxirgi 18-qismi umumiy kasalliklar va ularni davolash usullariga bag'ishlangan. Xususan, umumiy kasalliklarni aniqlash, tashxis qo'yish va davolash usullari ko'rsatilgan.

Kitobning xulosasida har xil kasalliklarning oqibati, krizlar, o'limning sabablari kabi muhim masalalar yoritilgan.

"Bemorlar muolajasi"ning ikkinchi qismi dorilar haqida. Xususan, unda murakkab dorilar bayon etilgan. Murakkab dorilarni tayyorlash va ishlatish usullari ko'rsatilgan.

Ubaydullo kahhol mutaxassisligi bo'yicha kahhol (ko'z tabibi) hisoblansa ham, u umumiy tibbiyot masalalari bilan ko'p shug'ullangan.

Mullo Muhammad ibn Yusuf kahhol o'z davrining ko'zga ko'ringan tabiblaridan biri edi. U o'sha vaqtdagi Samarqand hukmdori Abdullatifxonning shaxsiy tabibi bo'lgan.

Mullo Muhammad ibn Yusuf kahhol ko'z kasalliklari sohasida tajribali mutaxassis bo'lgan. Kasalliklarni muvaffaqiyatli davolab, ko'p hurmatga sazovor bo'lgan. Olim ko'z kasalliklarini aniqlash va ularni davolashdagi tajribalarini umumlashtirib, "Zubdat ul-kahholin" ("Kahhollikning mohiyati") nomli asar yaratgan. Bu asarda turli ko'z kasalliklarining belgilari, ularni aniqlash, tashxis qo'yish va davolash usullari bayon etilgan. Kitob ko'zi hastalikka uchragan bemorlarni davolashda tabiblarga qo'llanma bo'lib xizmat qilgan.

Mulla Muhammad Kahhol ko'z kasalliklari bo'yicha mutaxassis hisoblansa ham, u boshqa kasalliklarni davolash bilan ham shug'ullangan. Masalan, u isitmali kasalliklarga bag'ishlangan "Tahqiq ul-xummiyat" ("Isitmali kasalliklarni aniqlash") nomli asar ham yozgan. Bulardan tashqari tomirni tekshirish usuliga bag'ishlangan asari ham ma'lum. Umuman bu hakim ko'p qirrali bilim va tajribaga ega bo'lgan.

O'sha vaqtda O'zbekistonda Mirmuhammad Husayn al-Oqiliy ismli hakim bo'lgan. Ammo, bu hakim haqida qo'limizda yetarli ma'lumot yo'q. Uning "Mahzan al-adviya" ("Davo boyligi") nomli asari borligi ma'lum, xolos. Bu asar har xil dorilar va ulardan foydalanishga bag'ishlangan.

ASHTARXONIYLAR DAVRI

Shayboniylar davlati XVI asr oxirlariga kelib, o'zaro nizolar va toj-taxt uchun kurashlar natijasida zaiflashdi. Ayrim o'lkalarning hokimlari Markaziy hokimiyatning bunday zaifligidan foydalanib, mustaqil siyosat olib bora boshladilar. Shayboniylar xonadonining oxirgi namoyandalaridan biri Abdulmo'min Markaziy hokimiyatni mustahkamlashga urindi. Lekin, uni amalga oshira olmadi. 1599-yilda uni qatl qildilar.

Uning o'rniga Movarounnahrning hokimi qilib, boshqa o'zbek qabilasi — ashtarxoniylardan bo'lgan Boqiy Muhammad saylandi.

Ashtarxoniylar davrida mamlakatda unchalik katta o'zgarishlar bo'lmadi. Ammo, zarurat tufayli tibbiyot sohasida bir oz siljish bo'ldi. Madrasalarda tibbiyot ilmi ham o'qitildi. 1682-yilda Buxoroda maxsus saroy kasalxonasi "Buq'ayy dor ush-shifo" ("Davo maskani") barpo etildi. Bu davo maskanining barpo etilishi o'sha vaqtdagi Buxoro hukmdori Subxonqulixon nomi bilan bog'liq. "Maskan" uning farmoni bilan qurilgan edi.

Subxonqulixon (Sayid Muhammad Subxonquli ibn Saidnodir-muhammadxon) ilm fanning ko'p sohalaridan xabardor bilimdon shoh

edi. U ayniqsa, tibbiyot ilmini yaxshi bilardi. Ma'lumotlarga ko'ra Subxonqulixon amaliy tibbiyot bilan ham shug'ullangan.

"Davo maskani" o'sha zamon me'morchiligi asosida ko'rkam qilib qurilgan ikki qavatli bino bo'lgan. Har qavat 9 tadan hujra (palata) va yordamchi xonalardan iborat edi. Kasalxonada qoshida qatnab davolanadigan kichik shifoxona (hozirgi tilda ambulatoriya) ham bo'lgan. "Davo maskani" huzurida tibbiy maktab ham ochilgan. Bulardan tashqari kasalxonada majmuasi tarkibiga dorixonona va kutubxonona ham kirgan. Kasalxonaga chuqur bilimli va yaxshi tajribali Mirqosim Hakim boshchilik qilgan.

Tibbiy maktab talabalari amaliy mashg'ulotlarni shu "Davo maskani"da o'tganlar. Kasalxonada va tibbiy maktabda o'sha davrning yaxshi tajribali hakimlari xizmat qilganlar. Shulardan bizga Xo'ja Amin Rais, Oxun mullo Abdug'afur, Hakim Xo'ja Yoqub, Mullo Mirmuhammad ma'lum.

"Davo maskani" majmuasi (Kasalxonada, shifoxona, dorixonona, tibbiy maktab va kutubxonona) vaqf yerlardan olinadigan daromad bilan ta'min etib turilgan. Shu hisobdan tibbiy maktab talabalariga nafaqa to'langan.

Tibbiy maktabning kutubxonasi kitobga juda boy bo'lgan. Unda Ibn Sinoning "Tib qonunlari"dan tortib, deyarli hamma taniqli hakimlarning asarlari bo'lgan. Subxonqulixonning maxsus farmoni bilan kutubxonada yig'ilgan kitoblar o'rganilib, ularning ko'piga sharh yozilgan. Talabalar uchun kerakli kitoblar o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Dorixonada asosan kasalxonada yotib davolanayotgan bemorlar uchun dori tayyorlaganlar. Unda ikki kishi — dorixonona mudiri va uning yordamchisi ishlagan.

Subxonqulixon mamlakatda tibbiy bilimning rivojlanishi va chuqur bilimli hakimlar yetishib chiqishlariga alohida e'tibor bergan. U xalqni sog'lomlashtirish, kasalliklarni kamaytirish, yuqumli kasalliklarning tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslik ishi bilan shaxsan shug'ullangan. Shu munosabat bilan Subxonqulixonning o'zi ishlab chiqqan yozgi ich ketish kasalliklariga qarshi chora diqqatga sazovordir. U maxsus farmon chiqarib, Buxoro amirligiga qarashli hamma hududlarda yoz faslida barcha novvoylarga yopiladigan non yuziga kunjut urug'ini sepishni buyurgan. Bu tadbir haqiqatan yozgi ich ketish kasalliklarini kamaytirgan. Chunki, kunjut ichni to'xtatish xususiyatiga ega, o'zi esa xushbo'ydir. Shuning uchun novvoylar ham, aholi ham bu qarorni mamnuniyat bilan qabul qilganlar. Xon farmoni bilan boshlangan bu tadbir, keyinchalik odat bo'lib qolgan. Hozir ham mahalliy novvoylar kulchalarning yuziga kunjut sepib yopadilar.

Subxonqulixon tibbiyot ilmini haqiqatan yaxshi bilgan, tibbiyot ilmiga oid asarlar ham yaratgan. Masalan, u turkiy (o'zbek) tilida "Tibbi Subxoniy", deb ataluvchi kitob yozgan. Bu kitobning paydo bo'lishi haqida Subxonqulixonning o'zi bunday, deb yozgan: "Bizdan oldingi

hakimlar arab va fors tillarida yozilgan asarlar qoldirganlar. Bizning kishilarimiz bu asarlardan foydalana olmaydilar. Shuning uchun men bu kitobni turkiy tilda yozdim, toki bizning xalqimiz undan foydalana olsinlar".

"Tibbi Subxoniy" kirish qism va 8 bobdan iborat. Har bir bob o'z navbatida to'rttadan kichik qismlarga bo'lingan. Kitob asosan har xil kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolash to'g'risida. Bu kitob o'sha vaqtda olmon (nemis) tiliga tarjima qilinib, Ovrupo mamlakatlariga ham tarqatilgan ekan. Demak, bu kitobdan Ovrupo hakimlari xabardor bo'lganlar.

Subxonqulixon kitobning kirish qismida — "Men bu kitobni yaratishda boshqa mualliflarning asarlarini o'rganishdan tashqari o'z tajribamga asoslandim", deb yozgan. Demak, Subxonqulixon amaliy tibbiyot bilan ham shug'ullangan. Darhaqiqat o'sha zamon tarixchilarining guvohlik berishlaricha Subxonqulixon o'zi barpo etgan "Davo maskani"ga tez-tez kelib turarkan va bu yerdagi kasallarni ko'rib ularga tashxis qo'yib davo tadbirlarini tayinlarkan".

Subxonqulixon olimlar, shoirlar va hakimlarni tez-tez yig'ib, fanning har xil sohalari bo'yicha suhbatlar o'tkazib turgan. Har xil sohaga oid ilmiy kitoblar, ularning ilmiy-amaliy ahamiyati belgilanib, keçaklari tarjima qilish uchun olimlarga topshirilgan. Shunday tarjimaga berilgan kitoblar orasida tibbiy asarlar ko'p bo'lgan.

Subxonqulixonning kitobsevarligini quyidagi misoldan ko'rish mumkin: Subxonqulixon Ne'matullo ibn Faxriddin hakimning "Ajoyibotlar dengizi" nomli asarini o'qib, unga juda qiziqib qolgan va saroydagi olimlarni chaqirib, bu kitobni boshqa mualliflarning shu sohaga oid kitoblari bilan solishtirib, xato va kamchiliklarini tuzatishni buyurgan. Bu ish tugatilib, asar oqqa ko'chirilgandan so'ng, xon saroyida katta qabul marosimi o'tkazgan va bu ishda ishtirok etgan ko'p olimlarni qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlagan.

O'sha davrdagi O'zbekiston tibbiyotida bu bilimni yaxshi egallagan yana bir davlat boshlig'i ma'lum. Bu Xorazm xoni Abulg'ozixondir.

Abulg'ozixon (Abulg'ozii ibn Arabmuhammadxon Xorazmiy 1605—1664) juda bilimdon va o'qimishli davlat arbobi bo'lgan. U siyosiy ishlar bilan bir qatorda har xil ilmlarga ham qiziqqan. Xususan, tarix, riyoziyot, badiiy adabiyot va tibbiyot bilan shug'ullangan. Ayniqsa, Abulg'ozii tib ilmiga ko'proq e'tibor bergan. U tibga oid kitoblarni ko'p mutolaa qilib, bu ilmni chuqur o'zlashtirib olgan.

Abulg'ozixon davrida (XVII asr) Xorazm o'zining yangi yuksalish davrini kechirmoqda edi. Mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayot tez

sur'atlar bilan rivoj topdi, yangi qurilishlar amalga oshirildi. Masalan, Xivada bir madrasa, karvonsaroy, yopiq usuldagi suv quvuri barpo etildi. Dehqonchilik qilinadigan yerlarda ikkita kanal qazildi.

Abulg'ozixon o'zi bilimdon kishi bo'lgani uchun ilm ahllarini qo'llab-quvvatlardi. Ularning ba'zilariga saroydan joy berib, yaxshi maosh to'lardi. Saroydagi olimlar qatorida chuqur bilimli hakimlar ham bor edi. Abulg'ozixon olimlar bilan ko'p suhbatda bo'lar va ularning yozgan asarlari bilan qiziqardi. O'zi ham ilmning turli sohalariga oid asarlar yozardi. Masalan, uning Xorazm tarixiga oid asari ma'lum.

Abulg'ozixon ayniqsa, tibbiyot ilmi sohasida chuqur bilimli kishi sifatida tanildi. Ammo, uning amaliy tibbiyot bilan shug'ullangani ma'lum emas. Shunday bo'lsa ham, tibbiyot ilmini yaxshi bilgan va bu sohaga oid kitob ham yozgan. Kitobning nomi "Manofi'al-inson" ("Kishilarga foydali maslahatlar") deb ataladi. Bu kitob ham o'zbek tilida yozilgan dastlabki tibbiy asarlardan biri edi. Kitob to'rt qismdan iborat. Birinchi qismda oddiy (yakka) dorilar, ularni tayyorlash va foydalanish usullari bayon etilgan. Ikkinchi qismi murakkab dorilarga bag'ishlangan. Unda murakkab dorilarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari ko'rsatilgan. Uchinchi qismda dorivor moddalar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

"Manofi'al-inson"ning to'rtinchi qismida muallif tibbiyot ilmining nazariy va amaliy masalalari haqida o'z fikr va mulohazalarini bayon etgan. Boshqa olimlarning fikrlarini ham keltirgan. Umuman kitobda 124 xil kasallik, ularning alomatleri va muolaja usullari ko'rsatilgan.

XVIII asrda O'zbekistonda yana bir taniqli hakim Sayyid Muhammad Hasrat yashagan. U asli Mashhadlik bo'lgan va o'sha yerda tabiblik bilimini olgan. So'ng ko'p boshqa shaharlarda yashab tabiblik qilgan, olimlar bilan muloqotda bo'lib o'z bilimini oshirgan. Umrining oxirida Marv shahrida yashab, shu shaharda vafot etgan.

Sayyid Muhammad Hasrat badiiy adabiyot bilan ham qiziqqan, yaxshigina shoir bo'lgan. O'zining ba'zi asarlarini nazm bilan bayon etgan. Masalan, uning "Nazmi sihhat" nomli she'riy asari ma'lum. Kitobda har xil dorivor o'simliklar bayon etilgan. Bundan tashqari har xil jonzotlardan olinadigan dorilar haqida ham ma'lumot bergan. Masalan, tuxum, go'sht, sut va h.k. Ularni dorilik xususiyati ko'rsatilgan. Lekin bu yerda muallif asosan shu moddalarning issiqlik, sovuqlik va hokazo xususiyatlari haqida so'z yuritadi. Masalan, Sayyid Muhammadning yozishicha, tovuq tuxumining sarig'i issiqlik, oqi esa sovuqlik xususiyatiga ega. Muskat yong'og'i issiqlik va quruqlik xususiyatiga ega.

Shunday qilib, ashtarxoniylar davrida mamlakatda tibbiyot bir oz rivoj topdi va ko'pgina bilimli hakimlar yetishib chiqdilar.

XIV bob

SO'NGGI O'ZBEK XONLIKLARI DAVRIDAGI TIBBIYOT

XVII asrning oxirida ashtarxoniylar davlati inqirozga yo'l tutdi. Ilgari bu davlatga kirgan mamlakatlar asta-sekin undan ajralib chiqa boshladilar. Masalan, Xorazm va Samarqand hokimlari o'zlarini mustaqil, deb e'lon qildilar.

XVIII asr boshida (1710-yil) Farg'ona hududida mustaqil xonlik vujudga keldi. Bu yangi davlatning hukmdori qilib, o'zbeklarning ming deb ataluvchi qabilasidan bo'lgan Shohruhbiy saylandi. Mamlakat poytaxti, deb Qo'qon shahri e'lon qilindi. Bu shahar Xo'qand, deb ataluvchi qishloq o'rnida barpo bo'lgan edi. 1753-yilda Buxoro o'zbeklarning mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Rahim qo'lga o'tdi. U o'zini Buxoro amiri deb e'lon qildi. Shunday qilib, ashtarxoniylar sulolasi tugagan edi. Mamlakat alohida xonliklar va amirliklarga bo'linib ketdi. Har bir xon va amir boshqalar ustidan hukmronlik qilishga intilardi. Buning natijasida ular o'rtasida tez-tez urushlar chiqib turardi. Bu urushlar oddiy xalq boshiga ko'p tashvishlar solardi. Iqtisodiy hayot izidan chiqardi. Bu xalq sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatardi. Kasalliklar ko'payardi va ular ko'pincha ommaviy tus olardi. Davolash ishlari yomon yo'lga qo'yilgan edi. Tabiblarning soni oz, ularning ko'pi esa yetarli bilimga ega emas edilar. Chunki, mamlakatda ular bilim oladigan o'quv maskanlari yo'q edi. Ko'p madrasalarda dunyoviy fanlar va tibbiyot o'qitilmay qo'yilgan edi. Shifoxona, kasalxona, dorixonalar yo'q bo'lib ketdilar. Hakimlar tibbiyotga oid biror asar yaratmadilar. Faqat bitta-ikkita bilimdon hakim eski tibbiy kitoblarga sharh yozish va ularni tarjima qilish bilan shug'ullanardilar, xolos. Bu davrga kelib, tez rivojlanib ketgan Ovrupo tibbiyotidan sharq hakimlari bexabar edilar. Kasallarga tashxis qo'yish va davolashda tabiblar hali ham o'sha xato rutubatlar nazariyasi va mavhum mizojlar tushunchasiga asoslanardilar. Faqat bitta-yarimta o'qimishli tabiblar Ovrupo tibbiyoti bilan tanishib, undan o'rnak ola boshladilar. Shunday ilg'or fikrli tabiblardan bizga Solih ibn Muhammad Qandahoriy, Junaydullo Hoziq, Ja'far Xo'ja Hazoraspiy, Mahmud Hakim Yaypaniy va Atoulo tabib ma'lum.

Solih ibn Muhammad Qandahoriy Xirotda tavallud topgan. Chuqur bilim va yaxshi tajribaga ega bo'lgan. U ko'proq bolalar kasalliklari bilan shug'ullangan. Shuning uchun uning ko'pchilik asarlari bolalar kasalliklari masalalariga bag'ishlangan. Olimning bu sohadagi eng yirik asari "Tuhat

ul-shoista" ("Arzigulik sovg'a") deb ataladi. Kitob bolalar sog'lig'ini saqlash va ularning kasalliklarini davolashga bag'ishlangan.

"Tuhfat ul-shoista" kirish qism va ikki bo'limdan iborat. Kitobda muallif dastlab, bolalar organizmining o'ziga xos xususiyatlari, uning nozikligi va har xil kasalliklarga oson uchrashini ko'rsatadi.

Qandahoriy bola organizmini ikki davrga — olti yoshgacha bo'lgan davr va olti yoshdan balog'atga yetgunga qadar bo'lgan davrga bo'lgan. Shu davrlarning har birida kasallik turlicha kechishini ko'rsatgan. Qandahoriyning yozishicha, bola organizmi kattalar organizmidan o'zining kichik o'lchamga egaligi bilangina emas, balki o'ziga xos fiziologik xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Bu fikr hozirgi zamon ilmi nuqtai nazaridan ham to'g'ridir.

Qandahoriyning ikkinchi kitobi "Tuhfat ul-ma'sumin" ("Begunohlarga sovg'a") deb ataladi. Kitob kirish qism, ikki bo'lim va xulosadan iborat. U asosan bolalar kasalliklariga bag'ishlangan. Kitobda ayollar organizmining o'ziga xos xususiyatlari va kasalliklari ham bayon etilgan.

Kitobning kirish qismida muallif havo, suv, turar joylarning gigiyenik holatlari haqida so'z yuritadi. Ozodalikning sog'liq uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Kitobning birinchi bo'limida homiladorlik, uning kechishi, tug'ish masalalari bayon etilgan. Tug'gan ayolga qanday sharoitlar yaratib berish zarurligi ko'rsatilgan. Ikkinchi qismida bolalar kasalliklari va ularni davolash usullari bayon etilgan.

Solih ibn Muhammad Qandahoriyning bu kitobi O'rta Osiyo tibbiyoti tarixida maxsus bolalar fiziologiyasi va patologiyasi haqida yozilgan dastlabki asardir. Bu haqda muallifning o'zi bunday deb yozgan: "Meni mazkur kitobni yozishga shu narsa majbur qildiki, tibbiyot haqidagi asarlarda bolalar kasalligiga o'rin berilmagan yoki bu haqda shunchaki "yo'l-yo'lakay" so'zlab o'tilgan. Ko'pincha esa, bu masalada noaniqliklarga yo'l qo'yilgan. Agar bolalarga tibbiy yordam yaxshi tashkil qilinsa, bevaqt o'lib ketgan bolalarning ko'pini saqlab qolish mumkin bo'lur edi. Shuning uchun men bolalarga bag'ishlangan mazkur kitobni yozdim".

Solih Qandahoriyning bu ikki kitobdan tashqari dorishunoslikka bag'ishlangan asari ham mavjud. Unda har xil kasalliklarda, xususan bolalar kasalliklarida ishlatiladigan dorilar bayon etilgan. Qandahoriyning kitobi O'rta Osiyoda kelgusida pediatriya ilmining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Junaydullo Hoziq (Junaydullo ibn Islomshayx Hoziq) XVIII asr oxiri XIX asrning boshida yashagan mashhur tabiblardan biri. Bu hakim Xirotda tug'ilib, o'sha yerda bilim olgan.

Junaydullo Hoziq ko'p bilimlarga qiziqqan, adabiyotni ham sevgan, she'rlar yozgan.

Junaydullo Hoziq XIX asr boshida Xirotdan Buxoroga ko'chib kelib, shu yerda tabiblik qilgan. O'zining chuqur bilimi va yaxshi tajribasi tufayli kasallarni muvaffaqiyatli davolab, aholining katta hurmatiga sazovor bo'lgan. Hoziq o'sha vaqtdagi ijtimoiy hayotda bo'layotgan voqeliklarga ham juda qiziqqan. Hatto Buxoro amiri Nasrulloxonning o'zini ham tanqid qilgan. Buning natijasida u amirning g'azabiga duchor bo'lib, Buxorodan ketishga majbur bo'lgan. Qo'qonga ko'chib borib, shu yerda tabiblik qilgan. Ammo, bu shaharda ham uzoq yashay olmay, Xorazmga ketgan. Lekin, Xorazm xonining ham g'azabiga duchor bo'lgan. Xivada xonning farmoni bilan bir ko'rkam hammom qurilgan ekan. Hammom bitgandan so'ng saroy shoirlari uni maqtab qasidalar yozibdilar. Shunda xon Junaydullodan — qalay, sizga hammom yoqdimi, deb so'ragan ekan, u hazil qilib, «Hammomga po'stin kiyib kirish kerak, chunki u yer juda sovuq. Qo'lda yoqilgan sham bo'lishi kerak, chunki u yer qorong'i. Hammomga kirishda oyoqlarga kalish kiyib olish kerak, chunki u yer juda sirpanchiq, yiqilib mayib bo'lish mumkin», debdi. Junaydulloning bunday "g'aliz so'zli"gidan xon g'azabga kelibdi. Junaydullo esa vaqtni qo'ldan boy bermay, Xorazmni tark etibdi va Qo'qonga qaytib kelibdi.

1842-yilda Buxoro amirining qo'shinlari Qo'qonni zabt etadilar. Qo'qon xoni Ma'dalixon (Muhammad Alixon) qatl etiladi. Qo'qondagi olimlar, hakimlar, hunarmandlar, quruvchilar va boshqa nodir kasb egalari Buxoroga olib ketiladi. Shular qatorida Junaydullo Hoziq ham bo'lgan. Ammo, u bir iloj qilib, Shahrisabzga qochib ketadi. Bu shahar Buxoro amirligiga tobe bo'lmay, o'zi mustaqil siyosat olib borar ekan. Junaydullo bu yerda o'z kasbi bo'yicha kasallarni davolash bilan shug'ullana boshlaydi. Lekin, Buxoro amiri eski adovati bo'yicha 1843-yilda Shahrisabzga yashirincha qotil yuborib, Junaydulloni o'ldirtiradi.

Junaydullo Hoziqning tibga oid bir necha asari borligi haqida ma'lumot mavjud. Ammo, ular bizgacha yetib kelmagan. Faqat uning Umar Chag'miniy yozgan "Qonuncha" nomli kitob haqidagi sharhi saqlanib qolgan. Uni Hoziq "Haqiqatni izlash va tekshirish" ("Tahqiq va qavoid"), deb atagan ekan. Kitobda muallif "Qonuncha"ning ijobiy tomonlari va kamchiliklari haqida fikr yuritadi.

Junaydullo Hoziq O'zbekistonning XVIII—XIX asr tibbiyotida taniqli hakim hisoblanadi.

Ja'farxo'ja Hazoraspiy (Ja'farxo'ja ibn Nasriddinxo'ja al-Husayn Qarvaqiyy Hazoraspiy) taniqli Xorazm hakimlaridan biri bo'lgan. U o'z zamonasi darajasida yetarli bilim va tajribaga ega edi. Hazoraspiy zamonaviy tibbiyotdan ham xabardor bo'lgan. Lekin, odam organizmining fiziologiyasi va kasalliklar haqidagi fikrlari rutubatlar va mizojlar tushunchasiga asoslanardi. Shuning uchun, u har qanday kasallikni davolashda dastlab tanani ortiqcha rutubatlardan tozalashni va mizojlarni mo'tadil holatga keltirishni tavsiya etgan. Xususan, qon olish, surgil qilish va h.k.

Hazoraspiy kasallikning oqibatini oldindan bilishga alohida ahamiyat bergan. Uning yozishicha, kasallikni aniqlash shuning uchun kerakki, tabib shunga qarab, o'z davo tadbirlarini belgilaydi.

Bizga Hazoraspiyning "Tibbiy bilimlar majmuasi" nomli asari ma'lum. Kitobda muallif ayrim a'zolarining kasalliklari haqida so'z yuritadi. Xususan, unda teridagi har xil chiqiqlar, rishta, kal, gijja, pes, chipqon va boshqa yiringli kasalliklar bayon etilgan. Har xil zaharli moddalar va ularga qarshi ishlatiladigan moddalar ham ko'rsatilgan. Dorilar haqida ham ma'lumot berilgan. Ularni tayyorlash, saqlash, va ishlatish usullari ko'rsatilgan. Yuqumli kasalliklar haqida ham ma'lumot mavjud. Xususan, chechak qizamiq, ko'kyo'tal, qizilcha kabi yuqumli kasalliklar bayon etilgan. Hazoraspiyning kitobidan tabiblar keng foydalanganlar.

Mahmud Yaypaniy (Mahmud Hakim Yaypaniy Qo'qondiy) XIX asrning oxiri va XX asrning birinchi yarmida yashagan taniqli o'zbek hakimidir. U o'sha vaqtdagi ma'lum fanlarning ko'pini puxta egallagan olim edi. Lekin, uning asosiy kasbi tabiblik bo'lgan.

Mahmud hakim Yaypaniy 1851-yilda Qo'qon shaharidan 20 kilometrcha naridagi Yaypan qishlog'ida bir badavlat kishi oilasida dunyoga kelgan. Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, Yaypaniyning ota-bobolari taniqli kishilar bo'lganlar. Masalan, uning bobosi Mullo Badal sarkor Qo'qon xoni saroyida nufuzli lavozimlardan birini egallagan. Otasi Shodibek Badaliy badavlat kishi bo'lib, Yaypan atrofida katta yerlari bo'lgan ekan.

Mahmud Yaypaniy yoshligida juda harakatchan, idrokli, sho'x bola bo'lgan ekan. O'z tengqurlari orasida zehning o'tkirligi bilan ajralib turarkan. Otasi o'g'lining bunday qobiliyatini ko'rib, u qishloqdagi ibtidoiy maktabni tugatganidan so'ng, Qo'qonga olib kelib mashur "Jomiy" madrasasiga o'qishga joylashtirib qo'yadi. U vaqtlarda madrasalarda asosan diniy bilimlar o'qitilardi. "Jomiy" madrasasida ba'zi dunyoviy fanlarni ham o'qitarkanlar. Xususan, bolalarga to'rt amal (arifmetika), boshlang'ich handasa, qisman tarix va ilmi nujum (astronomiya) kabi fanlardan dars berarkanlar. Ammo, bu bilimlar juda yuzaki, asosan nazariy shaklda o'tilardi. Mahmud bunday o'qitish usulidan qoniqmay, bilimlarni o'zi mustaqil o'gana boshlaydi. Har sohaga oid kitoblarni mutolaa qiladi va tez vaqtda qadimgi faylasuflar va ko'p olimlarning kitoblarini o'qib chiqadi. Mahmud Yaypaniy ko'proq tibbiyotga qiziqib qoladi va tibga oid kitoblarni qunt bilan o'rganishga kirishadi. Xususan, u Gippokrat, Galen, Abu bakr Roziy va Abu Ali ibn Sino kitoblarini chuqur o'rganadi, va tabiblik kasbini puxta o'zlashtirib oladi. Ma'lumki, XIX asrga kelib, bu olimlarning kitoblari ancha eskirib qolgan edi. Ovrupo tibbiyoti eksperimental usulni qo'llab, antik davr va o'rta asrlar tibbiyotiga nisbatan juda ilgarilab ketgan edi. Mahmud Yaypaniy buni tushunib, zamonaviy Ovrupo tibbiyoti

bilan tanisha boshlaydi. Lotin va rus tillarini o'rganadi. Lotincha retsept yozishni bilib oladi.

Yaypaniy hayotining ko'p qismi Qo'qonda o'tgan. O'sha vaqtda bu shahar Qo'qon xonligining poytaxti edi. Shuning uchun u siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan shahar edi. Shaharda ko'pgina bilimli va ma'rifatli kishilar yashardilar. Ular qatorida yaxshi bilimli va tajribali hakimlar bor edi. Shulardan bizga Tursunxo'ja hakim, Baldoqlik hakim, Abdulloxo'ja hakim emchi, Hakimcha tabiblar ma'lum.

Mahmud hakim Yaypaniyning hayoti fan va madaniyat ancha rivoj topgan sharoitda o'tgan. Bunday ko'tarinki davr Yaypaniyning olim va hakim sifatida shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Yaypaniy o'z tajribasini oshirish maqsadida kasallarni shaxsan o'zi parvarish qilgan, ularga dorilarni o'zi tayyorlab, o'zi ichirgan. Barcha muolaja usullarini ham o'zi bajargan. Bo'sh vaqtlarida kitob o'qish bilan shug'ullangan. Bunday tinimsiz mehnat tufayli Yaypaniy juda oz muddatda nazariy va amaliy tibbiyotni o'sha davr darajasida mukammal o'zlashtirib olgan. Kasallarni muvaffaqiyatli davolab, Farg'ona viloyatida mashhur bo'lib ketgan.

Yaypaniyning dovrug'i Qo'qon xoni Xudoyorga ham borib yetgan. U Yaypaniyning juda ham bilimdon va zo'r tajribali hakim ekanligini eshitib, uni o'z saroyiga taklif etgan. Xudoyor Yaypaniyni o'zining shaxsiy tabibi etib tayinlamoqchi bo'lgan. Ammo, Yaypaniy unga shaxsiy tabib bo'lishni istamagan. U Xudoyorning taklifini topshirgani kelgan elchilarga bunday degan: "Meni boylik va dabdabalar qiziqitirmaydi, chunki men boshimga yo'qsillik tojini kiyib olganman". Haqiqatan Yaypaniy juda kamtarin va hokisor kishi bo'lgan. U o'zining nihoyatda insonparvarligi va kishilarga nisbatan g'amxo'rliги bilan xalq o'rtasida juda katta hurmatga sazovor bo'lgan. Daromadi oz, kambag'al kishilarni bepul davolagan, ularga dorilarni ham tekinga bergan.

Yaypaniy farmakologiya ilmi bilan ham shug'ullangan. U dala va tog'lardan, dorivor o'simliklarni yig'ib kelib, ularni hayvonlarda (qo'zichoq va maymunlarda) sinab ko'rib so'ng kasallarga bergan. Dorivor o'simliklardan qaynatmalar, damlamalar, hablar, kukun dorilar (poroshoklar) va surtma dorilar tayyorlagan.

Yaypaniy ko'p qirrali olim edi. U falsafa, tarix va tabiiy fanlar sohasida ham chuqur bilimga ega bo'lgan. Masalan, uning Qo'qon xonligi tarixiga oid asari mavjud. Unda muallif Qo'qon xonligining barpo etilishi va uning rivojlanishini aniq dalillar bilan batafsil bayon etgan. Lekin, Yaypaniyning asosiy asarlari tibbiyotga oiddir. Bizga bu olimning tibga oid "Tariq ul-iloj" ("Davo o'lchovi"), va "Qonun ul-iloj" ("Tabiblik qonuni") nomli asarlari ma'lum.

"Tariq ul-iloj" 1913-yilda yozilgan. Kitob uch qismdan iborat. Birinchi qismda Farg'ona o'lkasining tarixi va Qo'qon xonlari haqida ma'lumot

berilgan. Ikkinchi qismda o'sha davrdagi xalq hayoti va turli tabaqalar haqida tanqidiy fikr yuritilgan. Unda o'zini bilimdon ko'rsatib yuruvchi nodonlar qattiq tanqid qilingan. Uchinchi qismda tibbiyotga oid masalalar bayon etilgan. Xususan, kasallarga to'g'ri tashxis qo'yish va davolash usullari ko'rsatilgan. Har xil dorivor moddalar, ulardan foydalanish usullari bayon etilgan. Kitob so'ngida o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan dorilarning turkiy tildagi nomlari keltirilgan.

"Qonun ul-iloj" tibbiyot, uning mohiyati va vazifalariga bag'ishlangan. Kitobda muallif dastlab, tibbiyotning mohiyati haqidagi boshqa mualliflarning fikrlarini keltiradi. Ularni bir-biriga taqqoslaydi. Mashhur hakimlar haqida ma'lumot ham beradi. So'ng tibbiyot ilmining turli masalalariga oid o'z fikrlarini bayon etadi.

O'zbek tabiblari to bizning davrimizgacha ham noto'g'ri rutubatlar nazariyasi va mavhum mizojlar tushunchasiga asoslanardilar. Bu hol Yaypaniyga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan edi. U kasalliklarning umumiy kelib chiqish sabablari masalasida shu tushunchalarga asoslanardi. Lekin, o'zining chuqur bilimi va tajribalariga suyanib, mizojning mohiyati haqida boshqacharoq fikr yuritgan. U "mizoj o'zgarmaydi, u nasliydir", degan fikrga qarshi o'laroq tananing bu xususiyati turg'un emas, u sharoitga qarab o'zgaradi, deb yozgan. Masalan, uning ko'rsatishicha yozda kishining mizoji issiq, qishda esa sovuq bo'lib qoladi.

Yaypaniyning kasallikning umumiy kelib chiqish sabablari haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovor. Uning yozishicha, tanadagi suyuqliklarning o'zi kasallik paydo qiluvchi ichki va tashqi omillarning ta'siri ostida bo'ladi. Masalan, bunga ovqatlanish tartibining buzilishi, noqulay ob-havo, og'ir jismoniy mehnat va ruhiy kechinmalarni kiritgan. Yaypaniy kasallikni paydo qiluvchi parazitlar mavjudligini ham bilgan. Masalan, u rishta va bezgak kasalligi tanaga shularni paydo qiluvchi mayda tirik jonzotlar kirishidan kelib chiqadi, deb yozgan. Yaypaniy odam ichaklarida yashaydigan gijjalarni ham bilgan. Demak, Yaypaniyning kasalliklar etiologiyasi haqidagi tushunchalari hozirgi zamon tushunchasiga yaqin bo'lgan.

Mahmud hakim Yaypaniy O'zbekiston tibbiyoti tarixida yirik olim va tajribali hakim sifatida alohida o'rin egallaydi. Yaypaniy 1930-yilda vafot etdi.

O'sha vaqtda Qo'qonda Hakimcha tabib ismli yana bir taniqli hakim yashagan. Ammo, bu hakim haqida yetarli ma'lumot mavjud emas. Biz bu hakim mashhur shoir, bastakor va dramaturg Hamza Hakimzoda Niyoziyning otasi ekanligini bilamiz, xolos. Hamzaning o'zi ham tibbiyotni yaxshi bilgan, tibbiyotga oid kitoblarni ko'p o'qigan. Uning kitob javonida kitoblar orasida tibga oid asarlar ham bo'lgan. Xususan, Hamza mashhur hakim Yusufiy (Yusuf ibn Muhammad al-Haraviy)ning "Iloj al-mroz" ("Tibbi Yusufiy") kitobini o'qiganini yozgan.

Samarqandda Atouлло tabib ismli hakim yashagan. U asli afg'onistonlik bo'lgan. XIX asrning oxirida Samarqandga ko'chib kelib, shu yerda yashab qolgan. Atouлло tabib bilan muloqotda bo'lgan kishilarning aytishlaricha, u chuqur bilimli va tajribali hakim bo'lgan, rus tilini o'rganib hozirgi zamon Ovrupo tibbiyoti bilan ham tanishgan. Lotin tilini ham o'rganib, shu tilda retsept yozishni ham bilib olgan. Lekin, kasallarga dorini ko'proq o'zi tayyorlab bergan.

Atouлло tabibning uyida kasallarni qabul qilish uchun maxsus xona ajratib qo'yilgan. Unda stol, stullar va karavot bo'lgan. Xonaning tokchalarida kitoblar, har xil shishalarda dorilar va dorixona jihozlari bo'lgan. Atouлло tabib bemorlarni o'z uyida yotqizib ham davolagan. Bunday bemorlar uchun 6 karavotli, alohida xonasi ham bo'lgan. Umuman, Atouлло tabib hozirgi zamon ilmiy-amaliy usullarini qo'llagan. Ammo, uning biror tibbiy maktabni bitirganligi ma'lum emas.

Atouлло tabib bemorlarni tekshirishda hozirgi zamon diagnostika usullaridan ham foydalangan. Masalan, u perkussiya, auskultatsiya, palpatsiya usullarini ishlatgan. Tomir urishini tekshirish usulini ham yaxshi bilgan. Kichik jarrohiya bilan ham shug'ullangan. Masalan, tanada paydo bo'lgan yiringli jarohatlarni kesib, uni chiqarib yuborish, og'riq tishni olib tashlash, chiqqan-singanlarni davolash va h.k.

Atouлло tabib juda yaxshi tajribaga ega bo'lgan. Kasallarga to'g'ri tashxis qo'yib muvaffaqiyatli davolagan. Shuning uchun unda faqat Samarqand xalqi emas, boshqa shaharlardan ham bemorlar kelib davolanaganlar.

XX asrning boshlarida Toshkentda Ahmadxo'ja hakim, Hoji hakim, Qodir hakim ismli taniqli tabiblar yashaganlar. Men ularni shaxsan bilganman. Ahmadxo'ja hakim mening bobomni davolardi. Men ko'pincha bobomning topshiriqlari bilan Ahmadxo'ja hakimning uyiga borib, dori olib kelardim. Hakim o'ltirgan uyning tokchalari kitobga to'la edi. Ammo, men bu kitoblarni qo'limga olib ko'rgan emasman. (U vaqtda men yosh bola edim.)

Hoji hakim va Qodir hakimlar ham xalq o'rtasida juda hurmatlanar edilar. Ammo, ular haqida yetarli ma'lumot mavjud emas.

O'zbekiston shaharlarida boshqa mamlakatlardan kelgan hakimlar ham yashardilar. Biz yuqorida Afg'onistondan kelgan Atouлло hakim haqida yozgan edik. O'sha vaqtda Toshkentda yana bir afg'onistonlik hakim yashardi. Uning ismini biz bilmas edik. Xalq uni "Afg'on tabib" deb atardi xolos.

Toshkentda Arabistondan kelgan Abu Bakr ibn Muhammad ismli tabib ham yashar edi. U bizning mahallamizda turardi, oilasiz, bir o'zi yashardi. Kichkina hovlisi va bitta uychasi bor edi, xolos. Shu uychada o'zi ham yashardi, kasallarni ham qabul qilardi. Uychasining tokchalarida juda ko'p kitob saqlanardi.

Abu Bakr tabib kasallarni muvaffaqiyatli davolardi. Ularga dorini ham o'zi tayyorlab berardi. Shunday qilib, O'zbekistonda yerli hakimlardan tashqari boshqa mamlakatlardan kelgan hakimlar ham yashardilar va tabiblik ishi bilan shug'ullanardilar.

O'sha vaqtdagi ba'zi o'zbek ziyolilari tibbiyot ilmidan xabardor bo'lganlar. Ba'zilari bu ilmni chuqurroq o'rganib, amaliy tibbiyot bilan ham shug'ullanganlar. Biz yuqorida Hamza Hakimzoda Niyoziyning tibbiyotni yaxshi bilganligini ko'rsatib o'tgan edik. Boshqa bir taniqli o'zbek shoiri Furqat (Zokirjon Mullo Xolmuhammad o'g'li) ham yaxshi tabib edi. Uning tashqari hovlisida dori-darmonlar tayyorlab sotiladigan do'konchasi bo'lgan. Shu yerda u bemorlarni qabul qilgan va ularga dori tayyorlab bergan. Furqatning rafiqasi ham tabiblar oilasidan bo'lgan. O'zi ham tibbiyotni yaxshi bilgan, u asosan bemor ayollarni davolagan.

Muqimiy (Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li) ham tibbiyot va sog'liqni saqlash ishlari bilan qiziqqan. U aholi salomatligi masalasida so'z yuritib, o'sha davrdagi hayot (aholining qashshoqligi, tibbiy yordamning yetarli emasligi va h.k.) xalqning salomatligiga salbiy ta'sir etib, har xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda, deb yozgan edi.

Buxorolik mashhur ma'rifatparvar Ahmad Donish va xorazmlik taniqli ziyokor Komil Xorazmiy ham tibbiyot bilan qiziqqanlar. Komil Xorazmiyning tashabbusi bilan Xivada zamonaviy (Ovrupocha tuzilishdagi) kasalxona barpo etilgan edi. Ammo, u juda kichik (faqat 15 o'rinli) bo'lgan. Butun bir viloyat aholisi uchun 15 o'rinli kasalxona yetishmasdi, albatta. Lekin uning barpo etilishi o'sha vaqt uchun katta ijobiy voqea edi.

O'zbekistonda xalq tabobati, deb ataluvchi tibbiyot ham mavjud. Bu tibbiyot xalqning faqat empirik tajribasiga asoslanadi. Kasallarni davolashda asosan har xil shifobaxsh o'simliklardan foydalanadi. Ba'zi bir oddiy muolaja usullari (qon olish, zuluk solish, og'riq tishni olib tashlash, tananing biror yeriga yig'ilib qolgan yiringni kesib, chiqarib yuborish, chiqqan-singanlarni davolash va h.k.) ham ishlatiladi.

Xalq tabobatining tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Aslini olganda yer yuzida tibbiyot dastlab aynan xalq tabobati sifatida kelib chiqqan. Xalq tabobati tibbiyotning shakllanayotgan davridagi tibbiyotdir.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra xalq tabobati insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki bosqichida, ibtidoiy jamoa davrida zarurat tufayli paydo bo'lgan. Demak, xalq tabobati ibtidoiy odamlar tibbiyotidir. U vaqtdagi muolaja usullari xalqning empirik tajribasiga asoslangan. Tibbiyot tom ma'nosi bilan xalq tabobati edi. Insoniyat taraqqiyotining keyingi davrlarida kasallarga tashxis qo'yish va ularni davolashda orttirilgan tajribalar umumalshtirilib, xulosalar chiqarilib, ilmiy tibbiyot shakllandi. Ammo, xalq tabobati ham yashashda davom etdi. Ilmiy tibbiyotdan foydalanish

imkoniyatiga ega bo'lmaganlar (kambag'allar, ilmiy tibbiyot borib yetmagan joyda yashovchilar) xalq tibbiyotidan foydalanardilar.

Biz yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, xalq tabobatining asosiy muolaja usuli har xil shifobaxsh o'simliklarni ishlatishdan iborat. Ammo, bu o'simliklar ko'pincha laboratoriya usuli bilan tekshirishdan o'tkazilmagan bo'ladi. Xalq tabobatining vakillari ba'zi o'simlikning u yoki bu kasallikda yordam berishini biladilar-u, lekin, o'simlikdagi shifobaxsh moddaning kimyoviy tarkibi qanaqa, u qanday xususiyatlarga ega ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun, ularning muolajalari aniq-ravshan emas. Ikkinchidan xalq tabobati kasallikni emas uning belgilarini (simptomlarini) davolaydi. Bu usul bemordagi kasallik alomatlarini yo'qotsa ham, uni kasalliklardan butunlay sog'aytirib yubormaydi.

Xalq tibbiyotining vakillari ko'pincha biror tibbiy o'quv yurtida bilim olmagan, ilmiy tibbiyotdan xabarsiz kishilardir. Shuning uchun ular odam organizmi, uning tuzilishi, unda sodir bo'ladigan fiziologik, biologik va patologik jarayonlar haqida juda yuzaki tushunchaga ega bo'ladilar. Bu jarayonlarni bilmay turib, kasalga to'g'ri tashxis qo'yish mumkin emas. To'g'ri tashxis qo'ymay turib bemorni davolash ham mumkin emas. Lekin, ba'zan xalq tabobatining vakillari bemorni muvaffaqiyatli davolaydilar. Bunda ular o'zlarining empirik tajribalari va intuitsiyalariga suyanadilar. Ammo, xalq tabobatining vakillari orasida kasalliklar haqida juda yuzaki tushunchaga ega bo'lgan, haqiqiy tibbiyotdan uzoq tasodifiy kishilar ham oz emas. Hatto bemorlarni aldab yurivchi firibgarlar ham kam uchramaydi.

Keyingi vaqtda shaxsiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berilganligi natijasida har xil sohalarda bo'lganidek, tibbiyot sohasida ham o'z hunarini suiiste'mol qiluvchilar ko'payib ketdi. Ayniqsa, xalq tabobati "jonlanib" ketdi. Xalq tabobatiga ko'r-ko'rona ergashayotgan oddiy xalq bu tabobatning "kuchi"ga ishonib bormoqda. Hatto xalq tabobatining "afzalligi" haqida maqolalar ham yozilmoqda. Xalq tabobati shu darajaga borib yetdiki, ba'zi bir mualliflar "haqiqiy tibbiyot" xalq tabobatidir, ilmiy tibbiyot esa dogma, ya'ni safsatadir, deb da'vo qilmoqdalar. Bu yerda masala oyog'i osmondan qilib qo'yilgan. Haqiqatda esa xalq tabobati dogmadir. Chunki, u masalani eksperimental usul bilan tekshirib ko'rmay, ko'proq empirik tajriba va intuitsiyaga suyanadi.

Ilgarigi vaqtlarda ilmiy tibbiyot yo'qligida, yoki kishilar undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmaganlarida xalq tabobatidan foydalanganlar. Endi ilmiy tibbiyot kasallarga tashxis qo'yish va ularni davolashda ulkan natijalarga erishgan vaqtda xalq tabobatidan, ya'ni ibtidoiy odamlar tibbiyotidan foydalanishga qanday zarurat bor? To'g'ri xalq tabobati ba'zan ayrim kasalliklarni muvaffaqiyatli davolaydi. Buni inkor etib bo'lmaydi, albatta. Lekin, bu muvaffaqiyat ko'pincha tasodifiydir.

Chunki, xalq tabobati vakillari tibbiy bilimga ega bo'lmaganlari sababli kasallik holatida bemor organizmida qanday patologik o'zgarishlar yuz berishini bilmaydilar. Buni bilmay turib, bemorni davolash mumkin emas. Umuman olganda xalq tabobatining vakillari unchalik og'ir bo'lmagan kasalliklarni davolay oladilar. Murakkabroq kasalliklarga ularning "tishi o'tmaydi". Obrazli qilib aytsek, xalq tabobati ichida bitta-ikkita gavhar topiladigan katta bir uyum tosh-shag'aldir. Bitta-ikkita gavhar deb, tog'dek uyulib yotgan keraksiz tosh-shag'alni kavlayverish aqldanmi?

MUSTAMLAKA DAVRIDAGI TIBBIYOT

XIX asrning 60-yillarida O'rta Osiyo hududining ko'p qismi rus podshosining qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Qo'qon xonligi tugatildi. Uning o'rnida chor hukumatining Turkiston general-gubernatorligi barpo etildi. Uning tarkibida harbiy-tibbiy boshqarma tashkil etildi.

Xiva xonligi bilan Buxoro amirligi rasmiy jihatdan mustaqilliklarini saqlab qoldilar, ammo, ular chor hukumatining ta'siriga tushib qolgan edilar. 1886-yilda Turkiston general-gubernatorligi "Rossiyaning Turkiston o'lkasi", deb e'lon qildi.

O'rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan so'ng bu yerda muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi.

Siyosiy jihatdan o'zbek xonliklari chor hukumatiga qaram bo'lib qoldilar. Iqtisodiy jihatdan bu yerda qisman jonlanish yuz berdi. Xususan, qishloq xo'jaligi (paxtachilik) rivojlana boshladi. Rus kapitalistlari o'zbek paxtasini arzon narxda sotib olib, tashib keta boshladilar. Shu munosabat bilan paxta maydonlari kengaytirildi. Yangi ekin maydonlari ochildi. Ammo, dehqonlarning ish sharoiti o'zgarmay qoldi. Dehqonchilikda ishlatiladigan texnika juda oddiy edi. Oddiy omoq va ketmondan boshqa hech qanday texnika yo'q edi. Hamma ish qo'l kuchi bilan bajarilardi. Bunday og'ir mehnat va o'lkaning o'ziga xos jazirama sharoiti kishilarning tinkasini quritib, ular o'rtasida har xil kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lardi. Bundan tashqari o'lka sharoitiga xos kasalliklar (bezgak, leishmanioz, brutsellyoz, rishta va h.k.) ham tarqalgan edi. O'lkada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini dastlabki ishlash korxonalari (paxta tozalash zavodlari, moy va sovun ishlab chiqaruvchi korxonalar) qurildi. Ammo, bu korxonalarda ish sharoiti og'ir edi. Mehnatni muhofaza qilish choralari amalga oshirilmas edi. Bu korxonalarda ishlovchi ishchilarga tibbiy yordam tashkil qilinmagandi. Ishchilar og'ir sharoitda 12—14 soatlab ishlardilar. Bu sharoitlar ham ishchilarning sog'liqlariga putur yetkazardi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra faqat 1893-yilning o'zidagina o'lkada 200000 dan ortiq kishi bezgak kasalligi bilan og'rib, shulardan 40 ming kishi vafot etgan. Boshqa kasalliklardan ham ko'p kishi halok bo'lgan. Mahalliy

tabiblar bunday ahvolni tuzatishga ojiz edilar. O'lkada xalq sog'lig'ini saqlash ishiga rahbarlik qiladigan birorta tashkilot yo'q edi. Faqat rus o'lkada ma'muriyatiga qarashli ba'zi tibbiy muassasalar bor edi, xolos.

Ruslar Turkistonni bosib olganlaridan so'ng har bir shahar va kattaroq qishloqlarda o'z harbiy garnizonlarini joylashtirdilar. Shu garnizonlarda harbiy vrachlar bor edi. Bundan tashqari kattaroq shaharlarda harbiy ospitalar ochildi. Ammo, bu harbiy vrachlar va ospitalar mahalliy aholiga tibbiy yordam ko'rsatmasdilar. Keyinroq fuqaroviy tibbiy muassasalar ham paydo bo'la boshladi. Bular ham Rusiyadan ko'chirib olib kelingan fuqarolarga tibbiy yordam ko'rsatardilar. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 1868-yilda Toshkentda 30 o'rinli harbiy lazaret ochildi. U 1870-yilga kelib, 400 o'rinli harbiy ospitalga aylantirildi. 1870-yilda Samarqandda 15 o'rinli kasalxona ochildi. 1873-yilda shunga o'xshash kasalxona Kattaqo'rg'on shahrida barpo etildi. 1883-yilda Toshkentda ayollar shifoxonasi (ambulatoriyasi) ochildi. 1886-yilda erkaklar shifoxonasi tashkil etildi. Shu kabi ambulatoriyalar Samarqand (1886-y.), Anidijon (1887-y.) va Xo'jandda (1889-y.) ochildi. Nihoyat, 1898-yilda Toshkentning Eski jo'va mavzeida shahar aholisi uchun 20 o'rinli kasalxona ochildi. So'ng bunday kasalxonalar Samarqand, Xiva va Buxoroda ham barpo etildi. Ammo, bu kasalxonalar juda kichik (10—15 o'rinli) va yetarli darajada jihozlanmagan muassasalar edilar.

1874-yilda Toshkentda birinchi zamonaviy dorixonona ochildi. U shahar hokimiyati qaramog'ida edi. So'ng xususiy dorixonalar ham paydo bo'la boshladi. 1913-yilga kelib ularning soni 33 taga yetdi. Bu kasalxona, ambulatoriya va dorixonalar mutlaqo yetarli bo'lmasalar ham, ularning o'lkada paydo bo'lishi tibbiyot olamida ijobiy hodisa edi. Bu yerda yana shuni ko'rsatib o'tish kerakki, o'lkada zamonaviy shifoxona va dorixonalarining paydo bo'lishi mahalliy tabiblarning faoliyatiga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, ular kasallarni davolashda zamonaviy dorixonadan sotib olingan dorilardan ham foydalana boshladilar.

Ammo, tibbiyot sohasidagi bu o'zgarishlar Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududida amalga oshirilmadi. Chunki, bu xonliklar rasmiy jihatdan mustaqil hisoblanardilar. Bu xonliklarda eski qonun va qoidalar o'zgarmay saqlanib qolgan edi. Hayot eskicha davom etardi. Turkiston o'lkasida yuz bergan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar bu xonliklarga yoyilmagan edi. Xiva va Buxoroda ochildi ikki kasalxona faqat ramziy rol o'ynardi, xolos. O'lkaga rus (Ovrupo) vrachlarining kelishi ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston hududida uchraydigan kasalliklar rus soldatlari va Rusiyadan ko'chirib olib kelingan rus fuqarolari o'rtasida ham tarqala boshladi. Xususan, ular bezgak, rishta, jomon jarohat va

shularga o'xshash kasalliklar bilan og'riy boshladilar. Harbiy boshliqlar buni ko'rib, garnizonlarda xizmat qiluvchi vrachlarga bu kasalliklarni o'rganish va soldatlarni ulardan xoli qilishni buyurdilar. Vrachlar bu ishga kirishdilar va muhim natijalarga erishdilar. Masalan, Samarqand garnizonining vrachi K.M.Aframovich va Jizzax garnizonining vrachi T.Klopotovskiy rishta kasalligini tekshirib, bu kasallikni maxsus gijja (gelmint) paydo qilishini aniqladilar. Toshkent garnizonining vrachi P.F.Borovskiy yomon jarohat (Leishmanioz)ning qo'zg'atuvchisini topdi. Rus olimi K.I.Skryabin yangi shistosoma gijasini aniqladi. Bu kashfiyotlar muhim amaliy ahamiyatga ega edi. Ammo, u davrda rus podshosining Turkistondagi hokimi general-gubernator bu kashfiyotlardan foydalanib, o'lkada tarqalgan kasalliklarni tugatishni xayoliga ham keltirmasdi. Binobarin, mustamlakachi chor Rusiyasining bizga keltirgan tibbiyoti "dengizdan bir tomchi" edi, xolos.

XV bob

OVRUPO MAMLAKATLARIDA SANOAT KAPITALIZMI DAVRIDAGI TIBBIYOT

Ovrupo mamlakatlarida uygʻonish davridan soʻng iqtisodiy hayot, fan va madaniyat sohasida yangi davr boshlandi. Shaharlarda yirik sanoat korxonalari, fabrika va zavodlar paydo boʻldi. Ularda texnika vositalari qoʻllanila boshladi. Tabiiy fanlar, ayniqsa aniq fanlar (mexanika, matematika, fizika) rivojlanib ketdi. Bu jarayon XVIII—XIX asrga kelib ayniqsa tezlashdi. Bunday umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham rivojlandi. Yangi-yangi tashxis usullari ishlab chiqildi, kasallarni davolash takomillashtirildi. Tibbiyotda ishlatiladigan dorilarning xillari koʻpaydi, kasallarni davolashda kimyoviy moddalardan koʻproq foydalana boshladilar. Tibbiyot sohasida yirik kashfiyotlar qilindi. Tibbiyotning nazariy asoslari ham chuqurroq ishlab chiqildi.

Tibbiyotning bu davri uch buyuk kashfiyot bilan bogʻliqdir. Bular — moddaning saqlanish qonuni, hujayra nazariyasi va evolutsion rivojlanish qonuni. Bu kashfiyotlar va texnika sohasidagi yangiliklar tibbiyotning tez rivojlanishida katta rol oʻynadilar.

Darvinning evolutsion nazariyasi sogʻ va kasal organizmning tashqi muhit bilan munosabatini aniqlashga yordam berdi. Xususan, kasallikning paydo boʻlishi, uning oqibatlarini toʻgʻri anglash va munosib davolash choralarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Ilgari kasalliklarning kelib chiqishi masalasida tashqi muhitning taʼsiri yetarlicha eʼtiborga olinmasdi. Endi Darvin nazariyasiga binoan kasallarga muolaja qilishda u yashab turgan muhit hisobga olinadigan boʻldi.

NAZARIY TIBBIY BILIMLARNING RIVOJLANISHI

Biz yuqorida koʻrsatib oʻtganmizdek, XVIII—XIX asrlarda Ovrupoda nazariy va amaliy tibbiyotning hamma yetakchi sohalari juda tez rivojlandi va katta natijalarga erishdi. Nazariy tibbiyot fanlaridan birinchi oʻrinda anatomiya va fiziologiya turardi. Haqiqiy odam anatomiyasiga belgiyalik olim **Andreas Vezalius** asos solgan edi. Vezaliusdan boshlab anatomiya fani asta-sekin rivojlanib, takomillashib bordi. Soʻng mikroskopik anatomiya (gistologiya) fani kelib chiqdi. Bu fanning asoschisi chex

olimi **Yan Purkinye** (1787—1869) hisoblanadi. U 1837-yilda birinchi bo'lib hayvon va odam organlari hujayralardan iborat ekanligini ko'rsatib berdi. Makroskopik anatomiya ham rivojlanishda davom etdi. Uning yangi sohalari kelib chiqdi. Masalan, shulardan biri topografik anatomiya edi. Bu fanning asoschilaridan biri rus olimi, mashhur jarroh **N.I.Pirogov** (1810—1881) dir.

Topografik anatomiya ichki a'zolarining joylashishi va ularning bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlarini o'rganuvchi fandir.

O'sha davrda taqqoslash anatomiyasi va yosh anatomiyasi fanlari ham shakllandilar. Nihoyat, patologik anatomiya fani ham kelib chiqdi. Bu fanning asoschisi Italiya olimi **Jovanni Battista Morgani** edi (1687—1771). Jovanni Battista dastlab normal (sog'lom) odam anatomiyasini o'rgandi. So'ng har xil kasalliklarda odam a'zolarida qanday o'zgarishlar paydo bo'lishini tekshira boshladi. U juda ko'p tekshirishlar o'tkazib, har xil kasalliklarda, har xil a'zolarida turli xil o'zgarishlar paydo bo'lishini aniqlab berdi. Bu bilan Battista yangi fan — patologik anatomiya faniga asos soldi. Rudolf Virxof (1821—1902) bu ishni mikroskopik usulda amalga oshirdi va sellular patologiya (hujayra patologiyasi) nazariyasini ishlab chiqdi.

Patologik anatomiya fani juda muhim amaliy ahamiyat kashf etdi. U tabiblarga qanday kasalliklarda qanday a'zolarida, qanday o'zgarishlar ro'y berishini ko'rsatdi. Bu esa klinik tibbiyotning tez rivojlanishiga yordam berdi. Shunday qilib, tibbiyot yanada takomillashdi, kasalliklar haqidagi tushunchamiz chuqurlashdi.

XVIII—XIX asrlarda tibbiyotning yana bir muhim nazariy sohasi — fiziologiya juda tez rivojlandi va katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu sohada eksperimental usul keng qo'llandi. Bu usul barcha a'zolar funksiyasini chuqur o'rganish imkoniyatini yaratdi. Eksperimental usul markaziy asab tizimini tekshirishda ham qo'llandi. Buning natijasida asab tizimining funksiyasini tekshirishda ham muhim muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu usulni mashhur rus fiziologi I.P.Pavlov mukammal ishlab chiqdi va rivojlantirdi.

Eksperimental fiziologiyaning asoschilaridan Fransua Mojandi, Iogann Myuller, Dyubua Reymon, Klod Bernar, Gelmgols Germann kabi fiziologlar bu fanning rivojlanishiga ayniqsa katta hissa qo'shdilar.

Fransua Mojandi (1783—1855) XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashagan taniqli fiziolog olim bo'lgan. U eksperimental fiziologiya fanining asoschilaridan biri hisoblanadi. Mojandi eksperimental usulning muhimligini ta'kidlab, "Bizning fiziologiya sohasidagi bilimimizning manbai faqat tajribadir", deb yozgan edi. Bu olim eksperimental fiziologiya usulini takomillashtirdi. Masalan, u orqa miyani yangi eksperimental usulda o'rganib, uning oldingi va orqa ildizlarining funksiyalarini aniqlab berdi.

Mojandi boshqa a'zolarining funksiyalarini ham har tomonlama tekshirdi. Ammo, bu masalada xatoga ham yo'l qo'ygan edi. Mojandi fiziologik jarayonlar oddiy fizika — kimyoviy reaksiyalardan iborat, deb o'ylagan edi. Chunonchi, tomirlarda qonning oqishi oddiy gidravlika qonuni asosida amalga oshadi, deb tushunardi. Shunday bo'lsa ham Mojandi fiziologiya fanining rivojiga katta hissa qo'shgan olim hisoblanadi.

Iogan Myuller (1801—1858). Bu olim ham o'sha davrning yirik eksperimentator olimlaridan biri bo'lgan, u bu sohada yuksak natijalarga erishdi.

Iogan Myuller o'zining tajribalari asosida ko'pgina fiziologik jarayonlarning mohiyatini ochib berdi, yirik kashfiyotlar qildi.

Myuller ko'rish, eshitish, so'zlash va siydik ajratish yo'llarining funksiyasini tekshirdi. Organizmdagi qonning tarkibini o'rgandi, ichki sekretiya bezlarining ishini tekshirdi.

Myuller shu a'zolarining ish jarayonini boshqarib turuvchi qandaydir hayotiy kuch (vita) bor, deb faraz qilgan edi. Bu tushuncha fiziologiyada vitalizm nomi bilan ma'lumdir.

Dyubua Reymon (1818—1896). Bu olim fiziologiyaning yangi sohasini — elektrofiziologiya usulini ishlab chiqdi. U hayvonlar organizmida elektrofiziologik jarayonlar ro'y berishini aniqladi.

Dyubua Reymon mexanik materializm nuqtai nazarida turardi. Ammo, fiziologik jarayonlarni mexanika qonunlari asosida tushuntirib bo'lmashligini bilganidan so'ng, bu jarayonlarni umuman tushunib bo'lmaydi, deb oxirida agnostitsizm tushunchasi tomoniga o'tib ketdi va hayotiy jarayonlarning mohiyatini hech qachon bilib yetmaymiz, degan xulosaga keldi. Agnostitsizmning mashhur "ignoramus et ignorabimus" ("bilmaymiz va hech qachon bilib yetmaymiz") degan formulasini shu Dyubua Reymon aytgan edi.

Klod Bernar (1813—1878). Bu olim fiziologiya fanining juda ko'p sohalarini ishlab chiqqan edi. Ayniqsa, ovqat hazm qiluvchi a'zolari, ichki sekretiya bezlari va qon aylanishi jarayonlarini chuqur o'rgandi. Olim fiziologiyada eksperimental usulni joriy etishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

Klod Bernar eksperimental patologiya fanining asoschilaridan biri edi. Umuman bu olim zamonaviy fiziologiya fanining shakllanishida asosiy o'rin egallagan, deyish mumkin. Ammo, Klod Bernar ham fiziologik jarayonlarning mohiyatini ochib bera olmadi.

German Gelmgols (1821—1894). Bu olim o'zi psixiatr bo'lgan. Fiziologiya fani bilan ham shug'ullangan. Fiziologik va patologik jarayonlarning mohiyatini tushunish ustida ko'p tekshirishlar o'tkazgan. 1847-yilda "Kuchning saqlanishi haqida", deb ataluvchi kitob yozib, unda organizmda energiya saqlanishini matematik jihatdan asoslab berdi.

Bu bilan Gelmgols o'sha vaqtda keng tarqalgan "hayotiy kuch" haqidagi tushunchani inkor etdi. Olim sezish organlari (ko'rish, eshitish va h.k.) va mushaklar ishi fiziologiyasini aniq ishlab chiqdi.

Gelmgols stixiyali materializm nuqtai nazarida turardi, u vitalistik va metafizik nazariyalarga qarshi edi. Ammo, Gelmgolsning materializmi izchil emas edi. Masalan, u atrof-muhitning real ekanligini tan olgani holda, kishining atrof-muhit haqidagi tushunchasi shartli belgilar yig'indisidan iborat, deb xatoga yo'l qo'ygan edi.

Shunday qilib, XIX asr fiziologlari bu fanni rivojlantirishda, ayniqsa, eksperimental usulini taraqqiy ettirishda juda katta yutuqlarga erishgan bo'lsalar ham, fiziologik jarayonlarning mohiyati masalasida boshi berk ko'chaga kirib qo'lgan edilar. Bu muammoni rus fiziolog olimi I.M.Sechenov o'zining reflektor nazariyasi asosida hal qilib berdi. U hamma fiziologik jarayonlar reflektor prinsipida amalga oshishini isbot etdi.

I.M.Sechenov boshlab bergan ishni ikkinchi mashhur rus fiziologi I.P.Pavlov (1849—1936) davom ettirdi. Bu olim fiziologiyada yangi soha — shartli refleks nazariyasini ishlab chiqdi.

I.P.Pavlov ko'proq oliy asab tizimi fiziologiyasi ustida ilmiy ish olib bordi va muhim kashfiyotlar qildi. Xususan, u bosh miyaning funksiyasi ham reflektor usulida amalga oshishini isbot qildi.

XIX asr tibbiyot fanining erishgan muhim yutuqlaridan biri — mikroorganizmlar haqidagi fanning shakllanishi bo'ldi. Bu fanga birinchi qadam XVII asrda qo'yilgan edi. Uni gollandiyalik olim Antoni Levenguk boshlab bergan edi. Levenguk o'zi ixtiro etgan oddiy mikroskop orqali atrof tabiatni tekshirib, unda son-sanoqsiz kichik tirik mavjudotlar (mikroorganizmlar) mavjudligini aniqlagan edi. Bu masalaga boshqa olimlar ham qiziqib qolib, so'nggi asrlar davomida juda ko'p tekshirishlar o'tkazdilar. O'sha vaqtda mikroskop ham takomillashtirildi. Juda mayda mavjudotlarni (mikroblarni) ham ko'rish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu mavjudotlarni o'rganadigan maxsus fanlar — mikrobiologiya, bakteriologiya, virusologiya, parazitologiya va boshqa fanlar kelib chiqdi. Tabiatdagi ko'zga ko'rinmas mavjudotlarni har taraflama chuqur o'rganish, ular ichida zararlilari ham bo'lishini ko'rsatdi. Shu zararlilari har xil yuqumli kasalliklarni paydo qilishi aniqlandi. Har bir yuqumli kasallikning o'z mikrobi borligi ma'lum bo'ldi. Bu kashfiyotlar, ayniqsa, XIX asrning oxiri va XX asrda ko'p qilindi. Chunonchi, 1839-yilda nemis olimi Iogan Lukas Shonlein (1793—1864) ipsimon zamrug'larni topdi. Bu bilan parazitologiya faniga asos solindi.

Mashhur fransuz olimi Lui Paster (1822—1913) o'z tekshirishlari natijasida achish jarayoni mikroblar tufayli ro'y berishini aniqladi. 1880-

yilda quturish kasalligiga qarshi vaksinatsiya usulini ishlab chiqdi. 1885-yilda bu usulni birinchi marta amalga oshirdi.

1876-yilda mashhur nemis olimi Robert Kox (1843—1910) kuydirgi kasalligini paydo qiluvchi mikrobnı topdi. 1882-yilda esa sil kasalligining mikrobnı aniqladi. 1883-yilda u insonlar uchun eng xavfli bo'lgan vaboning mikrobnı aniqladi. Robert Kox jarohatlangan va operatsiya vaqtida kesilgan joyda paydo bo'luvchi yiringlanishning sababini aniqladi. Paul Erlix (1854—1915) mikroblar har xil kimyoviy moddalarga nisbatan o'zlarida turg'unlik xususiyati paydo qilishlari mumkinligini isbotladi. Shunday qilib, yiringli jarayonlarda mikroblar sababchi ekanligi ma'lum bo'ldi. Shunga asosan mashhur ingliz jarrohi Jozef Lister (1827—1912) aseptika va antiseptika usulini ishlab chiqadi. 1880-yilda K.Ebert ich terlama kasalligining mikrobnı aniqladi. Shu yili A. Laveran tropik bezgak kasalligini qo'zg'atuvchisini topdi. 1885-yilda K. Golji, 1890-yilda D. Grassi va P.Fellet uch kunlik va to'rt kunlik bezgakning qo'zg'atuvchisini topdilar. 1895-yilda rus olimi P.F.Borovski teri leyshmaniozining qo'zg'atuvchisini aniqladi. 1883-yilda N.D.Monastirskiy qoqshol kasalligining mikrobnı topdi. 1886-yilda D.Bryus qora oqsoq (brutsellyoz) kasalligining sababchisini aniqladi. 1894-yilda A.Yersen va A.Kitozato toun (o'lat) kasalligining mikrobnı topdilar. Shu yili Emil Ru (1853—1933) difteriyaning antitoksin zardobini kashf etdi. Bu kashfiyot difteriya kasalligini tugatishda muhim rol o'ynadi. 1903-yilda A.Negri quturish kasalligining sababchisini, 1909-yilda amerikalik olimlar G.Rikkets va S.Vilder hamda chex olimi S.Provachek toshmali tif kasalligining sababchisini aniqladilar.

Mikrobiologiya va virusologiya fanining rivojlanishi natijasida, deyarli hamma yuqumli kasalliklarning sababchilari aniqlandi. Bu amaliy tibbiyot sohasidagi katta yutuq edi. Bu kashfiyotlar yuqumli kasalliklarga qarshi profilaktika va davolash tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Anatomiya, fiziologiya va mikrobiologiya sohalaridagi yutuqlar hamda fizika, kimyo, optika kabi fanlarning rivojlanishi natijasida yangi diagnostik va davolash usullari ishlab chiqildi.

DIAGNOSTIKA VA DAVOLASH SOHASIDAGI KASHFIYOTLAR

XIX—XX asrlarda diagnostika sohasida fizikaviy, kimyoviy va biologik vositalardan keng foydalana boshlandi. Bular yordamida auskultatsiya, perkussiya, elektrokardiografiya, rentgenoskopiya, mikroskopiya va fiziologik hamda bioximik tekshirish usullari amalga oshirildi.

Auskultatsiya. Bu usulni fransuz olimi Rene Laennek (1781—1826) ishlab chiqdi. Umuman bu usuldan qadimgi mashhur hakimlar

(Gippokrat, Ibn Sino vah.k.) ham foydalangan edilar. Gi ppokrat o'z kitobida bu usul haqida anchabatafсил ma'lumot bergan edi. Laennek Gi ppokratning bu usul haqidagi yozganlarini o'qib, amalda uni tekshirib ko'rди va bu usul yurak va o'pka kasalliklarini aniqlashda juda qulay ekanligini ko'rди.

Qadimgi hakimlar yurak va o'pka kasalliklarini auskultatsiya usuli bilan aniqlashda o'z quloqlarini shu a'zolar joylashgan joyga to'g'ridan-to'g'ri qo'yib eshitar edilar. Laennek ham dastlab shunday qilgan edi. Lekin bir sabab bilan duradgorga stetaskop yasatib shu orqali eshita boshladi.¹ Bu usul to'g'ridan-to'g'ri quloq qo'yib eshitishga nisbatan afzal bo'lib chiqdi. Chunki, to'g'ridan-to'g'ri quloq qo'yib eshitishda tana bilan vrach qulog'ining bir-biriga ishqalanishi natijasida paydo bo'ladigan qo'shimcha tovushlar bunda bo'lmas ekan.

Laennek auskultatsiya usuli haqidagi o'z tajribalarini umumlashtirib, 1819-yilda maxsus asar yozib unda bu usulning metodikasini va uning ijobiy tomonlarini ko'rsatib berdi. Auskultatsiya usuli tufayli ko'krak qafasidagi organlarning ko'pgina kasalliklarini aniq belgilash imkoniyati paydo bo'ldi.

Perkussiya. Bu usulni venalik mashhur olim Leopold Auenbrugger (1722—1809) ishlab chiqdi. Bu usuldan ham o'z vaqtida Gi ppokrat bilan Ibn Sino foydalangan edilar. Auenbrugger bu usulni takomillashtirdi. U 1761-yilda maxsus kitob yozib, unda perkussiyani qanday amalga oshirish, undan qanday foydalanish kerakligini ko'rsatib berdi. Ammo, dastlab bu usul uncha keng tarqalmadi. Chunki, uni har bir tabib ham qila olmas edi. Bu usul ma'lum tajriba talab etardi. Shuning uchun Auenbruggerdan keyin bu usul bir qancha vaqt foydalanilmay qoldi. Hatto bu usulga qarshi chiquvchilar ham bor edi. Ammo, keyinroq perkussiya usuli foydali ekanligi isbot etildi.

Fransuz olimi Jan Nikol Korvizar (1755—1821) Auenbruggerning perkussiya usuli haqidagi asari bilan tanishib, 20 yil davomida bu usulni tekshirdi va takomillashtirdi. 1808-yilda Auenbruggerning asarini fransuz tiliga tarjima qilib chop ettirdi. 1818-yilda bu haqda o'zi asar yozib, unda perkussiya usulini foydali ekanligini isbotlab berdi. Shundan keyin perkussiya usuli keng tarqala boshladi. Bu usul asosan ko'krak qafasidagi organlarni (o'pka, yurak) tekshirishda ishlatiladigan bo'ldi.

Elektrokardiografiya (yurak harakati vaqtida unda paydo bo'ladigan elektrik jarayonlarni yozib olish usuli). Bu usul gollandiyalik olim

¹ Ish bunday bo'lgan ekan: bir katta lavozimdagi kishining xotining yuragi kasal ekan. Laennek xotiningizning yuragi qanday kasallikka duchor ekanligini aniqlash uchun men qulog'imni qo'yib yurakning ishini tekshirishim kerak, debdi. U kishi xotining ko'kragiga begona kishi qulog'ini (demak boshini) qo'yishini istamabdi. Shunda Laennek stetaskop yasatib, bemorning yuragini shu asbob orqali eshitibdi. Shunday qilib stetaskop kashf etilibdi. Boshqa bemorlarni ham shu bilan eshita boshlabdilar.

Eyntxoven (1860—1927) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu usul yordamida yurakning turli fiziologik va patologik holatlari aniqlanadi. Yurak kasalliklarini aniqlashda bu usul juda qulaydir. Eyntxoven o'z kashfiyoti bilan klinik diagnostika usuliga muhim hissa qo'shdi.

Rentgenoskopiya. Bu usulga Vilgelm Konrad Rentgen ismli fizik olim asos solgan. U 1895-yilda tasodifan ko'zga ko'rinmas nurni kashf etdi. Bu nur Rentgen nuri, deb ataldi. Nur tekshirib ko'rilganida u tananing yumshoq qismlaridan o'tib keta olishligi, qattiq qismlarda, masalan, suyakda esa ushlanib qolishligi ma'lum bo'ldi.

Bu nur turli a'zolarida turli darajada ushlanib qolar ekan. Shunga asosan a'zolari rentgen nurlari yordamida tekshirish usuli ishlab chiqildi. Ayniqsa yurak va o'pkaning holatini tekshirishda bu usul juda qulay keldi. Keyinchalik boshqa a'zolar (me'da-ichaklar, buyrak va h.k.) ham rentgenologik usulda tekshirila boshladi. Rentgenoskopiya (a'zolari rentgen nurlari yordamida ko'zdan kechirish)dan so'ng, rentgenografiya (ichki a'zolari rentgen nurlari bilan suratga olish) usuliga o'tildi. Hozir amaliy tibbiyotda bu usullar juda keng qo'llanadi.

XX asrga kelib, amaliy va nazariy tibbiyotning hamma sohalari juda tez rivojlana boshladilar. Klinik tibbiyot, xususan, jarrohiya sohasida asrlar davomida yechilmay kelgan muammolar hal etildi. Masalan, operatsiyani og'riqsizlantirish, operatsiya qilingan joyni yiringlashdan saqlash, bemorning tomiriga qon quyish va h.k.

Og'riqsizlantirish usuli qadim zamonlarda ham qo'llanilgan edi. Ammo, og'riqsizlantiruvchi vositalar yetarli va ta'sirchan bo'lmaganligi sababli, bu usul keng tarqalmay qoldi. Xususan, hidlatuvchi va tomirga quyiluvchi og'riqsizlantiruvchi kimyoviy modda yo'qligi bu usulni rivojlantirishga imkon bermagan edi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida kimyo fanining taraqqiyoti tufayli bu masala hal qilindi. 1846-yilda amerikalik tish tabibi efir bilan og'riqsizlantirib, bemorning og'riq tishini sug'urib oldi. 1847-yilda esa bu usulni jarroh Jo'n Uorren katta jarrohiyada qo'lladi. U efir bilan og'riqsizlantirib, bemorning me'dasini operatsiya qildi. Shundan so'ng, og'riqsizlantirish usuli amaliy tibbiyotda keng tarqala boshladi.

Yiringlashga qarshi chora (aseptika va antiseptika). Biz yuqorida XV asrda Samarqandda yashagan Tojiddin Hakim ismli jarrohning operatsiya qilingan joyning yiringlashiga qarshi chora-usullar qo'llagani haqida yozgan edik. Lekin, bu usul amaliy tubbiyotda keng qo'llanmay qolib ketgan edi. XIX asrda bu usulni Ingliz jarrohi Jozef Lister (1827—1912) qaytadan tiklab, yanada rivojlantirdi.

Qon quyish usuli. Bemor yoki jarohatlangan kishi yo'qotgan qonni tiklash muammosi ham ko'p vaqtlardan beri hal bo'lmay kelardi. Bunga ikki sabab bor edi. Birinchisi qon quyish texnikasining ishlab chiqilmaganligi. Ikkinchisi esa har bir kishining qoni o'ziga hos xususiyatga ega ekanligi edi. Shuning uchun qon quyish texnikasi ishlab chiqilgandan keyin ham qon quyish usuli rivojlanmay qolaverdi. Chunki, ko'pincha qon yo'qotgan kishi bilan qon beruvchi kishining qonining biologik xususiyati bir-biriga to'g'ri kelmay tomiriga qon quyilgan kishi halok bo'lardi. Bu masala ham XX asr boshida hal qilindi. 1901-yilda avstriyalik olim Karl Landshteyner (1868—1943) odam qonini biologik xususiyati jihatidan 3 gruppaga bo'ldi. 1907-yilda esa Po'lisha olimi Yan Yanskiy (1873—1921) qon 4 gruppaga bo'linishini aniqladi. Bemor qonining gruppasiga mos gruppaga qon quyilsa organizm uni reaksiyasiz qabul qilishi ma'lum bo'ldi. Shundan keyin qon quyish usuli keng qo'llanila boshladi.

Shunday qilib, ko'p asrlar jarrohlarning "qo'lini bog'lab kelgan" muammolar hal qilindi.

XIX—XX asrlarda, tibbiyot sohasida yana bir muhim yangilik kelib chiqdi. Bu jamoat (sotsial) tibbiyotning shakllanishi edi. XIX asrning boshida Angliyada bir guruh hakimlar (Jon Saymon, Grinxav, Buykenen, Smit, Xanter va b.) alohida guruh kishilarda uchraydigan kasalliklarni tekshirib, bu kasalliklarning kelib chiqishi mehnat va yashash sharoiti bilan bog'liq ekanligini aniqladilar. Bu hakimlar jamoat hakimlari, (sotsial gigiyenistlar) degan nom oldilar. Jamoat hakimlari o'z tekshirishlari natijasida ko'p narsani aniqladilar. Xususan, yomon yashash va ish sharoiti, antisanitariya, ichkilikbozlik va boshqa zararli odatlar turli kasalliklarga sabab bo'lishini ochib berdilar. Bu bilan ular jamoat tibbiyoti (sotsial gigiyena)ga asos soldilar. Shu hakimlarning xulosasiga asosan Angliya hukumati 1848-yilda maxsus qaror ("Ko'k kitob") qabul qildi. Bu qarorda, korxonalar sanitariya qoidalariga rioya qilishlari kerakligi ko'rsatilgan edi.

Germaniyada bu ishni Alfred Grotyan, Grinxav, Fisher, Uinslov, Popper kabi hakimlar olib bordilar. Ammo, bu hakimlar ko'proq laboratoriya tekshirish ishlari bilan cheklanardilar. Faqat Alfred Grotyan masalaga sotsiologiya jihatidan yondashardi, xolos. U sotsial gigiyenani alohida fan darajasiga ko'tardi va 1920-yilda tibbiyot institutida sotsial gigiyena kafedrasini tashkil etdi. Shunday qilib, XX asrning boshiga kelib, tibbiyot sohasida yangi fan — sotsial gigiyena fani shakllandi.

XVI bob

MUSTAQILLIK DAVRIGACHA BO‘LGAN TIBBIYOT

Sobiq sho‘rolar mustamlakasi davrida O‘zbekiston tibbiyoti sohasida ham jiddiy o‘zgarishlar joriy etildi. O‘tgan asrning 20-yillarida bu borada bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Sog‘liqni saqlash xalq komissarligi tuzilib, o‘lkadagi mavjud kasalxonalar, ambulatoriyalar va boshqa tibbiy muassasalar davlat tasarrufiga o‘tkazildi. Davolash va epidemiyalarga qarshi kurashish uchun sayyor otryadlar tuzildi, bakteriologik laboratoriya ishga tushirildi, umumiy o‘rinlar soni 7 mingga yaqin kasalxonalar ochildi. O‘lkada chin chechak, vabo, rishta, bezgak, traxoma, leishmanioz singari kasalliklar asosan tugatildi, sil, teri xastaliklari va boshqa kasalliklar sezilarli darajada kamaydi.

O‘lkada tibbiyot tizimining moddiy-texnika bazasi bosqichma-bosqich kengaytirilib, mustahkamlandi. Toshkentdagi yirik kasalxonalarda tor mutaxassisliklar bo‘yicha ixtisoslashgan ko‘z, quloq, asab kasalliklari bo‘limlari va boshqa shunga o‘xshash bo‘linmalar tashkil etildi. Samarqandda yangi kasalxonalar, Qo‘qonda bolalar kasalxonasi, Farg‘onada bemorlarni fizioterapevtik usullar bilan davolaydigan maxsus shifoxona ochildi. Toshkentda shu sohadagi kichik xususiy kasalxonalar negizida 1919-yili 150 o‘ringa mo‘ljallangan fizioterapiya instituti barpo etildi.

1920-yilda Toshkentda silga qarshi dastlabki dispanser ish boshladi. 1922-yili vrachlik-sanitariya nazorati tashkiloti tuzildi. 1924-yili Toshkentda teritanosil kasalliklari dispanseri, Buxoroda esa tropik tibbiyot instituti (hozirgi Samarqanddagi tibbiyot parazitologiyasi ilmiy tadqiqot instituti) ochildi. 1924-yilga kelib Turkistonda 6 tropik stansiya va uning joylardagi tarmoqlari ishlab turdi. 1924-yili respublikada 53 kasalxonalar, 151 ambulatoriya (ularning 79 tasi qishloq joylarida), 40 feldsherlik punkti va boshqa muassasalar bor edi. Shu yillarda tibbiyot ta‘limini yo‘lga qo‘yish va mahalliy aholidan tib mutaxassislari tayyorlashga kirishildi. 1918-yilda Toshkentda dastlabki tibbiyot o‘quv yurti – hozirgi Oxunboboyev nomidagi Respublika tibbiyot bilim yurti, oradan bir yil o‘tib, oliy tibbiyot maktabi ochildi, feldsherlik va

qisqa muddat o'qitiladigan jarrohlik kurslari tashkil etildi. Oliy tibbiyot maktabi 1920-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti tarkibidagi tibbiyot fakultetiga aylantirildi. Bu fakultetda o'qishga yoshlarni tayyorlash uchun respublikaning ko'pgina shaharlarida ishchi fakultetlari ochilib, ularga o'zbek hamda boshqa mahalliy aholi yigit-qizlari jalb etildi. O'rta Osiyo Davlat universiteti oliy ma'lumotli tibbiy xodimlar tayyorlashdagina emas, balki joylarda yangi tibbiyot o'quv yurtlari ochishda ham muhim o'rin tutdi. Universitetning tibbiyot fakulteti 1931-yilda mustaqil tibbiyot instituti (Toshkent tibbiyot instituti)ga aylantirildi. Samarqandda Samarqand tibbiyot instituti ochildi. 1932-yili Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti tashkil etildi. 1937-yili Toshkent farmatsevtika instituti ish boshladi. Ayni vaqtda ilmiy tadqiqot institutlari ham barpo etildi. 1937-yilda Toshkentda sil, 1940-yilda qon quyish institutlari bor edi. Sanoat korxonolari va qishloq joylariga ko'plab vrachlar yuborildi, shahar va qishloqlarda yangi kasalxonalar, poliklinikalar, ambulatoriyalar ochildi, havosi sof va xushmanzara joylarda iqlimiy kurortlar, shifoxonalar barpo etildi.

1941–45-yillardagi urush davrida O'zbekiston tibbiyot tizimi zimmasiga ancha mas'uliyatli vazifa tushdi. Jarohatlangan va shikastlangan jangchilar uchun gospitalar ochish, moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash, o'lkaning sanitariya holatini barqaror saqlab turish kerak edi. Tez orada 130 dan ortiq harbiy gospitalar ochildi. Respublikada urush nogironlarini davolash uchun maxsus jarrohlik shifoxonolari ochildi.

1950-yillarga kelib, O'zbekistonda tibbiyot ilmi sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari umumjahon miqyosiga ko'tarildi: xususan, o'lka (tropik) kasalliklarni o'rganish sohasida katta natijalarga erishildi. 1954-yilda Toshkentda tropik (o'lka) kasalliklariga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy sessiya bo'lib o'tdi. Unda o'lka kasalliklarini ilmiy jihatdan o'rganish va bunday kasalliklarni tugatish yo'lida olib borilgan ishlarga birinchi yakun yasaldi. Sessiyada o'zbekistonlik olimlar faol qatnashdilar va o'lka kasalliklarini ilmiy jihatdan o'rganish va ularga qarshi kurashish yo'lida olib borilgan ishlar haqida ma'ruzalar bilan chiqdilar. Xususan, professor L.M.Isayev «O'rta Osiyoda bezgak kasalligini ilmiy jihatdan o'rganish va uni tugatish» haqida, tibbiyot tarixchisi A.A.Qodirov «O'zbekistonda rishta kasalligini ilmiy jihatdan o'rganish va bu kasallikning tugatilishi tarixi» haqida ma'ruza qildilar. Sessiya mamlakatimizda o'lka kasalliklarini o'rganish muhim ilmiy hamda amaliy

ahamiyatga ega, deb topdi va bu ishni davom ettirish zarurligini ta'kidladi. Bu ishlarni bir muassasada jamlashtirish maqsadida O'zbekistonda «O'lka kasalliklari instituti» ochish haqida qaror qabul qilindi.

Urushdan keyin respublikada bir qancha tibbiy ilmiy tadqiqot institutlari qaytadan ish boshladi va yangilari paydo bo'ldi (sanitariya, gigiyena va kasb kasalliklari, onkologiya va radiologiya, pediatriya ilmiy tadqiqot institutlari va boshqalar). 1955-yili Andijon tibbiyot instituti, 1972-yili O'rta Osiyo, hozirgi Toshkent tibbiyot pediatriya instituti, 1990-yili esa Buxoro tibbiyot instituti ochildi. Keyinchalik 1-ToshTIning Urganch filiali, 2-ToshTIning Farg'ona filiali, Toshkent tibbiyot pediatriya institutining Nukus filiali tashkil etildi. Kardiologiya, gastroenterologiya, endokrinologiya, nevrologiya, gematologiya, pulmonologiya, allergologiya, revmatologiya va boshqa sohalar bo'yicha xizmat ko'rsatadigan yirik klinikalar ishga tushirildi.

Bu davrda tibbiyot tarmog'i ancha kengaygan bo'lsa-da, lekin ekologik nomutanosibliklar tufayli tashqi muhitning buzilishi, xususan, yerga turli xil kuchli kimyoviy moddalar solinishi, paxta yakkahokimligi va boshqa ijtimoiy noxushliklar natijasida aholi orasida turli ichki kasalliklarning ko'payishi kuzatildi.

XVII bob

HOZIRGI ZAMON TIBBIYOTI

XX asrning oxiri XXI asrning boshiga kelib, jahon tibbiyoti o'z rivojlanishida yangi bosqichga ko'tarildi. Bu yuksalish jahon miqyosida ro'y bergan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar bilan bog'liq edi. Bu o'zgarishlar birinchi galda hozirgi zamon ilmiy-texnikaviy revolutsiyaning natijasi sifatida yuzaga chiqdi. XX asrning texnika taraqqiyoti shu daraja yuksaldiki, hatto inson oyog'i oyga yetdi. Yuksalish inson hayotining hamma sohalariga, shu jumladan, tibbiyot sohasiga ham yoyildi. Bu sohada ilgari ma'lum bo'lmagan diagnostika, davolash va profilaktika usullari ishlab chiqildi. Shu maqsadlar uchun fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari ishlatildi. Masalan, radiy va lazer nurlari, murakkab laboratoriya tekshirish usullari joriy qilindi. Immunobiologik jarayonlar o'rganildi. Buning natijasida kasalligi sababli ishga yaroqsiz bo'lib qolgan yurak, buyrak va boshqa a'zolarni almashtirish usulini amalga oshirish

imkoni yaratildi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, bizning o'lkamizda ilgari keng tarqalgan ayrim kasalliklar (bezgak, rishta, chechak, poliomyelit, difteriya) nozologik forma sifatida tugatildi. Olimlar tibbiyot sohasida katta ilmiy-tadqiqot ishlari olib bordilar va ko'p muammolarni hal qildilar. Ammo, bu muvaffaqiyatlar bilan birga yangi muammolar ham kelib chiqdi. Zamonamizda yuksak darajada rivojlangan ilmiy-texnika taraqqiyoti qishloq xo'jaligi va sanoatda har xil kimyoviy moddalar ishlatilishi, koinotni o'zlashtirish, radioaktiv moddalar va atom energiyasidan foydalanish va nihoyat atom bombalarning ko'plab sinab ko'rilishi natijasida atmosfera, yer qobilig'i va suv havzalari ifloslanib, odamlar va butun tirik mavjudotlarning salomatligiga putur yetkazmoqda. Hozirga kelib ilgari ma'lum bo'lmagan kasalliklar — nur kasalligi, vibratsiya kasalligi, kimyoviy moddalar bilan surunkali zaharlanish va nihoyat SPID kelib chiqdi. Kasalliklarning tarkibi ham o'zgardi. Hayot jabhalarining haddan tashqari tezlashgani va murakkablashganligi natijasida odamlar o'rtasida stress holat kelib chiqdi, asab va yurak-qon tomir kasalliklari birinchi o'ringa chiqib oldi. Sanoat, transport va boshqa sohalarida kanserogen moddalar ko'p ishlatilayotganligi sababli har xil o'sma kasalliklari (rak, sarkoma) ko'paydi. Klinik tibbiyot oldida bu hastaliklarga qarshi effektiv davo usullari va profilaktik choralar ichlab chiqish zaruriyati paydo bo'ldi. Shunday qilib, hozirgi zamon jahon tibbiyoti oldida juda mas'uliyatli va murakkab muammolar paydo bo'ldi.

1991-yil 31-avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Oliy Kengashining XII chaqiriq navbatdan tashqari VI sessiyasi O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida qonun qabul qildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng respublikamizda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning hamma sohalarida, jumladan tibbiyot sohasida ham tiklanish davri boshlandi. Sog'liqni saqlash ishini tubdan yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. 1996-yil 26-avgustda «O'zbekiston fuqarolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida» maxsus Davlat qonuni qabul qilindi. Bu jihatdan davlat ahamiyatiga ega bo'gan quyidagi uchta muhim masala qonunlashtirildi: 1) fuqarolar sog'lig'ini saqlashga doir huquqlarning davlat tomonidan kafolatlanishini ta'min etish; 2) fuqarolar sog'lom turmush tarzini shakllantirish; 3) mamlakatdagi barcha davlat va jamoat tashkilotlarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan belgilab qo'yish.

«Sog'liqni saqlash to'g'risida»gi qonunda fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy qoidalari belgilandi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat: 1) sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi; 2) aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi; 3) profilaktika chora-tadbirlarining ustuvorligi; 4) sog'lig'ini yo'qotgan fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoya qilinishi; 5) tibbiy fanlarning

amaliyot bilan birligi. «Qonun»da O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining tuzilishi va vakolatlari ham belgilandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ikkinchi muhim tadbir sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish bo‘ldi. Bu haqda mamlakat Prezidenti maxsus farmon chiqardi. Shu farmonga muvofiq sog‘liqni saqlash tizimida xizmat qiluvchi mutaxassislar, olimlar, huquqshunoslar va bu ishga mutasaddi tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash tizimini isloh qilish dasturini ishlab chiqdilar. Dasturda tez tibbiy yordam tizimini yuksak darajaga ko‘tarish maqsadida bir qancha tibbiy muassasalar (Toshkent shahar tez tibbiy yordam bo‘limi, Respublika va Toshkent viloyati sanitariya aviatsiyasi) negizida Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazini va uning mintaqaviy filiallarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Farmonga ko‘ra, oliy tibbiy o‘quv yurtlari qoshida uch yil o‘qish muddati bilan oliy malakali tibbiyot hamshiralar (reanimatologlar, tug‘ruqxona akusherlari) tayyorlash fakultetlarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishning sifati hamda uning samaradorligi tibbiy xodimlarning tajribalariga bog‘liq. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda etuk bilimga ega bo‘lgan tajribali vrachlar etishtirishga alohida e‘tibor berila boshlandi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng oliy tibbiy ta‘lim sohasida ham keskin ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Tibbiy o‘quv yurtlarimiz chet ellardagi ilg‘or tibbiy o‘quv markazlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanish va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi bilan xorij oliy o‘quv yurtlariga ko‘plab talabalar, aspirantlar va ilmiy xodimlar yuborildi. Bu tadbirlar o‘z samarasini berib, oliy o‘quv yurtlarimizdagi o‘qitish, tarbiya ishlari ancha yuksaldi va ular jahon oliy o‘quv yurtlari darajasiga yaqinlashdi.

Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish va uni takomillashtirish tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘ni etkazib berish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 1997-yil 2-dekabrda «Davolash-profilaktika muassasalarini mablag‘ bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Qarorda hukumat tomonidan ajratilgan mablag‘dan tashqari har xil xayriya jamiyatlari, chet el investisiyalari va tijorat muassasalarining sarmoyalaridan foydalanish, unda davolash uchun sarflanadigan mablag‘ning bir qismini bemorlarning o‘z zimmalariga yuklash ham ko‘zda tutilgan. Masalan, 1998-yil 1-yanvardan boshlab bemorlar shifoxonalarda davolanishlari davrida ovqatlanishlari pullik qilindi. Bulardan tashqari, sog‘liqni saqlash tizimini qo‘shimcha mablag‘ bilan taminlashni ko‘zda tutib, har xil nodavlat jamg‘armalar ham tasis etildi. Bu tadbirlar natijasida

Respublikamizda sog'liqni saqlash ishini isloh qilish va uni takomillashtirish yo'lida birmuncha ijobiy natijalarga erishildi.

1998-yili O'zbekiston shifokorlar uyushmasining tashabbusi bilan «Ibn Sino xalqaro xayriya jamg'armasi» tashkil etildi va u respublika Prezidentining farmoni bilan rasmiylashtirildi. Farmonda aytilishicha, bu jamg'arma «Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni tezlashtirishga yordam berishi, tibbiy-ijtimoiy xayriya tashkilotlari, nuroniylar uchun gerontologiya markazlarini ochishi, Ibn Sino talimoti hamda zamonaviy ilm-fan asosida Sharq tabobatini rivojlantirishi, Abu Ali Ibn Sino merosini chuqur o'rganish, tibbiy maktablar va o'quv yurtlari uchun yangi o'quv dasturlari ishlab chiqarishda ishtirok etishi, buyuk olim asarlarini tartibga solish va ularni nashr etishga ko'maklashish; Ibn Sino kutubxonasi hamda Ibn Sino muzeyini tashkil etish, uning hayoti va tabiblik faoliyati haqida kitoblar chop etish, Ibn Sinoning ilmiy merosiga bag'ishlangan xalqaro simpoziumlar, anjumanlar o'tkazish ishlari bilan shug'ullanishi kerak.»

2003-yil 1-fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining majlisida Prezident farmonini amalga oshirish yuzasidan qilingan ishlar ko'rib chiqildi. Majlisda Respublika Sog'liqni Saqlash Vazirligi, Jahon Sog'liqni Saqlash tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi, bir qancha vazirliklar va mutasaddi tashkilotlarning vakillari qatnashdilar. Majlisda muhim masalalardan biri sifatida dori-darmonlar va maxsus tibbiy asbob-uskunalar ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish takidlandi.

2003-yil 26-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sog'liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida» farmoni elon qilindi. Unda takidlanishicha, mamlakatimizda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurroq va kengroq miqyosda olib borish, yuksak jahon talablari darajasidagi ixtisoslashtirilgan tibbiy markazlarni shakllantirish, ilg'or tibbiy texnologiyalarni joriy etish, moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni vujudga keltirish ko'zda tutiladi. Xususan, zamonaviy tashxis va davolash uskunalari bilan jihozlangan maxsus klinikalar va tibbiy markazlarni tashkil etish rejalashtirildi. Masalan, Respublikada ixtisoslashtirilgan urologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, ixtisoslashtirilgankardiologiya markazlari tashkil etiladi. Bu muassasalarda yaxshi tayyorgarlik ko'rgan shifokor mutaxassislar tayyorlanadi. Ular yuksak ilmiy darajada rivojlangan chet el klinikalarida o'z malakalarini oshiradilar.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha chora-tadbirlar mamlakatimizda tibbiyot fani va sog'liqni saqlash ishini rivojlantirish yo'lida qo'yildan dastlabki qadamdir.

M U N D A R I J A

Birinchi qism

I bob.	Tibbiyot tarixi fani, uning shakllanishi va boshqa tibbiy bilimlar qatorida tutgan o'ri	3
	Tibbiyot tarixi fani	3
	Tibbiyot tarixining fan sifatida shakllanishi	4
	Tibbiyot tarixi fanining boshqa tibbiy bilimlar qatorida tutgan o'ri	5
II bob.	Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishi	6
	Dastlabki muolaja usullarining ishlab chiqilishi	6
	Tibbiyotning kasb sifatida shakllanishi	16
	Kasalliklarning sabablari haqidagi tushunchalar	18
	Ilmiy tibbiyotning shakllanishi	20

Ikkinchi qism

III bob.	Qadimgi Sharq mamlakatlari tibbiyoti	22
	Qadimgi Misr tibbiyoti	22
	Qadimgi Xitoy tibbiyoti	25
	Qadimgi Hindiston tibbiyoti	28
	Qadimgi Tibet tibbiyoti	30
	Qadimgi Bobil (Vaviloniya) tibbiyoti	31
	Qadimgi Eron tibbiyoti	32
IV bob.	Qadimgi O'rta Osiyo xalqlari tibbiyoti	34

Uchinchi qism

V bob.	Qadimgi Ovrupo mamlakatlari tibbiyoti	39
	Qadimgi Yunoniston tibbiyoti	39
	Gippokrat	43
	Qadimgi Rim tibbiyoti	50
	Klavdiy Galen	51

To'rtinchi qism

VI bob.	Sharq mamlakatlarida o'rta asrlar davridagi tibbiyot	54
	Arab xalifaligi mamlakatlaridagi tibbiyot	56
	O'rta asr Eron tibbiyoti	59
	Abu Bakr Roziy	59

Beshinchi qism

VII bob.	O'rta Osiyo davlatlarida O'rta asr davridagi tibbiyot	64
	Xorazmshohlar davridagi tibbiyot	64
	Abu Abdulloh Iloqiy	66
	Ismoil Jurjoniyy	67
	Umar Chag'miniy	69

VIII bob.	Buxoro davlatidagi tibbiyot	71
	Abu Ali ibn Sino	71
	Ibn Sinoning tibbiy fikrlari	85
	Ibn Sinoning tabiblik faoliyati	91
	Kasallarga tashxis qo'yish	92
	Kasallarni davolash	95
	Ibn Sino ishlatgan dori-darmonlar	103
IX bob.	Qoraxoniylar davridagi tibbiyot	105

Oltinchi qism

X bob.	Ovrupo mamlakatlarida O'rta asr davridagi tibbiyot	110
	Uyg'onish davri tibbiyoti	110
	Odam anatomiyasi fanining shakllanishi va rivojlanishi	111
	Andreas Vezalius	111
	Fiziologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi	113
	Villiam Garvey	113
	Klinik tibbiyotning shakllanishi va rivojlanishi	115
	Filipp Aureol Paratsels	118
	German Burxave	118
	Ambruaz Pare	119
XI bob.	Rusiyada tibbiyotning shakllanishi va rivojlanishi	120
	Kiyev Rusi davridagi tibbiyot	121
	Moskva feodal davlati davridagi tibbiyot	122
	S.G.Zibelin	125
	M. Ya. Mudrov	126
XII bob.	Buyuk temuriylar davridagi tibbiyot	128
XIII bob.	O'zbek xonliklari davridagi tibbiyot	141
	Shayboniylar davri	141
	Ashtarxoniylar davri	144
XIV bob.	So'nggi o'zbek xonliklari davridagi tibbiyot	148
	Mustamlaka davridagi tibbiyot	157

Yettinchi qism

XV bob.	Ovrupo mamlakatlarida sanoat kapitalizmi davridagi tibbiyot	160
	Nazariy tibbiy bilimlarning rivojlanishi	160
	Diagnostika va davolash sohasidagi kashfiyotlar	164
XVI bob.	Mustaqillik davrigacha bo'lgan tibbiyot	168
XVII bob.	Hozirgi zamon tibbiyoti	170

A.A.QODIROV

TIBBIYOT TARIXI

*Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari
uchun darslik*

Muharrir *Z. G'ulomova*
Sahifalovchi *J. Jabborov*
Texnik muharrir *M. Alimov*

Bosishga ruxsat etildi 2005.22.07. Bichimi 60x90^{1/16}. Tayms garniturası.
Kegli 10,0. Ofset bosma uslubida bosildi. Shartli b.t. 11,0.
Nashriyot hisob tabog'i 11,4. Adadi 3000 nusxa.
A-232 sonli buyurtma.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.
Toshkent, 129, Navoiy ko'chasi, 30.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida bosildi.
Toshkent 700129, Navoiy ko'chasi, 30-uy.